



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING ME'YORIIY-HUQUQIY ASOSLARI

KAMILOVA D.N.

Barcha mutaxassislik yo'nalishdagi
oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI

«JAMOAT SALOMATLIGI VA SOG'LIQNI SAQLASHNI TASHKIL ETISH»

KAMILOVA DILFUZA NUSRATULLAEVNA

Тиббиет фанлари номзоди, доцент, юрисконсулт

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING ME'YORIY-
HUQUQIY ASOSLARI**

Barcha mutaxassislik yo'nalishdagi
oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma



Toshkent - 2022

UO'K 614.39(075.8)

KBK 51.1ya72

Kamilova D.N.

Sog'liqni saqlash tizimining me'yoriy- huquqiy asoslari.

O'quv qo'llanma – Toshkent: Lesson press, 2022. – 374 c.

O'quv qo'llanma tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari, klinik ordinator va magistrari uchun darslik sifatida tavsiya qilingan.

O'quv qo'llanmada talabalarni huquq sohasidagi bilimlarni, jumladan huquqiy demokratik jamiyatda qonun ustuvorligini, normativ-huquqiy hujjatlarni ularga bo'lgan talablarni va sog'liqni saqlash tizimining me'yoriy huquqiy asoslarini o'rgatadi.

Shu bilan birga o'quv qo'llanma yordamida yurtimizda aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun shart-sharoit yaratish yuzasidan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini yoritib beradi.

Данное учебное пособие рекомендуется для студентов медицинских вузов, клинических ординаторов и магистров.

Учебное пособие обучает студентов знаниям в области права, в том числе о правопорядке в демократическом обществе, требованиям к ним в нормативных правовых актах и нормативно-правовой базе системы здравоохранения.

В то же время с помощью учебного пособия освещаются приоритеты государственной политики по созданию качественной системы здравоохранения, которая позволит сохранить и укрепить здоровье населения нашей страны, создать условия для здорового поколения.

MUALLIF:
D.N.KAMILOVA

Toshkent Davlat Stomatologiya instituti
«Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni boshqarish va jismoniy madaniyat» kafedrasida dostoni t.f.n.

Taqrizchilar:

X.E. RUSTAMOVA — TDSI «Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni boshqarish va jismoniy madaniyat» kafedrasida professori t.f.d.

SH.T. ISKANDAROVA - ToshPMI «Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish» kafedrasida mudiri, t.f.d., professor.

ISBN 978-9943-8873-9-8

© D.N.KAMILOVA, 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «FUQAROLAR SOG'LIG'INI SAQLASH TO'G'RISIDA»GI QONUNI

44-modda. O'zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi

Shifokor diplomini olayotgan shaxslar quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi.

«Shifokor degan yuksak unvonni olib, tibbiyot faoliyatiga kirishar ekanman:

o'zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog'lig'ini saqlashga bag'ishlashga, yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bemorga kuch-g'ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko'rsatishga, bemorning sog'lig'ini shaxsiy manfaatlarimdan yuqori qo'yishga, kamtar va halol bo'lishga, o'z bilim va mahoratimni doimo oshirib borishga, shifokor sirini saqlashga, kishilarga hamisha mehr-muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga, Buqrot, Abu Ali ibn Sino singari ulug' tabiblarning shonli an'analarini davom ettirishga tantanali qasamyod qilaman. Ushbu qasamyodga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman».

Shifokorlar qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

KIRISH

Mustaqillikka erishilgan ilk kunlardan boshlab, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni barpo etish borasida juda ulkan ishlar olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi keng qamrovli ishlar orasida O'zbekistonda dadillik bilan tanlab olingan ushbu yo'lning siyosiy, huquqiy asoslarini yaratishga doir isloxlarning xayotga tatbiq etilishini alohida ta'kidlamoq kerak. Ya'ni O'zbekiston mustaqil huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida jahon hamjamiyatiga kirish yo'lida izchillik bilan harakat qilib kelmoqda.

Shu yillarda sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni unifikastiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilindi.

Buyuk maqsadlar sari harakat qilib borayotgan xalqimizning yangi jamiyat qurish uchun intilishlarini ta'minlash maqsadida Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasini mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonun hujjatlari tizimini shakillantirib kelmoqda. Mustaqillik davrida Oliy Majlis tomonidan bu yo'nalishda yuzlab qonun va qarorlar qabul qilindi. Ularning barchasi jamiyatimiz oldida turgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalardagi vazifalarni huquqiy jihatdan ta'minlashni nazarda tutadi. Ular islohatlarning huquqiy negizini takomillashtirishga va bozor munosbatlariga o'tishni jadallashtirishga, aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga, jamiyatni ma'naviy yangilashga, milliy davlatchilikni mustahkamlashga qaratilgandir.

Yurtimizning dunyo miqyosida e'tirof etilishi ko'p jixatdan fuqarolarning huquqiy ongi va savodxonligini ham yuksaltirishga bog'liq. Zotan alohida shaxslarning huquqiy ongi va savodxonligi – xalqimiz va davlatimiz huquqiy ongi va savodxonligining tashkil etuvchisidir.

Binobarin, yurtimizning har bir fuqarosi shuningdek, o'sib kelayotgan yangi avlod o'zlarining xalqi va jamiyati bilan hamdard, hamnafas yashashlari uchun o'z xaq-huquqlarini shu bilan birga huquq va majburiyatlarini yaxshi idrok eta olishi ular huquqiy madaniyatini yuksaltirishning muxim omili bo'lib xizmat qiladi. Bu maqsadga erishish uchun chikayotgan qonun hujjatlarini ularga asoslanib qabul

qilinayotgan xayotimiz me'yoriy qoidalarini omma orasida kengayish hamda bu xildagi bilimdan xosil buladigan qulayliklarga ega bo'lishimiz kerak.

Me'yoriy huquqiy asoslar deganda avvalom bor normativ-huquqiy hujjatlar tushuniladi.

Normativ-huquqiy hujjat bu qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlariga:

- ✚ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- ✚ O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- ✚ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- ✚ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- ✚ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- ✚ vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- ✚ mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari

Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar quyidagilar:

- ✚ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari,
- ✚ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti,
- ✚ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi,
- ✚ vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar,
- ✚ mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi va ijro etish uchun quyi tizimlarga yuboradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar o'z vakolati doirasida buyruqlar hamda qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Buyruqlar vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Qarorlar davlat qo'mitalari tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilishni mazkur idoraning organi amalga oshiradigan idoralar tomonidan qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan qo'shma qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatiga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi.

Agar normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qo'mitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar quyidag rekvizitlarga ega bo'ladi:

- hujjatning turi va nomi, hujjat qabul qilingan joy, sana (O'zbekiston Respublikasining qonunlari uchun ma'qullangan va

imzolangan sana ham), raqami (vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana va ro'yxatga olish raqami ham);

- tegishli normativ-huquqiy hujjat matnini tasdiqlashga rasman vakolati bo'lgan shaxsning lavozimi, imzosi, ismining bosh harfi va familiyasi.

QONUN (falsafada) — narsa va hodisalar o'rtasidagi muhim, zaruriy, barqaror, takrorlanuvchi munosabat.

Qonun ustuvorligi esa — barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa hamma me'yoriy hujjatlar va yo'riqnoma-lardan ustun turishidir.

Qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta'minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyildir. Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar» deb mustahkamlangan:

Qonun ustuvor bo'lgan jamiyatda noroziliklar ham bo'lmaydi, chunki barcha soha vakillari qonun asosida faoliyat yuritir ekan norozilik va tushunmovchilikning o'zi bo'lmaydi. Qonunlarning ustuvorligi jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun shu jumladan, davlat xizmatida ishlovchi shaxslar uchun, shuningdek jamiyatdagi barcha sohalarga taalluqli bo'lganligi uning yanada mukammal tus olishigi olib keladi.

Qolaversa, qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga "etalon" bo'lishlari lozim bo'ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga yoki rahbariyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. Shu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlar ko'proq yetakchilik qilishlari talab etiladi.

Qonunlarning har qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoxud ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi. Bu borada tibbiyot xodimlarining yoki

raxbarlarining o'рни alohida. Chunki ular insonlarni nafaqat jismonan ham balki ma'naviy ham davolashlari va yordam berishlari lozim. Bunda ularning huquqiy bilimlari va saviyalari yetarli bo'lishi ahamiyatga ega.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat–O'zbekiston respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qilingandan so'ng davlatimiz oldidagi eng birinchi muammo bu normativ huquqiy hujjatlar bazasini yaratish bo'lgan.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan beri, dunyoning ilg'or mamlakatlari tajribalaridan va O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy-madaniy, milliy urf-odatlari, an'alaridan, demografik, ekologik vaziyatdan, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlashning yangi tizimi va uni boshqarishning yangi usullari ishlab chiqilmoqda va qayotga tatbik etilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga qaratilgan normativ huquqiy hujjatlar buning erkin dalilidir.

Aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi yuzasidan shart-sharoit yaratish yuzasidan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini yoritib beradi.

Mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta'minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi.

Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasida mamlakatimiz erishgan yutug'larga xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baho berildi.

Ammo, erishilgan yutug'lar bilan birga muammolar ham mavjudligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi-ning sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konstepstiyasi»da ko'rsatib o'tilgan.

Jumladan: sohaning bugungi holatida tarmoqni kompleks huquqiy tartibga solishning mavjud emasligi, o'lim va nogironlikni keltirib chiqarish ehtimoli katta bo'lgan kasalliklarning oldini olish va ulardan aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunosti va idoraviy hujjatlarning haddan ortiq ko'pligi sog'liqni saqlash tizimi barqarorligini ta'minlash imkonini bermayapti. Transplantologiya, ko'makchi reproduktiv texnologiyalar, teletibbiyot kabi talab yuqori bo'lgan

yo'nalishlarning tartibga solinmaganligi milliy sog'liqni saqlash tizimi tibbiyot ilm-fani va amaliyotining zamonaviy yutuqlaridan ortda qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunga qadar majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan. Natijada hanuzgacha sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish asosan byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilmoqda. Respublikada tibbiyot xizmatlarining klinik tavsiyalari (bayonnomalari) va standartlari bilan uzviy bog'liq klinik-harajat guruhlari (DRG tizimi) ishlab chiqilmagan.

Sog'liqni saqlashning jadal rivojlanayotgan xususiy sektorini davlat tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikka faol jalb qilishga g'ov bo'layotgan to'siqlar qo'shimcha moliya resurslaridan sog'liqni saqlash uchun samarali foydalanish imkonini bermayapti.

Tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-moddiy himoya qilish darajasi pastligi, ular ijtimoiy-huquqiy holatining o'z zimmasiga yuklanayotgan javobgarlik darajasiga mos kelmasligi malakali kadrlarning tizimdan chiqib ketishi va korrupsiya holatlari yuzaga kelishi uchun sharoit yaratmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarlicha joriy etilmaganligi, tibbiyot hujjatlarining juda katta hajmi qog'oz shaklida yuritilishi qabul qilinayotgan qarorlar ijrosini tezkor kuzatib borish va samarali ijrosini ta'minlash imkonini bermayapti, shuningdek, ortiqcha byurokratizm va katta harajatlarga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar sog'liqni saqlashning sifatiga bo'lgan aholining tobora ortib borayotgan talablarini qondirish, joylarda to'planib qolgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirish va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishish imkonini bermayapti degan xulosa qilindi.

Shulardan kelib chiqib xukumatimiz raxbariyati tomonidan sohani rivojlantirish yuzasidan qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan sohani rivojlantirish maqsadida jahon sog'liqni saqlash tashkilotining xalqaro standartlari va tavsiyalarini implementastiya qilgan holda tarmoqni kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Jumladan Sog'liqni saqlash sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish maqsadida :

1. Sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonun hujjatlarini birxillashtirish va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan qonunlar qabul qilish orqali normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

2. Sog'liqni saqlash sohasidagi amaldagi qonun hujjatlarini bir-biriga muvofiqligiga erishish va qo'llash uchun qulayliklar yaratish maqsadida yagona hujjatda kodifikastiyalash, O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash kodeksini qabul qilish.

3. Bepul tibbiy yordamning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini huquqiy mustahkamlab qo'yish.

4. Majburiy tibbiy sug'urta sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

5. Onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasidagi, shu jumladan onalar va bolalarni emlash, dispanserizastiya qilish va ularga kafolatlangan bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibini belgilovchi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ko'krak suti o'rnini bosuvchi ozuqa marketingi to'g'risidagi xalqaro kodeks normalarini implementastiya qilish hamda, chaqaloqlarni va kichik yoshdagi bolalarni ovqatlantirish to'g'risidagi milliy dasturni qabul qilish.

6. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar marketingini tartibga solishning, shuningdek, aholining keng qatlamlarini jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga va sport tadbirlariga jalb qilishga rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

7. Tibbiyot xodimlari o'z kasbiy majburiyatlariga rioya etishini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvi va korrupssiya holatlari yuzaga kelishining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan tibbiyot xodimlarining axloq kodeksini qabul qilish va ularning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish.

8. Aholini, ayniqsa ehtiyojmand toifalarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish vazifasi yuklatilgan.

Yuqoridagilan kelib chiqib, o'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, sog'liqni saqlash sohasiga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan xukumat qarorlari va dasturlari, Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqdari va yo'riqnomalariga keng o'rin berilgan.

I BOB. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI (HUJJATLARI)

I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan bo'lib 26 bob va 128 moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 7- bobini 24 moddasi va 9 bobining 40 va 41 moddalari insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ifoda etadi. Jumladan insonni yashash huquqini, tibbiy xizmatdan foydalanish va bilim olish huquqini belgilab beradi.

VII BOB. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

24-modda.

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

IX BOB. IQTISODIY VA IJTIMOY HUQUQLAR

40-modda.

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda.

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

1.1. O'zbekiston Respublikasining fuqarolar salomatligini muxofaza qilishga oid qonunlari:

1. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonun 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan bo'lib, 6 bob va 47 moddadan iborat.

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 9-son, 128-modda; 1999 y., 5-son, 124-modda; 2001 y., 5-son, 89-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 41-son, 405-modda; 2007 y., 40-son, 411-modda; 2010 y., 20-son, 148-modda)

Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat bo'lib quyidagi vazifalardan iborat:

- fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash;
- fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

- davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Shu bilan birga fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
- sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiyot fanining amaliyot bilan birligidir.

Ushbu vazifa va prinsiplardan kelib chiqib, maxalliy xokimiyat va sog'liqni saqlash vazirligining vakolatlari va tizimini faoliyatini belgilab berilgan.

Shu bilan birga, fuqarolarning sog'lig'ini huquqiy jihatdan muofaza qilish, ularga tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda tibbiy ekspertiza sohalari bo'yicha tartibni belgilab beradi. Eng asosiysi mustaqillikka erishilgandan so'ng kiritilgan qonunlar ichida muhimi ushbu qonun bo'lib unda tibbiyot sohasida xususiy sektorni rivojlantirish ya'ni tibbiyot xodimlariga tibbiyot va farmastevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berilganligi va sog'liqni saqlashning xusuiy sektoriga tibbiyot va farmastevtika faoliyatini listenziyalash masalasi belgilab bergan.

1.2.«Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonun *Qonunchilik palatasi tomonidan 1992 yil 03 iyulda qabul qilingan bo'lib, qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan:*

O'zR 06.05.1995 y. 70-I-son Qonuni, O'zR 15.04.1999 y. 772-I-son Qonuni, O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 06.09.2010 y. O'RQ-253-son Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining sanitariya nazorati to'g'risidagi qonuni hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining o'z vakolat doirasida chiqaradigan boshqa huquqiy hujjatlardan iboratdir.

Ushbu qonun sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini va radiastiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, odamning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini hamda u bilan bog'liq boshqa huquqlarini va ularni amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlaydi.

Davlat sanitariya nazorati bu sanitariya qonunlarini buzilishini oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yishga qaratilgan sanitariya-epidemiologiya xizmatining faoliyatidir.

Sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- atrof muhitni sog'lomlashtirish, ovqatlanishni, mehnat, turmush, dam olish, ta'lim-tarbiya berish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonunchilik, sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tashkiliy tadbirlar majmuini amalga oshirish asosida odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash huquqlarini kafolatlash;

- xalq xo'jalik obyektlari, texnologiya uskunalari va asboblari, transport vositalarini rivojlantirish, joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushurish chog'ida atrof muhit omillari aholi salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olishga qaratilgan faoliyatining ustivorligini ta'minlash;

- aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish;

- sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab chiqish va ijtimoiy faoliyatning majburiy qismi sifatida amalga oshirish;

- mulkchilikning shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslarning sanitariya normalariga, gigiena normativlariga rioya qilmaslik hamda sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirmaslik natijasida aholining salomatligiga va atrof muhitga yetkazilgan zararining o'rmini qoplash;

- sanitariya normalari, qoidalariga rioya etilishi va sanitariya-gigiena tadbirlari amalga oshirilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish.

Sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari ilmiy tadqiqot va boshqa muassasalar tomonidan ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlanadi va shundan so'ng uch oy muddat ichida matbuotda bosib chiqarilishi kerak.

Shu bilan birga ushbu qonunda odamning qulay atrof muhit sharoitlariga ega bo'lish huquqi va uni ta'minlash kafolatlari. Aholini xotirjamligi radiastiya xafvsizligini ta'minlash talablari va ularni bajarish ma'suliyati hamda davlat sanitariya nazoratini va sanitariya qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik masalasi belgilab bergan.

1.3.NARKOLOGIK KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI VA ULARNI DAVOLASH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 22 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 11 sentyabrda ma'qullangan. Ushbu qonun qonunchilik palatasi tomonidan 1992 yil 9 dekabr qabul qilingan "Surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi qonun o'rniga qabul qilingan.

Ushbu qonunning maqsadi narkologik yordam sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, "Narkologik yordam to'g'risida"gi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

- majburiy davolash — narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarga nisbatan sudning qarori asosida majburiy davolash uchun mo'ljallangan muassasalarda ko'rsatiladigan narkologik yordam turi;

- narkologik yordam — narkologik kasalliklar profilaktikasini, narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tekshirishni, ularga maslahat berishni, tashxis qo'yishni, ularni davolashni, tibbiy-ijtimoiy reabilitastiya qilishni o'z ichiga oluvchi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam turi;

- narkologik kasallik (surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik) — psixoaktiv moddalarga patologik ruju qo'yish, ulardan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlar bilan tavsiflanadigan surunkali kasallik;

- narkologik kasallikka chalingan shaxs o'ziga narkolog shifokor tomonidan narkologik kasallik tashxisi qo'yilgan shaxs;

- narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy reabilitastiya qilish narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning hayot faoliyatiga doir cheklovlarni bartaraf etishga yoki kompensastiya qilishga, yo'qotilgan ijtimoiy aloqalarini hamda ijtimoiy maqomini tiklashga, mehnat va maishiy sharoitlarga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan tibbiy, psixologik, tarbiyaviy, ta'limga oid, ijtimoiy, huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

- narkologiya muassasalari — aholiga narkologik yordam ko'rsatuvchi narkologiya markazlari, shifoxonalari, dispanserlari, psixonevrologiya dispanserlari tuzilmasidagi bo'linmalar, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining narkologiya kabinetlari;

- narkologik ekspertiza — tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalalarini, ma'muriy, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha ish yuritish jarayonida yuzaga keladigan boshqa masalalarni hal etish uchun narkologik kasallikka tashxis qo'yishga qaratilgan shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish;

- psixoaktiv moddalar — markaziy asab tizimiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadigan, muntazam ravishda iste'mol qilganda ruhan va jismonan qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy kimyoviy moddalar;

psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish — shaxslarda mastlik holatini aniqlashga qaratilgan tibbiy ko'rik usullari va tibbiy tekshiruvlar majmui.

Narkologik yordam ko'rsatishning asosiy prinsiplari qonuniylik, maxfiylik, fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi, rahm-shafqat va insonparvarlikdan iboratdir.

Narkologik yordam sohasini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan.

Shu bilan birga davlat tomonidan kafolatlangan narkologik yordamni, narkologik kasalliklar profilaktikasini, narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning huquqlari va majburiyatlari hamda ularni davolanishga roziligi masalalari tartibga solingan. Shuningdek, narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish masalasi, majburiy davolashni qo'llash uchun asoslar, majburiy davolanayotgan shaxslarga nisbatan mehnat terapiyasini qo'llash tartibi hamda narkologik ekspertiza masalalari yoritib berilgan.

1.4. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida

1999 yil 19 avgustda qabul qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 9-son, 210-modda; 2001 y., 1-2-son, 23-modda; 2003 y., 1-son, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 41-son, 405-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda)

Ushbu Qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada

bo'lishiga monelik qilish, fuqarolar sog'lig'ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- giyohvandlik (narkotik) vositalari — giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

- psixotrop moddalar — psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

- prekursorlar — prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

- giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari — kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

- preparat — moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi — giyohvandlik vositalari, — psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizastiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish;

- giyohvandlik (narkomaniya) — giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik;

- zaharvandlik (toksikomaniya) — psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik

yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik. maxsus vakolatli organlar — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatlarga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga ushbu qonunda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar analoglarining muomalada bo'lishi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlari: giyohvandlik vositalarini olib kirish (olib chiqish), taqsimlash, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi,

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan listenziya asosida amalga oshiriladi.

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojlarini, muomalada bo'lishini cheklash, ularni olish, saqlash va taksimlash, tashish tartibini belgilab bergan.

Shuningdek giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash hamda tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish va muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga solgan. Eng muhimi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda foydalanish tartibini belgilab bergan.

1.5. Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 1997 yil 25. aprelda qabul qilingan va 2016 yil 05 yanvarda uzgartirish kiritilshgan bo'lib, ushbu

qonunning maqsadi dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- **dori vositalari** — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funkstiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

- **dori moddalari (substansiyalar)** — farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar;

- **dori preparatlari** — dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanilish uchun tayyor dori vositalari;

- **dorivor o'simlik xom ashyosi** — dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan o'simliklar yoki ularning qismlari;

- **restept** — shifokorning farmastevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatini tayyorlash va (yoki) berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi yozma ko'rsatmasi;

- **sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum** — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

- **tibbiy buyumlar** — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funkstiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

- **tibbiy texnika** — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funkstiyalarini aniqlash hamda o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan apparatlar, uskunalar, priborlar, asboblar, qurilmalar va majmualar;

- **farmakologik vositalar** — muayyan dori shakliga, klinik oldi tadqiqotlarda aniqlangan farmakologik faollikka va xavfsizlikka ega bo'lgan, klinik tadqiqot obyektlari bo'lgan modda yoki moddalar aralashmasi;

- **farmastevtika faoliyati** — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

- **O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari** — intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilik buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

- **qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum** — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum.

Davlat asosiy dori vositalari, shuningdek tibbiy buyumlar olinishi imkoniyatini va ularning sifatini kafolatlaydi.

Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Mahalliy davlat hokimiyati organlarining dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan.

Shu bilan birga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika taaluqli bo'lgan barcha faoliyat jumladan davlat farmkomapaniyasi, farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining yohud tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlari, dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda farmakologik nazorat tartiblari belgilab berilgan.

Shuningek, qonunda dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika to'g'risidagi axborot va dori vositalarining reklamasi va farmastevtika faoliyatining yo'nalishlari keng yoritilgan.

Dorixona va dorixonalarda dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash

saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash hamda ularni eksport va import qilish masalalari ham tartibga solingan.

1.6. Psixiatriya yordami to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2000 yil 31 avgustda qabul qilingan bo'lib, qonunning maqsadi psixiatriya yordami ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Psixiatriya

yordami to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining psixiatriya yordami to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish — o'z sog'lig'ining holati, ruhiy holati buzilganligining xususiyati haqidagi hamda kasallik rivojlanishining ehtimoldagi prognozi, psixiatriya yordami ko'rsatish maqsadi, tartibi va davom etish muddati, tashxis qo'yish, davolash usullari hamda mazkur yordamni ko'rsatish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan dori vositalari, ularning nojo'ya ta'sirlari haqida tushunarli tarzda taqdim etiladigan axborotni anglab yetishga layoqatli bo'lgan shaxs tomonidan yozma shaklda ifodalangan ixtiyoriy rozilik yoki uning qonuniy vakilining yozma roziligi;

- psixiatriya yordami — shaxslarning ruhiy sog'lig'i holatini tekshiruvdan o'tkazishga, ruhiy holatning buzilishlarini profilaktika qilishga, ularga tashxis qo'yishga, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash, parvarishlash va tibbiy-ijtimoiy jihatdan reabilitastiya qilishga qaratilgan maxsus tadbirlar majmui;

- psixiatriya muassasasi — asosiy vazifasi psixiatriya yordami ko'rsatishdan iborat bo'lgan tibbiyot muassasasi;

- ruhiy holatning buzilishi — shaxs ruhiy holatining O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan Xalqaro kasalliklar tasnifiga muvofiq tan olingan o'zgarishi;

- shifokor-psixiatrlar komissiyasi — sog'liqni saqlashni boshqarish organi tomonidan tuzilgan, psixiatriya yordami ko'rsatish bilan bog'liq masalalar yuzasidan kollegial ravishda qarorlar qabul qiluvchi uch nafar yoki undan ortiq shifokor-psixiatrdan iborat bo'lgan komissiya;

- qonuniy vakillar — ota-onalar (farzandlikka oluvchilar), vasiylar yoki ruhiy holati buzilgan shaxslarning manfaatlarini ifoda etishga, ularga psixiatriya yordami ko'rsatishda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxslar.

Ushbu qonunning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga psixiatriya yordami ko'rsatishda ularga nisbatan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida psixiatriya yordami

ko'rsatishda ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlariga psixiatriya yordami ko'rsatilishida ushbu qonunda belgilangan barcha huquqlardan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadi.

Psixiatriya yordami ko'rsatishning asosiy prinsiplari qonuniylik, ijtimoiy himoyalanganlik, insonparvarlik, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, axborotning maxfiyligidan iboratdir.

Davlat tomonidan quyidagilar kafolatlanadi:

- davlat tibbiyot muassasalarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam, tez yordam, shu jumladan ixtisoslashtirilgan tibbiy tez yordam ko'rsatish chog'idagi bepul psixiatriya yordami;

- qonunchilikka muvofiq barcha turdagi psixiatriya ekspertizalarini o'tkazish;

- tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasining tegishli xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, ruhiy holati buzilgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy yordam ko'rsatish va ularni ishga joylashtirishga ko'maklashish;

- ruhiy holati buzilgan shaxslarning vasiylik masalalarini hal qilish;

- psixiatriya yordami ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarida, ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalarda huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish va yuridik yordamning boshqa turlari;

- favqulodda vaziyatlar chog'idagi psixiatriya yordami.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarni psixiatriya yordami bilan ta'minlash va ijtimoiy jihatdan himoya qilish uchun davlat:

- psixiatriya yordami ko'rsatuvchi barcha turdagi muassasalarni, imkoniyati boricha, ruhiy holati buzilgan shaxslarning yashash joyida barpo etadi;

- ruhiy holati buzilgan voyaga etmagan shaxslarning davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishini tashkil etadi;

- ruhiy holati buzilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish maqsadida ular uchun moslashtirilgan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etgan holda, psixiatriya muassasalari hududida mehnat terapiyasi, yangi kasb-hunarlariga o'qitish va ruhiy holati buzilgan shaxslarni, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni

ishga joylashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida davolash-ishlab chiqarish korxonalarini barpo etadi;

- ruhiy holati buzilgan shaxslarni ishga joylashtiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun iqtisodiy rag'batlantirish (imtiyozlar, preferenstiyalar berish va boshqalar) usullarini qo'llaydi;

- ruhiy holati buzilgan shaxslarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish uchun zarur bo'lgan boshqa choralarni ko'radi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq ularga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi.

Psixiatriya yordami ko'rsatishni moliyalashtirish «Sog'liqni saqlash» sohasiga ajratiladigan byudjet mablag'lari doirasida, psixiatriya yordami ko'rsatish uchun davlat tomonidan kafolatlangan hajmda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu qonun psixiatriya yordami so'rab murojaat etishning ixtiyoriyligi, ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari, psixiatriya yordami ko'rsatishda shifokor sirini saqlash, ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki davolanishni rad qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari hamda sud-psixiatriya ekspertizasi, tibbiyot xodimlarining hamda boshqa mutaxassislarining psixiatriya yordami ko'rsatish chog'idagi huquq va majburiyatlari, shifokor-psixiatrning psixiatriya yordami ko'rsatish chog'idagi mustaqilligi psixiatriya yordamining turlari va ularni ko'rsatish tartibi belgilab beradi.

1.7.Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2000 yil 25 mayda qabul qilingan bo'lib 27ta moddadan iborat. Ushbu Qonun faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Faoliyatning ba'zi bir turlarini listenziyalashning o'ziga xos jihatlari qonun bilan belgilanadi.Ushbu qonun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilishni listenziyalashda, intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda, shuningdek kompleks tadbirkorlik

listenziyasi shartnomasi (franshizing to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- **listenziya** — listenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, listenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning listenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

- **faoliyatning listenziyalanayotgan turi** — O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun listenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

- **listenziyalash** — listenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, listenziyani qayta rasmiylashtirish, listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksi;

- **listenziya talablari va shartlari** — faoliyatning listenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda listenziyat tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, qonunchilikda belgilangan talablar va shartlarning majmui;

- **listenziyalovchi organlar** — qonunchilikka muvofiq listenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

- **listenziya da'vogari** — listenziyalovchi organga faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun listenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

- **listenziyat** — faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirish listenziyasi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

- **listenziya shartnomasi** — faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun listenziyatning listenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi listenziyalovchi organ bilan listenziya da'vogari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o'rtasida tuziladigan shartnoma;

- **listenziyalar reestri** — berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan listenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan listenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan listenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmui.

Listenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda listenziyalovchi organlar amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- listenziyalovchi organlarni va faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash tartibini belgilash, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- O'zbekiston Respublikasi hududida listenziyalar reestrini yuritish tartibini belgilash;

- faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash sohasidagi qonunchilikka listenziyalovchi organlarning rioya etishlarini nazorat qilish;

- listenziyalashning ayrim turlarini amalga oshirish.

Listenziyalovchi organlarning vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- faoliyatning ayrim turlarini qonunchilikka muvofiq listenziyalash;

- qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini listenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

- istenziya talablari va shartlariga listenziatlar rioya etishini nazorat qilish;

- listenziyalarni qayta rasmiylashtirish;

- listenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash;

- listenziyalarning amal qilishini tugatish;

- listenziyalarni bekor qilish;

- listenziyalar reestrini yuritish.

Ushbu qonunda faoliyatning listenziyalanadigan turlarini aniqlash, listenziya turlari, amal qilishi va muddatlari hamda listenziya talablari va shartlari tartibga solingan. Shuningdek, listenziya shartnomasi uni rasmiylashtirish yoki bekor qilish, qayta rasmiylashtirish masalalari keltirilgan. Listenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishda listenziyalovchi organlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlari tartibga solingan.

1.8. Aholini sil kasalligidan muxofaza qilish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2001 yil 11 mayda qabul qilingan bo'lib ushbu qonun sil kasalligining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, sanitariya-gigienaga oid, epidemiyaga qarshi va boshqa choratadbirlarni amalga oshirishning, shuningdek sil kasalligiga chalingan

bemorlarni aniqlash, davolash, dispanser ko'rigidan o'tkazish va reabilitatsiya qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- BCG — Kalmett-Geren bastillasi: sil kasalligi mikrobining vakstina sifatida qo'llaniladigan kuchsizlantirilgan shtammi (ko'rinishi);
- vakstinatsiya — sil kasalligining oldini olish maqsadida chaqaloqlarda faol immunitet hosil qilish usuli;
- revakstinatsiya — kasal yuqtirmaslik bobidagi yo'qolgan xususiyatni tiklash yoki sil kasalligiga nisbatan yanada kuchliroq darajada immunitet hosil qilish uchun odam yoki hayvon organizmiga takroriy ravishda vakstina kiritish;
- sil kasalligi — sil mikobakteriyalari qo'zg'atadigan yuqumli kasallik;

sil kasalligining yuqumli shakllari — sil kasalligining sil mikobakteriyalarini chiqarib turadigan faol shakllari;

- sil kasalligiga ko'ra noqulay bo'lgan chorvachilik obyekti — hayvonlarning sil kasalligiga chalinish holati mavjud bo'lgan obyekt;
- sil mikobakteriyalari (mikroorganizmlar) — sil kasalligini qo'zg'atuvchilar;

- tuberkulin yordamida tashxis qo'yish — kasallikni aniqlash uchun odam va hayvonlarni tuberkulin yordamida tekshirish usuli.

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- sil kasalligi tarqalishining oldini olishga doir profilaktika choratadbirlarini amalga oshirishning izchilligi va doimiyligi;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, mamlakatimizda doimiy yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga sil kasalligiga qarshi bepul yordam ko'rsatish.
- Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish profilaktika tadbirlari, tibbiy ko'riklar o'tkazish va aholini sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarida, shuningdek davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqa muassasalarida sil kasalligidan davolash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda majburiy tarzda BCG bilan chaqaloqlarni vakstinastiya va bolalarni revakstinastiya qilish hamda tuberkulin yordamida tashxis qo'yish amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud atrofdagilarga sil kasalligini yuqtirish xavfi mavjud bo'lgan shaxslarning bajarishi ijozat etilmaydigan ishlar ro'yxatini qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

Sil kasalligining yuqumli shakllariga chalingan bemorlarning yotoqxonalariga ko'chib kirishiga yo'l qo'yilmaydi. Sil kasalligiga chalingan bemorlarning yashash, ish, o'qish joylarida (epidemiya o'choqlarida) epidemiyaga qarshi va sog'lomlashtirish tadbirlari qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Sil kasalligiga chalingan shaxslarni hisobga olish esa tibbiyot muassasalari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasining, Davlat bojxona qo'mitasining tibbiy xizmatlari tibbiy ko'rik natijasida sil kasalligi borligi aniqlangan shaxslar haqida ularning turar joylaridagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarini xabardor qilishlari shart.

Sil kasalligiga chalingan shaxslar turar joylaridagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasida hisobga olinadi. Shu bilan birga ushbu qonunda aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatish sil kasalligining oldini olishga, unga barvaqt tashxis qo'yish, uni vaqtida va malakali davolashga qaratilgan maxsus profilaktika, sanitariya-epidemiologiya va veterinariya tadbirlari o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sil kasalligiga qarshi kurash muassasalariga ega bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, sil kasalligiga chalingan shaxslar huquqlari, majburiyatlari hamda sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo'yin tovlayotgan shaxsni davolash masalalari tartibga solingan.

Qonunga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatishda ishtirok etayotgan xodimlar uchun kafolatlar va imtiyozlar, aholiga sil

kasalligiga qarshi yordam ko'rsatishni moliyalashtirish masalasi ham kiritilgan.

1.9.Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2002 yil 30 avgustda qabul qilingan bo'lib 28ta moddadan iborat bo'lib, qonunning maqsadi qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- donor — o'z qoni va uning tarkibiy qismlaridan bir qismini tibbiyot ehtiyojlari uchun ixtiyoriy ravishda beruvchi jismoniy shaxs;
- donor qoni banki — qon bilan ishlash xizmati tomonidan vujudga keltiriladigan va yangilab boriladigan, uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan donor qoni tarkibiy qismlarining zaxiralari;
- donor qoni preparatlari — donor qoni tarkibiy qismlarini qayta ishlashda olinga davolash vositalari;
- donor qoni tarkibiy qismlari — qonning qon plazmasi va hujayralari shaklidagi tarkibiy qismlari.

Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Qon va uning tarkibiy qismlari donorligining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning ixtiyoriyligi;
- qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning inson uchun bezararligi;
- donor qoni va uning tarkibiy qismlarini ishlatish xavfsizligi.

Qonun qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning ixtiyoriyligi, qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning inson uchun bezararligini ta'minlash, donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va ishlatish tartibini belgilab bergan. Shu bilan birga qon bilan ishlash xizmati, uning vakolatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi vakolatlari hamda donorning huquqlari ularga

berilgan kafolatlar, ragbatlantirish va kompensastiyalar xaqida tartib belgilangan.

1.10.O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 12 sentyabr qabul qilingan va har yilning 2-yakshanbasi bayram qilib nishonlanadi.

1.11.Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 3mayda qabul qilingan bo‘lib, 25 moddadan iborat.

Ushbu qonunning maqsadi yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- **yod yetishmasligi kasalliklari** — organizmda yodning yetishmasligi oqibatida qalqonsimon bez kasalliklari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan kasalliklar;

- **yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi** — yod yetishmasligi kasalliklarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi;

- **yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari** — ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari;

- **yodlangan tuz** — ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan osh tuzi.

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi quyidagichadir.Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati yod yetishmasligi kasalliklari kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan bo‘lib, quyidagilar orqali ro‘yobga chiqariladi:

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish;

iste'mol bozorini yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- bolalarni va tug'ish yoshidagi ayollarni tarkibida yod bo'lgan preparatlar bilan profilaktik ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish;

- yodlangan tuz, yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari va yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi hamda ularni davolash uchun foydalaniladigan dori vositalari va preparatlarni ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari ishlab chiqarish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir tadbirlar samaradorligining monitoringi;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida hisobga olishning axborot-tahlil va statistik tizimlarini takomillashtirish;

- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslarining mablag'larini yod yetishmasligi kasalliklari muammolariga, mazkur kasalliklarning profilaktikasi hamda davolash usullariga jalb etish;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvi:

- profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari o'tkazishni, yod yetishmasligi kasalliklariga tashxis qo'yish va ularni davolashni tashkil etishni;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi va ularni davolash uchun dori vositalari hamda preparatlarni, yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish hamda sertifikatlashtirishni;

- tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlashni davlat tomonidan normalashtirishni;

- davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borishni;

- yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ularning muomalasi ustidan davlat nazoratini o'z ichiga oladi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

- davlat boshqaruvi organlarining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi masalalariga doir faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik talablarining bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarini ro'yobga chiqaradi;

- tuzni va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash bo'yicha sanitariya-epidemiologiya talablarini belgilaydi;

- yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, ishlab chiqarilishi, saqlanishi, olib kirilishi hamda realizatsiya qilinishi monitoringini olib boradi;

- yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etadi;

- aholi o'rtasida yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boradi;

- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Shuningdek, qonunda O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari tartibga solingan.

Shu bilan birga yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir chora-tadbirlar, tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash, ularning sifati

hamda xavfsizligiga doir talablar, sertifikatlashtirish masalalari ham o'z o'rnini topgan.

1.12. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida".

Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 23 noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2007 yil 1 dekabrda ma'qo'llangan bo'lib, 32 moddadan iborat.

Ushbu qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- **bola (bolalar)** — o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga etgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

- **bolaning qonuniy vakillari** — ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

vasiylik va homiylik — ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan, homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi;

- **yyetim bola** — otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola;

- **jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola** — nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola;

- **ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar** — yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan: nogiron bolalar; jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar; yetim bolalar; ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar; ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar; muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar; kam ta'minlangan oilalardagi bolalar; jinoiy javobgarlikka

tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar; zo'rvonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

- **nogiron bola** — jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola;

- **ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar** — qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo'lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar);

- **ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola** — har qanday sababga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola, bundan yetim bola mustasno.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirib berilgan :

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

- bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

- bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

- bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

- bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

- bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

- bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

- bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

- bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

- bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;
- bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;
- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.

Ushbu qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha vakolatlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki va bola huquqlarining asosiy kafolatlari tartibga solingan.

Shu bilan birga bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari ham keltirilgan. Jumladan, har bir bola sog'lig'ini saqlash huquqiga ega.

Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonunchilikka muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

- malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil qilish;
- bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasi;
- bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;
- talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;
- bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;
- kasbga yaroqlilikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;
- sanitariya-gigiena ta'limi berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va rag'batlantirish;
- sog'lig'ining holati to'g'risida bola uchun qulay bo'lgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

O'n to'rt yoshdan katta yoshdagi bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar o'tkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chiyokishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarini ko'radi.

1.13. "Sud ekspertizasi tugrisida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 yil 18 noyabrda qabul qilingan bo'lib, 33 moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat sud eksperti — davlat sud-ekspertiza muassasasining o'z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o'tkazuvchi sud eksperti;

ish — sud ekspertizasi tayinlangan fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish;

sud eksperti — xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs;

sud ekspertining xulosasi (xulosa) — sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat;

sud ekspertizasi — fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan prestessual harakat;

sud-ekspertlik faoliyati — sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyat.

Qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tekshirishlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Sud-ekspertlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Sud-ekspertlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlarida nazarda tutilgan inson huquq va erkinliklariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Shaxsning erkinligini vaqtincha cheklashni yoki uning shaxsiy daxlsizligi buzilishini talab etuvchi sud-ekspert tekshirishlari (bundan buyon matnda tekshirishlar deb yuritiladi) faqat qonunda belgilangan asoslar va tartibda o'tkaziladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxonalar, muassasa, tashkilot (bundan buyon matnda boshqa tashkilot deb yuritiladi) tomonidan sud ekspertizasi o'tkazilishi munosabati bilan qabul qilingan qarorlar, sud ekspertining harakatlari (harakatsizligi) o'z huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib keldi deb hisoblagan shaxs mazkur qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Ushbu qonunda sud ekspertining mustaqilligi, tekshirishlarning xolisligi, sud tibbiy ekspert iva unga quyilgan talablar, huquq va majburiyatlari hamda sud ekspertizasini o'tkazish tartibi keltirilgan.

1.14. "Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi tugrisida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 yil 25 noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2010 yil 7 mayda ma'qo'llangan bo'lib 18 moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

mikronutrientlar — inson organizmining normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, o'rni boshqa narsa bosa olmaydigan oziq-ovqat moddalari (vitaminlar va mineral moddalar);

mikronutrient yetishmasligi — inson organizmining oziq-ovqat bilan tushadigan mikronutrientlar yetarli emasligi sababli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan holati;

boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti — ishlab chiqarilishi jarayonida mikronutrientlar bilan boyitilgan (fortifikatsiya qilingan) oziq-ovqat mahsuloti;

mikronutrientlar samentastiyasi — aholining muayyan guruhlari o'rtasida mikronutrientlarning dori vositalari tarzida profilaktik dozalarda qo'llanilishi;

aholining muayyan guruhlari — mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan aholi guruhlari.

Qonunda aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi quyidacha keltirilgan:

- aholini boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning sifati hamda xavfsizligi ustidan davlat nazoratini ta'minlash;

- boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarilishini rivojlantirish;

- oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash;

- mikronutrientlar samentastiyasi;

- aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasiga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash;

- mikronutrient yetishmasligini aniqlovchi zamonaviy texnologiyalarni va uning profilaktikasi usullarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat boshqaruvi:

- davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirib borishni;

- boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning sifati hamda xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni;

- boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ishlab chiqishni, ishlarni tashkil etishni va ularni bajarishni ta'minlashni;

- profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil etishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni hamda unga rahbarlikni amalga oshiradi;

- mikronutrientlar bilan boyitilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shu bilan birga Sog'liqni saqlash vazirligining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi vakolatlari ham uz urnini topgan. Jumladan :

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasida davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga

oshiradi. Mikronutrientlar bilan boyitilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini aniqlaydi. Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni tashkil etadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi. Aholining mikronutrientlar soplementastiyasi o'tkazilishi lozim bo'lgan muayyan guruhlarini aniqlaydi. Oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mikronutrientlarning normalari va tavsiya etiladigan darajalarini ishlab chiqadi. Mikronutrientlar soplementatsiyasini tashkil etadi. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi bo'yicha sanitariya-gigiena va tushuntirish ishlarini olib boradi. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasiga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishini monitoring qiladi va baholaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, ushbu qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi vakolatlari hamda aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi chora-tadbirlari ham tartibga solingan.

1.15. "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 27 iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2011 yil 26 avgustda ma'qo'llangan.

Ushbu Qonunning maqsadi alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun fuqarolarning sog'lig'ini, avvalo, yigirma yoshga to'lmagan shaxslarning sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zararli ta'siridan, shu bilan bog'liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga, shuningdek jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda qaror toptirishning tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgandir.

Qonunda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlari keltirilgan.

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

alkogol mahsuloti — konyak spirti yoki tozalangan etil spirtidan, vino materiallari va (yoki) tarkibida spirt bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan, hajmidagi etil spirtining ulushi bir yarim foizdan ortiq bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi — alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq fuqarolar sog'lig'iga, avvalo, yoshlar sog'lig'iga, ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishiga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlariga tahdidlarning hamda boshqa tahdidlarning oldini olishga va ularni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar majmui;

alkogolga qaramlik — alkogol mahsulotiga patologik ruju qo'yish, alkogoldan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlar bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (surunkali alkogolizm);

tamaki mahsuloti — tamakidan yoki uning o'rnini bosuvchi narsadan tayyorlangan har qanday mahsulot;

tamakiga qaramlik — tamaki mahsulotiga patologik ruju qo'yish, nikotindan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) oqibatlar bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (nikotinga qaramlik);

tibbiy ogohlantirish — alkogol mahsuloti idishining yorlig'ida hamda tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) joylashtiriladigan, alkogol yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi axborot.

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirilgan. Jumladan

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolar sog'lig'ini saqlash, alkogol, tamaki mahsulotlarining zararli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;
- fuqarolarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga, aholi, avvalo, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, ularning sog'lig'iga alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq tahdidlarning oldini olish hamda bunday tahdidlarni kamaytirishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish;
- alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi sohasidagi davlat nazoratini ta'minlash, shuningdek bunday mahsulotlarning tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklashga, ularning salbiy ta'siri profilaktikasiga, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish;
- alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning samarali tizimini yaratish;
- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi, shuningdek alkogol va tamakiga qaramlik diagnostikasi hamda uni davolash sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda hamda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishini cheklash va ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining keng ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish.

Shuningdek, qonunda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat kafolatlari, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi vakolatlari tulik berilgan.

Shu bilan birga qonunda alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlabchiqarish, realizatsiya hamda reklama qilishga doir faoliyati

hamda fuqarolar sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarining salbiy ta'siridan saqlash bo'yicha chora-tadbirlar tartibga solingan.

1.16. "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 7 iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2013 yil 22 avgustda ma'qo'llangan bo'lib, 28 moddadan iboratdir.

Ushbu Qonunning maqsadi odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV) — odamning surunkali yuqumli immunitet tanqisligi kasalligini qo'zg'atuvchi;
OIV infekstiyasi — odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan surunkali yuqumli immunitet tanqisligi kasalligi;
OIVni yuqtirib olganlar — odamning immunitet tanqisligi virusini yuqtirib olgan shaxslar;
orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) — odamning immunitet tanqisligi virusi odamning immun tizimini shikastlashi natijasida kasallik belgilari kelib chiqadigan OIV infekstiyasining so'nggi bosqichi.

Ushbu qonunda OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi, OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasida davlat boshqaruvi tulik berilgan. Jumladan OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasida davlat boshqaruvini quyidagilar amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari.

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, qonunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Sog'liqni saqlash vazirligining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va Ichki ishlar vazirligining OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari hamda OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga doir chora-tadbirlar, OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi berilgan.

Shu bilan birga qonunda OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda OIV infektsiyasi yuqishi xavfi ostida bo'lgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish hamda OIVni yuqtirib olganlarning huquq va majburiyatlari, ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari ham tartibga solingan.

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida»gi 816-I-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 9, 213-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi 817-I-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 9, 214-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 24 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi O'RQ-248-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010 yil, № 5, 179-modda) 3-moddasi.

1.17. "Oziq ovqat maxsulotlarini sifati va xavsizligi tug'risida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 1997 yil 30 avgustda qabul qilingan bo'lib, 18ta moddadan ibortdir.

Ushbu Qonun aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Ushbu Qonunning talablari atir-upa, pardozi-andoz mollari va tamaki mahsulotlariga ham taalluqlidir.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari — bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;

sanitariya-epidemiologik xulosa — oziq-ovqat mahsulotining va uni tayyorlash hamda undan foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalarning sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiena normativlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar — oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash yo'li bilan yoki sun'iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste'mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga mo'ljallangan tabiiy yoxud tabiiyga aynan o'xshaydigan biologik faol moddalarning konstantlari;

oziq-ovqatlar — oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste'mol qilinadigan mahsulotlar;

oziq-ovqat mahsuloti — oziq-ovqat xom ashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;

oziq-ovqat mahsuloti muomalasi — oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizastiya qilish bilan bog'liq faoliyat;

oziq-ovqat mahsulotini realizastiya qilish — oziq-ovqat mahsulotini ma'lum shartlar bilan sotish, yetkazib berish va topshirishning boshqa shakllari;

oziq-ovqat mahsulotining sifati — oziq-ovqat mahsulotining iste'mol xossalarini belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini ta'minlaydigan mezonlar majmui;

oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi — oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi;

oziq-ovqat xom ashyosi — oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o'simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek minerallar obyektlari, suv;

oziq-ovqatlarni hamda oziq-ovqat xom ashyosini taqqoslash — oziq-ovqatlar hamda oziq-ovqat xom ashyosi aniq turdagi va nomdagi mahsulotga doir normativ va (yoki) texnikaviy hujjatda belgilab qo'yilgan muhim mezonlarga mos kelishini aniqlash;

oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) — bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chog'ida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo'lib turadi, bu muddat tamom bo'lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lib qolishi mumkin;

oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish — oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab o'zgartirish yoki ularni almashtirib qo'yish;

oziq-ovqat qo'shimchalari — oziq-ovqatlarga belgilangan xossalarni baxsh etish va (yoki) ularni saqlab qolish maqsadida ataylab qo'shiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar; toksikologiya-gigiena ekspertizasi — oziq-ovqat mahsuloti ustida amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo'lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo'ljallangan bo'ladi;

qadoqlash materiallari, yordamchi materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar oziq-ovqat mahsulotini muomala jarayonida tashqi ta'sirlardan himoyalash maqsadida ishlatiladigan vositalar.

energetik ichimliklar — tarkibida 150 mg/l.dan ortiq miqdorda kofein va (yoki) inson organizmiga tonusni o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun yetarli miqdordagi boshqa komponentlar mavjud bo'lgan ichimliklar.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchiligi bilan ham huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Ushbu qonunda oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi, davlat tomonidan normalash, davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish, o'rash va tamg'alash, saqlash va tashish, mahsulotini realizatsiya qilish masalalari tartibga solingan.

1.18. "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 15 fevralda qabul qilingan senat tomonidan 2019 yil 28 fevralda ma'qo'llangan bo'lib 24 moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog'lomligi holati bo'lib, bu holat uning bola tug'ilishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizimi, ushbu tizimning funkstiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash:

- fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risida ishonchli va to'liq axborot olishni;
- homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug'ilishini ta'minlaydigan, homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni;
- reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni;
- jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;
- ehtimoldagi asoratlarning va reproduktiv tizim funkstiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko'maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun'iy to'xtatishni;
- kontrastepstiya usullari va ulardan foydalanish to'g'risida axborot olishni nazarda tutadi.

Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- reproduktiv muammolarni hal qilishda insonparvarlik;
- reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida erkaklar va ayollarning tengligi;
- fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, shaxsiy va oilaviy sirining saqlanishi;

- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi tibbiy xizmatlardan foydalanishni va ularning sifatini ta'minlash;

- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha xizmatlarning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini ta'minlash.

Ushbu qonunda fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalga oshirish;

- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;

- fuqarolarda sog'lom farzandlar tug'ilishiga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash;

- erkaklar va ayollarning o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishida ularning imkoniyatlari tengligini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish;

- fuqarolarning reproduktiv salomatligini yaxshilash uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish;

- reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida fuqarolarning tibbiy bilimlarini va tibbiy madaniyatini yuksaltirish;

- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

- fuqarolar o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishi uchun ularga tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam ko'rsatish.

Shuningdek, qonunda fuqarolarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirishdagi davlat kafolatlari, jumladan Vazirlar Mahkamasining, Sog'liqni saqlash vazirligining

va Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi vakolatlarini tartibga soladi.

Shu bilan birga qonunda inson omili uchun muxim bo'lgan masalar; fuqarolarning reproduktiv huquqlari, ayollarning , erkaklarning va voyaga etmaganlarning reproduktiv salomatligini saqlash, kontrastepstiyadan foydalanish hamda Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish masalalari keltirib o'tilgan.

1.19. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 22 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 11 sentyabrda ma‘qo‘llangan bo‘lib, 46 moddan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi hujjat Qonunchilik palatasi tomonidan 2008 yil 11 iyulda qabul qilingan

Ushbu Qonunning maqsadi nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Nogironlik belgisiga ko‘ra kamsitish — maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy sohada yoki boshqa sohada o‘zgalar bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng huquq va erkinliklarini e‘tirof etishni yoki ro‘yobga chiqarishni inkor qilishdan iborat bo‘lgan, nogironlik sababli har qanday ajratib qo‘yish, istisno etish, chetlatish, cheklash;

Nogironligi bo‘lgan bolalar (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga hamda o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar;

Nogironligi bo‘lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxs;

nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish — hayot faoliyatiga doir cheklovlarni engib o‘tish, ularning o‘rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun nogironligi bo‘lgan shaxslarga shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan hamda ularga jamiyat va davlat hayotida

ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari — nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlari;

Protez-ortopediya moslamalari — yo'q bo'lgan qo'l-oyoqlarning yoki tana boshqa qismlarining o'rnini bosish uchun mo'ljallangan, organizmning buzilgan yoki yo'qolgan funkstiyalarini kompensastiya qiluvchi moslamalar;

surdotarjima — biror-bir tildan daktil alifbosi yordamida va (yoki) imo-ishora tilida tarjima qilish usuli;

Surdotexnika vositalari — eshitishdagi nuqsonlarni tuzatish va kompensastiya qilish uchun texnik vositalar, shu jumladan aloqani va axborot uzatishni kuchaytiruvchi vositalar;

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza — tekshiruvdan o'tkazilayotgan shaxsning klinik-funkstional, ijtimoiy, kasbiy-mehnat va psixologik ma'lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog'lig'i yo'qolganligi darajasini hamda organizmining funkstiyalari turg'un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va zarur mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida tavsiyalar berish;

Tiflotexnika vositalari — nogironligi bo'lgan shaxslarning ko'rishidagi nuqsoni natijasida yo'qolgan imkoniyatlarini tiklash va kompensastiya qilishga qaratilgan vositalar;

shaxs hayot faoliyatining cheklanganligi — shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'liq yoxud qisman yo'qotganligi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;

- nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;
- insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;
- nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;
- obyektlar va xizmatlarning qulayligi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish.

Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish prinsipi keltirilgan jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanadi.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklari, nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi hamda Vazirlar Mahkamasining, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlari keng yoritilgan.

Shu bilan birga nogironlarni shaxsiy hayot daxlsizligi, fuqarolik va erkin harakatlanish, davolanish, reabilitatsiya, uy-joyga, axborotdan foydalanishga hamda murojaat qilishga bo'lgan huquqlarini tulik eritib berilgan.

1.20. "Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 9 oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019 yil 11 oktyabrda ma'qo'llangan bo'lib, 21 moddadan iboratdir.

Ushbu Qonunning maqsadi ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir belgilangan talablarga rioya etilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar

ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari — nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlari;

Protez-ortopediya moslamalari — yo'q bo'lgan qo'l-oyoqlarning yoki tana boshqa qismlarining o'rnini bosish uchun mo'ljallangan, organizmning buzilgan yoki yo'qolgan funkstiyalarini kompensastiya qiluvchi moslamalar;

surdotarjima — biror-bir tildan daktil alifbosi yordamida va (yoki) imo-ishora tilida tarjima qilish usuli;

Surdotexnika vositalari — eshitishdagi nuqsonlarni tuzatish va kompensastiya qilish uchun texnik vositalar, shu jumladan aloqani va axborot uzatishni kuchaytiruvchi vositalar;

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza — tekshiruvdan o'tkazilayotgan shaxsning klinik-funkstional, ijtimoiy, kasbiy-mehnat va psixologik ma'lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog'lig'i yo'qolganligi darajasini hamda organizmining funkstiyalari turg'un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va zarur mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida tavsiyalar berish;

Tiflotexnika vositalari — nogironligi bo'lgan shaxslarning ko'rishidagi nuqsoni natijasida yo'qolgan imkoniyatlarini tiklash va kompensastiya qilishga qaratilgan vositalar;

shaxs hayot faoliyatining cheklanganligi — shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'liq yoxud qisman yo'qotganligi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;

- nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;
- insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;
- nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;
- obyektlar va xizmatlarning qulayligi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish.

Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish prinsipi keltirilgan jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanadi.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklari, nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi hamda Vazirlar Mahkamasining, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlari keng yoritilgan.

Shu bilan birga nogironlarni shaxsiy hayot daxlsizligi, fuqarolik va erkin harakatlanish, davolanish, reabilitatsiya, uy-joyga, axborotdan foydalanishga hamda murojaat qilishga bo'lgan huquqlariii tulik eritib berilgan.

1.20. "Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risida"gi qonun

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 9 oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019 yil 11 oktyabrda ma'qo'llangan bo'lib, 21 moddadan iboratdir.

Ushbu Qonunning maqsadi ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir belgilangan talablarga rioya etilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar

to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- go'dak — bir yoshgacha bo'lgan bola;
- go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlari — go'daklar va kichik yoshdagi bolalar organizmining fiziologik xususiyatlariga hamda ehtiyojlariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari;
- kichik yoshdagi bolalar — bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar;
- ona sutining o'rmini bosuvchi mahsulotlar — go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun ona suti o'rmini bosadigan oziq-ovqat mahsulotlari;
- sun'iy oziqlantirish — go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni ona sutining o'rmini bosuvchi mahsulotlar bilan oziqlantirish;
- qo'shimcha ovqat mahsulotlari — bola yoshining fiziologik xususiyatlari hisobga olingan holda ishlab chiqarilgan, tavsiya etilgan muddatlarda ona sutiga, ona sutining o'rmini bosuvchi mahsulotlarga qo'shimcha sifatida go'daklar va kichik yoshdagi bolalar rasioniga kiritiladigan oziq-ovqat mahsulotlari.

Qonunda Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish tartibini Hamda ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilishga doir chora-tadbirlar hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablarni belilab beradi. Jumladan go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash hamda realizastiya qilish, idishchalarni va so'rg'ichlarni tamg'alashga doir talablarni tartibga soladi.

II BOB. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI ISLOH QILISHGA QARATILGAN PREZIDENT FARMON VA QARORLARI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligi yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 12 noyabrda PF-6110-son Farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida» 2021 yil 5 mayda PF-6221-son Farmoni.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida».

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash muassasalarida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 1 mayda PK-2938-son Qarori.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 – 2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 20 iyunda PK-3071-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tibbiyot va farmastevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 6 mayda PK-4310-son Qarori.

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklari bo'lgan bolalarga tibbiy va ijtimoiy

yordam ko'rsatishni tashkillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 7 sentyabrdagi PQ-4440-son Qarori.

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari tugrisida" 2020 yil 7 apreldagi PK-4666-son Qarori.

10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy-sanitariya va farmastevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish tug'risida" 2020 yil 15 iyundagi PQ-160 son Qarori.

11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son Qarori.

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4890-son Qarori.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orkali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son Qarori.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 25 maydagi PK-5124-son Qarori.

15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2021 yil 27 maydagi PK,-5130-son Qarori.

16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 28 iyuldagi PK-5199-son Qarori

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Sogliqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2004 yil 8 iyundagi 264-son Qarori.

18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017 yil 14 martdagi 136-son Qarori.

19.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash muassasalarida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 7 aprel 191-son Qarori.

20.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Namunaviy ustavini tasdiqlash to‘g‘risida” 2017 yil 14 oktyabrdagi 826-son Qarori.

21.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya yordami ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 24 oktyabrdagi 867-son Qarori.

22.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika onkologiya va radiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ex.tiyojlari uchun ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining olib kirilishi va olib chiqib ketilishini uzluksiz ta‘minlash to‘g‘risida” 2018 yil 1 fevraldagi 72-son Qarori.

23.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga narkologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 3 oktyabrdagi 842-son Qarori.

2017 yilning 7 fevralida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining PF-4947-sonli farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida «2017 — 2021 yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi» tasdiqlangan .

Ushbu strategiyaning IV bandi Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari xaqida. Jumladan:

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

- aholining real pul daromadlarini va harid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

- byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyastiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

- yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

- mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

- aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

- oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

- xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar

kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

- pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

- farmastevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

- aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

- aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

- odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash;

- aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostanitsiyalarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish;

- yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruktsiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish. xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

- yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda

samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

- jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

2.1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-sonli "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORATADBIRLAR TO'G'RISIDA" FARMONIDA

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishilganligi hamda yutuglar bilan birga kamchilik va muammolar ham keltirib o'tilgan.

Jumladan: 1991 — 2017 yillarda umumiy o'lim ko'rsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar o'limi 3,1 barobar kamayganligi, urtacha umr

ko'rish davomiyligi 1995 yilga nisbatan 4,6 yilga oshganligi va bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etganligi.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasi faoliyatini tashkil etishda so'nggi yillarda to'planib qolgan tizimli kamchilik va muammolar fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga to'sqinlik qilishi xususan:

birinchidan, sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va rejalashtirish bo'yicha konstepsiya hamda strategik maqsadlarning mavjud emasligi oqibatida ushbu sohadagi islohotlar to'liq bo'lmagan shaklda amalga oshirilmoqda, bu esa aholining tibbiy yordam sifatiga doir istak va talablariga javob bermayapti;

ikkinchidan, sog'liqni saqlash sohasidagi smetali moliyalashtirish tizimi eskirgan, zamonaviy xalqaro amaliyotga mos kelmaydigan mexanizmlarga asoslangan bo'lib, moliya resurslarining samarasiz ishlatilishiga va sohaning surunkali tarzda moliyalashtirilmay qolishiga olib kelmoqda;

uchinchidan, kasalliklarni profilaktika qilish va barvaqt aniqlash, patronaj va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ishlar samaradorligining pastligi fuqarolarning ixtisoslashgan tibbiy yordam so'rab murojaat qilishining ko'payishiga sabab bo'lmoqda;

to'rtinchidan, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning turli darajalari va bosqichlari, shu jumladan, davolash va salomatlikni tiklash jarayonida uzviylik sust rivojlangan;

beshinchidan, amaldagi kadrlar siyosati tibbiy yordam ko'rsatishning barcha darajalarida, ayniqsa, birlamchi bo'g'inda mutaxassislar bilan ta'minlashning, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi tashkilotchilari va boshqaruv xodimlarini tayyorlashning istiqbollari prognozashtirish imkonini bermayapti;

oltinchidan, tibbiy amaliyotning ta'lim va ilm-fan bilan integrastiyasi sustligi ixtisoslashtirilgan markazlarning innovastion salohiyati pastligi bilan birgalikda zamonaviy tibbiyot yutuqlarini davolash-tashxis jarayoniga joriy etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

ettinchidan, elektron sog'liqni saqlash sohasida yagona standartlar mavjud emas, tibbiy xizmatning integrastiyasini va samarali boshqarilishini ta'minlaydigan zamonaviy dasturiy mahsulotlar joriy etilmagan, mavjud axborot tizimlari va texnologiyalari tarqoq tusga ega va tor yo'nalishlarga mo'ljallangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini tubdan oshirishni ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish va moliyalashtirishning konseptual jihatdan yangi modellarini shakllantirish, tibbiyot fani va texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini joriy etish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq:

Farmonda quyidagilar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblanishi belgilangan:

sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni uni unifikastiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;

jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini va hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning «klaster» modelini shakllantirish, tibbiyot va farmastevtika muassasalarini akkreditastiya qilish, shifokorlik va farmastevtik faoliyatni listenziyalash tizimini joriy etish;

tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilash, tibbiy xizmatlar uchun klinik-harajat guruhlari bo'yicha «har bir davolangan holat» uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, patronaj xizmati va dispanserizastiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;

tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, «Ona va bola» hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yaxshilash;

farmastevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;

tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o'tkazish) zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish asosida;

«elektron sog'liqni saqlash» tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish.

Farmonda 2019 — 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konstepstiyasi va 2019 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konstepstiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan.

Shuningdek, farmonda eksperiment natijalarini tanqidiy tahlil qilish asosida moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini 2022 yil 1 yanvardan boshlab respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tatbiq etilishi;

2019 yil 1 iyuldan boshlab viloyat va tuman (shahar) darajasidagi stasionar sog'liqni saqlash muassasalarida aralash moliyalashtirish tizimini joriy etish, bunda kafolatlangan bepul tibbiy xizmat hajmiga kirmaydigan davolash turlari pulli asosda amalga oshirilishi;

2019 yil 1 iyuldan boshlab ayrim davolash-profilaktika muassasalarini ishlab chiqilgan investitsiya loyihalari asosida belgilangan tartibda investorlarga ishonchli boshqaruvga berilishi;

2021 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida majburiy tibbiy sug'urtalashni bosqichma-bosqich joriy etilishi.

Hamda «Majburiy tibbiy sug'urtalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi, majburiy tibbiy sug'urtalashning huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlarini, majburiy tibbiy sug'urtalash subyektlarini, ushbu sohadagi

huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha vakolatli organi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash masalalari yuzasidan topshiriklar berilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2021 yil 25 martdagi PQ-5038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tashkil etilishi uning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari belgilab berilgan.

Jumladan Agentlik keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni yanada takomillashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning yagona siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

nogironlikni belgilashning keng qamrovli yagona tizimini yaratish maqsadida normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;

tibbiy-ijtimoiy muassasalarning keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish; muhtoj shaxslarni protez-ortopedik buyumlar va reabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlash faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish; tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitasiya qilish faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish masalalari belgilangan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021 yilning 12 iyunida 366 sonli «O'zbekiston Respublikasi tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori tasdiqlandi.

Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi to'g'risidagi nizom, agentlikning huquqiy maqomi, tuzilmasi, asosiy vazifalari va funkstiyalari, faoliyatini tashkil etish tartibi, uning hududiy bo'linmalarining huquqlari va javobgarligi, o'z tarkibiy bo'linmalari bilan hamda boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilishi, rahbarlarining asosiy funkstional vazifalari va javobgarligi, agentlikni moliyalashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish masalalari tasdiqlangan.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish

Konsepsiyasi tug'risida»gi PF-5590-son farmonida qisqacha O'zbekiston respublikasida sog'liqni saqlashning bugungi holatiga baxo berib, sog'liqni saqlashning sifatiga bo'lgan aholining tobora ortib borayotgan talablarini qondirish, joylarda to'planib qolgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirish va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishish imkonini bermaetganligi sababli quyidagi maqsadlar, vazifalar va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konstepstiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali sog'liqni saqlashning konseptual yangi modelini shakllantirish zarurati paydo bo'lganligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu farmon bilan 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konstepstiyasi (keyingi o'rinlarda Konstepstiya deb yuritiladi) sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek, Salomatlik-2020 va Barqaror taraqqiyot maqsadlari-2030 mintaqaviy siyosati doirasida aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi xalqaro shartnomalarga muvofiq ishlab chiqildi.

Jumladan, Konstepstiya Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan ilg'or mamlakatlar tajribasiga asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga olgan.

Konstepstiya maqsadlari:

1. Kasalliklarning va ko'pchilik hollarda bevaqt o'lim va nogironlikka olib keladigan holatlarning oldini olish va ularni davolash natijalarini yaxshilash orqali ko'tilayotgan umr ko'rish davrini oshirish.
2. Tibbiy yordamdan teng foydalanishni, aholini moliyaviy jihatdan himoya qilishni va resurslarni adolatli taqsimlashni ta'minlash uchun sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va tashkil etish tizimini isloh qilish.
3. Konstepstiya vazifalarini bajarish va respublika aholisiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilash uchun sog'liqni saqlashning boshqaruv organlari salohiyatini kuchaytirish, ularning rahbarlari roli va javobgarligini oshirish.

Konstepstiya vazifalari:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining xalqaro standartlari va tavsiyalarini implementastiya qilgan holda tarmoqni kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlash.
2. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida idoralararo samarali hamkorlik va aloqalar mexanizmlarini rivojlantirish, shu jumladan salomatlikning ijtimoiy va iqtisodiy determinantlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni hal qilish, sog'lom va xavfsiz atrof-muhitni rivojlantirish, suv ta'minoti va sanitariyani, sog'lom ovqatlanish, shu jumladan chaqaloqlar va bolalarning sog'lom ovqatlanishini yaxshilash, shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
3. Jamiyat sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, shu jumladan sanitariya-epidemiologiya xizmatini rivojlantirish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan surunkali kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish, Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalarini joriy etish va bajarish.
4. Sog'liqni saqlashning birlamchi va ikqilamchi darajadagi, tez tibbiy yordam tibbiyot muassasalarining samarali integrastiyasini ta'minlash uchun sog'liqni saqlashning tuman bo'g'inini isloh qilish, ona va bola sog'lig'ini saqlashni mustahkamlash, ixtisoslashgan va palliativ tibbiy yordamni takomillashtirish hamda rivojlantirish.
5. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va tashkil etish tizimini takomillashtirish, bepul tibbiy yordamning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini qonunchilik yo'li bilan mustahkamlab qo'yish hamda majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish.
6. Xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investistiyalarni keng jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish va raqobat muhitini yaxshilash.
7. Sog'liqni saqlash tizimi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparati va uning hududiy boshqaruv organlari tashkiliy tuzilmasini funkstional vazifalar va javobgarlik sohalarini aniq belgilagan holda takomillashtirish.
8. Tibbiyot va farmastevtika tashkilotlarini akkreditastiya qilish, shuningdek, shifokorlik va farmastevtika faoliyatini listenziyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.
9. Farmastevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, yangi dori vositalari va tibbiyot buyumlari hamda tibbiy texnikani ro'yxatga olish tartib-taomillarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, narx belgilash mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiyot buyumlari va

tibbiy texnikani ishlab chiqarish hajmlari hamda turlarini kengaytirish, ularni markirovkalash va tryoking tizimlarini joriy etish.

10. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirishning, tibbiyot ilm-fanini rivojlantirishning samarali tizimini, shu jumladan ilmiy va tibbiyot ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditastiya qilish), zamonaviy ta'lim dasturlari, usullari va texnologiyalarini joriy etish asosida shakllantirish.

11. "Elektron sog'liqni saqlash" tizimlarini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integrastiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari majmuini yaratish. Shu bilan birga farmonda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Jumladan :

2.2.1. Sog'liqni saqlash sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish

1. Sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonun hujjatlarini birxillashtirish va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan qonunlar qabul qilish orqali normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

2. Sog'liqni saqlash sohasidagi amaldagi qonun hujjatlarini bir-biriga muvofiqligiga erishish va qo'llash uchun qulayliklar yaratish maqsadida yagona hujjatda kodifikastiyalash, O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash kodeksini qabul qilish.

3. Bepul tibbiy yordamning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini huquqiy mustahkamlab qo'yish.

4. Majburiy tibbiy sug'urta sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

5. Onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasidagi, shu jumladan onalar va bolalarni emlash, dispanserizastiya qilish va ularga kafolatlangan bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibini belgilovchi qonun hujjatlarini takomillashtirish, Ko'krak suti o'rnini bosuvchi ozuqa marketingi to'g'risidagi xalqaro kodeks normalarini implementastiya qilish hamda Chaqaloqlarni va kichik yoshdagi bolalarni ovqatlantirish to'g'risidagi milliy dasturni qabul qilish.

6. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar marketingini tartibga solishning, shuningdek, aholining keng qatlamlarini jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga va sport tadbirlariga

jalb qilishga rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

7. Tibbiyot xodimlari o'z kasbiy majburiyatlariga rioya etishini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari yuzaga kelishining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan Tibbiyot xodimlarining axloq kodeksini qabul qilish va ularning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish.

8. Aholini, ayniqsa ehtiyojmand toifalarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish.

2.2.2. Sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish

1. Innovastion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan keng foydalanishga asoslangan davlat boshqaruvining zamonaviy shakllarini joriy etish orqali O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparati va hududiy organlar tuzilmasini takomillashtirish.

2. Tibbiy yordamning zarur bosqichma-bosqichligi va izchilligini ta'minlash uchun bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi har xil darajadagi va tor ixtisoslikdagi tibbiyot tashkilotlarini boshqaruvning yagona tizimiga integrastiya qilishni nazarda tutuvchi "klaster" yondashuvi asosida hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etish tizimini takomillashtirish.

3. Tibbiy yordam ko'rsatish darajalari, hajmi va turlari bo'yicha tibbiyot tashkilotlari toifalari klassifikatorini, shuningdek, ularni qurish, moddiy-texnik va aholi jon boshiga hisoblab chiqqan holda, aholi zichligini va transport infratuzilmasi rivojlanganligini hisobga olib, kadrlar bilan ta'minlash normativlarini ishlab chiqish.

4. Tibbiyot va farmastevtika tashkilotlari hamda faoliyati giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar aylanmasi bilan bog'liq tashkilotlarni akkreditastiya qilishning, shuningdek, shifokorlik va farmastevtika faoliyatini listenziyalashning mexanizmlarini ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etish.

5. Xalqaro standartlar asosida menejment va tibbiyot xizmatlari sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini, shuningdek, aholining sog'liqni saqlash sifatidan qoniqqanligini baholash mexanizmlarini joriy etish.

6. Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni ijtimoiy himoya qilishning ular malakasiga, ko'rsatiladigan tibbiy xizmat hajmi,

murakkablik darajasi va sifatiga qarab toifalangan zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, shu jumladan qo'llanilayotgan tarmoq tarif setkasi o'rniga tibbiyot xodimi faoliyati natijalariga qarab klinik-harajat guruhlari va jon boshiga moliyalashtirishning tegishli mezonlariga ko'ra to'lanadigan mehnatga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari va o'zgaruvchan (mukofotlash) stavkasini joriy etish.

7. Birlamchi tibbiyot-sanitariya yordami muassasalari, ayniqsa qishloq joylardagi muassasalarning tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

8. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tizimini takomillashtirish, ularning sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etilishini, fuqarolar sog'lig'i xavfsizligi ta'minlanishini nazorat qilishdagi roli va javobgarligini oshirish, kasallik qo'zg'atuvchi omillarga laboratoriyada va ekspress tashxis qo'yishning yangi texnologiyalarini joriy etish.

9. Tibbiyot tashkilotlarining asbob-uskunalar, sarflash materiallari va ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlashning yagona mexanizmlari va standartlarini joriy etish, ularni hisobga olishning axborot tizimini yaratish.

10. Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tibbiyot uskunalariga texnik xizmat ko'rsatadigan va ularni metrologik tekshiradigan hududiy xizmatlarni tashkil etish.

2.2.3. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish

1. Quyidagilarni nazarda tutadigan klinik-harajat guruhlari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun tibbiy xizmatlarga haq to'lash tizimini va jon boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish:

hududlarning xususiyatlari, muassasalar turi, aholi zichligi va boshqa omillarni hisobga oluvchi toifalangan tuzatish koeffitsientlariga ega moliyalashtirishning yagona jon boshiga to'g'ri keladigan normativini joriy etish hisobiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining hududiy byudjet ta'minlanganligini tenglashtirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

respublika, viloyat va tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam xizmatlariga klinik-harajat guruhlari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun haq to'lashning zamonaviy usullariga o'tish;

davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam dasturlari bo'yicha tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun tibbiy xizmatlarning davlat va xususiy yetkazib beruvchilari bilan kontraktlar tuzish tizimiga o'tish.

2. Asoslangan strategik qarorlar qabul qilish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urta dasturlari joriy etilishini qo'llab-quvvatlash uchun sog'liqni saqlashga sarflanadigan harajatlarni hisobga olish va daliliy bazani tashkil etish maqsadida sog'liqni saqlash hisobvaraqlari milliy tizimini yaratish.

3. Majburiy tibbiy sug'urta dasturlari bo'yicha moliyaviy mablag'larni jamlovchi va taqsimlovchi Majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish.

4. Respublikaning barcha hududlarida tibbiy xizmatlarning kafolatlangan hajmlarini hisoblab chiqish va klinik-harajat guruhlarini shakllantirish asosida bemorlarning maqsadli kontingentlari va tibbiy yordamning maqsadli turlari uchun majburiy tibbiy sug'urtaga oid maxsus dasturlarni joriy etish.

5. Fuqarolarni tibbiy resurslardan oqilona foydalanish hamda o'z sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashdan manfaatdor bo'lishga undaydigan dasturlarni joriy etish.

6. Respublika fuqarolarini majburiy tibbiy sug'urta bilan to'liq qamrab olishni bosqichma-bosqich ta'minlash.

2.2.4. Tibbiy yordam sifati va qulayligini oshirish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish

1. Yirik ko'p tarmoqli davolash muassasalarini, shu jumladan tor ixtisoslikdagi maxsus tibbiyot tashkilotlarini (ularning filiallarini) birlashtirish hisobiga tashkil etish orqali joylarda yuqori sifatli tibbiyot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish.

2. Asosiy va eng ko'p uchraydigan kasalliklar va holatlar bo'yicha isbotlovchi tibbiyotga asoslangan hamda xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilgan milliy klinik standartlarni ishlab chiqish va joriy etish.

3. Xizmatlar ko'rsatish texnologiyasi, zarur kadr resurslari, dori vositalari va sarflash materiallari tavsiflashni nazarda tutadigan sog'liqni saqlash sohasidagi tibbiy xizmatlarning yagona reestrini yaratish.

4. Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlarining maqbul ketma-ketligi va izchilligini ta'minlaydigan bemorlarga yo'nalish beruvchi sxemalarni ishlab chiqish hamda joriy etish.
5. Oliy tibbiy ta'lim muassasalarining klinikalarini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, shu jumladan "ta'lim - amaliyot - fan" aloqasi yagonaligi prinsipi asosida ularni 4-darajagacha modernizastiya qilish.
6. Sog'liqni saqlash amaliyotiga xalqaro standartlarga muvofiq kichik invaziv yuqori texnologik jarrohlik aralashuvlarini (radiojarrohlik, mikrojarrohlik, robotlashtirilgan jarrohlik, shuntlash va boshqalar) joriy etish, qisqa muddatli bir kunlik ambulatoriya jarrohlik yordamini ("bir kunlik jarrohlik"ni) rivojlantirish.
7. Tibbiyot tashkilotlarida individual elektron qurilmalar yordamida qayd etilgan xavf ostidagi guruhga kiruvchi ambulatoriya bemorlarining sog'lig'i ko'rsatkichlari o'zgarishiga shoshilinch choralar ko'rish tizimini yaratish.
8. Shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmatini yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash (qiyin yo'llarda yura oladigan avtomobillar, reanimobillar va aviastiya texnikasi bilan jihozlash), shoshilinch va favqulodda holatda harakatlanuvchi boshqa xizmatlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish.
9. Regenerativ, shu jumladan biotibbiy hujayra, additiv va boshqa yangi texnologiyalarga asoslangan tibbiyotni rivojlantirish.
10. Prediktiv tibbiyotni rivojlantirish (nasliy moyillikning oldini olish), sog'liq holatiga molekulyar-genetik tashxis qo'yish, skrining va monitoring qilishning zamonaviy usullarini joriy etish.
11. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar rivojlanish omillarini, shu jumladan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida xavf ostidagi guruhga kiradigan bemorlar orasida dispanserizastiya va skrining-tadqiqotlarni, patronaj va dispanserizastiyaning samarali modellarini joriy etish, reabilitastiya tibbiyotini rivojlantirish, "uyda stastionar" xizmatini kengaytirish orqali erta aniqlash.
12. Katta va keksa yoshdagi fuqarolarga uzoq muddatli tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy modelini yaratish, uyda ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqa qator chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi gerontologik yordam sifati va qulayligini oshirish.
13. Jamiyat sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishni keng targ'ib qilish, fuqarolarda o'z

salomatligi va atrofdagilar sog'lig'i uchun javobgarlik hissini shakllantirish, shuningdek ularning madaniyati va tibbiy savodxonligini oshirish.

14. Mikrobgga qarshi chidamlilik tarqalishining oldini olish, shu jumladan mikrobgga qarshi terapiyaning oqilona sxema va reglamentlariga qat'iy rioya qilish, antibakterial terapiya tayinlashda mikrobiologiya diagnostikasi usullarini rivojlantirish va kengaytirish, antibakterial preparatlarning yangi turlarini ishlab chiqish.

2.2.5. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish

1. Reproduktiv yoshdagi ayollarga va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini, shu jumladan quyidagilarni tashkil etish orqali kengaytirish va oshirish:

markaziy tuman (shahar) ko'p tarmoqli poliklinikalarida reproduktiv salomatlik va xavfsiz onalik, prenatal diagnostika kabinetlari (onalar skriningi), shuningdek, bolalar bo'limlari;

bolalar stasionar muassasalarida tez tibbiy yordam pediatriya brigadalari va shoshilinch postlarni kengaytirish hisobiga bolalarga kechayu kunduz shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;

tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida bolalar qabul bo'limlari, bolalar reanimastiyasi va intensiv terapiya bo'limlari qabulxonalari.

2. Irsiy, genetik, birlamchi immunitet tanqisligi (orfan), tug'ma va orttirilgan kasalliklarga chalingan bolalarga tashxis qo'yish, ularni davolash va reabilitastiya qilish tizimini, shu jumladan tug'ma, surunkali kasalliklarga chalingan va nogironligi bo'lgan bolalarni reabilitastiya qilish markazlarini tashkil etish orqali takomillashtirish.

3. Irsiy kasalliklarga moyil bo'lgan, xavf ostidagi guruhga kiradigan bolalarga erta yordam berish dasturlarini amalga oshirish.

4. Bolalar o'limi va nogironligini kamaytirishga qaratilgan milliy loyihalarni, shu jumladan o'smirlarning jismoniy va ruhiy-ijtimoiy osoyishtaligiga ko'maklashuvchi "Bolalikda uchraydigan kasalliklarni integrastiyalashgan holda yuritish", "Bolalarning jarohat olishi va bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish", "Chaqaloqlar salomatligi", "O'smirlar salomatligi", "Jismoniy tarbiya va sport", "Sog'lom maktab muhitini shakllantirish" dasturlarini amalga oshirish.

5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan maktab yoshidagi bolalarni o'rganishning zamonaviy usullari va dasturlaridan keng foydalanish, "Maktab yoshidagi bolalar sog'lig'iga nisbatan

xulqini tekshirish" (HBSC) Evropa hamkorlik tarmog'iga hamda Bolalar semirishini epidemiologik nazorat qilish Evropa tarmog'iga (COSI) O'zbekistonning qo'shilishi.

6. Onalar va bolalarga ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik, shu jumladan mikrojarrohlik va kichik invaziv tibbiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish.

7. "Ona va bola" yirik ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida bosqichma-bosqich, shu jumladan samarasi past va tor ixtisosdagi davlat tibbiyot tashkilotlarini birlashtirish orqali tashkil etish.

2.2.6. Xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi xususiy sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish:

hududlar ehtiyojini hisobga olgan holda nodavlat tibbiyot tashkilotlari uchun ambulatoriya va stasionar tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;

aholining ehtiyoji katta bo'lgan tibbiyotning ayrim yo'nalishlari rivojiga investitsiyalar, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng tatbiq etish;

nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining sog'liqni saqlash sohasidagi rolini kuchaytirish, shuningdek, ularning negizida xususiy sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan axborot bilan ta'minlash uchun yagona dispetcher xizmati (Call-markazi) tashkil etish.

2. Sog'liqni saqlash sohasiga quyidagi shakllarda davlat-xususiy sheriklikni joriy etish:

xususiy tibbiyot tashkilotlari binolarini qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan er uchastkalarini bepul asosda ijaraga berish;

mavjud davlat tibbiyot tashkilotlarini rekonstruktsiya qilish va jihozlash sharti bilan xususiy tibbiyot tashkilotlari obyektlari qurish uchun bepul asosda er uchastkalari taqdim etish;

kam foydalaniladigan yoki rekonstruktsiya qilish yoxud kapital ta'mirlashni (qayta jihozlashni) talab qiladigan mavjud davlat tibbiyot tashkilotlarini ijaraga berish;

bino qurish yoki rekonstruktsiya qilish, konstessiya asosida jihozlash uchun er uchastkasi ajratish;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini, shu jumladan ishlamayotgan davlat tibbiyot tashkilotlari binolarini "nol" harid qiymati bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilish;

davlat tibbiyot tashkilotlarining ayrim funktsiyalari yoki xizmatlarini tadbirkorlik subyektlariga outsorsing asosida o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilab beriladigan boshqa shakllarda.

3. Mamlakatimiz tibbiyot tashkilotlarining turistik salohiyatini tubdan oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasida kirish tibbiyot turizmini rivojlantirish strategiyasini va uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l haritasi"ni ishlab chiqish.

4. Yirik davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlarni ham mamlakat ichida, ham xorijda ilgari surish uchun mas'ul bo'lgan marketing va tibbiyot turizmini rivojlantirish, chet el fuqarolarini, shuningdek, ularga hamroh bo'lgan shaxslarni qabul qilish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha maxsus tarkibiy tuzilmalar yaratish.

5. Kirish tibbiyot turizmini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar bilan kompleks bog'liq holda chet el fuqarolariga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, chet el investitsiyalari, shuningdek, tibbiyot tashkilotlarining turistik infratuzilmasini rivojlantirishga xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlar kreditlari va grantlarini jalb qilish.

6. Etakchi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining salohiyatini va ular ko'rsatadigan xizmatlarni, shu jumladan estetika jarrohligi, kardiojarrohlik, neyrojrohlik, urologiya imkoniyatlarini ommaviy axborot vositalarida PR-kompaniyalar, konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish orqali keng targ'ib qilish.

2.2.7. Farmastevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish

1. Quyidagilarni imkonini beruvchi Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini markirovkalash hamda ular harakatlanishining monitoringini olib borish axborot tizimini joriy etish:

dori vositalari va tibbiyot buyumlari har bir qadog'ining ishlab chiqarilgan yoki import qilingan vaqtdan boshlab iste'molchiga etib borgan vaqtgacha harakatlanishini kuzatish;

sifatsiz va kontrafakt dori vositalari hamda tibbiyot buyumlarining butun respublika bo'ylab profilaktikasi va muomaladan darhol olib qo'yilishi;

ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari narxini belgilash ustidan monitoring olib borish;
barcha darajalarda dori vositalari va tibbiyot buyumlari zaxiralari va rezervlarini tezkor rejalashtirish va boshqarish;
iste'molchilar tomonidan mobil ilova yordamida harid qilinadigan (olinadigan) dori vositalari va tibbiyot buyumlari qonuniyligini tekshirish.

2. Qimmat turadigan dori terapiyasini talab qiladigan bemorlar registrilarini shakllantirish.

3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qayta malakalangan immunobiologik preparatlarni jadal ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomilini joriy etish.

4. Dori vositalarini, tibbiyot buyumlarini va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ularni xalqaro talablarga uyg'unlashtirish.

5. Rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribasi asosida dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiy texnika uchun referent narx belgilashni bosqichma-bosqich joriy etish.

6. Farmastevtika tashkilotlarini sifat menejmenti tizimlarini va tegishli ishlab chiqarish amaliyotini (GMP va boshqalar) joriy etishga rag'batlantirish.

7. Ambulatoriya va stasionar davolashda fuqarolarni ta'minlash uchun byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadigan dori vositalari ro'yxatini shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish va takomillashtirish.

8. Respublika hududida o'sadigan dorivor o'simliklar plantastiyalarini tashkil etgan holda ularni etishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, o'simlik xom ashyosi asosida dori vositalari ishlab chiqaruvchi mamlakatimiz korxonalarini keng qo'llab-quvvatlash.

9. Ixtisoslashgan farmastevtika erkin iqtisodiy zonalari hududida tayyor dori vositalari va substansiyalar ishlab chiqaruvchi yangi farmastevtika korxonalarini tashkil etishga doir yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish.

2.2.8. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, tibbiyot ilm-fanini rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirish

1. O'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning amaliy jihatlarini oshirish orqali oliy ta'lim va oliy o'quv

yurtidan keyingi ta'limning ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish.

2. Klinik ixtisoslikni egallash murakkabligidan kelib chiqib, magistratura va klinik ordinaturada (rezidenturada) yuqori malakali kadrlar tayyorlash muddatlarini xalqaro standartlarga muvofiq 1 yildan 5 yilgacha etib optimallashtirish.

3. Xorijiy tibbiyot ta'lim muassasalari bilan keng hamkorlik qilish, shu jumladan ularning filiallari va fakultetlarini ochish, shuningdek, ikkita diplom berish tizimini joriy etish.

4. Ta'lim dasturlarini amalga oshirishda tarmoq hamkorligi va ochiq kurslardan foydalanish orqali xorijiy universitetlar resurslaridan foydalanish hisobiga ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek tibbiy ta'limning elektron milliy platformalarini ishlab chiqish va elektron ta'lim muhitini shakllantirish.

5. Ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni sog'liqni saqlash amaliyotiga integratsiya qilishda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari klinikalari va o'quv bazalarining rolini kuchaytirish.

6. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, ularni davolash-tashxis qo'yish jarayonida ishtirok etganligi uchun moddiy rag'batlantirish yo'li bilan yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar professor-o'qituvchilari rolini oshirish.

7. Quyidagilarni joriy etish orqali ta'lim uzluksizligini ta'minlovchi tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimini takomillashtirish:

o'qitishning ball (jamg'arib borish) tizimi;

muammoga yo'naltirilgan modul o'quv dasturlari;

masofaviy o'qitish dasturlari;

uzluksiz tibbiy ta'limni tashkil etishda ko'maklashish uchun interaktiv portal.

8. Tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar, shu jumladan GCP (Good clinical practice) standarti bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiya qilish) asosida tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish, tibbiyot ilmiy fanini rivojlantirish tizimi samaradorligini oshirish.

9. Tibbiyot ta'lim muassasalarida o'qitish to'ldirilgan va virtual reallik sharoitida, tibbiy trenajyor va manekenlarda olib boriladigan simulyastion markazlarni tashkil etish.

10. Tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarining bazaviy hamda dasturiy-maqсадli moliyalashtirilishini, innovastion ishlanmalar va texnologiyalar transferini amalga oshirish uchun tibbiyot va ilmiy jamoalarni davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, ularni sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etish.

11. Oliy tibbiyot o'quv muassasalari tibbiy-profilaktik yo'nalishi kafedralarining ta'lim dasturlari tan olingan xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Evropa mintaqasida jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi uyushmasi (ASPHER - The Association of Schools of Public Health in the European Region) tomonidan akkreditastiya qilinishini ta'minlash.

2.2.9. Axborot-kommunikastiya texnologiyalari va "elektron sog'liqni saqlash"ni keng joriy etish

1. Quyidagi imkoniyatlarni nazarda tutuvchi "Elektron sog'liqni saqlash" tizimini joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integrastiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari majmuini tashkil etish:

a) aholi uchun:

tibbiyot tashkilotlari va ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar to'g'risida axborot olish;

shifokorlar malakasi, ish staji, qabul vaqti haqida axborot olish, shuningdek, "elektron navbat", shu jumladan masofadan navbatni band qilib qo'yish imkoniyatini tashkil etish;

ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini, shu jumladan tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash;

mobil ilovalar orqali tizimdan foydalanish;

b) tibbiyot tashkilotlari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari:

muassasani rivojlanishning innovastion ijtimoiy yo'naltirilgan tipiga aylantirish;

sog'liqni saqlash sohasida standartlashtirish tizimini amalga oshirish;

elektron hujjat bilan ishlashni joriy etish orqali ish jarayonini optimallashtirish (tibbiyot kartalari va kasalliklar tarixlarini to'ldirish, "elektron resteptlar" berish);

tibbiyot xodimlari, dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiy texnika, sarflash materiallari hisobini va monitoringini yuritish;

davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam dasturlari bo'yicha moliyaviy operastiyalar amalga oshirish va monitoringini yuritish, tibbiyot tashkilotlarining bo'lajak harajatlarini baholash, shuningdek ehtimoli bo'lgan xatarlarni tahlil qilish;

tibbiy statistika, hisob va hisobot yuritish, shuningdek, sog'liqni saqlash milliy hisobvaraqlari tizimini qo'llab-quvvatlash;
boshqa tibbiyot tashkilotlari axborot tizimlari bilan integrastiyalash va axborot almashish;

2. Tibbiyot tashkilotlari ish ko'rsatkichlari va tarmoqning rivojlanish holatini monitoring qilishning asosiy mexanizmi sifatida axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanish.

3. Tibbiyot tashkilotlari o'rtasida axborot almashish hamda masofaviy tibbiy va ta'lim xizmatlarini (maslahatlashuvlar, konsiliumlar, operastiyalar, master-klasslar va hokazolar) o'tkazish uchun teletibbiyotni rivojlantirish.

Farmonda kontseptsiyani amalga oshirishdan ko'tilayotgan natijalar ham yoritilgan. Konstepstiyani amalga oshirish natijasida quyidagilar ko'tilmoqda:

- barqaror taraqqiyot sohasida milliy maqsadlar va vazifalarga erishish;

- Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar standartlari va tavsiyalarini milliy qonun hujjatlariga implementastiya qilish, Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalarini amalga oshirish;

- sog'liqni saqlash xizmatlari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash, malakali, ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologik tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini oshirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini rivojlantirish;

- davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmlarini qonunchilik yo'li bilan belgilab qo'yish;

- respublika fuqarolarini majburiy tibbiy sug'urta dasturlari bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;

- sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni oshirish, tibbiy xizmatlar ko'rsatishda byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanish, tibbiyot va farmastevtika xodimlari mehnatiga munosib haq to'lanishini ta'minlash;

- respublika hududlarini tibbiyot va farmastevtika kadrlari bilan to'liq hamda teng hajmda ta'minlashga erishish;

- jamiyat sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash masalalari bo'yicha idoralararo hamkorlikni rivojlantirish;

- aholiga reabilitastiya va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish;

- umr ko'rishni 75 yoshgacha oshirish;

- onalar o'limi ko'rsatkichini 15 foizga kamaytirish;
- chaqaloqlar va besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limini 30 foizga kamaytirish;
- aholi orasida yurak-tomir, onkologiya kasalliklari, qandli diabet va surunkali nafas yo'llari kasalliklaridan bevaqt o'lishni 15 foizga kamaytirish;
- aholining sil, OIV, gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga chalinish darajasini kamaytirish.

2.3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 02.10.2020 yildagi "SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI PQ-4847-sonli

Sog'liqni saqlash vazirligining markaziy apparati tuzilmasiga sog'liqni saqlash vazirining tibbiy yordamni tashkillashtirishga, ixtisoslashgan tibbiy xizmat va yangi texnologiyalarni joriy etishga, onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda reproduktiv salomatlikni ta'minlashga, strategik va raqamli tibbiyotni rivojlantirishga, moliya, investitsiya va moddiy ta'minotga mas'ul o'rinbosar lavozimlari kiritildi.

Shuningek, Toshkent shahrida joylashgan barcha davlat tibbiyot muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, ularda zamonaviy profilaktika, diagnostika va davolash uslublarini joriy qilish, xalqaro standartlardan qolishmaydigan tibbiyot infratuzilmasini yaratish maqsadida sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari — Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimi kiritildi.

Qaror bilan Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining tashkiliy tuzilmasi, markaziy apparatining tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari namunaviy tuzilmalari va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi tuzilmasi tasdiqlangan.

2.4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI BILAN MAJBURIYATLARNING AYRIM TURLARI

1017-modda. Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yyetkazilgan zararning o'rnini qoplash asoslari

Tovarning (ishning, xizmatning) konstruktiv, restepturaviy yoki boshqa nuqsonlari oqibatida, shuningdek tovar (ish, xizmat) to'g'risidagi

ma'lumot noto'g'ri yoki yetarli emasligi oqibatida fuqaroning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yoxud yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi yoki tayyorlovchi (ijrochi) tomonidan, ularning aybidan va jabrlanuvchi ular bilan shartnoma munosabatlarida bo'lgani yoki bo'lmaganidan qat'i nazar, qoplanishi lozim.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar tovarni (ishning bajarilishi, xizmatning ko'rsatilishi) tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun emas, balki iste'mol maqsadlari uchun sotib olingan hollardagina qo'llaniladi.

1018-modda. Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslar

Tovarning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar jabrlanuvchining tanloviga ko'ra tovarning sotuvchisi yoki tayyorlovchisi tomonidan qoplanishi lozim.

Ishning (xizmatning) nuqsoni oqibatida yetkazilgan zarar ishni bajargan yoki xizmatni ko'rsatgan shaxs (ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) to'g'risida to'liq yoki ishonchli ma'lumot bermaganlik oqibatida yetkazilgan zarar ushbu moddaning qoidalariga muvofiq qoplanishi lozim.

1019-modda. Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash muddatlari

Tovarning (ishning, xizmatning) nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar, agar u tovarning (ishning, xizmatning) belgilangan yaroqlilik muddatlari mobaynida yetkazilgan bo'lsa, qoplanishi lozim, mabodo yaroqlilik muddati belgilanmagan bo'lsa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilib olingan) kundan boshlab o'n yil mobaynida qoplanishi lozim.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan muddatlardan tashqari zarar quyidagi hollarda qoplanishi lozim, agar:

qonun talablari buzilib yaroqlilik muddati belgilanmagan bo'lsa; tovarni sotib olgan, ishni bajartirgan yoki xizmatdan foydalangan shaxs yaroqlilik muddati tugaganidan keyin zarur bo'lgan harakatlarni qilishi to'g'risida va ko'rsatilgan harakatlar bajarilmagan taqdirda kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risida ogohlantirilmagan bo'lsa.

1020-modda. Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilish asoslari

Tovarning sotuvchisi yoki tayyorlovchisi, ishning (xizmatning) ijrochisi, zarar engib bo'lmas kuch ta'sirida yoki iste'molchi tovarlarni saqlash yoki ulardan (ishning natijalaridan, xizmatlardan) foydalanish yuzasidan

belgilangan qoidalarni buzishi oqibatida yetkazilganligini isbotlagan hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi.

Ma'naviy zararni qoplash

1021-modda. Umumiy qoidalar

Ma'naviy zarar uni yetkazuvchining aybi bo'lgan taqdirda, zarar yetkazuvchi tomonidan qoplanadi, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

- Ma'naviy zarar uni yetkazuvchining aybidan qat'i nazar, quyidagi hollarda qoplanadi, agar:

- zarar fuqaroning hayoti va sog'lig'iga oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan bo'lsa;

- zarar fuqaroga uni qonunga xilof tarzda hukm qilish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat olishni qonunga xilof tarzda qo'llanish, qonunga xilof tarzda ma'muriy jazo qo'llanish va qonunga xilof tarzda ushlab turish natijasida yetkazilgan bo'lsa;

- zarar or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro'-e'tiborini haqoratlovchi ma'lumotlarni tarqatish tufayli yetkazilgan bo'lsa;

- qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

1022-modda. Ma'naviy zararni qoplash usuli va miqdori

Ma'naviy zarar pul bilan qoplanadi.

Ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniqlashda oqilonalik va adolatlilik talablari e'tiborga olinishi lozim.

Jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati ma'naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanadi.

Ma'naviy zarar to'lanishi lozim bo'lgan mulkiy zarardan qat'i nazar qoplanadi.

2.5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY JAVOGBARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI BILAN HAM AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASI

Jumladan :

46-modda. Fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish

Tibbiy yoki tijorat sirlarini, yozishma va boshqa xabarlar, notarial harakatlar, bank operastiyalari va jamg'armalar sirlarini, xuddi shuningdek fuqaroga, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ma'naviy yoxud moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor etish, basharti ushbu Kodeksning 46-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lmasa, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

2.6. AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK

52-modda. Yengil tan jarohati yetkazish

Ehtiyotsizlik orqasida engil tan jarohati yetkazish — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qasddan engil tan jarohati yetkazish, bu harakat sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmagan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

53-modda. Sanitariya qonunchilikni buzish

Sanitariya qonunchilikni, sanitariya normalarini, qoidalarini va gigiena normativlarini buzish — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

54-modda. Epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish

Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatli organning maxsus talablariga zid ravishda jamoat joylarida niqobsiz bo'lish — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishining yoki tarqalishining oldini olish maqsadida belgilangan majburiy qoidalarni buzish, shu jumladan karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida shifoxonadagi ichki tartibga rioya etmaslik, davlat sanitariya nazorati organlarining tibbiy tekshiruvdan o'tish va

davolanish, karantinni o'tash uchun belgilangan joylarga etib borish va ushbu joylarni belgilangan muddat davomida tark etmaslik, kasallik yuqish xavfi mavjud bo'lgan davrda muloqotda bo'lingan shaxslar va borilgan joylar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risidagi yoki boshqa qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

55-modda. Radiastion xavfsizlikka doir qoidalar, normalar, yo'riqnomalar va boshqa talablarni buzish

Radiastion xavfsizlikka doir qoidalar, normalar, yo'riqnomalar va boshqa talablarni buzish — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

56-modda. Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g'ayriqonuniy ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish

Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay oz miqdorda g'ayriqonuniy ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish — giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga yoxud giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni musodara qilib, o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosiga sabab bo'ladi.

57-modda. Tanosil kasalligi yoki OIV kasalligi/OITS yuqadigan manbani yashirish

Tanosil kasalligiga yoki OIV kasalligi/OITSGa uchragan bemorning kasallik yuqtirilgan manbani, shuningdek o'zi bilan aloqa qilib tanosil kasalligi va OIV kasalligi/OITS yuqishi xavfini tug'dirgan shaxslarni yashirishi —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

58-modda. Tanosil kasalligiga yoki OIV kasalligi/OITSGa uchragan shaxslarning tekshirishdan bo'yin tovlashi

Tanosil kasalligiga yoki OIV kasalligi/OITSGa uchraganligi haqida yetarli ma'lumotlar bo'lgan shaxslarning sog'liqni saqlash organlari tomonidan ogohlantirilganidan keyin ham tekshirishdan bo'yin tovlashi

bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

59-modda. OIV kasalligi/OITS yuqqan-yuqmaganligini aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazishda, shuningdek tibbiy va kosmetik muolajalarni o'tkazishda xavfsizlikni yetarli darajada ta'minlamaganlik

OIV kasalligi/OITS yuqqan-yuqmaganligini aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazishda, shuningdek OIV kasalligi/OITSni yuqtirishga olib keladigan tibbiy va kosmetik muolaja o'tkazishda xavfsizlikni yetarli darajada ta'minlamaganlik —

bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

59-modda. Hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan shaxsga shoshilinch va (yoki) kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishni asossiz ravishda rad etish

Hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan shaxsga tibbiyot tashkilotlarida qonunga yoki maxsus qoidalarga muvofiq shoshilinch va (yoki) kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishi kerak bo'lgan shaxs tomonidan shunday yordam ko'rsatishni asossiz ravishda rad etish —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

2.7. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI BILAN HAM AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASI

Jumladan :

111-modda. Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish

hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ehtiyotsizlik orqasida badanga og'ir shikast yetkazish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi

Ehtiyotsizlik orqasida ikki yoki undan ortiq shaxs badaniga o'rtacha og'ir yoki badanga og'ir shikast yetkazish bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan etmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

2.8. III bob. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

112-modda. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, agar bu harakat amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) o'ta xavfli restidivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

113-modda. Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish

Bila turib, boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'zida tanosil kasalligi borligini bila turib, bu kasalni boshqa shaxsga yuqtirish bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz

baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

b) voyaga etmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bila turib, boshqa shaxsni OIV kasalligi/OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirish yoki unga OIV kasalligi/OITSni yuqtirish besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

114-modda. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)

Shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo'lmagan holda sun'iy ravishda homila tushirish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solish yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Sun'iy ravishda homila tushirishga huquqi bo'lmagan shaxsning bunday ishni amalga oshirishi bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar ehtiyotsizlik orqasida:

a) jabrlanuvchining o'lishiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

115-modda. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, agar homila sun'iy tushirilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

116-modda. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik

Shaxsning o'z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida odam o'lishiga sabab bo'lsa, — ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

117-modda. Xavf ostida qoldirish

Hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, basharti, aybdor bunday ahvoldagi shaxsga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo'lsa yoxud aybdorning o'zi jabrlanuvchini

xavfli ahvolga solib qo'ygan va bu hol badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga olib kelsa, —
uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmish odam o'lishiga sabab bo'lsa, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

IV bob. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar

118-modda. Nomusga tegish

Nomusga tegish, ya'ni zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish uch yildan etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nomusga tegish:

a) ikki yoki bir necha shaxsga nisbatan;

b) takroran yoki xavfli restidivist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 119-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan;

g) o'ldirish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nomusga tegish:

a) shaxsning o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan holda;

b) yaqin qarindoshga nisbatan;

v) ommaviy tartibsizliklar qatnashchisi tomonidan;

g) o'ta xavfli restidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

d) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsning nomusiga tegish o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

119-modda. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish

Zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish uch yildan etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- b) takroran, xavfli restidivist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 118-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan;
- g) o'ldirish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) jabrlanuvchining o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan holda;
- b) yaqin qarindoshiga nisbatan;
- v) ommaviy tartibsizliklar qatnashchisi tomonidan;
- g) o'ta xavfli restidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;
- d) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan harakatlar o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

120-modda. Besoqolbozlik

Besoqolbozlik, ya'ni erkakning erkak bilan zo'rlik ishlatmasdan jinsiy ehtiyojini qondirishi bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

121-modda. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish

Xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majbur etish uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha harakat jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa, — uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

124-modda. Bolani almashtirib qo'yish

Tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda qasddan bolani almashtirib qo'yish —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

125-modda. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish

Farzandlikka bola oluvchilarning yoki vasiylik va homiylik organining erkiga qarshi, yetim yoki ota-ona g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka olishning qonun bilan qo'riqlanadigan sirini oshkor qilish —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) kasb faoliyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra farzandlikka olishni sir saqlashi shart bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

b) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;

v) og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

125-modda. Nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni buzish

Nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga etmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo

qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

126-modda. Ko'p xotinli bo'lish

Ko'p xotinli bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

127-modda. Voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish

Voyaga yetmagan shaxsni spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyovandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lyokin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga etmagan shaxsni giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga etmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq voyaga etmagan shaxsga nisbatan;

v) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi — besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

190-modda. Faoliyat bilan listenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug'ullanish

Xabardor qilish tartibida amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyat (harakatlar) bilan xabarnoma yubormasdan shug'ullanish juda ko'p miqdorda daromad olish bilan bog'liq bo'lsa,

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida jarima yoki bir yilgacha muayyan huquqlardan mahrum qilish yoxud bir yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) xavfli restidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining etmish baravari miqdorda jarima yoki ikki yuz soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar) bilan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz shug'ullanish juda ko'p miqdorda daromad olish bilan bog'liq bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining qirq baravari miqdorida jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqlardan mahrum qilish yoxud ikki yuz o'ttiz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki o'n oygacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) xavfli restidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining to'qson baravari miqdorida jarima yoki ikki yuz ellik soatdan to'rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Listenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat bilan listenziyasiz shug'ullanish juda ko'p miqdorda daromad olish bilan bog'liq bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik besh baravari miqdorida jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) xavfli restidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida jarima yoki uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda faoliyat bilan listenziyasiz,

shuningdek faoliyat (harakatlar) bilan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoki xabarnoma yubormasdan shug'ullanish oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

191-modda. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish

Sir to'tiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotni egasining roziligisiz oshkor qilish yoki undan foydalanish maqsadida har qanday usulda to'plash — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Sir to'tiladigan fan-texnikaga, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid va boshqa shu kabi axborotni egasining roziligisiz qasddan oshkor qilish yoki undan foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektga ko'p miqdorda zarar yetkazgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

2.9. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT KODEKSI BILAN HAM AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASI

174-modda. Korxonada mehnat tartibi

Korxonada mehnat tartibi ish beruvchi kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib tasdiqlaydigan ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi.

175-modda. Intizom to'g'risidagi ustav va nizomlar

Xalq xo'jaligining ba'zi tarmoqlarida xodimlarning ayrim toifalari uchun intizom to'g'risidagi ustav va nizomlar amal qiladi.

176-modda. Xodimning burchlari

Xodim o'z mehnat vazifalarini halol, vijdonan bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniq bajarishi, texnologiya intizomiga, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilishi, ish beruvchining mol-mulkini avaylab asrashi shart.

Xodimning mehnat vazifalari ichki tartib qoidalarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda, korxonada qabul qilinadigan lokal hujjatlarda (jamoat shartnomalarida, yo'riqnomalar va hokazolarda), mehnat shartnomasida aniq belgilab qo'yiladi.

177-modda. Ish beruvchining burchlari

Ish beruvchi xodimlar mehnatini tashkil qilishi, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini yaratib berishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomini ta'minlashi, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etishi, xodimlarning ehtiyoj va talablariga e'tibor bilan qarashi, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilab borishi, ushbu Kodeksga muvofiq jamoat shartnomalarini tuzishi shart.

Ish beruvchi xodimdan uning mehnat vazifalari doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xilof yoki xodim va boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diruvchi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishni talab etishga haqli emas.

178-modda. Xodimlarni ularga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan tanishtirish

Har bir xodim o'ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasi bilan oldindan tanishtirilishi lozim.

179-modda. Mehnat intizomini ta'minlash

Mehnati intizomi halol mehnat uchun rag'batlantirish va mukofotlash usullari bilan normal tarzda ishlashga zarur tashkiliy va iqtisodiy

sharoitlarni yaratib berish, noinsof xodimlarga nisbatan jazo choralarini qo'llanish orqali ta'minlanadi.

180-modda. Mehnat uchun rag'batlantirish

Ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish turlari, ularni qo'llanish tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo'yiladi.

Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

Ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish turlariga kirmaydi.

Intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida (183-modda) xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilmaydi.

181-modda. Intizomiy jazolar

Xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima.
Ichki mehnat tartibi qoidalari xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda to'tilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;
- 3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda to'tilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llanish taqiqlanadi.

182-modda. Intizomiy jazolarni qo'llanish tartibi

Intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi (82-modda).

Intizomiy jazo qo'llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llashga to'siq bo'la olmaydi.

Intizomiy jazoni qo'llanishda sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning qay darajada og'ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.

Har bir nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanishi mumkin. Intizomiy jazo bevosita nojo'ya xatti-harakat aniqlangandan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xodimning kasal yoki ta'tilda bo'lgan vaqtini hisobga olmasdan, uzog'i bilan bir oy ichida qo'llaniladi.

Nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan kundan boshlab olti oy o'tganidan, moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijasida aniqlanganda esa, - sodir etilgan kundan boshlab ikki yil o'tganidan keyin jazoni qo'llab bo'lmaydi. Jinoiy ish bo'yicha ish yuritilgan davr bu muddatga kirmaydi.

Intizomiy jazo berilgani to'g'risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

183-modda. Intizomiy jazoning amal qilish muddati

Intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas. Agar xodim shu muddat ichida yana intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi.

Intizomiy jazoni qo'llagan ish beruvchi o'z tashabbusi bilan, xodimning iltimosiga binoan, mehnat jamoasi yoki xodimning bevosita rahbari iltimosnomasiga ko'ra jazoni bir yil o'tmasdan oldin ham olib tashlashga haqli.

184-modda. Intizomiy jazo ustidan shikoyat qilish

Intizomiy jazo ustidan yakka mehnat nizolarini ko'rish uchun belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Mehnat nizosini ko'rib chiqayotgan organ sodir etilgan nojo'ya xatti-harakat qanday vaziyatda yuz berganligini, xodimning oldingi xulq-atvorini, mehnatga bo'lgan munosabatini, intizomiy jazoning sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning og'irlik darajasiga qanchalik mos kelishini, ish beruvchining intizomiy jazo berish tartibiga rioya qilganligini hisobga olib, xodimga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazoni g'ayriqonuniy deb topish va uni bekor qilish to'g'risida qaror chiqarishga haqli.

185-modda. Mehnat shartnomasining bir tarafi boshqa tarafga yetkazgan zararni qoplash majburiyati

Mehnat shartnomasining bir tarafi (ish beruvchi yoki xodim) mehnat sohasidagi vazifalarni bajarishi munosabati bilan boshqa tarafga

yetkazgan zararini ushbu Kodeks va mehnat to'g'risidagi boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarga muvofiq qoplaydi.

Mehnat shartnomasi yoki unga qo'shimcha ravishda tuzilgan yozma shakldagi kelishuvda, shuningdek jamoa shartnomasida mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi aniqlashtirib qo'yilishi mumkin. Bunda shartnoma bo'yicha ish beruvchining xodim oldidagi javobgarligi ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan kam, xodimning ish beruvchi oldidagi javobgarligi esa nazarda tutilganidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Zarar yetkazilganidan keyin mehnatga oid munosabatlarning bekor qilinganligi mehnat shartnomasi taraflarini moddiy javobgarlikdan ozod qilishga sabab bo'lmaydi.

186-modda. Moddiy javobgarlikning yuzaga kelishi shartlari

Mehnat shartnomasining bir tarafi o'zining g'ayrihuquqiy aybli xulq-atvori (harakati yoki harakatsizligi) natijasida boshqa tarafga yetkazgan zarari uchun, basharti ushbu Kodeksda boshqacha holat nazarda to'tilmagan bo'lsa, moddiy javobgar bo'ladi. Taraflarning har biri o'ziga yetkazilgan moddiy zararining miqdorini isbotlab berishi shart.

III BOB. XODIMGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN ISH BERUVCHINING MODDIY JAVOBGARLIGI

187-modda. Xodimga to'lanishi lozim bo'lgan zarar

O'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida xodimga, boquvchisi ish bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda esa, - uning oila a'zolariga (192-moddaning birinchi qismi) yetkazilgan har qanday zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) ish beruvchi, basharti ushbu Kodeksda boshqacha holat nazarda to'tilmagan bo'lsa, to'liq hajmda to'laydi.

Ma'naviy zarar (jismoniy yoki ruhiy azoblar) pul shaklida yoki boshqa moddiy shaklda hamda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ravishda, xodim mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda esa, - ish beruvchi va vafot etgan xodimning oila a'zolari o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ravishda belgilangan miqdorda qoplanadi. Ma'naviy zararni qoplash yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, bu masala sudda ko'rib chiqiladi.

188-modda. Ish beruvchining xodimga mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida yetkazilgan zararni to'lash majburiyati

Xodim mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan barcha hollarda ololmay qolgan ish haqini ish beruvchi unga to'lashi shart. Bunday majburiyat, agar ish haqi ishga qabul qilish g'ayriqonuniy ravishda rad etilganligi, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilinganligi yoki xodim g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilganligi va mehnat nizolarini ko'ruvchi organning bunday ishlar yuzasidan chiqarilgan qarori o'z vaqtida bajarilmaganligi, mehnat daftarchasini berish kechiktirilganligi, har qanday yo'llar bilan xodimning sha'niga dog' tushiruvchi ma'lumotlar tarqatilganligi natijasida, basharti bu ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmasa, shuningdek boshqa hollarda olinmay qolgan bo'lsa, kelib chiqadi.

189-modda. Ish beruvchining xodim sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash majburiyati

Xodimning sog'lig'iga mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki u o'z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli yetkazilgan zararni ish beruvchi to'liq hajmda to'lashi shart.

Xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham mehnatda mayib bo'lishi, shuningdek ish beruvchi tomonidan ajratilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda shikastlanishi natijasida yetkazilgan zarar uchun ish beruvchi moddiy javobgar bo'ladi.

Mehnatda mayib bo'lish oqibatida yoki o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli xodimga yetkazilgan zararni ish beruvchi, bosharti zarar uning aybi bilan kelib chiqmaganligini isbotlab berolmasa, to'lashi shart.

O'z mehnat vazifalarini bajarayotgan vaqtida yuqori xavf manbai natijasida xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararni ish beruvchi, bosharti zarar uni bartaraf qilish mumkin bo'lmagan kuchlar tufayli yoki jabrlanuvchi qasddan qilganligi oqibatida kelib chiqqanligini isbotlab berolmasa, to'lashi shart.

190-modda. Xodimning sog'lig'iga shikast etganligi munosabat bilan to'lanishi lozim bo'lgan zarar miqdori

To'lanishi lozim bo'lgan zarar jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovdan, sog'lig'iga shikast etishi bilan bog'liq qo'shimcha harajatlarning kompensastiyasidan, shuningdek belgilangan hollarda esa, - bir yo'la beriladigan nafaqa to'lashdan iboratdir.

Kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi va jabrlanuvchining qo'shimcha yordam turlariga muhtojligi tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Zarar o'rnini qoplash uchun to'lovlarni tayinlashda jabrlanuvchi olayotgan ish haqi, stipendiya, pensiya va boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. Bunda mehnatda mayib bo'lgan jabrlanuvchilar - nogironlarga zararni qoplash uchun to'lanadigan summa qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 17,6 foizidan oz bo'lishi mumkin emas.

191-modda. Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganda mehnat shartnomasi taraflarining aralash javobgarligi

Agar jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligi zararning kelib chiqishi yoki ko'payishiga sabab bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan zarar miqdori jabrlanuvchining aybi darajasiga qarab, muvofiq ravishda kamaytiriladi.

Jabrlanuvchi tomonidan qo'pol ehtiyotsizlik qilingan va ish beruvchining aybi bo'lmagan hollarda, uning aybidan qat'i nazar javobgarlik kelib chiqadigan bo'lsa (189-moddaning to'rtinchi qismi), to'lanadigan zarar miqdori ham shunga muvofiq ravishda kamaytiriladi. Bunday vaqtda zararni to'lashni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Aralash javobgarlik to'lanishi lozim bo'lgan zararning qo'shimcha turlariga, bir yo'la beriladigan nafaqaga, shuningdek boquvchining vafoti munosabati bilan zararni to'lash hollariga tatbiq etilmaydi.

194-modda. Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori

Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo'lsa, - ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Bunda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori jabrlanuvchining yillik ish haqidan, xodimning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori esa, marhumning olti yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lishi mumkin emas.

195-modda. Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan zararni to'lash tartibi va muddatlari

Mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan zararni to'lash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

IV BOB. *Ilova*: QONUNLAR

FUQAROLAR SOG'LIG'INI SAQLASH TO'G'RISIDAGI QONUN.

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilik
Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida fuqarolarning sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqiy munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Basharti xalqaro shartnomada fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilikdagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi.

2-modda. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari

Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash;

fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

3-modda. Fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari

Fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;

aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;

profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;

sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;

tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlari himoya qilinishini;
fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi davlat siyosatini;
sog'liqni saqlash va tibbiyot fanini rivojlantirish dasturlari
tasdiqlanishi va mablag' bilan ta'minlanishini;
sog'liqni saqlash davlat tizimini boshqarishni;
sanitariya-epidemiologiya xotirjamligini ta'minlash ustidan
nazoratni;

favqulodda vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlab qolish va
ularning sog'lig'ini muhofaza etish chora-tadbirlari ko'rilishini,
fuqarolarni favqulodda vaziyat zonasidagi ahvol va ko'rilayotgan chora-
tadbirlardan xabardor qilishni;

fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida statistika hisobi va
hisobotning yagona tizimi o'rnatilishini;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy sug'urtasining tayanch
dasturlarini tasdiqlashni;

fuqarolarning ayrim guruhlariga tibbiy yordam ko'rsatishda va
ularni dori vositalari bilan ta'minlashda imtiyozlar belgilashni;

davlat boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning
fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi, oilani, onalik va bolalikni
muhofaza qilish borasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirib borishni va
nazorat qilib turishni;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**5-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash
vazirligining vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

sog'liqni saqlash va tibbiy sug'urtaning normativ bazasini, tibbiy
yordam sifati va hajmi davlat standartlarini ishlab chiqishda ishtirok
etadi;

barcha tibbiy muassasalarning fuqarolar sog'lig'ini saqlash
to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishi ustidan nazoratni amalga
oshiradi;

fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida maqsadli davlat dasturlarini
amalga oshiradi;

davlat tomonidan kafolatlangan hajm doirasida aholiga birlamchi
tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini tashkil etadi;

tibbiyot va farmastevtika faoliyatini listenziyalashni (farmastevtika
faoliyatining yo'nalishini — dori vositalarini va tibbiy buyumlarni
chakana realizastiya qilishni listenziyalash bundan mustasno)
belgilangan tartibda amalga oshiradi;

davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida tibbiy xizmatlar tariflari darajasini tartibga soladi;

O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani standartlashtirish hamda sertifikatlashtirishni amalga oshiradi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi o'z vakolatlari doirasida davolash-profilaktika, sanitariya, epidemiyaga qarshi, radiastiya, ekologiya masalalari yuzasidan chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi hududidagi davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

6-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tasarrufiga quyidagilar kiradi:

sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlarini himoya qilish;

fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi qonunchilik bajarilishini ta'minlash;

sog'liqni saqlash tizimining boshqaruv organlarini shakllantirish, uning muassasalari tarmog'ini rivojlantirish;

birlamchi tibbiy-sanitariya va tibbiy-ijtimoiy yordamni tashkil etish, ulardan hammaning bahramand bo'la olishini ta'minlash, tibbiy yordam sifatining klinik-statistik standartlariga rioya etilishini nazorat qilish, tasarrufdagi hududda fuqarolarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash;

farmastevtika faoliyatining yo'nalishini — dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizastiya qilishni listenziyalashni belgilangan tartibda amalga oshirish;

sog'liqni saqlash harajatlarini moliyaviy ta'minlashning o'z manbalarini shakllantirish;

fuqarolarning sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligini ta'minlash, profilaktika, sanitariya-gigiena, epidemiyaga qarshi va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;

atrof muhitni muhofaza etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlab qolish va ularning sog'lig'ini muhofaza etish chora-tadbirlarini ko'rish, fuqarolarni favqulodda vaziyat zonasidagi ahvol va ko'rilayotgan chora-tadbirlardan xabardor qilish;

sog'liqni saqlash tizimi organlari, muassasalari va korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish, sog'liqni saqlash muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam sifatini nazorat qilib borish;

nogironlar va tibbiy-ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning kuch-quvvatini tiklaydigan muassasalar tashkil etish va ular faoliyatini ta'minlash;

oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

fuqarolarga sanitariya-gigiena va ekologiya ta'limi berishni tashkil etish;

sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi sharoitlar yaratish;

7-modda. Sog'liqni saqlash tizimi

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi amal qiladi.

8-modda. Davlat sog'liqni saqlash tizimi

Davlat sog'liqni saqlash tizimiga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog'liqni saqlashni boshqarish organlari, ularning shahar va tuman bo'linmalari kiradi. Davlat sog'liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo'lgan va davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqaruv organlariga bo'ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmastevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazadigan o'quv yurtlari, farmastevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlar kiradi.

Ilmiy-tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika muassasalari va dorixonalar davlat sog'liqni saqlash tizimiga kiradi.

Davlat sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy

yordam ko'rsatadi. Bepul tibbiy yordam ko'rsatish hajmi va tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmining belgilangandan ortiqcha tibbiy va boshqa xil xizmatlar ko'rsatish qo'shimcha xizmatlar bo'lib, aholi tomonidan belgilangan tartibda haq to'lanadi.

9-modda. Davlat sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash

Davlat sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash manbalari quyidagilardan iborat:

davlat byudjeti mablag'lari;

tibbiy sug'urta mablag'lari;

fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga mo'ljallangan maqsadli fondlarning mablag'lari;

davolash-profilaktika muassasalarining davlat tomonidan kafolatlangan hajmidan ortiqcha tibbiy yordam ko'rsatganlik uchun va pullik xizmatlar ko'rsatganlik uchun olingan mablag'lari;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslarning sog'liqni saqlash muassasalariga ixtiyoriy va xayriya badallari;

banklarning kreditlari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

10-modda. Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari

Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari jumlasiga o'z mablag'lari, jalb etilgan mablag'lar va qonunchilikka muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar, shuningdek farmastevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar kiradi.

Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlariga taalluqli davolash-profilaktika muassasalari fuqarolarning ayrim guruhlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatadilar. Bunday xizmatlarning hajmi, ro'yxati, ularni ko'rsatish tartibi hamda kompensastiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlarida faqat qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llanilishiga ruxsat etilgan profilaktika, tashxis qo'yish hamda davolash vositalaridan foydalaniladi.

Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari belgilangan tartibda tibbiy hujjatlarni yuritishi hamda statistika ma'lumotlarini taqdim etishi shart.

11-modda. Tibbiyot va farmastevtika faoliyatini listenziyalash

Tibbiy faoliyat tegishli listenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan, farmastevtika faoliyati esa tegishli listenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Tibbiyot va farmastevtika faoliyatini amalga oshirish uchun listenziyalar berish tartibi hamda shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

12-modda. Aholining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi

Aholining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi qonunchilikka muvofiq davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan sanitariya-gigiena yo'sinidagi hamda epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishi orqali ta'minlanadi.

II. FUQAROLARNING SOG'LIG'INI HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISH

13-modda. Fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar.

Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi.

Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

14-modda. Ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning sog'liqni saqlash huquqi

O'zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, sog'liqni saqlashda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng huquqdan foydalanadilar.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatib o'tilgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydi.

15-modda. Fuqarolarning sog'liqqa ta'sir etuvchi omillar haqida axborot olish huquqi

Fuqarolar sog'liqqa ta'sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to'g'risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to'g'risida o'z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga ega.

16-modda. Fuqarolarning tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqi

Kasal bo'lib qolganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashxis qo'yish-davolash, kuch-quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lashni o'z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega.

Tibbiy-ijtimoiy yordam tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar tomonidan ko'rsatiladi.

Fuqarolar o'zlarini ixtiyoriy ravishda tibbiy sug'urta qildirish asosida, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari, o'z shaxsiy mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qo'shimcha tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish huquqiga ega.

Fuqarolarning ayrim toifalari protezlar, ortopedik va moslama buyumlar, eshitish apparatlari, harakatlanish vositalari va boshqa maxsus vositalar bilan imtiyozli tarzda ta'minlanish huquqiga ega. Bunday huquqqa ega bo'lgan fuqarolarning toifalarini, shuningdek ularni ta'minlash shartlari va tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Fuqarolar ixtisoslashgan sog'liqni saqlash, muassasalarida tibbiy ekspertizadan o'tish huquqiga ega.

17-modda. Ayrim turdagi kasb-kor bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning sog'lig'ini saqlash

Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, yuqumli va kasb kasalliklarining oldini olish maqsadida ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlaydigan ishlab chiqarishlar hamda ayrim

kasblarning xodimlari ishga kirish vaqtida dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan hamda keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tadilar.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra fuqaro ayrim turdagi kasb-kor hamda yuqori darajali xavf manbai bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishga vaqtincha yoki doimiy layoqatsiz deb topilishi mumkin. Bunday qaror tibbiyot nuqtai nazaridan shug'ullanish nomaqbul deb topilgan faoliyatlar ro'yxatiga muvofiq holda tibbiy komissiyalar chiqargan xulosa asosida qabul qilinadi va uning ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Tibbiyot nuqtai nazaridan shug'ullanish nomaqbul deb topilgan ayrim turdagi kasb-kor va yuqori darajada xavfli manba bilan bog'liq faoliyatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federastiyasi Kengashi bilan birgalikda belgilanadi hamda besh yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

Ish beruvchilar o'z xodimlarining majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi uchun va majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan shaxslarni ishga qo'yish natijasida fuqarolarning sog'lig'iga yetkazilgan zararli oqibatlar uchun javobgar bo'ladilar.

18-modda. Oila sog'lig'ini saqlash

Har bir fuqaro davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida oilaga taalluqli masalalar, o'zida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklar bor-yo'qligi yuzasidan, nikoh va oila munosabatlarining tibbiy-ruhiy jihatlari yuzasidan bepul maslahatlar olish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar olish va tekshiruvdan o'tish huquqiga ega.

Har bir oila o'ziga oilaviy shifokor tanlash huquqiga ega.

Bolali oilalar fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega.

Uch yoshga to'lmagan bolalar, shuningdek shifokorlarning xulosasiga ko'ra qo'shimcha qarovga muhtoj bo'lgan katta yoshdagi kasali og'ir bolalar stasionar shifoxonada davolanayotganida ularning otasi yoki onasiga yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a'zosiga davolash muassasasida uning yonida birga bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi va mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

19-modda. Voyaga etmaganlarning huquqlari

Davlat voyaga etmaganlarning sog'liqni saqlash huquqlarini ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishi uchun, kasalliklarning oldini

olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda va boshqa muassasalarda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish orqali ta'minlaydi.

Voyaga etmaganlar quyidagi huquqlarga ega:

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda dispanser nazoratida bo'lish hamda bolalar va o'smirlarning davolash-profilaktika muassasalarida davolanish;

sanitariya-gigiena ta'limi olish, o'qish hamda o'zlarining fiziologik xususiyatlari va sog'lig'iga mos sharoitlarda mehnat qilish;

kasbga yaroqliligini aniqlash chog'ida byudjet mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahatlar olish;

sog'liqlari to'g'risida o'zlari uchun qulay tarzda zarur axborot olish.

O'n to'rt yoshdan oshgan voyaga etmaganlar ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor voyaga etmaganlar ota-onalarining yoki ular o'rmini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra byudjet mablag'lari, xayriya jamg'armalari va boshqa fondlarning mablag'lari, shuningdek ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarning mablag'lari hisobidan ijtimoiy himoya tizimi muassasalarida yashashlari mumkin.

Ota-onalar yoki boshqa shaxslarning o'z tarbiyasidagi voyaga etmaganlarning huquqlari va manfaatlarini buzishlari, ularni tarbiyalashdan bo'yin tovlashlari, voyaga etmaganlar bilan ularning sog'lig'iga zarar yetkazadigan darajada shafqatsiz munosabatda bo'lishlari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

20-modda. Harbiy xizmatchilar, harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan hamda harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan fuqarolarning huquqlari

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsiz ekanliklarini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o'tish hamda harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi asosida harbiy xizmatdan muddatidan ilgari bo'shatilish huquqiga ega.

Harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan yoki harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan fuqarolar tibbiy tekshiruvdan o'tadi hamda sog'lig'iga ko'ra harbiy xizmatga chaqiruvni kechiktirish yoki chaqiruvdan ozod etilish huquqini beradigan tibbiy ma'lumotlar to'g'risida to'liq axborot olish huquqiga ega.

21-modda. Pensiya yoshidagi fuqarolarning huquqlari

Pensiya bilan ta'minlanish huquqini beradigan yoshga etgan fuqarolarga davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish o'z ichiga stasionar-ambulatoriya yo'li bilan davolashni, sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirishni, yolg'iz keksalarga ularning o'z uyida hamda internat-uylarda xizmat ko'rsatishni qamrab oladi.

Pensiya yoshidagi fuqarolar tibbiy xulosa asosida qonunchilikka muvofiq ijtimoiy sug'urta mablag'lari, sog'liqni saqlash organlarining mablag'lari hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan kuch-quvvatni tiklash huquqiga ega.

22-modda. Nogironlarning huquqlari

Nogironlar, shu jumladan nogiron bolalar va bolalikdan nogironlar tibbiy-ijtimoiy yordam olish, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalanish, dori vositalari, protez-ortopediya moslamalari, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanish, shuningdek kasb-kor egallash va qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqiga ega.

Nogironlar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul tibbiy-sanitariya yordami olish, uyda parvarish qilinish, o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz nogironlar, surunkali ruhiy holati buzilgan nogironlar esa nogironlar va qariyalar uchun mo'ljallangan internat uylarida yashash huquqiga ega.

Nogironlarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibi va ularga beriladigan imtiyozlar ro'yxati qonunchilikda belgilab qo'yiladi.

23-modda. Favqulodda vaziyatlar tufayli jabr ko'rgan fuqarolarning huquqlari

Favqulodda vaziyat tufayli jabr ko'rgan fuqarolar bepul tibbiy yordam olish va sog'liqni tiklash tarzida davolanish, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish hamda hayoti va sog'liqlariga tahdid solayotgan xavfni kamaytirishga qaratilgan gigiena chora-tadbirlari va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish huquqiga ega.

Favqulodda vaziyat sharoitida odamlarni qutqarish va tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida jabr ko'rgan fuqarolarga bepul davolanish, shu jumladan sanatoriy va kurortlarda davolanish, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalanish, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda moddiy kompensatsiya olish kafolatlanadi.

24-modda. Bemorning huquqlari

Bemor tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan va tibbiy yordam olayotgan paytda quyidagi huquqlarga ega:

tibbiyot xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning hurmat va mehr-muruvvat ko'rsatishlari;

shifokomi va davolash-profilaktika muassasasini tanlash;

sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o'tish, davolanish va parvarish qilinish;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilab qo'ygan tartibda o'z iltimosiga ko'ra boshqa mutaxassislarning konsilium qilishi va ulardan maslahatlar olish;

tibbiy yordam so'rab murojaat qilganligi, sog'lig'ining holati, qo'yilgan tashxis to'g'risidagi ma'lumotlar hamda uni tekshirish va davolash chog'ida olingan boshqa ma'lumotlar sir saqlanishi;

tibbiy aralashuvga o'z ixtiyori bilan rozilik berish yoki uni rad etish;

o'z huquq va burchlari xususida hamda sog'lig'ining holati haqida ma'lumot olish, shuningdek sog'lig'ining holatiga doir ma'lumotlarni uning manfaatini ko'zlagan holda bersa bo'ladigan shaxslarni tanlash;

ixtiyoriy tibbiy sug'urta doirasida tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish;

tibbiy yordam ko'rsatish vaqtida sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda ko'rilgan zararning o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi;

huquqini himoya qilishi uchun huzuriga advokat yoki boshqa qonuniy vakil qo'yilishi.

Huquqlari buzilgan taqdirda bemor yoki uning qonuniy vakili bevosita davolash-profilaktika muassasasining rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsiga, yuqori boshqaruv organiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

25-modda. Fuqarolarning o'z sog'lig'ining holati to'g'risida ma'lumot olish huquqi

Har bir fuqaro o'z sog'lig'ining holati to'g'risida ma'lumot, shu jumladan tekshirish natijalari, qanday kasali borligi, qanday tashxis qo'yilganligi, kasallikning bundan buyon qanday kechishiga oid taxminlar, davolash usullari va bu usullar bilan bog'liq xavf-xatar, tibbiy aralashuvning ehtimol tutilgan turlari va ularning oqibatlarini, amalga oshirilgan davolashning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish huquqiga ega.

Fuqaroning sog'lig'i haqidagi ma'lumotni uning o'ziga, o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslar hamda qonunda belgilangan tartibda

muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni esa ularning qonuniy vakillariga davolash-profilaktika muassasasining davolovchi shifokori, bo'lim mudiri yoki tekshirish va davolashda bevosita qatnashayotgan boshqa mutaxassislar beradi.

Kasallikning kechishi nomaqbul deb taxmin qilingan hollarda bu haqda fuqaroga va, basharti uning o'zi oila a'zolariga xabar qilishni taqiqlamagan va (yoki) bunday ma'lumot berilishi uchun biror shaxsni tayinlamagan bo'lsa, bemorning oila a'zolariga tibbiy-odob me'yorlariga rioya qilgan holda xabar qilinishi kerak.

Fuqaroning talabiga muvofiq unga sog'lig'ining holatini aks ettiruvchi tibbiy hujjatlardan ko'chirmalar beriladi.

Fuqaroning tibbiy hujjatlarida aks etgan ma'lumotlar shifokorlik siri bo'lib, u faqat ushbu Qonun 45-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan asoslardagina fuqaroning roziligisiz taqdim etilishi mumkin.

26-modda. Tibbiy aralashuvga rozilik berish

Fuqaroning o'z kasaliga doir ma'lumotlarni bilgan holda o'z ixtiyori bilan rozilik berishi tibbiy aralashuvning dastlabki zarur shartidir.

Fuqaroning ahvoli o'z xohish-irodasini izhor etishga imkon bermaydigan, tibbiy aralashuvni esa kechiktirib bo'lmaydigan hollarda fuqaroning manfaatini ko'zlab tibbiy aralashuvni amalga oshirish masalasini konsilium hal qiladi, basharti konsiliumga yig'ilishning iloji bo'lmagan taqdirda esa, keyinchalik davolash-profilaktika muassasasining mansabdor shaxslarini xabardor qilish sharti bilan bevosita davolovchi (navbatchi) shifokor hal etadi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslarga va qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarga nisbatan tibbiy aralashuvga ularning qonuniy vakillari rozilik beradi. Ota-ona yoki boshqa qonuniy vakillar yo'qligida tibbiy aralashuv to'g'risidagi qarorni konsilium qabul qiladi, basharti konsiliumga yig'ilishning iloji bo'lmagan taqdirda esa, keyinchalik davolash-profilaktika muassasasining mansabdor shaxslari va bemorning qonuniy vakillarini xabardor qilish sharti bilan bevosita davolovchi (navbatchi) shifokor qabul qiladi.

27-modda. Tibbiy aralashuvni rad etish

Fuqaro yoki uning qonuniy vakili tibbiy aralashuvni rad etish yoki uning to'xtatilishini talab qilish huquqiga ega, ushbu Qonunning 28-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bunday hollarda shifokor yozma tasdiqnoma olishga, agar tasdiqnoma olishning iloji

bo'lmasa — tibbiy aralashuvni rad etishni guvohlar ishtirokida tegishli dalolatnoma bilan guvohlantirib olishga haqlidir.

Basharti tibbiy aralashuvni bemorning qonuniy vakili rad etsa va bu hol bemor uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa, shifokor bu haqda vasiylik va homiylik organlarini xabardor qilishi shart.

28-modda. Fuqarolarning roziligisiz tibbiy yordam ko'rsatish, profilaktik emlash

Atrofdagilar uchun xavfli kasallikka chalingan shaxslarga fuqarolar yoki ular qonuniy vakillarining roziligisiz tibbiy yordam ko'rsatilishiga (tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kasalxonaga yotqizish, kuzatish va yakkalab qo'yishga) qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi tahdidi mavjud bo'lgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining qarori asosida qonunchilikda belgilangan tartibda aholini profilaktik emlashdan o'tkazish joriy etilishi mumkin.

III. FUQAROLARGA TIBBIY-IJTIMOIIY YORDAM KO'RSATISH

29-modda. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami

Davlat sog'liqni saqlash tizimi, jamoat birlashmalarining muassasalari ko'rsatadigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tibbiy xizmat ko'rsatishning asosiy, qulay va bepul turi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

eng ko'p tarqalgan kasalliklar, shikastlanish, zaharlanish va shoshilinch yordam talab etiladigan boshqa holatlarni davolashni;

sanitariya-gigienaga doir va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, eng muhim kasalliklarning tibbiy profilaktikasini o'tkazishni;

oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tadbirlarini, turar joylarda fuqarolarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlar ko'rishni.

Xususiy va boshqa xil sog'liqni saqlash tizimlarining muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami shartnoma asosida amalga oshiriladi ushbu Qonun 10-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq shunday yordam ko'rsatiladigan fuqarolarning ayrim guruhlari bundan mustasno.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning hajmi va tartibini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydi.

30-modda. Shoshilinch va tez tibbiy yordam

Fuqarolar sog'liqni saqlash tizimining har qanday davolash-profilaktika muassasasida shoshilinch tibbiy yordam olish huquqiga ega.

Tibbiyot va farmastevtika xodimlari fuqarolarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishlari shart. Ular shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishdan bo'yin tovlaganlik, shuningdek fuqarolarning sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Tez tibbiy yordam sog'liqni saqlash tizimining maxsus tez tibbiy yordam xizmati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda ko'rsatiladi.

Fuqaroning hayoti xavf ostida bo'lgan taqdirda tibbiyot xodimlari uni davolash-profilaktika muassasasiga olib borish uchun har qanday transport turidan foydalanish huquqiga ega.

Milistiya, yong'indan saqlash, avariya xizmatlari, transport tashkilotlari xodimlari, shuningdek boshqa kasb-kor vakillari tibbiyot xodimlari etib kelgunga qadar voqea sodir bo'lgan joyda qonunchilikka binoan zimmalariga yuklatilgan birlamchi shoshilinch yordamni ko'rsatishlari shart.

31-modda. Ixtisoslashgan tibbiy yordam

Ixtisoslashgan tibbiy yordam profilaktika, tashxis qo'yish, davolashning va murakkab tibbiy texnologiyalardan foydalanishning maxsus usullarini taqozo etuvchi kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko'rsatiladi.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam davolash-profilaktika muassasalarida mutaxassis shifokorlar tomonidan ko'rsatiladi.

Sog'liqni saqlash muassasalarida ko'rsatiladigan ixtisoslashgan tibbiy yordamning turlari, hajmi va sifat standartlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

32-modda. Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish

Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga davlat sog'liqni saqlash tizimining tegishli davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatiladi va doimiy tibbiy kuzatuv ta'minlanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar ro'yxati va bunday kasalliklarga chalingan shaxslar uchun imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam turlari va hajmini O'zbekiston

Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda belgilaydi.

33-modda. Atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish

Atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasalliklarga chalingan fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat sog'liqni saqlash tizimining ana shunday maqsadga mo'ljallangan muassasalarida bepul amalga oshiriladi.

Atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklarga chalingan fuqarolarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamning turlari va hajmi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda belgilanadi.

34-modda. Profilaktika, tashxis qo'yish, davolashning yangi usullarini, dori vositalari dezinfekstiya vositalarini qo'llanish hamda biologik-tibbiy tadqiqotlar o'tkazish tartibi

Sog'liqni saqlash amaliyotida faqat qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llanishga ruxsat etilgan profilaktika, tashxis qo'yish, davolash usullaridan, tibbiyot texnologiyalari, dori vositalari va dezinfekstiya vositalaridan foydalaniladi.

Qo'llanishga ruxsat etilmagan, lyokin belgilangan tartibda ko'rib chiqilayotgan tashxis qo'yish, davolash usullari va dori vositalaridan bemorni davolash manfaatini ko'zlab faqat uning ixtiyoriy ravishdagi yozma roziligi olinganidan keyin, o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslarni davolashda esa faqat ularning hayoti bevosita xavf ostida qolgan taqdirda va qonuniy vakillarining yozma roziligi bilangina foydalanish mumkin.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tashxis qo'yish, davolash usullari va dori vositalarini, dezinfekstiya vositalarini, shu jumladan chet elda foydalaniladiganlarini qo'llanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Insonni obyekt sifatida jalb etib, biologik-tibbiy tadqiqot o'tkazishga faqat laboratoriya tajribalari o'tkazilganidan va fuqaroning yozma roziligi olinganidan keyingina davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida yo'l qo'yiladi. Fuqaroni biologik-tibbiy tadqiqotlarda qatnashishga majburlash mumkin emas.

Biologik-tibbiy tadqiqot o'tkazishga fuqarodan rozilik olinayotganda unga tadqiqotning maqsadi, usullari, qo'shimcha

oqibatlari, ehtimol tutilgan xavfi, tadqiqotning qancha davom etishi va ko'tilayotgan natijalariga oid ma'lumotlar berilishi lozim. Fuqaro tadqiqotning istalgan bosqichida unda qatnashishdan bosh tortish huquqiga ega.

Belgilangan tartibda tekshiruv sinovlaridan o'tmagan profilaktika, tashxis qo'yish, davolash usullari va dori vositalarini targ'ib qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilish taqiqlanadi. Ushbu normani buzish qonunda belgilanganidek javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

35-modda. Fuqarolarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash

Resteptsiz beriladigan dori vositalarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Dori vositalari va yakka tartibda foydalaniladigan tibbiy buyumlar bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanadigan fuqarolarning toifalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi. Davlat sog'liqni saqlash tizimining davolovchi shifokorlari fuqarolarning dori vositalari bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanishi uchun restept yozib berish huquqiga ega.

IV. TIBBIY EKSPERTIZA

36-modda. Mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertizalash

Fuqarolarning kasallik, shikastlanganlik, homiladorlik, tuqqanlik, oilaning betob a'zosini parvarishlaganlik, protez qo'ydirganlik, sanatoriy-kurortda davolanganlik munosabati bilan va boshqa hollardagi mehnatga vaqtincha layoqatsizligini ekspertizalash qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Mehnatga vaqtincha layoqatsizlikni ekspertizalash davlat sog'liqni saqlash tizimining davolovchi shifokorlari tomonidan o'tkaziladi va ular fuqarolarga mehnatga layoqatsizlik varaqasini beradi. Xususiy va boshqa xil sog'liqni saqlash tizimlarida davolangan fuqarolarga mehnatga layoqatsizlik varaqalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilab qo'yadigan tartibda beriladi.

Mehnatga vaqtincha layoqatsizlik ekspertizalanganida xodimni sog'lig'ining holatiga qarab vaqtincha yoki doimiy ravishda boshqa ishga o'tkazish zarurati va muddati aniqlanadi, shuningdek fuqaroni belgilangan tartibda, shu jumladan unda nogironlik belgilari mavjud bo'lgan taqdirda tibbiy-mehnat ekspert komissiyasiga yo'llash to'g'risida qaror qabul qilinadi.

37-modda. Tibbiy-mehnat ekspertizasi

Tibbiy-mehnat ekspertizasi fuqarolar nogironligining sababi va guruhini, ularning mehnat layoqatini yo'qotganlik darajasini, ular sog'lig'ini tiklashning turlari, hajmi va muddatini hamda ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini belgilaydi, tegishli xulosalar beradi. Ushbu xulosalar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriyati uchun majburiydir.

Tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish tartibi qonunchilikda belgilab qo'yiladi.

Tibbiy-mehnat ekspertizasini o'tkazgan muassasaning xulosasi ustidan fuqaroning o'zi yoki uning qonuniy vakili sudga shikoyat qilishi mumkin.

38-modda. Harbiy-tibbiy ekspertiza

Harbiy-tibbiy ekspertiza harbiy yoki muqobil xizmatga chaqiriladigan, harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining, ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlarining zaxirasida (rezervida) turgan fuqarolarning hamda harbiy xizmatchilarning salomatligi jihatidan harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini, kasallik, yaradorlik, shikastlanganlik harbiy xizmat (harbiy yig'inlarni o'tash) bilan bog'liqligini aniqlaydi, harbiy xizmatchilarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularning sog'lig'ini tiklashning turlari, hajmi va muddatini belgilaydi.

Harbiy-tibbiy ekspertizani tashkil etish va o'tkazish tartibini, shuningdek harbiy yoki muqobil xizmatga chaqiriladigan, harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan fuqarolar va harbiy xizmatchilar sog'lig'ining holatiga nisbatan qo'yiladigan talablarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Harbiy-tibbiy ekspertizaning xulosalari mansabdor shaxslar ijro etishi uchun majburiydir. Harbiy-tibbiy ekspertizani o'tkazgan muassasaning xulosasi ustidan fuqaroning o'zi yoki uning qonuniy vakili sudga shikoyat qilishi mumkin.

39-modda. Sud-tibbiyot va sud-psixiatriya ekspertizalari

Sud-tibbiyot ekspertizasi davlat sog'liqni saqlash tizimining tibbiy muassasalarida ekspert tomonidan, uning yo'qligida esa — ekspertiza o'tkazishga jalb etilgan shifokor tomonidan surishtiruv o'tkazayotgan shaxs, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida o'tkaziladi.

Sud-psixiatriya ekspertizasi davlat sog'liqni saqlash tizimining shu maqsadga mo'ljallangan muassasalarida o'tkaziladi.

Sud-tibbiyot va sud-psixiatriya ekspertizalarini tashkil etish va o'tkazish tartibi qonunchilikda belgilab qo'yiladi.

Sud-tibbiyot va sud-psixiatriya ekspertizalarini o'tkazgan muassasalarning xulosalari ustidan fuqaroning o'zi yoki uning qonuniy vakili sudga shikoyat qilishi mumkin.

40-modda. Patologik-anatomik tadqiqotlar o'tkazish va odamning o'lgan vaqtini aniqlash

Patologik-anatomik tadqiqotlar sog'liqni saqlash muassasalarida odam hayotligida hamda o'lganidan so'ng tashxis qo'yish (biopsiya va autopsiya), shuningdek, klinik sharoitda tashxis qo'yish va kasallikni davolash ishlarining to'g'ri olib borilganligini nazorat qilish, o'lim sabablari haqida aniq ma'lumotlar olish maqsadida o'tkaziladi.

Patologik-anatomik tadqiqotlar o'tkazish va odamning o'lgan vaqtini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

V. TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI

41-modda. Tibbiyot va farmastevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqi

O'zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmastevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga oliy yoki o'rta maxsus tibbiyot o'quv yurtini tamomlaganlik to'g'risida diplom olgan shaxslar ega bo'ladilar.

Tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatini listenziyalash bo'yicha maxsus komissiyaning xulosasi asosida xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladilar.

Tibbiyot va farmastevtika ma'lumoti to'g'risidagi diplomni xorijiy davlatlarda olgan shaxslarning tibbiyot yoki farmastevtika faoliyati bilan shug'ullanishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yo'l qo'yiladi.

O'z kasbi bo'yicha uch yildan ko'p ishlamagan tibbiyot va farmastevtika xodimlarining tegishli faoliyat bilan shug'ullanishiga tegishli o'quv yurtlarida qayta tayyorgarlikdan o'tganlaridan keyin yoki O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining attestatsiya komissiyalari o'tkazadigan attestatsiya asosida yo'l qo'yiladi.

Tibbiyot yoki farmastevtika sohasida tugallanmagan oliy ma'lumoti bo'lgan shaxslarning tibbiyot sohasida o'rta ma'lumoti bo'lgan xodimlar ishlaydigan lavozimlarda tibbiyot yoki farmastevtika faoliyati bilan

shug'ullanishiga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda yo'l qo'yiladi.

Oliy va o'rta maxsus tibbiyot o'quv yurtlari talabalarining fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishda ta'lim dasturlariga muvofiq qatnashishiga tibbiyot xodimlari nazorati ostida, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda yo'l qo'yiladi.

g'ayriqonuniy ravishda tibbiyot va farmastevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

43-modda. Professional tibbiyot va farmastevtika uyushmalari

Tibbiyot va farmastevtika xodimlari o'z huquqlarini himoya qilish, tibbiyot va farmastevtika amaliyotini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarga ko'maklashish, tibbiyot va farmastevtika xodimlarining kasb faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish maqsadida ixtiyoriy asosda tarkib topadigan professional uyushmalar hamda boshqa jamoat birlashmalari tuzish huquqiga ega.

Professional tibbiyot, farmastevtika uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari o'z faoliyatlarini ustavlar asosida va qonunchilikka muvofiq amalga oshiradilar.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

44-modda. O'zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi

Shifokor diplomini olayotgan shaxslar quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

«Shifokor degan yuksak unvonni olib, tibbiyot faoliyatiga kirishar ekanman:

o'zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog'lig'ini saqlashga bag'ishlashga;

yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bemorga kuch-g'ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko'rsatishga;

bemorning sog'lig'ini shaxsiy manfaatlarimdan yuqori qo'yishga, kamtar va halol bo'lishga, o'z bilim va mahoratimni doimo oshirib borishga;

shifokor sirini saqlashga;

kishilarga hamisha mehr-muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga;

Buqrot, Abu Ali ibn Sino singari ulug' tabiblarning shonli an'alarini davom ettirishga tantanali qasamyod qilaman.

Ushbu qasamyodga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman».

Shifokorlar qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

45-modda. Shifokor siri

Fuqaroning tibbiy yordam so'rab murojaat qilganligi, uning sog'lig'ining holati, kasalligiga qo'yilgan tashxis xususidagi hamda uni tekshirish va davolash davomida olingan boshqa ma'lumotlar shifokor sirini tashkil etadi.

Shifokor siri hisoblangan ma'lumotlardan o'qish hamda kasb-korga, xizmatga doir va boshqa xil vazifalarni bajarish paytida xabardor bo'lib qolgan shaxslarning bu ma'lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vaqilining roziligisiz oshkor qilishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan hollar bundan mustasno.

Shifokor siri hisoblangan ma'lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vaqilining roziligisiz berishga quyidagi sabablarga ko'ra yo'l qo'yiladi:

ahvoli og'irligi sababli o'z xohish-irodasini bildirsa olmaydigan fuqaroni tekshirish va davolash maqsadida;

yuqumli kasalliklar tarqalishi, yalpi zaharlanish va zararlanish xavfi tahdid solganida;

tergov yoki sud tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan surishtiruv va tergov organlarining, prokuratura va sudning so'rovi bo'yicha;

o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga etmagan shaxsga yordam ko'rsatilayotganda uning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini xabardor qilish uchun;

fuqaroning sog'lig'iga g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki baxtsiz tasodif natijasida zarar yetkazilgan deb gumon qilishga asoslar mavjud bo'lganida.

Shifokor siri hisoblangan ma'lumotlar qonunda belgilangan tartibda berilgan shaxslar shifokor sirini oshkor qilganlik uchun qonunga muvofiq tibbiyot va farmastevtika xodimlari bilan bab-baravar javobgar bo'ladilar.

46-modda. Fuqarolarning sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash

Fuqarolarning sog'lig'iga zarar yetkazilgan hollarda aybdorlar jabrlanganlar ko'rgan zarar o'rnini qonunchilikda belgilangan hajm va tartibda qoplashlari shart.

g'ayriqonuniy xatti-harakatlardan jabr ko'rgan fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishga sarflangan mablag'lar ularning sog'lig'iga

yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladi.

Tibbiyot va farmastevtika xodimlari o'z kasb-kor vazifalarini malakali bajarmaganliklari oqibatida fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar etgan hollarda yetkazilgan zarar o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanadi.

Zararning o'rnini qoplash tibbiyot va farmastevtika xodimlarini qonunga muvofiq intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi.

47-modda. Sog'liqni saqlash sohasida fuqarolar huquq va erkinliklarini kamsituvchi davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan fuqarolarning shikoyat qilish huquqi

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning ushbu Qonunda belgilangan fuqarolar huquq va erkinliklarini kamsituvchi xatti-harakatlari ustidan yuqori davlat organlariga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

V BOB. DAVLAT SANITARIYA NAZORATI TO'G'RISIDA

Ushbu Qonun sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini va radiastiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, odamning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini hamda u bilan bog'liq boshqa huquqlarini va ularni amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlaydi.

Davlat sanitariya nazorati bu sanitariya qonunlarini buzilishini oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yishga qaratilgan sanitariya-epidemiologiya xizmatining faoliyatidir.

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat sanitariya nazorati to'g'risidagi qonunlari

O'zbekiston Respublikasining sanitariya nazorati to'g'risidagi qonunlari ushbu Qonundan hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining o'z vakolat doirasida chiqaradigan boshqa huquqiy hujjatlardan iboratdir.

2-modda. Sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlashning asosiy prinsiplari

Sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

atrof muhitni sog'lomlashtirish, ovqatlanishni, mehnat, turmush, dam olish, ta'lim-tarbiya berish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonunchilik, sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tashkiliy tadbirlar majmuini amalga oshirish asosida odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash huquqlarini kafolatlash;

xalq xo'jalik obyektlari, texnologiya uskunalari va asboblarini, transport vositalarini rivojlantirish, joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushurish chog'ida atrof muhit omillari aholi salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olishga qaratilgan faoliyatining ustivorligini ta'minlash;

aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish;

sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab chiqish va ijtimoiy faoliyatning majburiy qismi sifatida amalga oshirish;

mulkchilikning shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslarning sanitariya normalariga, gigiena normativlariga rioya qilmaslik hamda sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirmaslik natijasida aholining salomatligiga va atrof muhitga yetkazilgan zaraming o'rnini qoplash;

sanitariya normalari, qoidalariga rioya etilishi va sanitariya-gigiena tadbirlari amalga oshirilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish.

3-modda. Sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari

Sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari ilmiy tadqiqot va boshqa muassasalar tomonidan ishlab chiqiladi, O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlanadi va shundan so'ng uch oy muddat ichida matbuotda bosib chiqarilishi kerak.

II BO'LIM. ODAMNING QULAY ATROF MUHIT SHAROITLARIGA EGA BO'LISH HUQUQI VA UNI TA'MINLASH KAFOLATLARI

4-modda. Odamning qulay atrof muhit sharoitlariga ega bo'lish huquqi

Har bir odam qulay atrof muhit sharoitlariga ega bo'lishga haqli.

5-modda. Aholi salomatligi va atrof muhitning ahvoli haqida axborot olish huquqi

Har bir kishi kasalliklar, epidemiya va radiastiya vaziyati, atrof muhitning holati hamda ularning odamlar salomatligiga ta'siri haqida, shuningdek gigiena sohasidagi va maxsus o'tkazilgan boshqa ekspertizalar haqida haqqoniy ma'lumot olish huquqiga ega.

6-modda. Odamning salomatligiga yetkazilgan zararning o'rnini to'latish huquqi

Har bir odam atrof muhitning zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa omillari, shuningdek sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste'moli mollari va boshqa sanoat buyumlari ta'sirida o'ziga yetkazilgan zararning o'rnini to'latib olishga haqlidir.

III BO'LIM. SANITARIYA-EPIDEMIYA MASALALARIDA AHOLINING XOTIRJAMLIGINI, RADIATSIYA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TALABLARI VA ULARNI BAJARISH MAJBURIYATLARI

7-modda. Davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslarning sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlashga doir majburiyatlari

Davlat idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar:

belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya etishlari;

davlat sanitariya nazoratini amalga oshirayotgan idoralar, muassasalar, mansabdor shaxslarga ro'y bergan avariya, sanitariya-epidemiya, radiastiya vaziyati to'g'risida haqqoniy va to'la-to'kis axborot berishlari shart.

8-modda. Normativ-texnika hujjatlarini ishlab chiquvchilarning majburiyatlari

Normativ-texnika hujjatlarini ishlab chiqayotgan davlat idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar aholining salomatligini saqlashni va sanitariya-epidemiya masalalarida xotirjamligini ta'minlashga qaratilgan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya qilishlari shart.

Qayd etilgan idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar yangi kimyoviy va biologik moddalarni, ion hosil qiluvchi nurlanish manbalarini hamda mana shu manbalarga ega bo'lgan asboblarni, atir-upa va pardozi mahsulotlarini, materiallar, texnologiya jarayonlari, uskunalari va boshqa xalq iste'moli

mollarini joriy etishdan oldin aholining sanitariya-epidemiya xavfsizligini ta'minlashga doir normativlar bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni, ularga rioya etilishi ustidan nazorat qilish usullarini, zararli mahsulot va chiqitlarni zararsizlantirish yo'llarini ishlab chiqishlari hamda tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachiga taqdim etishlari shart.

9-modda. Ob'ektlarni loyihalash, qurish va foydalanishga topshirish chog'ida sanitariya talablariga rioya etishning shartligi

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, birlashmalarning rahbarlari va alohida shaxslar obyektarni loyihalash, qurish, qayta qurish, yangilash chog'ida, korxonalarni texnika bilan qayta qurollantirish va ularni foydalanishga topshirish chog'ida sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga amal qilishlari shart.

10-modda. Maydonlar, inshootlar, binolarni saqlab turish, uskunalar va transport vositalaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar texnologiya va boshqa uskunalardan foydalanilishini, maydon, inshootlar, ishlab chiqarish binolari va sanitariya-maishiy binolar, ish joylari, turar joy binolari, bolalar va davolash-profilaktika muassasalari, o'quv yurtlari, madaniyat, sport va boshqa muassasalar binolari, shuningdek transport vositalari sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiq saqlab turilishini ta'minlashlari shart.

11-modda. Kimyoviy moddalar, biologiya vositalari va materiallarini qo'llanishga, zararsizlantirishga, qayta ishlashga, ko'mib tashlashga qo'yiladigan talablar

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar kimyoviy moddalarni, biologiya vositalari va materiallarini saqlash, qo'llanish, zararsizlantirish, qayta ishlash va ko'mib tashlash chog'ida sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlaydigan sanitariya normalari, qoidalari hamda gigiena normativlariga rioya qilishlari shart.

Yangi kimyoviy moddalarni, biologik vositalarni, materiallarni, polimer va plastik massalarni, atir-upa hamda pardozi mahsulotlarini qo'llanishga ular zaharliligi va gigiena jihatidan baholanganidan, gigiena

normativlari belgilanganidan keyingina O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining ruxsatnomasiga ko'ra yo'l qo'yiladi.

12-modda. Radiastiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi talablar

Davlat boshqaruvi idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mehnat jamoalari va ayrim shaxslar radioaktiv moddalar va boshqa ion hosil qiluvchi nurlanish manbalari bilan ishlaganda radiastiya xavfsizligi normalari va sanitariya qoidalariga, shuningdek radioaktiv moddalar va boshqa ion hosil qiluvchi nurlanish manbalarini qazib olish, tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish, saqlash, qayta ishlash va ko'mib tashlash chog'ida standartlarga, texnika shartlariga va boshqa normativ hujjatlarning talablariga rioya qilishlari shart.

13-modda. Turar joy binolariga odam qo'yish va ularda yashash tartibi

Yashash uchun turar joy binolarini beradigan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, boshqa mulkdorlar ana shu binolarga odam qo'yish chog'ida amaldagi sanitariya normalarini bajarishlari shart.

Amaldagi gigiena normativlariga javob bermaydigan turar joy binolariga odam yashashiga yo'l qo'yilmaydi, uylarda yashovchilar turar joy binolarini saqlash va ulardan foydalanishning mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari tomonidan tasdiqlagan qoidalarini bajarishlari shart.

14-modda. Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarishga, tashishga, saqlash va sotishga qo'yiladigan sanitariya talablari

Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosi ishlab chiqarish, ularni saqlash, tashish, sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar tibbiyot-biologiya talablariga, sanitariya normalariga va gigiena normativlariga rioya etishlari shart.

Yangi ozuqa qo'shimchalarini, maxsus qo'shiladigan biologik aktiv moddalarni olib kirish hamda ishlab chiqarishga ular zaharliligi va gigienasi jihatidan baholanganidan keyingina O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining ruxsati (xulosasi) bilan yo'l qo'yiladi.

15-modda. Xo'jalik-ichimlik suvi ta'minotiga qo'yiladigan sanitariya talablari

Davlat idoralari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar xo'jalik-ichimlik suvi

ta'minotining markazlashtirilgan tizimlari yetkazib beradigan suvning sifati gigiena talablariga va davlat standartlariga mos bo'lishini ta'minlashlari shart.

Markazlashtirilgan tartibda xo'jalik-ichimlik suvi yetkazib beradigan suv quvurlari va ularning manbalari uchun maxsus tartiblar o'rnatilgan sanitariya muhofazasi maydoni belgilab qo'yiladi.

Suv quvurlarining, ular suv oladigan manbalarning sanitariya muhofazasi maydonlari, ularning sanitariya tartiboti mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar ro'zg'orda va maishiy maqsadlarda ishlatiladigan havzalardagi suvning, shu jumladan markazlashtirilmagan tartibda ta'minlanadigan suvning sifati amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos bo'lishini ta'minlashlari shart.

16-modda. Chet ellardan sotib olinadigan mahsulotni yetkazib berish va sotishga qo'yiladigan talablar

Davlat idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar chet ellardan sotib olinadigan texnologiyalar, materiallar, xom ashyo va mahsulotlarni yetkazib berish, sotish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya qilishlari shart.

17-modda. Ta'lim sharoitlarini tartibga solib turuvchi sanitariya normalari va qoidalariga rioya etish talablari

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar ta'lim muassasalarida va korxonalarda sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya etilishini ta'minlashlari shart.

18-modda. Tibbiy ko'rikdan o'tishning majburiyligi

Yuqumli va parazitar kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, kasb kasalliklari, zaharlanishlar va baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasa, tashkilot va birlashmalarining xodimlari dastlabki hamda davriy tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'riklarni o'tkazish tartibi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi

Kasaba uyushmalari Federastiyasining Kengashi bilan kelishgan holda belgilanadi.

19-modda. Kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishining oldini olish sohasidagi majburiyatlar

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarning rahbarlari va alohida shaxslar yuqumli, parazitar va boshqa ommaviy kasalliklar, shu jumladan radiastiya omili bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarning, shuningdek ular kelib chiqqan taqdirda bu kasalliklarni yo'qotish choralarini o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashlari shart.

Yuqumli, parazitar, boshqa ommaviy kasalliklar kelib chiqish va tarqalish xavfi tug'ilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari bosh davlat sanitariya vrachlarining taqdimiga muvofiq belgilangan tartibda tegishli hududlarda ishlash, o'qish, harakatlanish va odam va yuk tashishning alohida shartlari va tartibini joriy qilishlari mumkin.

Yuqumli va parazitar kasalliklar o'chog'larida karantin-tashkiliy va profilaktika tadbirlarni o'tkazish, kasallikka chalingan bemorlarni kasalxonalariga yotqizish tartibi va muddatlarini tegishli hududlardagi hokimiyat va boshqaruvning mahalliy idoralari hamda bosh davlat sanitariya vrachlari belgilaydilar.

20-modda. Maxsus ekspertizalarni o'tkazish sohasidagi talablar

Aholi va alohida shaxslar salomatligi va kasallanish holatini maxsus ekspertiza qilishning sanitariya-gigiena, sanitariya-ekologiya, tibbiy, biologik, texnikaviy, sostiologik va boshqa turlari, shuningdek loyiha, texnika hujjatlarini va boshqa hujjatlarni, uskunalarni, asboblarni va apparatlarni, kimyoviy moddalarni, turli birikmalarni, materiallarni va muhitlarni, oziq-ovqat xom ashyosini va mahsulotlarini, sanoat buyumlarini, radioaktiv materiallarni, radiastiya texnikasini ekspertiza qilish sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar, shuningdek ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, boshqa muassasa va tashkilotlar tomonidan buyurtmachining mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining qaroriga binoan o'tkaziladi.

Maxsus ekspertizalarni o'tkazish tartibi, buyurtmachilarning, ekspert muassasalari va ekspertlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek belgilangan qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

IV BO'LIM. DAVLAT SANITARIYA NAZORATI VA TEKSHIRUVI

21-modda. Sanitariya nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi idoralar va muassasalar

O'zbekiston Respublikasining davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati qaysi idoraga bo'ysunishidan va mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya etishlari ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.

Sanitariya-epidemiologiya stanstiyasi ushbu Qonunga hamda ular to'g'risidagi Nizomga muvofiq ish ko'ruvchi tibbiy profilaktik muassasa hisoblanib, sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarining majmuini uyushtirilishini va o'tkazilishini ta'minlaydi hamda davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining va O'rta Osiyo temir yo'lining ishlatilayotgan va qurilayotgan obyektlarida idoraviy sanitariya nazoratini tegishli vazirliklar va idoralarning sanitariya-epidemiologiya stanstiyalari amalga oshiradilar.

Sanitariya milistiyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlagan Nizomga muvofiq sanitariya tekshiruvini amalga oshiradi.

Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati idoralari, muassasalari va mansabdor shaxslari qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga yo'l-yo'riq ko'rsatib rahbarlik qiladilar, uni uyg'unlashtirib va tekshirib boradilar.

22-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar

Davlat sanitariya nazoratini tashkil etish va amalga oshirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi va uning o'rinbosarlari, viloyatlar, shaharlar, nohiyalar bosh davlat sanitariya vrachlari va ularning o'rinbosarlari zimmasiga yuklatiladi.

23-modda. Davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy kafolatlari

O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmatining davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi bosh davlat

sanitariya vrachlari, boshqa mansabdor shaxslari va mutaxassislari hokimiyat vakili hisoblanadilar va davlat himoyasida bo'ladilar.

24-modda. Davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish sohasidagi faoliyatga aralashishga yo'l qo'yib bo'lmasligi

Boshqa tashkilotlarning davlat sanitariya nazorati idoralarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish maqsadida ularning ishiga aralashishi, davlat sanitariya nazoratini amalga oshirayotgan mansabdor shaxslarga biron-bir yo'l bilan ta'sir ko'rsatishi taqiqlanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi:

davlat sanitariya epidemiologiya xizmati idoralari va muassasalariga rahbarlik qiladi, davlat sanitariya nazoratini amalga oshirishning asosiy vazifalarini va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlarini tasdiqlaydi;

atrof-muhit omillarining inson organizmiga ta'sirini aniqlashga doir respublika normativ-texnika hujjatlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va nashr etadi;

avariya vaziyatlarini yo'qotish chog'ida sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan muvaqqat sanitariya normalari va qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

viloyatlar va Toshkent shahri, bosh davlat sanitariya vrachlarini tayinlaydi;

sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasasi rahbarlarining xatti-harakatlari ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi;

odamlarning hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lgan yashash va xo'jalik faoliyatini yuritish taqiqlanadigan hududlarni belgilaydi;

hududlarni karantin infektsiyalari olib kirish va tarqatishdan sanitariya muhofazasi tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratiladigan respublika va mahalliy epidemiyaga qarshi jamg'armalardan va moddiy-texnikaviy resurslardan maqsadga muvofiq foydalaniyotganini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

26-modda. Viloyat va Toshkent shahri bosh davlat sanitariya vrachlarining vakolatlari

Viloyat va Toshkent shahrining bosh davlat sanitariya vrachlari: o'z bo'ysunuvidagi sanitariya-epidemiologiya xizmati idoralari va muassasalariga rahbarlik qiladilar;

xalq xo'jaligi obyektlarini qurish va qayta qurish loyihalari yuzasidan xulosalar beradilar;

sanitariya-epidemiya jihatidan bexatarlik masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining qarorlari asosida hamda ularni bajarish yuzasidan hujjatlar chiqaradilar;

odamlarning hayoti va salomatligiga xavfli bo'lgan, aholining yashashi va xo'jalik faoliyatini yuritish taqiqlanadigan hududlarni belgilaydilar;

viloyat va shahar hududlariga karantin infekstiyalari olib kirish va tarqatishdan sanitariya muhofazasi tadbirlarini amalga oshiradilar;

avariya vaziyatlarini yo'qotish chog'ida sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazadilar;

O'zbekiston Respublikasining Bosh sanitariya vrachi bilan kelishgan holda shaharlar va nohiyalarning bosh davlat sanitariya vrachlarini tayinlaydilar.

27-modda. Davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning huquqlari

Davlat sanitariya nazoratini amalga oshirayotgan mansabdor shaxslarga ularning vakolatlari doirasida quyidagi huquqlar beriladi:

a) davlat boshqaruvi idoralarida, mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalardan, shuningdek alohida shaxslardan yo'l qo'yilgan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari buzilishiga barham berishni talab qilish;

b) xalq xo'jaligi obyektlarini qurish va ularni qayta qurish loyihalarida sanitariya normalariga, qoidalariga va gigiena normativlariga rioya etilishini nazorat qilish;

v) mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarga va alohida shaxslarga belgilangan tartibda:

aholi punktlarini rejalashtirish va qurish loyihalari, xalq xo'jaligi obyektlarini joylashtirishning istiqbol rejalari bo'yicha, shuningdek korxonalar, binolar va inshootlarni qurish, qayta qurish loyihalari bo'yicha xulosalar berish;

qurilish uchun er uchastkalari berish, ro'zg'orda va maishiy maqsadlarda suvdan foydalanadigan joylarni va oqova suvlar tozalanganidan keyin ularni tushirib yuborish shartlarini aniqlash, zaharli, kimyoviy, radioaktiv va boshqa moddalarni qayta ishlash va ko'mib tashlash masalalari bo'yicha xulosalar berish;

g) turar joy binolari hamda madaniy-maishiy binolar, sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar, shuningdek inshootlarning amaldagi sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiqligi haqida xulosalar berish;

d) bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan hamda o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bolalarning o'quv-mehnat soatlari va taxminiy mashg'ulot tartibi haqida taqdim etishgan takliflar yuzasidan xulosalar berish;

e) qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlarini, boshqa muassasalar va tashkilotlarni maxsus ekspertizalar o'tkazishga jalb etish va bunga buyurtmachilar hisobidan haq to'lash;

j) sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari bajarilishini nazorat qilish maqsadida qaysi idoraga qarashli bo'lishdan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kirish;

z) qaysi idoraga qarashli bo'lishidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarning rahbarlaridan va alohida shaxslardan:

sanitariya normalarini, qoidalarini, epidemiyaga qarshi tartibotni muntazam suratda bajarmayotgan va ishlab chiqarishning hamda bajarilayotgan ishlarning xususiyatlarini hisobga olib, yuqumli, parazitar kasalliklarni tarqatish xavfini tug'diradigan shaxslarni ishdan chetlashtirishni;

atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan yuqumli va parazitar kasallik bilan og'rigan bemorlarni kasalxonaga yotqizishni;

profilaktika va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni;

obyektlarning sanitariya holatini aniqlash hamda aholi salomatligining holatini epidemiologiya jihatdan tahlil qilish uchun

zarur bo'lgan ma'lumotlar va tushuntirishlarni berishni talab qilish huquqiga egadirlar;

i) gigiena ekspertizalari, laboratoriya tadqiqotlari o'tkazish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini, buyumlarni, predmetlar va materiallarni olish, shuningdek bevosita obyektlarning o'zida, laboratoriyada va asboblarda yordamida zarur tekshirishlar o'tkazish;

k) sanitariya nazoratini amalga oshirishga boshqa idoralarning mutaxassislarini shartnoma asosida, shuningdek jamoatchilik vakillarini jalb etish.

Bosh davlat sanitariya vrachlari va ularning o'rinbosarlari sanitariya qonunlari buzilgan taqdirda quyidagi huquqlarga ega bo'ladilar:

er uchastkasi, uy-joy, jamoat, ishlab chiqarish va boshqa xalq xo'jaligi obyektlari qurilishiga, ularni qayta qurish, kengaytirishga, er ajratishga doir, sanitariya normalariga va qoidalariga javob bermaydigan loyihalash haqidagi hujjatlarni va loyihalarni qaytarish;

sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari buzilishiga barham berilgunga qadar amaldagi ishlab chiqarish obyektlarida, madaniy-maishiy binolardan foydalanishni, umumiy ovqatlanish va savdo korxonalarining, ta'lim, davolash-profilaktika hamda sanatoriy-kurort muassasalarining faoliyatini to'xtatib qo'yish, uskunalar, asboblarda va gidrotexnika inshootlarini ishlatishni taqiqlab qo'yish;

sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari buzilgan taqdirda aholi punktlari, binolar va inshootlar qurilishini, ularni qayta qurishni hamda mazkur obyektlarda ayrim ish turlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yish;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligida ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli deb topilgan yangi xom ashyo turlarini, kimyoviy moddalarni, texnologiya uskunalarini, jarayonlarini va asboblarni, oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosini, sanoat buyumlarini, qurilish materiallarini, ion hosil qiluvchi nurlanish manbalarini, biologiya vositalarini, oziq-ovqat xom ashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlarga ishlatiladigan idishlar, plastik, polimer va boshqa materiallarni, ulardan tayyorlangan buyumlarni va boshqa xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishni, qo'llashni va sotishni ta'qiqlab qo'yish;

xo'jalik va ichimlik suvi bilan ta'minlashda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularga ishlov berish chog'ida kimyoviy moddalarni qo'llashni, odamlar salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatish xavfi tug'ilgan taqdirda qishloq xo'jalik yokinlari va

hayvonlarning o'sishini tezlashtiradigan va tartibga soladigan dorilarni, pestistidlarni, atir-upa va pardozi mahsulotlarini qo'llashni bu moddalar va materiallarni ishlab chiquvchi ularning xavfli emasligi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etgunigacha taqiqlab qo'yish;

suv iste'mol uchun yaroqsiz deb topilganda undan ichish va xo'jalik maqsadlarida ishlatishni taqiqlab qo'yish;

sanitariya normalarini, qoidalarini va gigiena normativlarini buzayotgan shaxslarni vaqtincha ishdan chetlashtirish.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini to'xtatib qo'yish sud tartibida amalga oshiriladi, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno.

28-modda. Bosh davlat sanitariya vrachlari va o'rinbosarlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish

Ma'muriy jarima belgilash haqidagi qarorlar ustidan O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan tartibda shikoyat beriladi

V BO'LIM. SANITARIYA QONUNLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

29-modda. Sanitariya qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor va boshqa shaxslar quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortiladilar:

1) tuproqni, atmosfera havosini, oziq-ovqat mahsulotlarini, ish olib boriladigan joy havosini, suv bilan ta'minlashning ochiq va erosti manbalarini, aholi tomonidan madaniy-maishiy maqsadlarda foydalaniladigan suv havzalari hamda suv omborlarining qirg'oqlarini kimyoviy, fizikaviy biologik va boshqacha tarzda ifloslantirganlik uchun;

2) sanitariya normalariga, qoidalariga va gigiena normativlarini hisobga olmagan holda aholining salomatligini muhofaza qilishni, sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini va radiastiya xavfsizligini ta'minlashga doir normativ-texnikaviy hujjatlarni ishlab chiqqanlik uchun;

3) yangi xom ashyo turlarini, texnologiya uskunalari, jarayonlari va asboblarini, oziq-ovqat mahsulotlari hamda oziq-ovqat xom ashyosini, sanoat buyumlarini, binokorlik materiallarini, ion hosil qiluvchi nurlanish manbalarini, kimyoviy moddalar va mahsulotlarni,

biologiya vositalarini, oziq-ovqat xom ashyosi, oziq-ovqat mollari va dori-darmonlar bevosita tegib turadigan idishlar, boshqa materiallarni, bu materiallardan tayyorlanadigan buyumlarni, atir-upa va pardozi mahsulotlarini hamda boshqa xalq iste'moli mollari, tibbiyot va immunobiologiya dori-darmonlarini ishlab chiqarish va qo'llanishga doir normativ-texnika hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi bilan kelishmagan holda ishlab chiqqanlik uchun;

4) binolar va inshootlarni, suv ta'minoti, kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash tizimlarini, gidrotexnika inshootlarini, boshqa obyektlarni sanitariya normalariga, qoidalar va gigiena normativlariga rioya etmagan holda va davlat sanitariya nazorati idoralari bilan kelishmasdan turib loyihalaganlik, qurganlik, qayta qurganlik uchun;

5) er uchastkasidan davlat sanitariya nazorati idoralari bilan kelishmasdan turib yangi qurilish, obyektlarni qayta qurish, kengaytirish uchun foydalanganlik uchun;

7) oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlari sifatiga qo'yiladigan talablarga rioya etmaganlik, tarkibida inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lgan radionuklidlar, zaharli, biologik, kimyoviy va boshqa moddalar va birikmalar belgilangan gigiena normativlaridan yuqori bo'lgan mahsulotlarni ovqatga ishlatganlik uchun;

8) oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotish chog'ida sanitariya normalari, qoidalarini va gigiena normativlarini buzganlik uchun;

9) oziq-ovqat xom ashyosiga, oziq-ovqat mahsulotlariga va dori-darmonlarga tegib turadigan idishlar, boshqa materiallarni, em-xashakka qo'shib beriladigan oziqa moddalarni davlat sanitariya nazorati idoralarining ruxsatisiz qo'llanganlik uchun;

10) chet eldan olinadigan texnologiyalar, materiallar, xom ashyo va mahsulotlarni yetkazib berishda, sotishda va ulardan foydalanishda sanitariya normalarini, qoidalarini va gigiena normativlarini buzganlik uchun;

11) xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti markazlashtirilgan tizimlari orqali berilayotgan suvning sifati gigiena talablariga mos kelmasligi uchun;

12) suv havzalaridan ro'zg'orda va maishiy maqsadlarda foydalanganda, suvning sifati sanitariya normalari va talablariga mos kelishini ta'minlamaganlik uchun;

13) aholi punktlari va hududlarini saqlashning, sanoat, qishloq xo'jalik va xo'jalik ro'zg'or-chiqitlarini, shu jumladan radioaktiv va zaharli moddalarni to'plash, saqlash, tashish va qayta ishlashning sanitariya qoidalarini buzganlik uchun;

14) atmosfera havosini muhofaza qilishning sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlarini buzganlik uchun;

15) barcha tipdagi ta'lim muassasalarida, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot muassasalarida va boshqa muassasalar hamda korxonalarda sanitariya normalari, qoidalari va normativlariga rioya etmaganlik uchun;

16) radioaktiv moddalar, ion hosil qiluvchi nurlanish manbalari bilan ishlashda, shuningdek radioaktiv chiqitlarni ko'mib tashlash chog'ida radiastiya xavfsizligi normalari va sanitariya qoidalarini buzganlik uchun;

17) yuqumli, parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatish chora-tadbirlarini bajarmaganlik uchun;

18) davlat sanitariya-epidemiologiya idoralari va muassasalarining yo'llanmalari bilan sanitariya-gigiena, tibbiy, biologik, texnikaviy, sostiologik va boshqa maxsus ekspertizalar o'tkazishdan asossiz bosh tortganlik uchun;

19) tibbiy ko'riklardan o'tmagan yoki salomatligi tufayli mehnatga yaroqsiz deb topilgan shaxslarga ishlashga ruxsat berganlik uchun;

20) ayrim toifadagi fuqarolar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi yoki ko'rikdan o'tish muddatlarini buzganligi uchun;

21) davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi idoralar va muassasalarning ko'rsatmalarini, xulosalarini hamda qarorlarini bajarmaganlik uchun;

22) obyektidagi sanitariya gigiena holatini, epidemiya vaziyatini va radiastiya holatini aniqlash uchun zarur bo'lgan materiallarni berishdan bosh tortganlik uchun;

23) davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi idoralar va muassasalar tomonidan yopib qo'yilgan obyektlarda muhrlarni uzib tashlaganlik va ishni qayta boshlaganlik uchun;

24) ishchi va xizmatchilarning ayrim toifalari, shuningdek yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning majburiy gigiena ta'limidan o'tish to'g'risidagi qonun talablarini buzganligi uchun.

30-modda. Javobgarlik choralari

Ushbu Qonun talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy jarima pullari O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining epidemiyaga qarshi jamg'armalariga tushadi.

31-modda. Sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlarini buzish natijasida keltirilgan zararning o'rnini qoplash

Mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, sanitariya qonunlarini buzishda aybdor bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar shikastlanganlarni davolash va ularning salomatligini tiklash, davolash-profilaktika tadbirlariga, sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishga sarflangan harajatlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq to'lashlari shart.

VI BO'LIM. XALQARO SHARTNOMALAR

32-modda. Xalqaro shartnomalar

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ushbu Qonundagidan boshqacha qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lsa, u holda xalqaro shartnomalar qoidalari qo'llanadi.

**VI BOB. «NARKOLOGIK KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI
VA ULARNI DAVOLASH TO‘G‘RISIDA»GI 27.10.2020
YILDAGI O‘RQ-644-SON QONUN E‘LON QILINDI.**

«Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risida»gi Qonunning o‘rnini egalladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi narkologik yordam sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Narkologik yordam to‘g‘risidagi qonunchilik

Narkologik yordam to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining narkologik yordam to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

majburiy davolash — narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarga nisbatan sudning qarori asosida majburiy davolash uchun mo‘ljallangan muassasalarda ko‘rsatiladigan narkologik yordam turi;

narkologik yordam — narkologik kasalliklar profilaktikasini, narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tekshirishni, ularga maslahat berishni, tashxis qo‘yishni, ularni davolashni, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni o‘z ichiga oluvchi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam turi;

narkologik kasallik (surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik) — psixoaktiv moddalarga patologik ruju qo‘yish, ulardan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlarini bilan tavsiflanadigan surunkali kasallik;

narkologik kasallikka chalingan shaxs — o‘ziga narkolog shifokor tomonidan narkologik kasallik tashxisi qo‘yilgan shaxs;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish — narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning hayot faoliyatiga doir cheklovlarni bartaraf etishga yoki kompensatsiya qilishga, yo‘qotilgan ijtimoiy aloqalarini hamda ijtimoiy maqomini tiklashga, mehnat va maishiy sharoitlarga moslashuvini ta‘minlashga

qaratilgan tibbiy, psixologik, tarbiyaviy, ta'limga oid, ijtimoiy, huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

narkologiya muassasalari — aholiga narkologik yordam ko'rsatuvchi narkologiya markazlari, shifoxonalari, dispanserlari, psixonevrologiya dispanserlari tuzilmasidagi bo'linmalar, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining narkologiya kabinetlari;

narkologik ekspertiza — tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash masalalarini, ma'muriy, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha ish yuritish jarayonida yuzaga keladigan boshqa masalalarni hal etish uchun narkologik kasallikka tashxis qo'yishga qaratilgan shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish;

psixoaktiv moddalar — markaziy asab tizimiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadigan, muntazam ravishda iste'mol qilganda ruhan va jismonan qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy kimyoviy moddalar;

psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish — shaxslarda mastlik holatini aniqlashga qaratilgan tibbiy ko'rik usullari va tibbiy tekshiruvlar majmui.

4-modda. Narkologik yordam ko'rsatishning asosiy prinsiplari

Narkologik yordam ko'rsatishning asosiy prinsiplari qonuniylik, maxfiylik, fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi, rahm-shafqat va insonparvarlikdan iboratdir.

2-bob. Narkologik yordam sohasini tartibga solish

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

narkologik yordam sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

narkologik yordam sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining narkologik yordam sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:
narkologik yordam sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;
narkologik yordam sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

narkologik yordam sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mamlakatdagi narkologik vaziyatni o'rganadi, narkologik kasalliklar tarqalganligi tahlilini amalga oshiradi;

narkologik yordam ko'rsatish sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni hamda ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni erta aniqlash, ularga maslahat berish, ularni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, davolash, profilaktika va dispanser kuzatuviga olish hamda tibbiy-ijtimoiy reabilitastiya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning ijtimoiy moslashuviga va qayta ijtimoiylashuviga doir tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini va narkologik kasalliklarning somatik asoratlarini tegishli ixtisoslashuvdagi davolash-profilaktika muassasalarida davolashni ta'minlaydi;

aholiga narkologik yordam ko'rsatish samaradorligi monitoringini amalga oshiradi;

narkologik kasalliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:
narkologik yordam sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

narkologik yordam sohasidagi tarmoq dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

fuqarolarning, avvalo yoshlarning psixoaktiv moddalarni notibbiy ravishda iste'mol qilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi va bartaraf etadi;

psixoaktiv moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslarni aniqlaydi va ularni tibbiy tekshiruvdan o'tishga olib boradi;

sog'liqni saqlash organlari va muassasalarining xulosalari asosida narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni profilaktik hisobga olishni amalga oshiradi;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolashga yuborish uchun hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlaydi, shuningdek ushbu shaxslarni sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida narkologiya muassasalariga olib borishga ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslarni jazoni ijro etish tizimining ixtisoslashtirilgan muassasalarida majburiy davolashni amalga oshiradi;

narkologik kasalliklarga chalingan, narkologiya muassasalarida davolanib chiqqan, shu jumladan majburiy tarzda davolanib chiqqan shaxslar ustidan kuzatuvni tashkil etadi hamda ularni ishga joylashtirishga va ularning maishiy moslashuviga ko'maklashadi;

narkologik kasalliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi hamda narkologik yordam ko'rsatuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari:

narkologik yordam sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

narkologik yordam sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

tegishli hududda narkologik kasalliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirishni hamda hamkorligini ta'minlaydi;

narkologik yordam ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalari tarmog'ini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni va infratuzilmani yaratadi;

narkologiya muassasalari qoshida ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik faoliyatiga ixtisoslashtirilgan korxonalarni tashkil etishga, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida

tashkil etishga ko'maklashadi, ularning infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadi;

narkologik kasalliklarga chalingan, narkologiya muassasalarida davolanib chiqqan, shu jumladan majburiy tarzda davolanib chiqqan shaxslarni ishga joylashtirishga va ularning maishiy moslashuviga doir tadbirlarni amalga oshiradi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining va ta'lim muassasalarining narkologik kasalliklar profilaktikasida ishtirok etishi

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalari:

narkologik yordam sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'rtasida narkologik kasalliklar profilaktikasiga doir tarmoq dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'rtasida psixoaktiv moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslarni aniqlash chora-tadbirlarini ko'radi;

ta'lim muassasalarida psixoaktiv moddalarning tarqalishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi va bartaraf etadi;

ta'lim muassasalarining o'quvchilarida sog'lom turmush tarziga moyillik shakllantirilishini ta'minlaydi;

bolalarda psixoaktiv moddalarni iste'mol qilishga o'rganib qolishga sabab bo'luvchi ijtimoiy omillar ta'siriga bardoshlilikni shakllantirish bo'yicha oilalar bilan ish olib boradi;

narkologik kasalliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi hamda narkologik yordam ko'rsatuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalari qonunchilikka muvofiq narkologik kasalliklar profilaktikasi bo'yicha boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

10-modda. Mehnat organlarining narkologik kasalliklar profilaktikasida ishtirok etishi

Mehnat organlari:

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning bandligini ta'minlashga doir ishlarda narkologiya muassasalari bilan hamkorlik qiladi;

majburiy davolanayotgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha tadbirlarni mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda narkologiya muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi;

narkologik kasalliklarga chalingan, narkologiya muassasalarida davolanib chiqqan, shu jumladan majburiy tarzda davolanib chiqqan shaxslarni ishga joylashtirishga ko'maklashadi.

Mehnat organlari qonunchilikka muvofiq narkologik kasalliklar profilaktikasi bo'yicha boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

11-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining narkologik kasalliklar profilaktikasida ishtirok etishi

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

narkologik yordam sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy hamda boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

narkologik yordam to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

narkologik kasalliklarga chalingan, shu jumladan g'ayriijtimoiy xulq-atvorga moyil bo'lgan shaxslarni profilaktik hisobga olishni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlariga ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonunchilikka muvofiq narkologik kasalliklar profilaktikasi bo'yicha boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Aholiga narkologik yordam ko'rsatish

12-modda. Davlat tomonidan kafolatlangan narkologik yordam

Davlat:

psixoaktiv moddalardan o'tkir zaharlanish, psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq alkogolli psixozlar va zaharlanish natijasidagi psixozlar chog'ida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini;

ambulatoriya va stasionar sharoitlarda maslahat berish-tashxis qo'yilishini, davolashni, psixoprofilaktik, rehabilitatsiya, ijtimoiy yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

13-modda. Aholiga narkologik yordam ko'rsatuvchi sog'liqni saqlash muassasalari

Davlat sog'liqni saqlash tizimining narkologiya muassasalari yoki «Narkologiya» ixtisosligi bo'yicha tibbiy faoliyatni amalga oshirish

uchun listenziyaga ega bo'lgan xususiy tibbiyot muassasalari aholiga narkologik yordam ko'rsatadi.

Narkologiya dispanserlari Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda, Toshkent shahrida, shuningdek mamlakatning yirik shaharlarida respublika, viloyat, shahar yoki tumanlararo darajada mustaqil davolash-profilaktika muassasalari sifatida tashkil etiladi.

Ambulatoriya sharoitlaridagi narkologik yordam tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari tuzilmasida tashkil etilgan narkologiya kabinetlari tomonidan ko'rsatiladi.

Stasionar sharoitlardagi narkologik yordam Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, narkologiya dispanserlari, psixonevrologiya muassasalarining narkologiya bo'limlari, majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya shifoxonalari, narkologiya dispanserlarining majburiy davolash uchun mo'ljallangan bo'limlari tomonidan ko'rsatiladi.

Psixoaktiv moddalardan o'tkir zaharlanish chog'ida shoshilinch tibbiy yordam hududiy shoshilinch tibbiy yordam markazlari tomonidan ko'rsatiladi.

14-modda. Narkologik kasalliklar profilaktikasi

Narkologik kasalliklar profilaktikasi psixoaktiv moddalarning tarqalishiga va notibbiy ravishda iste'mol qilinishiga, shu jumladan alkogolni suiiste'mol qilishga imkon beruvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, ularning shaxsiy, ijtimoiy va tibbiy salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy, ma'rifiy hamda tibbiy-psixologik tadbirlar majmuidan iboratdir.

Narkologik kasalliklar profilaktikasi birlamchi, ikqilamchi va uchlamchi profilaktikani o'z ichiga oladi.

Narkologik kasalliklarning birlamchi profilaktikasi psixoaktiv moddalarni iste'mol qilishga o'rganib qolishga sabab bo'ladigan omillarni bartaraf etish yoki shaxsning ushbu omillar ta'siriga bardoshlilikini oshirish orqali mazkur moddalarni birinchi marta notibbiy ravishda iste'mol qilishga urinishning oldini olishga qaratilgan tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimidir.

Narkologik kasalliklarning ikqilamchi profilaktikasi psixoaktiv moddalarni iste'mol qilishni bu moddalarga nisbatan qaramlik shakllanganiga qadar tugatishga qaratilgan tibbiy, pedagogik, psixologik, psixoterapevtik va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimidir.

Narkologik kasalliklarning uchlamchi profilaktikasi narkologik kasallik avj olishining hamda uning ijtimoiy va tibbiy salbiy oqibatlari

yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan tibbiy, psixologik, psixoterapevtik va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimidir.

4-bob. Narkologik kasallikka chalingan shaxslarga narkologik yordam ko'rsatish

15-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning huquqlari

Narkologik kasallikka chalingan shaxslar quyidagi huquqlarga ega: o'z huquqlari, o'zidagi mavjud narkologik kasalliklarning xususiyati, qo'llaniladigan davolash va rehabilitasiya qilish usullari to'g'risida axborot olish;

davolashni amalga oshirish sharoitlarini (ambulatoriya yoki stasionar), davolovchi ta'sir o'tkazish hajmi va usullarini tanlashda, davolash va rehabilitasiya qilishning yakka tartibdagi rejasini tuzishda ishtirok etish, bundan ushbu Qonunning 5-bobida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno;

narkologiya muassasasi bilan tibbiy yordam va rehabilitasiya yordamini ko'rsatish to'g'risida yozma shartnoma tuzish, bundan ushbu Qonunning 5-bobida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno;

tibbiy vositalar va usullarni sinash, ilmiy tadqiqotlar yoki o'quv jarayonida o'zidan obyekt sifatida foydalanilishiga, shuningdek foto-, video- yoxud kinotasvirga olinishga oldindan yozma rozilik berish yoki uni rad etish, shu jumladan istalgan bosqichda rad etish;

taklif qilinayotgan davolanishni rad etish yoki uni istalgan bosqichda to'xtatish, bundan ushbu Qonunning 25-moddasida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno;

narkologiya muassasasining rahbariga yoki boshqa mansabdor shaxsiga, yuqori turuvchi sog'liqni saqlash organiga yoki sudga murojaat qilish, o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun advokatni yoxud qonuniy vaqilini jalb etish.

16-modda. Sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida profilaktika kuzatuv (profilaktik hisobga olish) va dispanser kuzatuv (dispanser hisobga olish)

Profilaktika kuzatuv (profilaktik hisobga olish) alkogolni muntazam ravishda iste'mol qiluvchi, giyohvandlik vositalarini yoki boshqa psixoaktiv moddalarni har zamonda iste'mol qiluvchi shaxslarda ruhan va jismonan qaramlikning klinik belgilarisiz narkologik kasallik

rivojlanishining oldini olish maqsadida narkologiya muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Profilaktika kuzatuv (profilaktik hisob) ostidagi shaxslarga nisbatan psixoaktiv moddalarga ruhan va jismonan qaramlikning shakllanishi xavfiga doir omillarni bartaraf etishga qaratilgan tibbiy, pedagogik, psixologik, psixoterapevtik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui amalga oshiriladi.

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning dispanser kuzatuv (dispanser hisobiga olish) narkologiya muassasalari tomonidan ularga psixoaktiv moddalarni notibbiy ravishda iste'mol qilishdan tiyilishni va narkologik kasallikning tibbiy-ijtimoiy oqibatlarining oldini olishini ta'minlaydigan malakali narkologik yordam ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladi.

Narkologiya muassasasiga davolanishdan o'tish uchun ixtiyoriy ravishda murojaat etgan narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning iltimosiga ko'ra, ularning dispanser kuzatuv (dispanser hisobiga olish) belgilanmasligi mumkin.

Majburiy dispanser kuzatuviga (dispanser hisobiga) quyidagi shaxslar olinishi lozim:

shaxsiyatida narkologik kasallik bilan bog'liq bo'lgan aniq ko'rinib turgan o'zgarishlar bo'lgan shaxslar;

alkogolli yoki zaharlanish natijasidagi psixozlarni boshdan kechirgan shaxslar;

narkologik kasalliklarga chalingan, narkologik yordam so'rab murojaat qilguniga qadar, davolanish davrida yoki davolanish tugallanganidan keyin g'ayriijtimoiy xulq-atvor belgilarini namoyon etuvchi shaxslar;

bir yil mobaynida ikki va undan ortiq marta psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik va (yoki) o'tkir zaharlanish holatida tibbiyot muassasalariga olib kelingan shaxslar;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, narkologik kasalliklari tufayli o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar;

narkologiya muassasasida davolanib chiqqanidan keyin bir yil mobaynida narkologik kasalligi ikki martadan ortiq qaytalangan shaxslar.

Narkologik kasallik tashxisini qo'yish narkolog shifokorlarning mutlaq huquqidir. Profilaktika yoki dispanser hisobiga qo'yish haqidagi qaror narkologiya muassasasining tibbiy komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

Profilaktika kuzatuv (profilaktik hisobga olish) va dispanser kuzatuv (dispanser hisobga olish) tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsning davolanishga roziligi

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni davolash uning yozma roziligi yoki qonuniy vaqilining yozma roziligi olinganidan keyin amalga oshiriladi, bundan ushbu Qonunning 25-moddasida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Shifokor davolanishga yozma rozilik olish uchun narkologik kasallikka chalingan shaxsga yoki uning qonuniy vakiliga kasallikning xususiyati, davolashning maqsadi va usullari, davolashning davomiyligi to'g'risida, shuningdek yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan asoratlar xavfi, nojo'ya ta'sirlar va ko'tilayotgan natijalar haqida axborot berishi shart. Davolanish uchun yozma rozilik tibbiy hujjatlarga qo'shib qo'yiladi.

O'n to'rt yoshdan katta voyaga etmagan shaxslar tibbiy aralashuvga ixtiyoriy yozma rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Narkologik kasallikka chalingan va ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan yoshga to'lmagan shaxslarga hamda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarga nisbatan davolanish uchun yozma rozilikni ularning qonuniy vakillari ushbu shaxslar sog'lig'ining holati haqidagi ma'lumotlardan xabardor qilingach beradi. Qonuniy vakillar yo'qligida davolash to'g'risidagi qarorni shifokorlar konsiliumi qabul qiladi, konsilium yo'qligida esa, qarorni davolovchi shifokor qabul qiladi.

18-modda. Narkologik yordamni rad etish

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar narkologik yordamni rad etishi mumkin.

Narkologik yordamni rad etish narkologik kasallikka chalingan shaxsning yoki uning qonuniy vaqilining arizasi bilan rasmiylashtirilib, davolovchi shifokor va bo'lim mudirining imzolari bilan tasdiqlanadi.

Narkologik yordamni rad etgan shaxslarga yoki ularning qonuniy vakillariga narkologik yordamni rad etishning ehtimol tutilgan oqibatlari to'g'risida tushuntirilishi kerak.

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni narkologik yordam olishni rad etishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

19-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsga o'z roziligisiz yoki qonuniy vaqilining roziligisiz narkologik yordam ko'rsatish

Narkologik kasallikka chalingan shaxsga o'zining yozma roziligisiz yoki qonuniy vaqilining yozma roziligisiz narkologik yordam ko'rsatishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

narkologik kasallikka chalingan shaxsda psixoaktiv moddalarni iste'mol qilishi oqibatida uning o'zi va atrofidagi shaxslar uchun bevosita xavf soluvchi alkogolli yoki zaharlanish natijasidagi psixozlar yuzaga kelganda;

hayotiy ko'rsatmalarga ko'ra kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy aralashuv zarur bo'lganda;

ushbu Qonunning 25-moddasida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra majburiy davolash qo'llanilganda.

Psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish oqibatida yuzaga kelgan alkogolli yoki zaharlanish natijasidagi psixoz holatidagi shaxsga uning yozma roziligisiz narkologik yordam ko'rsatish zarurligi haqidagi qaror uni ko'rikdan o'tkazuvchi narkolog shifokor yoki psixiatr shifokor tomonidan qabul qilinadi. Alkogolli yoki zaharlanish natijasidagi psixoz to'xtatilganidan (bartaraf etilganidan) keyin narkologik kasallikni davolashni davom ettirish narkologik kasallikka chalingan shaxsning yoki uning qonuniy vaqilining ixtiyoriy yozma roziligi asosida amalga oshiriladi.

20-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsga to'liq hajmda narkologik yordam ko'rsatishni rad etish yoki yordam ko'rsatish muddatini kechiktirish

Narkologik kasallikka chalingan shaxsda tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lgan taqdirda, unga to'liq hajmda narkologik yordam ko'rsatish rad etilishi yoki uni ko'rsatish muddati kechiktirilishi mumkin.

Narkologik kasallikka chalingan shaxsda rad etish yoki muddatini kechiktirish uchun asos bo'lgan tibbiy qarshi ko'rsatmalar bartaraf etilganda narkologik yordam to'liq hajmda ko'rsatilishi mumkin.

21-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni ambulatoriya yoki stasionar sharoitlarda davolashni o'tkazishga doir tibbiy ko'rsatmalar va

qarshi ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolash mazkur Qonunning 5-bobida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Narkologik yordamga muhtoj bo'lmagan shaxslarning narkologiya muassasasiga asossiz ravishda yotqizilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat etilgan tibbiy vositalar va usullardan foydalaniladi.

Tibbiy vositalar va usullardan faqat davolash maqsadida foydalanilishi kerak hamda ular narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni jazolash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin emas.

Davolash narkologik kasallikka chalingan shaxsning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadigan yakka tartibdagi rejaga asoslanadi, bu reja ushbu shaxsning o'zi yoki uning qonuniy vakili bilan muhokama qilinadi.

Qo'llaniladigan tashxis qo'yish va davolash usullari, shu jumladan psixoterapevtik texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar kasallik tarixiga yoki ambulatoriya kartasiga kiritiladi.

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar boshqa davolash-profilaktika muassasalarida bo'lgan taqdirda, ular maslahat tarzidagi narkologik yordam bilan ta'minlanadi.

Narkologiya muassasasida stasionar davolanishda bo'lgan shaxslarga, zarurat bo'lganda, boshqa mutaxassislarning maslahat berishi ta'minlanadi.

Narkologiya muassasasida stasionar davolanishda bo'lgan shaxslarda boshqa ixtisoslikdagi davolash-profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordamni talab etadigan holatlar aniqlangan taqdirda, ular tez tibbiy yordam xizmati orqali zudlik bilan tegishli davolash-profilaktika muassasalariga o'tkaziladi.

22-modda. Narkologiya muassasasida davolanishda bo'lgan shaxsning majburiyatlari

Narkologiya muassasasida davolanishda bo'lgan shaxs narkologiya muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya etishi shart.

Narkologiya muassasasida davolanishda bo'lgan shaxs tomonidan narkologiya muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganlik uni davolash muassasasidan chiqarib yuborish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lishi mumkin, bundan ushbu Qonunning 5-bobida va

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

23-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy reabilitasiya qilish

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy reabilitasiya qilish faqat narkologik kasallikka chalingan shaxsning ixtiyoriy yozma roziligi asosida, narkologiya muassasasi bilan tibbiy yordam va reabilitasiya yordami ko'rsatish to'g'risida yozma shartnoma tuzilganidan keyin amalga oshiriladi, bundan ushbu Qonunning 5-bobida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Narkologik kasalliklarga chalingan va tibbiy-ijtimoiy reabilitasiyadan o'tish xohishini bildirgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi narkologiya muassasalari tomonidan reabilitasiya qilish rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

24-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar to'g'risidagi, shu jumladan ularni tekshiruvdan o'tkazish natijalari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

ichki ishlar organlarida profilaktika kuzatuvini zarur bo'lganda;

prokuratura, tergov, surishtiruv organlarining, shuningdek sudning tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilishi munosabati bilan so'roviga ko'ra;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning so'roviga ko'ra;

majburiy davolash zarur bo'lganda;

majburiy davolash tugallanganda;

davolanishdan o'tish uchun takroran chaqirtirilganidan keyin shaxs narkologiya muassasasiga borishni rad etganda;

chaqiruvga qadar bo'lgan yoshdagi va chaqiruv yoshidagi shaxslar harbiy-tibbiy komissiyadan o'tayotganida;

nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan o'tayotganida.

5-bob. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolash

25-modda. Majburiy davolashni qo'llash uchun asoslar

Majburiy davolash narkologik kasalliklarga chalingan, atrofdagilarning xavfsizligi va sog'lig'iga tahdid solayotgan yoxud

jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqlarini buzayotgan, psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatida ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun bir yil ichida bir martadan ortiq ma'muriy javobgarlikka tortilgan hamda ushbu Qonunga muvofiq majburiy davolashga yuborilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirilgan shaxslarga nisbatan sudning qarori asosida qo'llaniladi.

26-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsni uning majburiy davolashga yuborilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirish tartibi

Hududiy ichki ishlar organining boshlig'i narkologik kasallikka chalingan, psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatida ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun bir yil mobaynida bir martadan ortiq ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan uning majburiy davolashga yuborilishi mumkinligi haqida ogohlantirish chiqaradi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxsga uning majburiy davolashga yuborilishi mumkinligi to'g'risidagi ogohlantirish ichki ishlar organlari xodimi tomonidan e'lon qilinib, unga ogohlantirishning ko'chirma nusxasi topshiriladi va bu haqda bayonnoma tuziladi.

Majburiy davolashga yuborilishi mumkinligi haqidagi ogohlantirishning shakli O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

27-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga muhtoj deb topish tartibi

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga muhtoj deb topish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar narkologiya dispanserlari tarkibida tuziladigan narkologik ekspertizalarni o'tkazish uchun ixtisoslashtirilgan tibbiy komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Narkologik ekspertizalarni o'tkazish uchun ixtisoslashtirilgan tibbiy komissiyalar narkologik kasallikka chalingan shaxsga nisbatan tibbiy xulosa chiqaradi.

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolash zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa klinik tekshiruv jarayonida olingan ma'lumotlarga, shuningdek quyidagilar tomonidan taqdim etilgan ish materiallaridagi ma'lumotlarga asoslanadi:

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan — shaxsni narkologik kasallikka chalingan deb topish haqidagi masalani hal etish uchun;

surishtiruv va tergov, prokuratura va sud organlari tomonidan — O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani hal etish uchun.

28-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi materiallarni tayyorlash

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi materiallar narkologiya muassasalarining, narkologik kasallikka chalingan shaxs oila a'zolarining yoki qarindoshlarining iltimosnomalari asosida ichki ishlar organlari tomonidan tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi.

29-modda. Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish tartibi

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qaror uning yashash joyidagi yoki narkologiya muassasasi joylashgan erdagi sud tomonidan ushbu shaxs hozirligida qabul qilinadi.

Narkologik kasallikka chalingan shaxsning sud majlisiga kelishi ichki ishlar organlari xodimi kuzatuvda amalga oshiriladi. Narkologik kasallikka chalingan shaxs rad etgan taqdirda, qonunchilikka muvofiq sudning qaroriga asosan majburan olib kelish amalga oshiriladi.

Sudning narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va ichki ishlar organlari tomonidan darhol ijro etiladi.

Sudning narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori ustidan ushbu qaror o'ziga nisbatan chiqarilgan shaxs yoki uning advokati, qonuniy vakili tomonidan 72 soat ichida apellyastiya tartibida shikoyat qilinishi yoxud prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Majburiy davolashning davomiyligi narkologik kasallikka chalingan shaxs davolash uchun joylashtirilgan kundan e'tiboran besh kunlik muddatda narkologiya muassasasining tibbiy komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlaydigan klinik-tashxis qo'yish standartlari va davolash bayonnomalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolash shaxs davolanayotgan narkologiya muassasasi tibbiy komissiyasining qarori asosida tugatiladi.

Narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolash davomiyligi o'n sakkiz oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Sudning narkologik kasallikka chalingan shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori ushbu shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

30-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolash uchun mo'ljallangan muassasalar

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolash O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tuzilmasida majburiy davolash uchun bo'lim tashkil etilgan narkologiya muassasalarida yoki majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya shifoxonalarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimining ixtisoslashtirilgan muassasalarida amalga oshiriladi.

31-modda. Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasalarida davolash jarayonini tashkil etish

Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasalarida davolash jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Majburiy davolashni o'tkazishga doir tibbiy qarshi ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

32-modda. Majburiy davolanayotgan shaxslarga nisbatan mehnat terapiyasini qo'llash tartibi

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar majburiy davolanishda bo'lishi davrida davolash maqsadida va ularning jismoniy holati hisobga olingan holda, shuningdek tibbiy ko'rsatmalarga muvofiq ularga nisbatan mehnat terapiyasi qo'llaniladi.

Mehnat terapiyasini o'tkazish narkologiya muassasalari qoshida tashkil etiladigan, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil etiladigan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik faoliyatiga ixtisoslashtirilgan korxonalarda yoki sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat terapiyasini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy davolanayotgan va mehnat terapiyasi tartibida mehnat faoliyatiga jalb qilingan shaxslarning ish vaqti davomiyligi mehnat

to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan ish vaqti davomiyligi normalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Mehnat jarayonini tashkil etish korxonalar ma'muriyati tomonidan narkologiya muassasasining tibbiyot xodimlari nazorati ostida amalga oshiriladi.

Majburiy davolanayotgan va mehnat terapiyasi tartibida mehnat faoliyatiga jalb qilingan shaxslarda mehnat daftarchasi mavjud bo'lgan taqdirda, mehnat daftarchasiga majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasida bo'lish davridagi mehnat faoliyati to'g'risida belgi qo'yiladi, mehnat daftarchasi mavjud bo'lmaganda esa ma'lumotnoma beriladi.

Majburiy davolanayotgan va mehnat terapiyasi tartibida mehnat faoliyatiga jalb qilingan shaxslarga korxonalar tomonidan amaldagi normalar, narxlar, mehnatga haq to'lash shartlaridan kelib chiqqan holda hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ish haqi hisoblanadi.

Korxonalar ishlangan vaqt uchun hisoblangan ish haqining o'ttiz foizini majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lar maxsus hisobvarag'iga o'tkazadi, ish haqining qolgan qismi esa soliqlar, alimentlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa ushlanmalar chegirib tashlangan holda mehnat terapiyasi tartibida mehnat faoliyatiga jalb etilgan shaxsning o'z shaxsiy hisobvarag'iga o'tkaziladi. Narkologiya muassasasiga mazkur shaxslarning familiyalari ro'yxati ham bu shaxslarga o'tkazilgan ish haqi summalari ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lar maxsus hisobvarag'ida hosil bo'ladigan mablag'lar ushbu muassasada davolanayotgan shaxslarning qo'shimcha ovqatlanishiga, shuningdek bu muassasalarning binolari va inshootlarini kapital ta'mirlashga, ularning hududlarini obodonlashtirishga, tibbiy asbob-uskuna, xo'jalik va madaniy ashyolarni olishga, davriy matbuot nashrlariga obuna bo'lishga, kutubxonalar uchun adabiyotlar harid qilishga, madaniy tadbirlarni o'tkazishga sarflanishi mumkin.

33-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning majburiy davolash uchun mo'ljallangan muassasalardagi xulq-atvori qoidalari va ularni saqlash shart-sharoitlari

Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasalarida ushbu muassasalardagi narkologik kasalliklarga

chalingan shaxslar tomonidan tibbiy ko'rsatmalar bajarilishini ta'minlovchi tartib, ularning o'zboshimchalik bilan ketib qolish imkoniyatini istisno etuvchi doimiy nazorat o'rnatiladi.

Majburiy davolanayotgan shaxslarning narkologiya muassasasidan tashqariga chiqishiga faqat davolash-tashxis qo'yish tadbirlarini o'tkazish yoki mehnat terapiyasi tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun narkologiya muassasasining tibbiyot xodimlari va qo'riqlash xodimlari kuzatuvda ruxsat beriladi.

Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolanayotgan shaxslarga zarur moddiy-maishiy sharoitlar ta'minlanadi. Palatalar har bir yotoq-joy uchun kamida olti kvadrat metr maydon hisobga olingan, ko'pi bilan to'rtta yotoq-joyga mo'ljallanilgan holda tashkil etilishi kerak.

Majburiy davolanayotgan shaxslar yotarjoy buyumlari va mavsumiy kiyim-bosh bilan ta'minlanadi.

Majburiy davolanayotgan shaxslar uchun ovqatlanish va moddiy-maishiy ta'minot normalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Majburiy davolanayotgan shaxslarga pul mablag'larini, moddiy qimmatliklarni va saqlanishi taqiqlangan, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ashyolarni yonida saqlashga ruxsat berilmaydi. Olib qo'yilgan pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar va saqlanishi taqiqlangan ashyolar qarindoshlariga qaytariladi, qarindoshlari yo'q bo'lgan taqdirda esa, majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining saqlash xonasiga topshirilib, bu erda ularning but saqlanishi ta'minlanadi.

Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasida narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni saqlash sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ichki tartib-qoidalar bilan belgilanadi.

Majburiy davolanayotgan shaxslarga gazetalar, jumallar va televideniedan foydalanish ta'minlanadi. Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasalarida kutubxonalar tashkil etiladi.

Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolanayotgan ichki tartib-qoidalarni buzuvchi yoki davolanishdan bosh tortuvchi yoxud atrofida gilarining yoki bevosita o'zining hayoti va sog'lig'iga tahdid soladigan harakatlarni sodir etuvchi shaxslar maxsus palataga

joylashtiriladi, shaxs maxsus palataga joylashtirilgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida bu haqda prokuror xabardor qilinishi shart.

Ushbu moddaning to'qqizinchi qismida nazarda tutilgan chora alohida hollarda qo'llaniladi va majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasi rahbarining yozma farmoyishiga ko'ra o'n sutkagacha bo'lgan muddatga amalga oshiriladi. Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining rahbari ish joyida bo'lmagan taqdirda, maxsus palataga joylashtirish haqidagi qaror majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining lavozimi bo'yicha yuqori turuvchi xodimi tomonidan qabul qilinib, keyinchalik majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining rahbariga axborot beriladi, rahbar maxsus palatada saqlab turish muddatini yozma farmoyish bilan belgilaydi.

Narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasini o'zboshimchalik bilan tark etgan davri majburiy davolanish muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

34-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolanayotgan shaxslarning huquq va majburiyatlari

Narkologik kasalliklarga chalingan, narkologiya muassasasida majburiy davolanayotgan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining ichki tartib qoidalari va mazkur muassasada bo'lishni tartibga soladigan boshqa hujjatlar bilan tanishish;

oziq-ovqat olish, moddiy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatilishi;

mehnat terapiyasi tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish;

o'z shaxsiy hisobvarag'ida turgan mablag'lar hisobidan oziq-ovqat mahsulotlarini va eng zarur narsalarni, shuningdek majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining hududida saqlanishi va foydalanilishi taqiqlanmagan boshqa ashyolarni olish;

ichki tartib qoidalarida belgilangan tartibda yaqin qarindoshlari bilan uchrashish;

cheklovsiz xat yozish va xat olish;

ichki tartib qoidalarida belgilangan tartibda yo'qlovlar olish, posilkalar yuborish va olish;

o'z shaxsiy hisobvarag'iga o'tkaziladigan pul o'tkazmalarini olish;

ichki tartib qoidalariga va majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasida davolanayotgan boshqa shaxslarning huquqlariga rioya etgan holda diniy urf-odatlarini bajarish;

har kunlik sayr qilish;

yuqori turuvchi sog'liqni saqlash organiga yoki sudga majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasi xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.

Narkologik kasalliklarga chalingan, narkologiya muassasasida majburiy davolanayotgan shaxslar:

belgilangan ichki tartib qoidalariga rioya etishi;

majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasi ma'muriyatining va tibbiyot xodimlarining qonuniy talablarini bajarishi;

tayinlangan davolashni qabul qilishi;

majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining mol-mulkini asrab-avaylashi;

majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasida tozalikni va tartibni saqlashi;

shaxsiy gigienaga rioya etishi shart.

35-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasida davolanayotgan shaxslarni muassasadan chiqarish asoslari va tartibi

Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasida davolanayotgan shaxslar:

majburiy davolash muddati tugagach va shaxs sog'lig'ining klinik holatini hisobga olgan holda;

majburiy davolashni o'tkazishga to'sqinlik qiladigan qo'shimcha og'ir kasalliklar aniqlanganligi sababli muassasadan chiqariladi.

Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasidan chiqarilgan shaxslarga ulardan olib qo'yilgan hujjatlar, pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar va ashyolar qaytarib beriladi.

Majburiy davolash uchun mo'ljallangan narkologiya muassasasining ma'muriyati narkologik kasallikka chalingan shaxs chiqarilishidan o'n kun oldin ichki ishlar organlarini, mehnat organini, yashash joyidagi narkologiya muassasasini chiqarib yuborilgan narkologik kasallikka chalingan shaxslarning maishiy sharoitlarini yaxshilashga hamda ularni ishga joylashtirishga ko'maklashish va ular ustidan kuzatuvni ta'minlash uchun xabardor qiladi.

36-modda. Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolanib chiqqan shaxslarning kasallik qaytalanishiga qarshi terapiyadan o'tishi

Narkologik kasalliklarga chalingan, majburiy davolanib chiqqan shaxslar narkologiya muassasasidan chiqarilganidan yoki jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganidan keyin yashash joyidagi narkologiya muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda kasallik qaytalanishiga qarshi terapiyadan o'tishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar kasallik qaytalanishiga qarshi terapiyadan o'tishdan bosh tortgan taqdirda, ichki ishlar organlari tomonidan majburiy ravishda olib kelinadi.

37-modda. Majburiy davolanib chiqqan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning maishiy sharoitlarini yaxshilash

Majburiy davolanib chiqqan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning maishiy sharoitlarini yaxshilash ularning yashash joyi bo'yicha amalga oshiriladi hamda yashash joyidagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ichki ishlar organlari, mehnat organlari hamda narkologiya muassasalari zimmasiga yuklatiladi.

Narkologik kasalliklarga chalingan va majburiy davolanishga yuborilgan shaxslarning avvalgi yashash joyi bo'yicha uy-joy maydonidan foydalanish huquqi saqlanib qoladi.

6-bob. Narkologik ekspertiza va tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

38-modda. Narkologik ekspertiza

Narkologik ekspertiza narkologiya muassasalarida:

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning qarori asosida;

majburiy davolashga muhtoj shaxslarga nisbatan ichki ishlar organlarining xodimlari tomonidan tayyorlangan materiallar asosida o'tkaziladi.

39-modda. Psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

Psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish narkologiya dispanserlari yoki boshqa davolash-profilaktika muassasalari tuzilmasida tashkil etilgan maxsus kabinetlarda amalga oshiriladi, bunday muassasalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan belgilanadi.

Psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish narkolog shifokorlar yoki O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda

maxsus tayyorgarlikdan o'tgan boshqa ixtisoslikdagi shifokorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat etilgan usullar va vositalardan foydalaniladi.

Psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazishga tashkiliy-uslubiy rahbarlik narkologiya dispanserlari tomonidan amalga oshiriladi.

Psixoaktiv moddalar ta'siridan mastlik holatini aniqlash uchun shaxslarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazishga yuborish va uni o'tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tibbiy tekshiruv natijalaridan norozi bo'lgan shaxslar ushbu natijalar ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

7-bob. Narkologik yordam ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari

40-modda. Narkologik yordam ko'rsatishga bo'lgan huquq

Narkologiya bo'yicha ixtisoslikka ega bo'lgan shifokor narkologik yordam ko'rsatish huquqiga ega.

Narkologik yordam ko'rsatishda ishtirok etadigan o'rta tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar narkologik kasalliklarga chalingan shaxslar bilan ish olib borish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi kerak.

41-modda. Tibbiyot xodimlarining narkologik yordam ko'rsatish chog'idagi majburiyatlari

Narkologik yordam ko'rsatish chog'ida tibbiyot xodimlari:

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan huquqlari to'g'risida to'liq axborot berishi;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etishi;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning narkologiya muassasasida bo'lishi davrida ularning xavfsizligini ta'minlashi, posilkalar va yo'qlovlarning tarkibini nazorat qilishi;

narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarga yozishmalar, davlat organlari, muassasalar va tashkilotlarga murojaatlar yo'llashi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

kasbiy tibbiy odob-axloq qoidalariga rioya etishi;

narkologik kasallikka chalingan shaxs bilan uning psixoaktiv moddalarga ruhan va jismonan qaramligi muammosini, tekshiruvdan o'tishga, davolanishga va tibbiy-ijtimoiy reabilitastiyaga doir yakka tartibdagi rejani muhokama qilishi;

narkologik kasallikka chalingan shaxsni tekshirish va uni davolash chog'ida olingan axborotni oshkor etmasligi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

narkologik kasalliklarni davolashning O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat etilgan vositalari va usullaridan foydalanishi;

o'z malakasini doimiy ravishda oshirib borishi shart.

42-modda. Narkologik yordam ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlariga va boshqa mutaxassislarga kafolatlar va imtiyozlar

Narkologik yordam ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar alohida mehnat sharoitlarida faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlarni olish huquqiga ega.

Narkologik yordam ko'rsatishda ishtirok etuvchi shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazilib, bu uning mehnat qobiliyati vaqtincha yo'qotilishiga sabab bo'lgan taqdirda, shuningdek nogironlik yuz berganda — ushbu shaxsga, u vafot etgan taqdirda esa — uning qaramog'idagilarga zararning o'rnini qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qoplanadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

43-modda. Nizolarni hal etish

Narkologik yordam sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

44-modda. Narkologik yordam to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Narkologik yordam to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

45-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida»gi 753-XII-

sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, № 1, 36-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Surunkali alkogolizm yoki giyovandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburan davolash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi 753a-XII-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, № 1, 37-modda);

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 6 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi 73-I-sonli Qarorining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, № 6, 121-modda) 250-bandi;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi 371-I-sonli Qarorining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, № 2, 69-modda) 19-bandi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini to'la yoki qisman o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi 550-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, № 1, 17-modda) 37-bandi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi 714-I-sonli Qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 1, 5-modda) ilovaning 14-bandi;

7) O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi 813-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 9, 210-modda; 2001 yil, № 1-2, 23-modda; 2003 yil, № 1, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 10, 536-modda; 2015 yil, № 8, 312-modda; 2017 yil, № 4, 138-modda, № 6, 300-modda; 2018 yil, № 10, 679-modda; 2019 yil, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 592-modda; 2020 yil, № 3, 203-modda) VI bobi;

8) O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga

o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi 175-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 yil, № 1-2, 23-modda) I bo'limining 3-bandi;

9) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat prostessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-542-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 5, 267-modda) 5-moddasi.

46-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonuning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

47-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

48-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev
Toshkent sh., 2020 yil 27 oktyabr, O'RQ-644-son**

VII BOB. GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR TO'G'RISIDA

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish, fuqarolar sog'lig'ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonunchilik

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

giyohvandlik (narkotik) vositalari — giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

psixotrop moddalar — psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

prekursorlar — prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari — kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

preparat — moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi — giyohvandlik vositalari, — psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizastiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish;

giyohvandlik (narkomaniya) — giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik;

zaharvandlik (toksikomaniya) — psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik.

maxsus vakolatli organlar — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatlarga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar.

4-modda. O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar

O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi ro'yxatlarga kiritiladi:

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro'yxati (bundan buyon matnda I ro'yxat deb yuritiladi);

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari ro'yxati (bundan buyon matnda II ro'yxat deb yuritiladi);

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar ro'yxati (bundan buyon matnda III ro'yxat deb yuritiladi);

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan prekursorlar ro'yxati (bundan buyon matnda IV ro'yxat deb yuritiladi).

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va matbuotda e'lon qilinadi.

II. GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSOURLARNING MUOMALADA BO'LISHI BILAN BOG'LIQ FAOLIYAT

5-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga ushbu Qonunda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar analoglarining muomalada bo'lishi taqiqlanadi.

6-modda. Giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlariga bo'lgan davlat monopoliyasi

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlari: giyohvandlik vositalarini olib kirish (olib chiqish), taqsimlash, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi, ushbu Qonunning 21¹-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni listenziyalash

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan listenziya asosida amalga oshiriladi.

8-modda. Listenziya berishni rad etish asoslari

Quyidagilar listenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi:

yuridik shaxsning listenziya olish paytida hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmay taqdim etishi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning xavfsizligini ta'minlash uchun sharoitlar yo'qligi;

surunkali ruhiy holatining buzilganligi, giyohvandlik, zaharvandlik, alkogolizm tufayli dispanser hisobida turuvchi xodimlar mavjud bo'lsa va ular o'z xizmat vazifasi taqozosiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan erkin foydalanish imkoniga ega bo'lsa;

qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan xodimlar mavjud bo'lsa va ular o'z xizmat vazifasi taqozosiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan erkin foydalanish imkoniga ega bo'lsa;

yuridik shaxs listenziya olish paytida taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

listenziya da'vogarining listenziya talablari va shartlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan listenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan listenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

9-modda. Listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish

Listenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

listenziat listenziya shartnomasida nazarda tutilgan listenziya talablari va shartlarini buzganligi aniqlanganda;

listenziyalovchi organlarning aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini listenziat zimmasiga yuklovchi qarorlari listenziat tomonidan bajarilmaganda.

Listenziyaning amal qilishini listenziyalovchi organ o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud esa o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turishi mumkin.

Listenziyalovchi organ yoki sud listenziat listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilashi shart. Bunda listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun sud qarorida belgilangan muddat olti oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Listenziat listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan listenziyalovchi organ yoki sud ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran listenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida uch kun muddat ichida qaror qabul qilishi shart.

9¹-modda. Listenziyaning amal qilishini tugatish va listenziyani bekor qilish

Listenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

listenziat listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganda;

yuridik shaxs tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi, shuningdek yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarda listenziya mavjud bo'lgan taqdirda qo'shib yuborilishi mustasno;

listenziat listenziya shartnomasida nazarda tutilgan listenziya talablarini va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;

listenziat listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni sud yoki listenziyalovchi organ belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

ruxsat etilgan faoliyat turini amalga oshirish qoidalariga rioya etish yuzasidan majburiyatlar listenziat tomonidan bir yil ichida takroran bajarilmaganda;

listenziyalovchi organning listenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga xilofligi aniqlanganda;

listenziat tomonidan listenziyada belgilangan faoliyat turiga rioya etilmaganda;

listenziyaning amal qilish muddati tugaganda.

Listenziyaning amal qilishini tugatish ushbu modda birinchi qismining to'rtinchi — sakkizinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda sud qaroriga, boshqa hollarda esa, listenziyalovchi organning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran listenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Listenziyani bekor qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

listenziatning arizasiga binoan;

agar listenziat unga listenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy ichida listenziyalovchi organga listenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yoki listenziya shartnomasini imzolamagan bo'lsa;

listenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Listenziyani bekor qilish ushbu modda to'rtinchi qismining to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda sud qaroriga, boshqa hollarda esa, listenziyalovchi organning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Listenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, listenziya berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi.

Listenziyalovchi organning listenziyaning amal qilishini tugatish yoki listenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori listenziyatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi. Listenziyaning amal qilishini tugatish yoki listenziyani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori listenziyatga va listenziyalovchi organga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi. Listenziyat listenziyaning amal qilishini tugatish yoki listenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida listenziya listenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

III. GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSOURLARNING MUOMALADA BO'LISHI BILAN BOG'LIQ FAOLIYATNING AYRIM TURLARINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

10-modda. O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojlari

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy etilgan tartibda belgilanadi.

11-modda. Ayrim giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalada bo'lishini cheklash

I ro'yxatga kiritilgan giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu Qonunning 21, 21¹, 27 — 29-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

II va III ro'yxatga kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalada bo'lishiga shifokor ko'rsatmasi bo'yicha tibbiy maqsadlarda, shuningdek ushbu Qonunning 26—29-moddalarida nazarda tutilgan maqsadlarda yo'l qo'yiladi.

12-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish) xususiyatlari

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirishga (olib chiqishga) listenziya, shuningdek, olib kirish (olib chiqish) huquqi to'g'risida maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan sertifikat bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni maxsus vakolatli organ ruxsatisiz O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazish taqiqlanadi.

Ushbu moddada belgilangan talablar buzilgan taqdirda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar qonunchilikka muvofiq musodara etiladi.

13-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash maxsus ajratilgan va jihozlangan joylarda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turi uchun listenziyasi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

14-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizastiya qilish va taqsimlash

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizastiya qilish va taqsimlash maxsus vakolatli organ belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turlari uchun listenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

15-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, realizastiya qilish, foydalanish uchun, shu jumladan tibbiy va boshqa maqsadlarda olish yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turlari uchun listenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

16-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashish

O'zbekiston Respublikasi hududida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turi uchun listenziyasi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

17-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jo'natish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni pochta jo'natmalarida, shu jumladan xalqaro pochta jo'natmalarida jo'natish taqiqlanadi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

18-modda. Yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish

Yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqish faqat davlat ehtiyojlari uchun buyurtmaga muvofiq amalga oshiriladi va bu ish davlat ilmiy-tadqiqot muassasalariga mazkur faoliyat turi uchun listenziyasi bo'lgan taqdirda topshiriladi.

Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

19-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash

II ro'yxatga kiritilgan giyohvandlik vositalarini ushbu Qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlari doirasida davlat korxonalarini va muassasalari tomonidan, muayyan giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun listenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

III ro'yxatga kiritilgan psixotrop moddalarni ushbu Qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash maxsus vakolatli organ qaroriga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan, muayyan psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun listenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

IV ro'yxatga kiritilgan prekursorlarni ushbu Qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlari doirasida davlat korxonalarini va muassasalari tomonidan, muayyan prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun listenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

20-modda. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni idishga joylash-o'rash va ularga belgi qo'yish

Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni idishga joylash-o'rash va ularga belgi qo'yish qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning sirtqi o'rovi mazkur o'rov butligini buzmay turib ularni olish imkoniyatini istisno etishi shart.

Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ichki o'rovi ikkita qizil chiziq bilan belgilangan bo'lishi shart.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning o'rovi va ularga belgi qo'yish ushbu modda talablariga muvofiq bo'lmagan hollarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar belgilangan tartibda yo'q qilib tashlanadi.

21-modda. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan, I ro'yxatga kiritilgan o'simliklarni etishtirish uchun ruxsat davlat korxonalariga ilmiy maqsadlarda maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda hamda ushbu Qonunning 21¹-moddasida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslarga sanoat maqsadlarida mazkur faoliyat turiga doir listenziya mavjud bo'lgan taqdirda beriladi.

21¹-modda. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarning sanoat maqsadlarida etishtirilishi va muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari

Tarkibida tetragidrokannabinol giyohvandlik moddasining miqdori 0,2 foizgacha bo'lgan kannabis o'simligini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish hamda tayyorlash bilan bog'liq bo'lmagan sanoat maqsadlarida etishtirishga, olib kirishga (olib chiqishga), qayta ishlashga, saqlashga, realizastiya qilishga (berishga), olishga va tashishga yuridik shaxslarga mazkur faoliyat turi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda berilgan listenziyaga asosan ruxsat etiladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tayyorlash bilan bog'liq bo'lmagan, sanoat maqsadlarida etishtirilishiga va muomalada bo'lishiga ruxsat etilgan kannabis o'simligining navlari, ularning etishtirilish va muomalada bo'lish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

22-modda. Prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat xususiyatlari

Yuridik shaxslar IV ro'yxatga kiritilgan prekursorlarni o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun mazkur faoliyat turi uchun listenziyasi bo'lgan taqdirda, yillik ishlab chiqarish ehtiyojlaridan ko'p bo'lmagan miqdorda olishlari mumkin va olingan yoki buyurtma berilgan prekursor miqdori ushbu ehtiyojlardan oshib ketgan har bir holat to'g'risida maxsus vakolatli organni xabardor qilishlari shart.

IV ro'yxatga kiritilgan prekursorlarning muomalada bo'lishini ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

23-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'q qilish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'q qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

ularning yaroqlilik muddati tugaganda;

giyohvandlik vositasi, psixotrop modda yoki prekursor ulardan foydalanish imkoniyatini istisno etuvchi kimyoviy yoki fizik ta'sirga uchraganda;

bemorlar vafotidan so'ng ularning qarindoshlaridan foydalanilmay qolgan vosita yoki modda tariqasida qabul qilinganda;

ularning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki prekursorlarga mansubligini aniqlashning imkoni bo'lmaganda.

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklar o'sayotgan er uchastkalarining mulkdorlari, egalari yoki foydalanuvchilari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslar bu o'simliklarni yo'q qilib tashlashga majbur. Bundan bosh tortilgan taqdirda mazkur o'simliklar ularning hisobidan yo'q etiladi.

IV.GIYOHVANDLIK VOSITALARI. PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLARDAN FOYDALANISH

24-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda foydalanish

II, III va IV ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda foydalanilishi mumkin.

Tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga nisbatan dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning ushbu Qonunga zid bo'lmagan qismi tatbiq qilinadi.

25-modda. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan tranzit tarzida o'tayotgan yo'lovchilarni davolash uchun foydalanish

O'zbekiston Respublikasi hududidan tranzit tarzida o'tayotgan bemor II va III ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari va

psixotrop moddalarni davolanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda olib o'tishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida ushlanib qolgan va davolanishni davom ettirish uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni qo'shimcha ravishda olishga muhtoj bo'lgan taqdirda bunday vositalar yoki moddalarni berish O'zbekiston Respublikasida yozib berilgan restsept asosida qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

26-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan veterinariyada foydalanish

Veterinariyada foydalaniladigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxati, shuningdek ulardan foydalanish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

27-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish uchun ruxsat yuridik shaxslarga mazkur faoliyat turlari uchun listenziyalari bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

28-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ekspertlik faoliyatida foydalanish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ekspertizalar o'tkazish maqsadida foydalanish uchun ruxsat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

29-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tezkor-qidiruv faoliyatida foydalanish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ularni nazorat ostida yetkazib berish va nazorat ostida olish, boshqa tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun foydalanish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

30-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jismoniy shaxslarga berish

II, III va IV ro'yxatlarga kiritilgan Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jismoniy shaxslarga tibbiy

maqsadlarda berish bunday faoliyat turi uchun listenziyalari bo'lgan dorixonalar va davolash-profilaktika muassasalarida amalga oshiriladi.

31-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat to'g'risida hisobot

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun listenziyalari bo'lgan yuridik shaxslar o'z faoliyatlari to'g'risida maxsus vakolatli organga qonunchilikda belgilangan tartibda hisobot taqdim etadilar.

32-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni inventarizastiya qilish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun listenziyalari bo'lgan yuridik shaxslar o'z tasarruflaridagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni har oyda inventarizastiya qilishlari hamda tovar-moddiy qimmatliklar balansini tuzishlari shart.

Balansdagi tafovutlarga oid ma'lumotlar yoki balans ma'lumotlarining o'tkazilgan inventarizastiya natijalariga nomuvofiqligi to'g'risida bu holat aniqlanganidan so'ng uch kunlik muddat ichida ichki ishlar organlariga xabar qilinadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar miqdori va holatiga taalluqli barcha o'zgarishlar maxsus daftarlarga qayd etiladi. Bunday daftarlarni yuritish va saqlash tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

V. GIYOHVANDLIK VOSITALARI. PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLARNING QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALADA BO'LISHIGA MONELIK QILISH

33-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi harakatlarni muvofiqlashtirish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi harakatlarni muvofiqlashtirish maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish choralarini moliyalash davlat byudjeti mablag'lari va boshqa moliyalash manbalari hisobidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

34-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar targ'ibotining taqiqlanishi hamda reklamasining cheklanishi

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar targ'iboti, ya'ni Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqish, tayyorlash va ulardan foydalanish usullari, uslublari to'g'risidagi, ularni olish joylari haqidagi ma'lumotlarni tarqatishga qaratilgan faoliyat taqiqlanadi.

II va III ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar reklamasi faqat tibbiyot va farmastevtika xodimlariga mo'ljallangan ixtisoslashgan bosma nashrlardagina amalga oshirilishi mumkin. Tarkibida Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bo'lgan dori vositalarining namunalarini reklama maqsadlarida tarqatish taqiqlanadi.

35-modda. Tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish

Shaxs giyohvandlik bilan kasallangan, giyohvandlik vositalari ta'sirida mast holatda yoxud shifokor ko'rsatmasi bo'lmagani holda giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda iste'mol etgan deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa, u tibbiy ko'rikdan o'tkazishga yuborilishi mumkin.

Shaxs o'z tanasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib o'tayotir deb hisoblashga asoslar bo'lsa, u tibbiy ko'rikdan o'tkazishga yuborilishi mumkin.

Ushbu moddada ko'rsatilgan shaxslar tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish uchun tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, tergov organlari va sudning qaroriga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda yuboriladi.

Tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

36-modda. Giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar uchun kasb faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishning cheklanishi

Giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar shug'ullanishi uchun cheklov belgilangan kasb faoliyati turlari ro'yxati qonunchilik bilan belgilanadi.

37-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni musodara etish

Qonunga xilof ravishda muomalada bo'lganligi uchun olib qo'yilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar, shuningdek ularni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun mo'ljallangan

asbob va uskunalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda musodara etiladi yoki yo'q qilinadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat natijasida olingan yoki bunday faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan mol-mulk qonunchilikka muvofiq musodara etiladi.

38-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin ular ustidan qonunchilikka muvofiq ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkin.

39-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni nazorat ostida yetkazib berish va nazorat ostida olish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, bartaraf etish va ochish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z vakolatlari doirasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni nazorat ostida yetkazib berish va nazorat ostida olish huquqiga qonunchilikda belgilangan tartibda egadir.

40-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga yo'l qo'ygan yuridik shaxsni tugatish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga yo'l qo'ygan yuridik shaxs sudning qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

41-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishidan kelgan daromadlarni legallashtirishda ishtirok etayotgan yuridik shaxsni tugatish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi natijasida olingan daromadlarni legallashtirish maqsadida moliyaviy operastiyani amalga oshirgan yuridik shaxs sudning qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

42-modda. Ushbu Qonun talablari ijrosini tekshirish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi organlar mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlari

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatga oid tartib buzilganligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda prokuratura, ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati va bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklar etishtirilishi ehtimoli bor er uchastkalarini, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, foydalanish va yo'q qilish joylarini ko'zdan kechirish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash jarayonlarining belgilangan qoidalarga muvofiqligini tekshirish, zarurat bo'lganda ekspertlik tadqiqoti uchun namunalar olish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olishga monelik qilish maqsadida xonalarni muhrlab qo'yish;

nazorat vazifalarini bajarish uchun zarur tushuntirish va hujjatlar taqdim etishni talab qilish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun listenziyalari bo'lgan yuridik shaxslarga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

tekshirishning boshqa choralarini amalga oshirish.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, tergov yoki prokuratura organlarining mansabdor shaxslari giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat amalga oshirilayotgan har qanday joyga kirishi va uni ko'zdan kechirishi mumkin.

43-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Giyohvandlik vositalari psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

VIII BOB. DORI VOSITALARI VA FARMASTEVTIKA FAOLIYATI TO'G'RISIDA (YANGI TAHRIRI)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilik

Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalarini qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

dori vositalari — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funkstiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori moddalari (substansiyalar) — farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar;

dori preparatlari — dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanilish uchun tayyor dori vositalari;

dorivor o'simlik xom ashyosi — dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan o'simliklar yoki ularning qismlari;

restsept — shifokorning farmastevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatini tayyorlash va (yoki) berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi yozma ko'rsatmasi;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

tibbiy buyumlar — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining

holati va funkstiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

tibbiy texnika — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funkstiyalarini aniqlash hamda o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan apparatlar, uskunalar, priborlar, asboblari, qurilmalar va majmualar;

farmakologik vositalar — muayyan dori shakliga, klinik oldi tadqiqotlarda aniqlangan farmakologik faollikka va xavfsizlikka ega bo'lgan, klinik tadqiqot obyektlari bo'lgan modda yoki moddalar aralashmasi;

farmastevtika faoliyati — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari — intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilik buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum.

4-modda. Davlatning aholini asosiy dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash sohasidagi kafolatlari

Davlat asosiy dori vositalari, shuningdek tibbiy buyumlar olinishi imkoniyatini va ularning sifatini kafolatlaydi.

2-bob. Davlat organlarining dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining dori vositalari hamda farmastevtika faoliyati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Asosiy dori vositalari ro'yxatidagi dori vositalarining, shuningdek tibbiy buyumlarning davlat buyurtmasini shakllantiradi va ularning davlat tibbiyot muassasalarida mavjud bo'lishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

farmastevtika faoliyatini listenziyalashni (oftalmologiya tibbiy buyumlarini chakana realizastiya qilish (optika) bundan mustasno) belgilangan tartibda amalga oshiradi;

ayrim toifadagi shaxslarga dori vositalarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda imtiyozli berilishini ta'minlaydi;

dori vositalari va tibbiy buyumlar sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tasdiqlaydi;

Davlat farmakopeyasini tasdiqlaydi va chop etadi;

dori vositalarining, tibbiy buyumlarning va tibbiy texnikaning belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, sifati nazorat qilinishini, standartlashtirilishini va sertifikatlashtirilishini amalga oshiradi;

tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni realizastiya qilish, berish, taqsimlash, saqlash hamda hisobga olish tartibini, shuningdek etil spirtini realizastiya qilish, berish, saqlash va hisobga olish tartibini belgilaydi;

Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reestrini yuritadi hamda vaqti-vaqti bilan e'lon qiladi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo'lgan taqdirda ularning ishlab chiqarilishini, tayyorlanishini, import qilinishini, realizastiya qilinishini to'xtatib

turadi. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini to'xtatib turishga olib keladigan dori vositalarining, tibbiy buyumlarning ishlab chiqarilishini va tayyorlanishini to'xtatib turish (favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy tahdid yuzaga kelishining oldini olish munosabati bilan dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarilishini hamda tayyorlanishini o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turish hollari bundan mustasno) sud tartibida amalga oshiriladi;

farmakologik nazoratni amalga oshiradi;

Kam uchraydigan kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan orfan dori vositalari ro'yxatini, Kam uchraydigan (orfan) kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun mo'ljallangan tibbiy buyumlar ro'yxatini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

o'ta xavfli infektsiyalar, shuningdek epidemiologik jihatdan xavf tug'diruvchi infektsiyalar profilaktikasida, ularga tashxis qo'yishda va ularni davolashda qo'llaniladigan dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani yetkazib berish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyurtmasini shakllantiradi;

Resteptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini yiliga kamida bir marta tasdiqlaydi;

Asosiy dori vositalari ro'yxatini ikki yilda kamida bir marta ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

Tibbiy buyumlar ro'yxatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi hamda amalga oshiradi;

tegishli hududda davlat davolash-profilaktika muassasalarini va aholini dori vositalari, tibbiy buyumlar bilan ta'minlashda ishtirok etadi;

dori vositalari muomalasi va farmastevtika faoliyati masalalari bo'yicha aholi o'rtasida axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish hamda o'tkazishda ishtirok etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Dori vositalari. Tibbiy buyumlar. Tibbiy texnika

8-modda. Davlat farmakopeyasi

Davlat farmakopeyasi dori vositalariga va tibbiy buyumlarga doir talablarni, umumiy farmakopeya maqolalarini, farmakopeya maqolalarini, dori vositalarining va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qilish usullarini o'z ichiga olgan hujjatlar to'plami bo'lgan rasmiy nashrdir.

Umumiy farmakopeya maqolasi dori vositalarining, tibbiy buyumlarning sifatiga, dorivor o'simlik xom ashyosiga, ularning sifatini nazorat qilish usullariga, dori vositalarining sifatini nazorat qilishda foydalaniladigan standart namunalarga, reaktivlarga, dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan joylash-o'rash materiallariga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilaydi.

Farmakopeya maqolasi muayyan dori vositasining, tibbiy buyumning, dorivor o'simlik xom ashyosining, yordamchi moddaning sifatiga doir talablarni belgilaydi.

Umumiy farmakopeya maqolalarini, farmakopeya maqolalarini ishlab chiqish va ularni Davlat farmakopeyasiga kiritish Farmakopeya qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Farmakopeya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy ekspert organidir.

Davlat farmakopeyasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan besh yilda kamida bir marta chop etiladi. Davlat farmakopeyasining qayta nashrlari oralig'idagi davrda Davlat farmakopeyasiga ilovalar chop etiladi.

9-modda. Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining yoxud tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlari

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik oldi tadqiqotlari farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini o'rganish maqsadidagi kimyoviy, fizik, biologik, mikrobiologik, farmakologik, toksikologik tadqiqotlarni hamda boshqa tadqiqotlarni nazarda tutadi.

Tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlari tibbiy buyumlarning xavfsizligini o'rganish maqsadidagi kimyoviy, fizik, texnik, biologik, mikrobiologik, toksikologik tadqiqotlarni va boshqa tadqiqotlarni nazarda tutadi.

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining yoxud tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish ularni ishlab chiquvchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilangan

tartibda amalga oshiriladi hamda zarur moddiy-texnika bazasiga va tadqiqotning tegishli sohasi bo'yicha malakali mutaxassislariga ega bo'lgan ilmiy-tadqiqot muassasalarida, dori vositalarining sifatini nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda o'tkazilishi mumkin.

10-modda. Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlari

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlari xavfsizlik va samaradorlikni aniqlash maqsadida ularning farmakologik xossalari, nojo'ya ta'sirlari va boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'siri samarasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish uchun o'tkaziladi.

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlari bitta davolash-profilaktika muassasasida yoki ko'p markazli klinik tadqiqot tarzida yagona bayonnoma bo'yicha bittadan ortiq davolash-profilaktika muassasasida o'tkazilishi mumkin.

Odanda farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini tasdiqlovchi klinik oldi tadqiqotlar natijalari;

farmakologik vositaning yoki dori vositasining qo'llanilishidan ehtimol tutilgan nojo'ya ta'sir xavfi ko'tilayotgan ijobiy ta'sirdan ancha past bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazishga etika ekspertizasining mazkur tadqiqotlarni o'tkazish etika jihatidan asoslanganligi to'g'risidagi xulosasiz yo'l qo'yilmaydi.

Farmakologik vositaning yoki dori vositasining klinik tadqiqotida bemorning ishtiroki uning yozma ravishdagi roziligi bilan ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Klinik tadqiqot rahbari bemorga ushbu tadqiqot usulining ahamiyati, tadqiqotning mohiyati va ehtimol tutilgan xavfi haqida batafsil tushuntirish berishi shart. Bemor tadqiqotning istalgan bosqichida unda ishtirok etishni rad qilishga haqli.

Farmakologik vositaning yoki dori vositasining klinik tadqiqoti voyaga etmagan yoki muomalaga layoqatsiz bemor ishtirokida

o'tkazilgan taqdirda tadqiqot boshlanishidan oldin uning ota-onasidan yoxud boshqa qonuniy vakillaridan yozma ravishda rozilik olinishi kerak.

Voyaga etmagan bemorlar ishtirokidagi klinik tadqiqotdan oldin, qoida tariqasida, voyaga etgan bemorlarda klinik tadqiqot o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Farmakologik vositaning yoki dori vositasining klinik tadqiqoti boshlanishidan oldin tadqiqotni o'tkazayotgan davolash-profilaktika muassasasi yoxud tadqiq etilayotgan farmakologik vositani yoki dori vositasini taqdim etgan yuridik shaxs bemorning hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligiga doir sug'urta shartnomasini sug'urtalovchi bilan tuzishi shart.

Jamiyat uchun yoxud farmakologik vositaning yoki dori vositasining klinik tadqiqotida ishtirok etayotgan bemorning hayoti, sog'lig'i uchun tahdid paydo bo'lgan taqdirda klinik tadqiqot rahbari klinik tadqiqotni to'xtatishi va bu haqda tadqiqotni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini yozma shaklda xabardor qilishi kerak.

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini moliyalashtirish tadqiq etilayotgan farmakologik vositalarni yoki dori vositalarini taqdim etgan yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan yoxud qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi va klinik tadqiqotlar o'tkaziladigan davolash-profilaktika muassasalarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

11-modda. Etika ekspertizasi

Etika ekspertizasi farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosa berish maqsadida o'tkaziladi.

Etika ekspertizasi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Etika qo'mitasi tomonidan o'tkaziladi, uning tarkibiga tibbiyot, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, oliy ta'lim muassasalarining, ommaviy axborot vositalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari kiritiladi.

Etika qo'mitasi to'g'risidagi nizom va uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

12-modda. Dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish

Dori vositalarining, tibbiy buyumlarning va tibbiy texnikaning tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga, qoida tariqasida, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin ruxsat etiladi.

Quyidagilar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak:

dori vositalari;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining yangi kombinastiyalari;

ilgari O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan, lyokin boshqacha dori shakllarida, dozalarda yoki boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalari;

tibbiy buyumlar;

tibbiy texnika.

Dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reestriga kiritiladi.

Tarkibida turli dori moddalari bo'lgan dori vositalarini bir xildagi savdo nomi ostida davlat ro'yxatidan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

Dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish natijalariga ko'ra amal qilish muddati besh yil bo'lgan tegishli ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddati ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi egasining zarur hujjatlar ilova qilingan arizasiga ko'ra uzaytirilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ushbu guvohnomaning amal qilish muddati tugashidan oldin uch oy ichida berilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddati o'tgach dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani realizastiya qilishga hamda tibbiyot amaliyotida qo'llashga, agar ular

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilishi davrida ishlab chiqarilgan bo'lsa, ruxsat etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining egasi dori vositasining, tibbiy buyumning va tibbiy texnikaning xavfsizligiga, sifatiga hamda samaradorligiga taalluqli yangi ma'lumotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini xabardor qilishi shart.

13-modda. Farmakologik nazorat

Farmakologik nazorat dori vositasidan uning qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga muvofiq foydalanilganda odamda kuzatiladigan, organizm uchun bexosdan va noxush ta'sir ko'rsatadigan nojo'ya reakstiyalarni aniqlashga, baholashga va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatdir.

Davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchi, realizastiya qiluvchi va qo'llovchi tashkilotlar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reakstiyalar aniqlangan barcha holatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini yozma shaklda xabardor qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida aniqlangan nojo'ya reakstiyalarga baho beradi, baholash jarayonida nojo'ya reakstiyaning klinik ko'rinishlari va dori vositasining qo'llanilishi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlari, shuningdek ko'tilayotgan foydaning dori vositalari qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbati aniqlanadi.

Ko'tilayotgan foydaning dori vositalari qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi faktlar aniqlangan taqdirda ishlab chiqaruvchilar va ularning vakillari salbiy oqibatlarni bartaraf etishga, odamning hayotiga yoki sog'lig'iga zarar yetkazilishining oldini olishga, bunday dori vositalarining qo'llanilishidan muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

Dori vositasi qo'llanilganda dori vositasining xavfsizligi va samaradorligiga doir belgilangan talablarga uning nomuvofiqligi to'g'risidagi dalillar aniqlangan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bunday dori vositasini muomaladan chiqarish yoki uning qo'llanilishini to'xtatib turish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

14-modda. Dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika to'g'risidagi axborot va dori vositalarining reklamasi

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytiga:

Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reestrda;

Kam uchraydigan kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan orfan dori vositalari ro'yxatida;

Kam uchraydigan (orfan) kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun mo'ljallangan tibbiy buyumlar ro'yxatida;

Resteptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatida;

Asosiy dori vositalari ro'yxatida;

O'ta xavfli infektsiyalar, shuningdek epidemiologik jihatdan xavf tug'diradigan infektsiyalar profilaktikasida, ularga tashxis qo'yishda va ularni davolashda qo'llaniladigan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyurtmasi bo'yicha import qilinadigan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ro'yxatida;

Tibbiy buyumlar ro'yxatida ko'rsatilgan axborot joylashtiriladi.

Resteptsiz beriladigan dori vositalari to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek ixtisoslashtirilgan bosma nashrlarda, dori vositalarining tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomalarda berilishi mumkin.

Restept bo'yicha beriladigan dori vositalari to'g'risidagi va tibbiy buyumlar haqidagi axborot faqat tibbiyot va farmastevtika xodimlari uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan bosma nashrlarda, dori vositalarining va tibbiy buyumlarning tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomalarda beriladi.

Dori vositalarining reklamasi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Farmastevtika faoliyati

15-modda. Farmastevtika faoliyatining yo'nalishlari

Farmastevtika faoliyatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish;

dori vositalarining va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash;

dorivor o'simlik xom ashyosini qadoqlash va ulgurji realizatsiya qilish.

16-modda. Farmastevtika faoliyatini amalga oshirish

Farmastevtika faoliyati belgilangan tartibda beriladigan listenziya asosida amalga oshiriladi.

Farmastevtika faoliyatini amalga oshirish uchun listenziya besh yil muddatga beriladi. Listenziya faqat listenziya da'vogarining arizasiga ko'ra besh yildan kam bo'lgan muddatga berilishi mumkin. Listenziyaning amal qilish muddati listenziatning arizasiga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

Farmastevtika faoliyatining quyidagi yo'nalishlariga listenziya olish talab qilinmaydi:

tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, ulgurji realizastiya qilish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;

dori vositalari va tibbiy buyumlar sifatini nazorat qilish;

dorivor o'simlik xomashyosini qadoqlash va ulgurji sotish.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikadan tibbiy maqsadlarda foydalanish belgilangan tartibda beriladigan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi asosida amalga oshiriladi.

Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizastiyasi (optika) bo'yicha faoliyat belgilangan tartibda vakolatli organi xabardor etgan holda amalga oshiriladi.

17-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, qoida tariqasida, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yangi farmakologik vositalarni izlashni, keyinchalik ularning xossalarini o'rganishni, farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining tarkibini ishlab chiqishni, dori moddalarini (substansiyalarni) va dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishni, belgilangan tartibda klinik oldi tadqiqotlarni o'tkazishni, farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining xavfsizligiga, sifatiga va ularning sifatini nazorat qilish usullariga doir talablar ko'rsatilgan normativ hujjatlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tibbiy buyumlarning yangi turlarini izlashni, keyinchalik ularning texnik

xususiyatlarini o'rganishni, ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishni, tibbiy buyumlarning xavfsizligiga, sifatiga va ularning sifatini nazorat qilish usullariga doir talablar ko'rsatilgan normativ hujjatlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

18-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish ularni ishlab chiqarishni hamda ularning sifatini nazorat qilishni tashkil etish qoidalariga muvofiq seriyali ishlab chiqarishdan iborat bo'lib, u to'liq texnologik stikl bo'yicha yoki uning alohida bosqichlari bo'yicha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Qalbaqilashtirilgan. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish, eksport, ilmiy-tadqiqot ishlari, klinik oldi tadqiqotlar va klinik tadqiqotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish ularni davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qiluvchi ichki idoraviy xizmatlarga ega bo'lishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tamg'alash hamda joylash-o'rash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

19-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qilish

Dori vositalarini ulgurji realizastiya qilish farmastevtika faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli listenziyaga ega bo'lgan dori vositalari ishlab chiqaruvchilar hamda dori vositalarini ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qilish hamda saqlash qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilardan, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qiluvchi boshqa tashkilotlardan, shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chet ellik ishlab

chiqaruvchilardan hamda ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlardan harid qilish huquqiga ega.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni farmastevtika faoliyatini amalga oshirish uchun listenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga yoki faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiruvchi tashkilotlarga, tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilarga va ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlarga, tibbiyot tashkilotlariga, shuningdek dori vositalaridan va tibbiy buyumlardan tibbiyotda qo'llash maqsadida o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi tashkilotlarga realizastiya qilish huquqiga ega.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlarning omborxonalar binolari sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga javob berishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qiluvchi tashkilotlarning omborxonalar mudiri farmastevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini harid qilish hamda ulgurji realizastiya qilish taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizastiya qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizastiya qilish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni (oftalmologiya tibbiy buyumlaridan tashqari) chakana realizastiya qilish faqat dorixonalar hamda ularning filiallari tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalarini chakana realizastiya qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi resteptlar bo'yicha yoki tasdiqlangan Resteptsiz beriladigan dori vositalarining ro'yxatiga ko'ra resteptsiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki dorixonalar tomonidan tayyorlangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizastiya qilishga ruxsat beriladi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini harid qilish, chakana realizastiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizastiya qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

21-modda. Dorixona

Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizastiya qilishni, shuningdek ularni tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli listenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Dorixonalarining filiallari, davolash-profilaktika muassasalarining dorixonalari ham dorixonalar jumlasiga kiradi.

Dorixonalar sanitariya va gigiena ashyolarini, shifobaxsh oziqlantirish mahsulotlarini, ma'danli suvlarni, shuningdek davolash-kosmetika mahsulotlarini, biologik faol qo'shimchalarni realizastiya qilishni ularning qo'llanilishi va realizastiya qilinishi uchun tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi mumkin.

Dorixona mudiri oliy tibbiy yoki oliy farmastevtika ma'lumotiga ega bo'lishi kerak.

Dorixona filialining mudiri farmastevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, berish, realizastiya qilish qoidalariga va ularning sifatini ta'minlovchi saqlash sharoitlariga dorixonalar tomonidan rioya etilishi kerak.

Dorixonalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga javob berishi kerak.

21¹-modda. Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizastiyasi (optika) bo'yicha faoliyat

Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizastiyasi (optika) bo'yicha faoliyat vakolatli organi mazkur faoliyatni boshlaganlik to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilgan holda yuridik shaxs yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklidagi optikani (oftalmologiya tibbiy buyumlarini realizastiya qilish punkti) tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Optikaning filiallari va davolash-profilaktika muassasalarining optikasi ham optika toifasi jumlasiga kiradi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizastiya qilish uchun listenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizastiyasi (optika)

bo'yicha faoliyatni amalga oshirishi uchun vakolatli organni xabardor qilish talab etilmaydi.

Optikaning va optika filiallarining mudirlari oliy yoki o'rta maxsus farmastevtika ma'lumotiga ega bo'lishi kerak.

Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizastiyasi (optika) bo'yicha faoliyat oftalmologiya tibbiy buyumlarini tayyorlash, berish, realizastiya qilish qoidalariga va ularning sifatini ta'minlovchi saqlash sharoitlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizastiyasi (optika) bo'yicha faoliyat sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi kerak.

22-modda. Dorixonalarda dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash

Dori vositalari dorixonalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalaridan (substansiyalardan) tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Tayyorlashga ruxsat etilgan dori vositalari ro'yxatiga kiritilmagan dori vositalarini tayyorlash taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, shuningdek ularni saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydigan tartibda dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

23-modda. Dori vositalarini, tibbiy buyumlarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash

Farmastevtika faoliyatini amalga oshirish uchun listenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga, tibbiyot tashkilotlariga, shuningdek dori vositalaridan va tibbiy buyumlardan tibbiyotda qo'llash maqsadida o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi tashkilotlarga dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlashga ruxsat beriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash hamda tashish ularning xavfsizligi, sifati va but saqlanishi ta'minlanadigan sharoitlarda amalga oshirilishi kerak.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini realizastiya qilish maqsadida saqlash, tashish taqiqlanadi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlar ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda muomaladan chiqarilishi va yo'q qilib tashlanishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yo'q qilib tashlash ularning egalari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish, olib kirish hamda olib chiqish

24-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish, shu jumladan ilmiy-tadqiqot ishlari, klinik oldi tadqiqotlar, klinik tadqiqotlar o'tkazish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'rgazmalarda, yarmarkalarda, xalqaro anjumanlarda namoyish etish uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini import qilish taqiqlanadi.

Orfan dori vositalari hamda orfan kasalliklarga tashxis qo'yishda va ularni davolashda qo'llaniladigan tibbiy buyumlar importi, o'ta xavfli infektsiyalar, shuningdek epidemiologik jihatdan xavf tug'diradigan infektsiyalar profilaktikasida, ularga tashxis qo'yishda hamda ularni davolashda qo'llaniladigan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyurtmasi bo'yicha import qilinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar hamda tibbiy texnika importi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

25-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun olib kirish hamda olib chiqish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni quyidagi hollarda davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan hamda bojxona rasmiylashtiruviziz olib kirish va olib chiqishga ruxsat beriladi, agar ular:

mamlakatda bo'lish davrida jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi hududida va uning hududidan tashqarida yashab turgan bemorni davolash-profilaktika muassasasi tomonidan tasdiqlangan tibbiy ko'rsatma asosida, davolash kursi doirasida davolash uchun mo'ljallangan bo'lsa;

diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarining diplomatik hamda ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ular bilan birga yashab turgan oila a'zolarining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan yoki uning hududidan chiqib ketayotgan transport vositasining yo'lovchilariga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan va tibbiy dorilar qutichasi tarkibiga kiritilgan bo'lsa.

Xalqaro ilmiy, madaniy, sport tadbirlarining ishtirokchilarini hamda xalqaro ekspeditsiyalarning ishtirokchilarini davolash uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni olib kirish hamda olib chiqish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

26-modda. Nizolarni hal etish

Dori vositalari va farmastevtika faoliyati sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

27-modda. Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

IX BOB. PSIXIATRIYA YORDAMI TO'G'RISIDA

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi psixiatriya yordami ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Psixiatriya yordami to'g'risidagi qonunchilik

Psixiatriya yordami to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining psixiatriya yordami to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish — o'z sog'lig'ining holati, ruhiy holati buzilganligining xususiyati haqidagi hamda kasallik rivojlanishining ehtimoldagi prognozi, psixiatriya yordami ko'rsatish maqsadi, tartibi va davom etish muddati, tashxis qo'yish, davolash usullari hamda mazkur yordamni ko'rsatish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan dori vositalari, ularning nojo'ya ta'sirlari haqida tushunarli tarzda taqdim etiladigan axborotni anglab etishga layoqatli bo'lgan shaxs tomonidan yozma shaklda ifodalangan ixtiyoriy rozilik yoki uning qonuniy vaqilining yozma roziligi;

psixiatriya yordami — shaxslarning ruhiy sog'lig'i holatini tekshiruvdan o'tkazishga, ruhiy holatning buzilishlarini profilaktika qilishga, ularga tashxis qo'yishga, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash, parvarishlash va tibbiy-ijtimoiy jihatdan reabilitastiya qilishga qaratilgan maxsus tadbirlar majmui;

psixiatriya muassasasi — asosiy vazifasi psixiatriya yordami ko'rsatishdan iborat bo'lgan tibbiyot muassasasi;

ruhiy holatning buzilishi — shaxs ruhiy holatining O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan Xalqaro kasalliklar tasnifiga muvofiq tan olingan o'zgarishi;

shifokor-psixiatrlar komissiyasi sog'liqni saqlashni boshqarish organi tomonidan tuzilgan, psixiatriya yordami ko'rsatish bilan bog'liq masalalar yuzasidan kollegial ravishda qarorlar qabul qiluvchi uch nafar yoki undan ortiq shifokor-psixiatrdan iborat bo'lgan komissiya;

qonuniy vakillar ota-onalar (farzandlikka oluvchilar), vasiylar yoki ruhiy holati buzilgan shaxslarning manfaatlarini ifoda etishga, ularga psixiatriya yordami ko'rsatishda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxslar.

4-modda. Ushbu Qonunning qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga psixiatriya yordami ko'rsatishda ularga nisbatan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlariga psixiatriya yordami ko'rsatilishida ushbu Qonunda belgilangan barcha huquqlardan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadi.

5-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatishning asosiy prinsiplari

Psixiatriya yordami ko'rsatishning asosiy prinsiplari qonuniylik, ijtimoiy himoyalanganlik, insonparvarlik, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, axborotning maxfiyligidan iboratdir.

6-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatish va ijtimoiy himoya qilish kafolatlari

Davlat tomonidan quyidagilar kafolatlanadi:

davlat tibbiyot muassasalarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam, tez yordam, shu jumladan ixtisoslashtirilgan tibbiy tez yordam ko'rsatish chog'idagi bepul psixiatriya yordami;

qonunchilikka muvofiq barcha turdagi psixiatriya ekspertizalarini o'tkazish;

tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasining tegishli xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, ruhiy holati buzilgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy yordam ko'rsatish va ularni ishga joylashtirishga ko'maklashish;

ruhiy holati buzilgan shaxslarning vasiylik masalalarini hal qilish;

psixiatriya yordami ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarida, ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalarda huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish va yuridik yordamning boshqa turlari;

favqulodda vaziyatlar chog'idagi psixiatriya yordami.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarni psixiatriya yordami bilan ta'minlash va ijtimoiy jihatdan himoya qilish uchun davlat:

psixiatriya yordami ko'rsatuvchi barcha turdagi muassasalarni, imkoniyati boricha, ruhiy holati buzilgan shaxslarning yashash joyida barpo etadi;

ruhiy holati buzilgan voyaga etmagan shaxslarning davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishini tashkil etadi;

ruhiy holati buzilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish maqsadida ular uchun moslashtirilgan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etgan holda, psixiatriya muassasalari hududida mehnat terapiyasi, yangi kasb-hunarlarga o'qitish va ruhiy holati buzilgan shaxslarni, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida davolash-ishlab chiqarish korxonalarini barpo etadi;

ruhiy holati buzilgan shaxslarni ishga joylashtiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun iqtisodiy rag'batlantirish (imtiyozlar, preferenstiyalar berish va boshqalar) usullarini qo'llaydi;

ruhiy holati buzilgan shaxslarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish uchun zarur bo'lgan boshqa choralarni ko'radi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq ularga berilgan vakolatlarda amalga oshiriladi.

Psixiatriya yordami ko'rsatishni moliyalashtirish «Sog'liqni saqlash» sohasiga ajratiladigan byudjet mablag'lari doirasida, psixiatriya yordami ko'rsatish uchun davlat tomonidan kafolatlangan hajmda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

7-modda. Psixiatriya yordami so'rab murojaat etishning ixtiyoriyligi

Psixiatriya yordami shaxs ixtiyoriy ravishda murojaat etgan va uning ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lgan taqdirda ko'rsatiladi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Psixiatriya yordami voyaga etmagan shaxsga ota-onasidan birining yoki boshqa qonuniy vaqilining ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsga esa uning qonuniy vaqilining ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lgan taqdirda ko'rsatiladi.

8-modda. Ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari

Ruhiy holati buzilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, qonunlarida nazarda tutilgan fuqarolarning barcha huquqlari va erkinliklariga egadir.

Ruhiy holati buzilgan shaxslar o'zlariga psixiatriya yordami ko'rsatilayotganda quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

o'z sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishini istisno etadigan tarzda hurmat bilan va insoniy munosabatda bo'linishini;

o'z huquqlari to'g'risidagi axborotni, shuningdek o'zining ruhiy holati inobatga olingan holda o'zida mavjud bo'lgan ruhiy holati buzilishining xususiyati va qo'llanilayotgan davolash usullari haqidagi axborotni o'zi uchun tushunarli shaklda, o'z vaqtida hamda to'liq olish;

psixiatriya yordamini eng kam cheklovli sharoitlarda, imkoni boricha, yashash joyida olish;

stasionar sharoitlarda psixiatriya yordami ko'rsatadigan tibbiyot muassasasida faqat psixiatriya yordami ko'rsatish uchun zarur bo'lgan muddat mobaynida bo'lish;

tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha davolashning barcha turlaridan foydalanish (shu jumladan sanatoriy-kurortda davolanish);

psixiatriya yordamini sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda olish;

profilaktika, tashxis qo'yish, davolash va tibbiy jihatdan reabilitatsiya qilish usullarining, dori vositalarining hamda tibbiy buyumlarning, maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlarining, ilmiy tadqiqotlarning yoki o'quvning sinovlar obyektini sifatida foydalanilishga, shuningdek foto-, video- yoki kinotasvirga olishga ma'lumotlarni bilgan holda ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki ularni rad etish, shu jumladan tibbiy aralashuvning istalgan bosqichida rad etish;

ushbu Qonun bilan tartibga solinadigan masalalar yuzasidan istalgan shifokor-psixiatrni shifokor-psixiatrlar komissiyasida ishlash uchun o'z roziligi bilan taklif etish;

advokatdan yoki qonuniy vakildan yordam olish.

Ruhiy holati buzilgan shaxslar o'ziga psixiatriya yordami ko'rsatilayotganida qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini cheklashga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini faqat psixiatriya tashxisiga, dispanser kuzatuvida, psixiatriya stasionarida

yoxud tibbiy-ijtimoiy muassasada yoki davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida turganlik faktiga asoslanib cheklashga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini qonunga xilof ravishda cheklaganlikda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

9-modda. Kasbga doir faoliyatning va o'ta xavfli manba bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini bajarishdagi cheklovlar

Majburiy psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish natijalariga ko'ra shaxs ruhiy holati buzilganligi oqibatida kasbga doir faoliyatning va o'ta xavfli manba bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini bajarishga vaqtincha (ko'pi bilan besh yil muddatga va keyin qayta tekshiruvdan o'tish huquqi bilan) yaroqsiz deb topilishi mumkin.

Shaxsni kasbga doir faoliyatning va o'ta xavfli manba bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini bajarishga vaqtincha yaroqsiz deb topish to'g'risidagi qaror shaxsning ruhiy sog'lig'i holatini tibbiy qarshi ko'rsatmalar ro'yxatiga muvofiq baholash asosida shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan qabul qilinadi va qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Kasbga doir faoliyatning va o'ta xavfli manba bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun tibbiy qarshi ko'rsatmalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda to'plangan tajriba va ilmiy yutuqlar hisobga olingan holda vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

10-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatilayotgan shaxslarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ifodalash

Shaxs psixiatriya yordami ko'rsatilayotganda o'z huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun o'z xohishiga ko'ra vakilni taklif etishga haqli. Vakillikni rasmiylashtirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsga psixiatriya yordami ko'rsatishda uning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni vasiy, voyaga etmagan shaxsning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni esa ota-onasidan biri yoki boshqa qonuniy vakili amalga oshiradi.

Shaxsga psixiatriya yordami ko'rsatishda uning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni bepul yuridik yordam tarzida advokat, shuningdek bepul yuridik yordam ko'rsatishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxs amalga oshirishi mumkin.

Shaxslar o'ziga psixiatriya yordami ko'rsatilayotganda davlatning bepul yuridik yordam tizimi doirasida bepul yuridik yordam olish huquqiga egadir.

Psixiatriya muassasasi advokat taklif etish imkoniyatini ta'minlaydi, bundan ushbu Qonun 24-moddasining ettinchi qismida va 31-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

11-modda. Shaxsning ruhiy sog'lig'i holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish haqidagi talabni taqiqlash

Shaxs o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarayotganda uning ruhiy sog'lig'ining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etishni yoxud uning shifokor-psixiatr tekshiruvidan o'tishini talab qilish taqiqlanadi, bundan qonunda belgilangan hollar mustasno.

12-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatishda shifokor sirini saqlash

Shaxsda ruhiy holatning buzilishi mavjudligi, u psixiatriya yordami uchun murojaat etganligi faktlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek uning ruhiy sog'lig'ining holati haqidagi boshqa ma'lumotlar qonun bilan qo'riqlanadigan shifokor siri hisoblanadi.

Ruhiy holati buzilgan shaxsning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun uning iltimosiga yoxud qonuniy vaqilining iltimosiga binoan unga va uning qonuniy vakiliga mazkur shaxs ruhiy sog'lig'ining holati haqida hamda unga ko'rsatilgan psixiatriya yordami to'g'risida tushunarli shaklda va ruhiy holati buzilgan shaxsning ruhiy holatini hisobga olgan holda ma'lumotlar taqdim etiladi.

13-modda. Ruhiy holati buzilgan shaxslarga tashxis qo'yish, ularni davolash va rehabilitastiya qilish

Ruhiy holatning buzilganligi tashxisi umume'tirof etilgan xalqaro standartlar va tasniflarga muvofiq qo'yiladi hamda shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy, madaniy, siyosiy va diniy qadriyatlarini rad etishiga yoxud uning ruhiy sog'lig'i holatiga bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga asoslanishi mumkin emas.

Ruhiy holati buzilgan shaxsga tashxis qo'yish, uni davolash va rehabilitastiya qilish uchun qonunchilik bilan ruxsat etilgan usullar, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar qo'llaniladi.

Tashxis qo'yish, davolash va rehabilitastiya qilish usullari, shuningdek dori vositalari hamda tibbiy buyumlar xastalikning xususiyatiga muvofiq faqat tashxis qo'yish, davolash va rehabilitastiya qilish maqsadida

qo'llaniladi hamda ulardan ruhiy holati buzilgan shaxsni jazolash yoki boshqa maqsadlar uchun foydalanilmasligi kerak.

14-modda. Ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish

Ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan tibbiy aralashuv uning ma'lumotlarni bilgan holda ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Shifokor-psixiatr ruhiy holati buzilgan shaxsga uning ruhiy holatining xususiyati, tavsiya etilayotgan davolashning maqsadi, usullari, shu jumladan muqobil usullari va davolashning davomiyligi haqida, shuningdek ehtimol tutilgan xavf, nojo'ya ta'sirlar va ko'tilayotgan natijalar to'g'risida tushunarli shaklda va uning ruhiy holatini hisobga olgan holda axborot taqdim etishi shart. Shifokor-psixiatr taqdim etilgan axborot to'g'risida tibbiy hujjatlarga yozib qo'yadi.

Voyaga etmagan shaxsga nisbatan ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy rozilikni ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar shunday rozilikni beradigan shaxsga ma'lum qilinganidan keyin ota-onasidan biri yoki boshqa qonuniy vakili beradi, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsga nisbatan esa uning qonuniy vakili rozilik beradi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning qonuniy vakili ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berganligi haqida vasiyligidagi shaxsning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organini xabardor qiladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxsning yoki uning qonuniy vaqilining ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy rozilgisiz davolash faqat tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash chog'ida, shuningdek psixiatriya muassasasiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilganda amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu moddaning beshinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan ruhiy holat buzilishlarini davolash uchun asl holiga qaytarib bo'lmaydigan oqibatlarni keltirib chiqaradigan jarrohlik usullarini hamda boshqa usullarni qo'llashga, shuningdek ularda profilaktika, tashxis qo'yish, davolash va tibbiy rehabilitasiya qilish usullari, tibbiyot uchun mo'ljallangan dori vositalari va buyumlari, maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari sinovlarini o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

15-modda. Davolanishni rad qilish

Ruhiy holati buzilgan shaxs, ruhiy holati buzilgan voyaga etmagan shaxsning ota-onasidan biri yoki boshqa qonuniy vakili, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning qonuniy vakili taklif etilayotgan davolanishni rad qilish yoki uni tugatishni talab qilish huquqiga ega, bundan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan yoxud psixiatriya muassasasiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilgan hollar mustasno.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning qonuniy vakili davolanishni rad qilish yoki uni tugatish to'g'risida davolanish rad etilgan yoxud tugatilgan kunning ertasidan kechiktirmay o'z vasiyligi ostidagi shaxsning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organini xabardor qiladi.

Davolanishni rad etgan shaxsga yoki uning qonuniy vakiliga bunday rad etishning yoxud davolanishni tugatishning ehtimol tutilgan oqibatlari tushuntirilishi kerak. Davolanishni rad etish, rad etish kunida tibbiy hujjatga ehtimol tutilgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda yozib qo'yish orqali va davolanishni rad etgan shaxsning yoki uning qonuniy vaqilining, shuningdek shifokor-psixiatrning imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

16-modda. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari

Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prostessual va Jinoyat-ijroiya kodekslarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha hamda tartibda sudning qaroriga ko'ra qo'llaniladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining psixiatriya muassasalari tomonidan, ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxslarga nisbatan esa ichki ishlar organlarining jazoni o'tash joyidagi tibbiyot muassasalari tomonidan qo'llaniladi.

O'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining psixiatriya muassasalarida turgan shaxslar psixiatriya stasionarida turgan ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlaridan foydalanadi.

O'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining psixiatriya muassasalarida turgan shaxslar mazkur muassasada bo'ladigan butun davrda mehnatga layoqatsiz deb topiladi va shifokor-psixiatr huzurida majburiy ambulatoriya kuzatuvida va davolanishda

turgan shaxslar bilan teng ravishda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa olish yoki umumiy asoslarda pensiya olish huquqiga ega.

17-modda. Sud-psixiatriya ekspertizasi

Jinoyat, fuqarolik ishlari va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud-psixiatriya ekspertizasi qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra hamda tartibda amalga oshiriladi.

18-modda. Shaxsning harbiy xizmatga yaroqliligi to'g'risidagi masalani hal qilish chog'ida psixiatriya tekshiruvini o'tkazish

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining harbiy xizmatchisi sifatida shaxsning, shu jumladan ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, xizmat faoliyati haqiqiy harbiy xizmatga tenglashtiriladigan boshqa vazirliklar va idoralarning boshliqlar hamda oddiy askarlar tarkibidan bo'lgan shaxslarning o'z ruhiy sog'lig'ining holatiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqliligi to'g'risidagi masalani hal qilish chog'ida ambulator va stasionar sharoitlarda psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish asoslari hamda tartibi ushbu Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

2-bob. Psixiatriya yordami ko'rsatuvchi muassasalar va shaxslar. Tibbiyot xodimlarining hamda boshqa mutaxassislarining huquq va majburiyatlari

19-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatuvchi muassasalar

Psixiatriya yordamini psixiatriya muassasalari, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari, ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalar ko'rsatadi.

Ruhiy holatning buzilishiga tashxis qo'yish, uni davolash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Psixiatriya yordamining turlari yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari, ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan psixiatriya yordamining turlari haqidagi axborot fuqarolar uchun ochiq bo'lishi kerak.

20-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatish bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Maxsus oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot xodimlari (shifokor-psixiatr, tibbiy psixolog va psixoterapevt) psixiatriya yordami ko'rsatish bo'yicha shifokorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar ruhiy holati buzilgan shaxslar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi kerak.

Yuridik shaxslarga «Psixiatriya yordami» ixtisosligi bo'yicha tibbiy faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun listenziyalar berish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Psixiatriya yordami ko'rsatishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan psixiatriya yordamining turlari ta'sis hujjatlarida yoki listenziya talablari va shartlarida ko'rsatiladi.

21-modda. Tibbiyot xodimlarining hamda boshqa mutaxassislarning psixiatriya yordami ko'rsatish chog'idagi huquq va majburiyatlari

Ruhiy holatning buzilishi tashxisini qo'yish faqat shifokor-psixiatr tomonidan amalga oshiriladi.

g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya yordami ko'rsatish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilish yoxud bu masalani ko'rib chiqish uchun xulosa berish faqat shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etayotgan tibbiyot xodimlarining va boshqa mutaxassislarning faoliyati kasbga oid odo-axloqqa asoslanadi hamda qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqa ixtisoslikdagi shifokorning shaxsning ruhiy sog'lig'i holati to'g'risidagi xulosasi dastlabki xususiyatga ega bo'ladi hamda shaxsning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini cheklash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun, shuningdek ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun qonunda nazarda tutilgan kafolatlarni unga berish uchun asos bo'lmaydi.

22-modda. Shifokor-psixiatrning psixiatriya yordami ko'rsatish chog'idagi mustaqilligi

Psixiatriya yordami ko'rsatish chog'ida shifokor-psixiatr o'z qarorlarini qabul qilishda mustaqil bo'lib, u faqat tibbiy ko'rsatuvlarga, shifokorlik burchiga va qonunga amal qiladi.

Shifokor-psixiatrlar komissiyasi qaroriga o'z fikri mos kelmagan shifokor-psixiatr o'zining xulosasini berishga haqli bo'lib, xulosa tibbiy hujjatlarga ilova qilinadi.

23-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlariga va boshqa xodimlarga kafolatlar

Psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar qonunchilikka muvofiq ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi, har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili olish, zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun umumiy belgilangan yoshi kamaytirilgan holda pensiyaga chiqish huquqiga ega.

Psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar ish vaqtining, har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilining davomiyligi, umumiy belgilangan yosh kamaytirilgan holda pensiyaga chiqish tartibi, shuningdek ularning maxsus har oylik ustamasi miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Psixiatriya yordami ko'rsatishda ishtirok etuvchi tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan hamda kasb kasalliklaridan qonunchilikda belgilangan tartibda davlat majburiy ijtimoiy sug'urtasi qilinishi lozim.

3-bob. Psixiatriya yordamining turlari va ularni ko'rsatish tartibi

24-modda. Psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish

Psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish tekshirilayotgan shaxsda ruhiy holati buzilishining mavjudligini, psixiatriya yordami ko'rsatishga bo'lgan zaruriyatni aniqlash, shuningdek bunday yordam turi haqidagi masalani hal qilish uchun amalga oshiriladi.

Psixiatriya tekshiruvi tekshirilayotgan shaxsning ma'lumotlarni bilgan holda tekshiruv o'tkazilishiga ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Voyaga etmagan shaxsni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish ota-onasidan birining yoxud boshqa qonuniy vaqilining ushbu tekshiruvni o'tkazishga ma'lumotlarni bilgan holda ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsga nisbatan esa, bunday shaxs qonuniy vaqilining ma'lumotlarni bilgan holda psixiatriya tekshiruvi o'tkazilishiga ixtiyoriy roziligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

Ota-onasidan biri rozi bo'lmagan yoxud ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakili mavjud bo'lmagan taqdirda voyaga etmagan shaxsni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish vasiylik va homiylik organining qaroriga binoan amalga oshiriladi, qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning qonuniy vakili vasiylikdagi shaxsni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish uchun

ma'lumotlarni bilgan holda ixtiyoriy ravishda rozilik berganligi haqida vasiyligidagi shaxsning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organini xabardor qiladi.

Psixiatriya tekshiruvini o'tkazuvchi shifokor-psixiatr tekshirilayotgan shaxsga va uning qonuniy vakiliga o'zini psixiatr sifatida tanishtirishi shart, bundan ushbu modda ettinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, tekshirilayotgan shaxs unda og'ir ruhiy holatning quyidagilar bilan bog'liq buzilishi mavjud deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan harakatlarni sodir etgan hollarda, shaxsni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish ushbu shaxsning ma'lumotlarni bilgan holdagi ixtiyoriy rozilgisiz yoki qonuniy vakilning ma'lumotlarni bilgan holdagi ixtiyoriy rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin:

uning o'zi uchun yoki atrofdagilar uchun bevosita xavf solishi;
uning yordamga muhtojligi, ya'ni asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda qanoatlantirishga layoqatsizligi;
agar shaxs psixiatriya yordami ko'rsatilmasdan qoldirilgudek bo'lsa, ruhiy holati yomonlashuvi tufayli uning sog'lig'iga jiddiy zarar etishi.

Agar tekshirilayotgan shaxs ushbu Qonun 28-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha dispanser kuzatuvda turgan bo'lsa, uni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish uning ma'lumotlarni bilgan holdagi ixtiyoriy rozilgisiz yoki qonuniy vaqilining ma'lumotlarni bilgan holdagi ixtiyoriy rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin.

Psixiatriya tekshiruvidan o'tkazishga oid ma'lumotlar va tekshirilayotgan shaxsning ruhiy sog'lig'i holati to'g'risidagi xulosa tibbiy hujjatlarda qayd etilib, ularda shifokor-psixiatrga murojaat qilish sabablari hamda tibbiy tavsiyalar ko'rsatiladi.

25-modda. Shaxsni o'zining rozilgisiz yoki qonuniy vaqilining rozilgisiz psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish tartibi

Ushbu Qonun 24-moddasining ettinchi qismi ikkinchi xatboshisida va sakkizinchi qismida nazarda tutilgan hollarda shaxsni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish to'g'risidagi qaror shifokor-psixiatr tomonidan ushbu shaxsning rozilgisiz yoki qonuniy vaqilining rozilgisiz mustaqil ravishda, ushbu Qonunning 26-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilinadi.

Ushbu Qonun 24-moddasi ettinchi qismining uchinchi va to'rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda shaxsni o'zining rozilgisiz yoki

qonuniy vaqilining roziligisiz psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish to'g'risidagi qaror sud tomonidan chiqariladi.

26-modda. Shaxsni o'zining roziligisiz yoki qonuniy vaqilining roziligisiz psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida ariza berish va qaror qabul qilish tartibi

Shaxsni o'zining roziligisiz yoki qonuniy vaqilining roziligisiz psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish to'g'risidagi qaror shunday tekshiruv o'tkazish uchun ushbu Qonun 24-moddasining ettinchi qismida sanab o'tilgan asoslar mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozma arizaga binoan shifokor-psixiatr tomonidan qabul qilinadi, bundan ushbu Qonun 24-moddasining sakkizinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Yozma ariza psixiatriya tekshiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxsning qarindoshlari, har qanday tibbiy ixtisoslikdagi shifokor, mansabdor shaxslar va boshqa fuqarolar tomonidan berilishi mumkin.

Ushbu Qonun 24-moddasi ettinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollarda ariza og'zaki shaklda ham berilishi mumkin. Shaxsni psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish to'g'risidagi qaror shifokor-psixiatr tomonidan darhol qabul qilinadi va tibbiy hujjatlarga yozib qo'yish orqali rasmiylashtiriladi.

Shaxs o'zi uchun yoki atrofidagilar uchun bevosita xavf tug'dirmagan taqdirda, psixiatriya tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi ariza yozma shaklda berilishi, shunday tekshiruv o'tkazish zarurligini asoslovchi batafsil ma'lumotlarni va shaxs yoki uning qonuniy vakili shifokor-psixiatrga murojaat etishni rad etganligiga doir ko'rsatmani o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Shifokor-psixiatr qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Arizada ushbu Qonun 24-moddasi ettinchi qismining uchinchi va to'rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan holatlar mavjudligi to'g'risida dalolat beruvchi ma'lumotlar mavjud emasligini aniqlab, shifokor-psixiatr psixiatriya tekshiruvi o'tkazishni yozma ravishda asoslantirilgan holda rad etadi.

Shaxsni o'zining roziligisiz yoki qonuniy vaqilining roziligisiz psixiatriya tekshiruvidan o'tkazish to'g'risidagi ariza asosli bo'lganida shifokor-psixiatrning bunday tekshiruv o'tkazish zarurligi haqidagi yozma xulosasi, shuningdek shaxsni tekshiruvdan o'tkazish to'g'risidagi ariza va boshqa mavjud materiallar tegishli tibbiyot muassasasi tomonidan shaxsning yashash joyidagi sudga yuboriladi.

Sud psixiatriya tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi masalani barcha materiallar olingan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soat ichida hal qiladi.

27-modda. Ambulatoriya sharoitlarida ko'rsatiladigan psixiatriya yordami

Ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan tibbiy ko'rsatmalarga qarab ambulatoriya sharoitlarida profilaktika, tashxis qo'yish, davolash, tibbiy jihatdan reabilitasiya qilish va dispanser kuzatuvini amalga oshiriladi.

Ambulatoriya sharoitlaridagi psixiatriya yordami (bundan dispanser kuzatuvini mustasno) ruhiy holati buzilgan shaxs ushbu Qonunning 7-moddasiga muvofiq ixtiyoriy ravishda murojaat etganda ko'rsatiladi.

28-modda. Dispanser kuzatuvini

Dispanser kuzatuvini ruhiy holatning og'ir barqaror yoki tez-tez zo'rayib turuvchi kasallik belgilari bo'lgan surunkali va uzoq davom etadigan buzilishiga chalingan shaxsning roziligidan, shuningdek uning qonuniy vaqilining roziligidan qat'i nazar, o'rnatilishi mumkin.

Dispanser kuzatuvini o'rnatish zarurligi haqidagi va uni tugatish to'g'risidagi qaror shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

Agar davolash-profilaktika muassasasi xizmat ko'rsatadigan hududda psixiatriya yordami bitta shifokor-psixiatr tomonidan ko'rsatilsa, dispanser kuzatuvini o'rnatish zarurligi to'g'risidagi qarorni u mustaqil ravishda uch oydan oshmagan muddatga qabul qiladi. Bu holda dispanser kuzatuvini o'rnatish zarurligi to'g'risidagi va uni tugatish haqidagi masala shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan uch oy ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Shifokor-psixiatrlar komissiyasining asoslantirilgan qarori tibbiy hujjatlarga yozib qo'yish orqali va Dispanser kuzatuvida turgan ruhiy holati buzilgan shaxslarning yagona elektron reestriga tegishli axborot kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

Dispanser kuzatuvini shaxs sog'ayib ketganda yoki uning ruhiy holati sezilarli va turg'un yaxshilanganda tugatiladi. Dispanser kuzatuvini tugatilganidan keyin ambulatoriya sharoitlaridagi psixiatriya yordami ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha va tartibda mazkur shaxsning iltimosiga ko'ra yoki roziligi bilan yoxud uning qonuniy vaqilining iltimosiga ko'ra yoki roziligi bilan ko'rsatiladi. Ruhiy holati buzilgan shaxsning ruhiy holati o'zgargan taqdirda, u ushbu Qonunning 24 va 25-moddalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha hamda tartibda o'zining rozilgisiz yoki qonuniy vaqilining rozilgisiz tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Bunday hollarda dispanser kuzatuvini

shifokor-psixiatrlar komissiyasining qaroriga binoan qaytadan o'rnatilishi mumkin.

29-modda. Dispanser kuzatuvda turgan ruhiy holati buzilgan shaxslarning yagona elektron reestri

Dispanser kuzatuvda turgan ruhiy holati buzilgan shaxslarning yagona elektron reestri (bundan buyon matnda Yagona reestr deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuritiladi.

Yagona reestr ruhiy holati buzilgan shaxslar haqidagi quyidagi majburiy axborotni o'z ichiga oladi:

pasport ma'lumotlari (identifikatsiyalovchi ID-karta ma'lumotlari);

dispanser kuzatuv o'rnatilgan va tugatilgan sanalar;

psixiatriya muassasalarida bo'lish muddatlari;

berilgan dori vositalari, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar va taqdim etilgan imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Yagona reestr ruhiy holati buzilgan shaxslar haqidagi boshqa axborotni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Yagona reestrni yaratish, unga texnik xizmat ko'rsatish va muntazam ravishda yangilash bilan bog'liq harajatlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining byudjetdan tashqari manbalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

Yagona reestrda foydalanishga mazkur reestrda axborotning maxfiyligi ta'minlangan holda, faqat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan shaxslarga ruxsat etiladi.

30-modda. Psixiatriya stasionariga yotqizish uchun asoslar

Psixiatriya stasionariga yotqizish uchun shaxsda ruhiy holatning buzilishi mavjudligi va shifokor-psixiatrning stasionar sharoitlarida tekshiruvdan o'tkazish yoki davolash to'g'risidagi qarori yoxud sudning qarori asos bo'ladi.

Qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda psixiatriya ekspertizasini o'tkazish zarurati ham psixiatriya stasionariga yotqizish uchun asos bo'lishi mumkin.

Shaxsni psixiatriya stasionariga yotqizish ixtiyoriy ravishda uning iltimosiga binoan yoki roziligi bilan amalga oshiriladi, bundan ushbu Qonunning 31-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Voyaga etmagan shaxsni psixiatriya stasionariga yotqizish uning ota-onasining yoki boshqa qonuniy vaqilining iltimosiga binoan yoki roziligi bilan amalga oshiriladi. Ota-onasidan biri rozi bo'lmagan taqdirda yoxud ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakili mavjud bo'lmaganda.

voyaga etmagan shaxsni psixiatriya stasionariga yotqizish vasiylik va homiylik organining qaroriga binoan amalga oshiriladi, bu qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs uning qonuniy vaqilining iltimosiga binoan yoki roziligi bilan psixiatriya stasionariga yotqiziladi.

Stasionarga yotqizishga rozilik tibbiy hujjatlarga yozib qo'yish orqali va ruhiy holati buzilgan shaxsning yoki uning qonuniy vaqilining, shuningdek shifokor-psixiatrning imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

31-modda. Psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish uchun asoslar

Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya stasionariga yotqizish sudning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik proressual kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar ruhiy holati buzilgan shaxsni faqat stasionar sharoitlarida tekshiruvdan o'tkazish yoki davolash mumkin bo'lsa, ruhiy holatning buzilishi esa og'ir hamda quyidagilar bilan bog'liq bo'lsa, bu shaxs o'zining rozilgisiz yoki qonuniy vaqilining rozilgisiz sud qarori chiqarilmasidanoq psixiatriya stasionariga yotqizilishi mumkin:

uning o'zi uchun yoki atrofidaogilar uchun bevosita xavf solish ehtimoli; uning yordamga muhtojligi, ya'ni asosiy hayotiy ehtiyojlarni mustaqil ravishda qanoatlantirishga layoqatsizligi;

agar shaxs psixiatriya yordami ko'rsatilmasdan qoldirilgudek bo'lsa, ruhiy holati yomonlashuvi tufayli uning sog'lig'iga jiddiy zarar etishi.

32-modda. Psixiatriya yordami ko'rsatish chog'ida xavfsizlikni ta'minlash choralari

Stasionar sharoitlardagi psixiatriya yordami stasionarga yotqizilgan shaxsning va boshqa shaxslarning xavfsizligini ta'minlaydigan sharoitlarda, tibbiyot xodimlari tomonidan uning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy ravishda yotqizilganda va bu erda bo'lganda jismoniy siquvga olish va ajratib qo'yish choralari faqat shifokor-psixiatrning xulosasiga ko'ra, shaxsning o'zi uchun yoki boshqa shaxslar uchun bevosita xavf tug'diruvchi harakatlarini boshqa usullar bilan bartaraf etish mumkin bo'lmagan hollarda va davrda qo'llaniladi hamda tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati ostida amalga oshiriladi. Jismoniy siquvga olish yoki ajratib qo'yish choralari qo'llash shakllari va vaqti haqida tibbiy hujjatlarga yozib qo'yiladi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari stasionarga g'ayriixtiyoriy ravishda yotqizishni amalga oshirish chog'ida tibbiyot xodimlariga yordam ko'rsatishi hamda stasionarga yotqizilayotgan shaxs bilan muloqotda bo'lish va uni ko'zdan kechirish uchun xavfsiz sharoitlarni ta'minlashi shart.

Stasionarga yotqizilayotgan shaxsning atrofdagilar hayoti va sog'lig'iga xavf soluvchi harakatlarini bartaraf etish zarur bo'lgan hollarda, shuningdek stasionarga yotqizilishi lozim bo'lgan shaxsni qidirish hamda ushlab zarurati bo'lganda ichki ishlar organlarining xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda harakat qiladi.

33-modda. O'z qonuniy vakillarining iltimosiga binoan yoki roziligi bilan psixiatriya stasionariga yotqizilgan voyaga etmagan shaxslarni va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarni tekshiruvdan o'tkazish

O'z qonuniy vakillarining iltimosiga binoan yoki roziligi bilan psixiatriya stasionariga yotqizilgan voyaga etmagan shaxs va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs ushbu Qonun 34-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. Dastlabki olti oy ichida bu shaxslar stasionarda yotishni uzaytirish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan har oyda kamida bir marta tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

Stasionarda yotish olti oydan ortiq uzaytirilgan taqdirda, ruhiy holati buzilgan shaxsni tekshiruvdan o'tkazish shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan olti oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

Shifokor-psixiatrlar komissiyasi yoki psixiatriya stasionari ma'muriyati voyaga etmagan shaxsni yoki sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsni stasionarga yotqizishda yo'l qo'yilgan suiiste'molliklarni aniqlagan taqdirda, psixiatriya stasionari ma'muriyati bu haqda vasiylikdagi shaxsning turar joyidagi vasiylik va homiylik organini xabardor qiladi.

34-modda. Psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilgan shaxslarni tekshiruvdan o'tkazish

Ushbu Qonunning 31-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha psixiatriya stasionariga yotqizilgan ruhiy holati buzilgan shaxs shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan qirq sakkiz soatdan oshmagan muddatda majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim, komissiya stasionarga yotqizilganlikning asoslanganligi to'g'risida

qaror qabul qiladi. Stasionarga yotqizish asossiz deb topilgan va stasionarga yotqizilgan shaxs psixiatriya stasionarida qolish istagini bildirmagan hollarda, u darhol stasionardan chiqarilishi lozim.

Agar ruhiy holati buzilgan shaxsni stasionarga yotqizish asosli deb topilsa, shaxsning u erda bundan buyon bo'lishi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun shifokor-psixiatrlar komissiyasining xulosasi yigirma to'rt soat ichida psixiatriya stasionari joylashgan erdagi sudga yuboriladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxsni psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi ariza sudga shaxs yotgan psixiatriya stasionari tomonidan beriladi.

35-modda. Ruhii holati buzilgan shaxsni psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi ariza yuzasidan sudning qarori

Sud ruhiy holati buzilgan shaxsni psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi arizani mazmunan ko'rib chiqib, uni qanoatlantiradi yoki rad etadi.

O'ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs, uning qonuniy vakili, psixiatriya stasionari rahbari sudning qarori ustidan shikoyat qilishi yoki prokuror protest keltirishi mumkin.

36-modda. Ruhii holati buzilgan shaxsning g'ayriixtiyoriy tartibda stasionarda yotishini uzaytirish

Ruhiy holati buzilgan shaxsning psixiatriya stasionarida g'ayriixtiyoriy tartibda bo'lishi faqat stasionarga yotqizish amalga oshirilgan asoslar saqlanib turgan vaqt mobaynidagina davom etadi.

Psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilgan shaxs shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan stasionarda yotishni uzaytirish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun dastlabki olti oy mobaynida har oyda kamida bir marta tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

Ruhiy holati buzilgan shaxs psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilgan paytdan e'tiboran olti oy o'tgach shifokor-psixiatrlar komissiyasining stasionarda bunday yotishni uzaytirish zarurligi to'g'risidagi xulosasi psixiatriya stasionari ma'muriyati tomonidan psixiatriya stasionari joylashgan erdagi sudga yuboriladi. Sud stasionarda yotishni ushbu Qonunning 34 va 35-moddalarida nazarda tutilgan tartibda uzaytirishi mumkin.

Ruhiy holati buzilgan shaxsning psixiatriya stasionarida yotishi olti oydan ortiq muddatga uzaytirilganda shifokor-psixiatrlar komissiyasi

tomonidan mazkur shaxsni tekshiruvdan o'tkazish olti oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

37-modda. Psixiatriya stasionarlarida turgan ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari

Ruhiy holati buzilgan shaxsga uni psixiatriya stasionariga yotqizish asoslari va maqsadlari, uning huquqlari hamda stasionarda o'rnatilgan qoidalar tushuntirilishi kerak, bu haqda tibbiy hujjatlarga yozib qo'yiladi.

Psixiatriya stasionarida davolanayotgan yoki tekshiruvdan o'tayotgan ruhiy holati buzilgan shaxslar:

tekshiruvdan o'tkazish, davolash, psixiatriya stasionaridan chiqarish va ushbu Qonun bilan berilgan huquqlarga rioya etish masalalari yuzasidan bevosita bosh shifokorga yoki bo'lim mudiriga murojaat etishga; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar berishga;

advokat va din peshvosi bilan yolg'iz uchrashishga;

tibbiy qarshi ko'rsatmalar bo'lmaganda diniy rasm-rusumlarni bajarishga;

gazetalar va jumallarga obuna bo'lishga;

agar ruhiy holati buzilgan shaxs o'n sakkiz yoshga to'lmagan bo'lsa, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining dasturi bo'yicha ta'lim olishga;

agar ruhiy holati buzilgan shaxs foydali mehnatda ishtirok etayotgan bo'lsa, mehnati uchun uning miqdori va sifatiga muvofiq boshqa fuqarolar bilan teng ravishda haq olishga;

yo'zishmalar olib borishga, posilkalar, banderollar va pul jo'natmalari olish va jo'natishga, telefonda foydalanishga, keluvchilarni qabul qilishga, eng zarur narsalarga ega bo'lish va ularni sotib olishga, o'z kiyim-kechagidan foydalanishga haqli. Bu huquqlar ruhiy holati buzilgan shaxsning va boshqa shaxslarning sog'lig'i yoki xavfsizligi manfaatlarini ko'zlab shifokor-psixiatomning tavsiyasiga ko'ra cheklanishi mumkin.

Gazetalar va jumallarga yakka tartibda obuna bo'lish, telefonda so'zlashuvlar hamda boshqa pulli xizmatlar ruhiy holati buzilgan shaxslarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Psixiatriya stasionarida davolanayotgan yoki tekshiruvdan o'tayotgan ruhiy holati buzilgan shaxslar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

38-modda. Psixiatriya stasionari ma'muriyatining va tibbiyot xodimlarining majburiyatlari

Psixiatriya stasionarining ma'muriyati va tibbiyot xodimlari ruhiy holati buzilgan shaxslarning hamda ularning qonuniy vakillarining ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, shu jumladan:

psixiatriya stasionariga davolanish yoki tekshiruvdan o'tish uchun yotqizilgan shaxslarni zarur tibbiy yordam bilan ta'minlashi;

ushbu Qonunning matni, mazkur psixiatriya stasionarining ichki tartib-qoidalari bilan, ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda murojaat etish mumkin bo'lgan davlat organlari hamda boshqa organlar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning manzillari hamda telefon raqamlari bilan tanishish imkoniyatini berishi;

ruhiy holati buzilgan shaxslarning yozishmalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar yo'llashi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

ruhiy holati buzilgan shaxs psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida uning qonuniy vaqilini, qarindoshlarini yoki uning ko'rsatmasiga ko'ra boshqa shaxsni xabardor qilish choralarini ko'rishi;

ruhiy holati buzilgan shaxsning sog'lig'i holatidagi o'zgarishlar va u bilan bog'liq favqulodda hodisalar haqida uning qonuniy vaqilini yoki qarindoshlarini, shuningdek uning ko'rsatmasiga ko'ra boshqa shaxsni xabardor qilishi;

psixiatriya stasionarida turgan ruhiy holati buzilgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashi, posilkalar va olib kelingan narsalar tarkibini nazorat qilishi;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, ammo qonuniy vakilga ega bo'lmagan ruhiy holati buzilgan shaxslarning qonuniy vakili vazifasini bajarishi shart.

Psixiatriya stasionari ma'muriyatining va tibbiyot xodimlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

39-modda. Ruhiy holati buzilgan shaxsni psixiatriya stasionaridan chiqarish

Ruhiy holati buzilgan shaxsni psixiatriya stasionaridan chiqarish u sog'ayib ketgan yoki uning ruhiy holati yaxshilanib, bundan buyon stasionarda davolanishi talab etilmaydigan, shuningdek psixiatriya

stasionariga yotqizish uchun asos bo'lgan tekshiruvdan o'tish yoki psixiatriya ekspertizasi nihoyasiga yetkazilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Psixiatriya stasionariga davolanish uchun ixtiyoriy ravishda yotqizilgan ruhiy holati buzilgan shaxsni chiqarish uning arizasiga, qonuniy vaqilining arizasiga yoki davolovchi shifokor-psixiatrning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Psixiatriya stasionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilgan ruhiy holati buzilgan shaxsni chiqarish shifokor-psixiatrlar komissiyasining xulosasiga yoki sudning stasionarda yotishni uzaytirishni rad etish to'g'risidagi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Sudning qaroriga binoan o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan ruhiy holati buzilgan shaxsni chiqarish faqat sudning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Psixiatriya stasionariga ixtiyoriy ravishda yotqizilgan ruhiy holati buzilgan shaxsni chiqarish, agar g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish uchun ushbu Qonunning 31-moddasida nazarda tutilgan asoslar shifokor-psixiatrlar komissiyasi tomonidan aniqlanadigan bo'lsa, rad etilishi mumkin. Bunday holda psixiatriya stasionarida bo'lish, yotishni uzaytirish va stasionardan chiqarish masalalari ushbu Qonunning 34 — 36-moddalarida, shuningdek ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan tartibda hal etiladi.

40-modda. Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish asoslari va tartibi

Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalarga shaxslarni joylashtirish uchun ruhiy holati buzilgan shaxsning arizasi, shifokor-psixiatr ishtirokidagi tibbiy komissiyaning xulosasi, voyaga etmagan shaxs yoki sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs uchun esa vasiylik va homiylik organining mazkur tibbiy komissiyaning xulosasiga asosan qabul qilingan qarori asos bo'ladi.

Tibbiy komissiyaning xulosasi shaxsda ruhiy holatning uni ixtisoslashtirilmagan tibbiy-ijtimoiy muassasada turish imkoniyatidan mahrum etadigan tarzda buzilishi mavjudligi haqidagi, muomalaga layoqatli shaxsga nisbatan esa uni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi masalani sud oldiga qo'yish uchun asoslar mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Vasiylik va homiylik organi ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirilgan shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'rish shart.

41-modda. Voyaga etmagan shaxsni ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga hamda tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish asoslari va tartibi Voyaga etmagan, ruhiy holati buzilgan shaxsni ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga va tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish uchun uning ota-onasining yoki boshqa qonuniy vaqilining arizasi hamda tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning majburiy xulosasi asos bo'ladi.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasi voyaga etmagan shaxsning davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida moslashtirilgan ta'lim dasturini o'zlashtirishi mumkinligi va (yoki) zarurligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

42-modda. Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida yoki tibbiy-ijtimoiy muassasalarda turgan shaxslarning huquqlari hamda mazkur muassasalar ma'muriyatining va xodimlarining majburiyatlari

Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida yoki tibbiy-ijtimoiy muassasalarda turgan shaxslar ushbu Qonunning 37-moddasida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari yoki tibbiy-ijtimoiy muassasalar ma'muriyati va xodimlarining ushbu muassasalarda turgan shaxslarning huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir majburiyatlari ushbu Qonunning 38-moddasida, shuningdek boshqa qonunchilikda belgilanadi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari yoki tibbiy-ijtimoiy muassasalar ushbu muassasalarda turgan shaxslarni bir yilda kamida bir marta tibbiy tekshiruvdan o'tkazishi shart. Tibbiy tekshiruv ushbu shaxslarning mazkur muassasalarda bundan buyon turishi to'g'risidagi, shuningdek ularning muomalaga layoqatsizligi haqidagi qarorlarni qayta ko'rib chiqish mumkinligi to'g'risidagi masalani hal etish maqsadida shifokor-psixiatr ishtirokidagi tibbiy komissiya tomonidan o'tkaziladi.

43-modda. Ruhiy holati buzilgan shaxslarni ko'chirish va chiqarish asoslari

Ruhiy holati buzilgan shaxsni ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan yoki tibbiy-ijtimoiy muassasadan umumiy turdagi xuddi shunday muassasaga ko'chirish uchun shifokor-psixiatr ishtirokidagi tibbiy komissiyaning mazkur shaxsda ushbu muassasada turish uchun tibbiy ko'rsatmalar mavjud emasligi haqidagi xulosasi asos bo'ladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxsni ruhiy holati buzilgan shaxslar uchun mo'ljallangan davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan yoki tibbiy-ijtimoiy muassasadan chiqarish:

shifokor-psixiatr ishtirokidagi tibbiy komissiyaning ruhiy holati buzilgan shaxs sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda yashashga layoqatli ekanligi to'g'risidagi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu shaxsning arizasiga binoan;

chiqarilayotgan voyaga etmagan shaxsni parvarish qilish majburiyatini olayotgan uning ota-onasidan birining yoki boshqa qonuniy vaqilining arizasiga binoan;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs qonuniy vaqilining arizasi bo'yicha, basharti uning qonuniy vakili o'z vasiyligidagi shaxsni shaxsan parvarish qilish va (yoki) parvarish qilishni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olayotgan bo'lsa, amalga oshiriladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

44-modda. Nizolarni hal etish

Psixiatriya yordami ko'rsatish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

45-modda. Psixiatriya yordami to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Psixiatriya yordami to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

46-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustda qabul qilingan «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi 123-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, № 7-8, 215-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 31 avgustda qabul qilingan «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi 124-II-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, № 7-8, 216-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-311-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011 yil, № 12/2, 363-modda) 7-moddasi;

4) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-559-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 8, 470-modda) 7-moddasi;

5) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 12 sentyabrda qabul qilingan «Psixiatriya yordami ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-567-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 9, 592-modda) 8-moddasi.

47-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

48-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

49-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

X BOB. FAOLIYATNING AYRIM TURLARINI LITSENZIYALASH TO'G'RISIDA

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

2-modda. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonunchilik

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Faoliyatning ba'zi bir turlarini litsenziyalashning o'ziga xos jihatlari qonun bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilishni litsenziyalashda, intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda, shuningdek kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

litsenziya — litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

faoliyatning litsenziyalanayotgan turi — O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

litsenziyalash — litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksi;

litsenziya talablari va shartlari — faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, qonunchilikda belgilangan talablar va shartlarning majmui;

listenziyalovchi organlar — qonunchilikka muvofiq listenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

listenziya da'vogari — listenziyalovchi organga faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun listenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

listenziat — faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirish listenziyasi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

listenziya shartnomasi — faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun listenziatning listenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi listenziyalovchi organ bilan listenziya da'vogari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o'rtasida tuziladigan shartnoma;

listenziyalar reestri — berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan listenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan listenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan listenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmui.

4-modda. Listenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish
Listenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda listenziyalovchi organlar amalga oshiradi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining listenziyalash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

listenziyalovchi organlarni va faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash tartibini belgilash, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

O'zbekiston Respublikasi hududida listenziyalar reestrini yuritish tartibini belgilash;

faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash sohasidagi qonunchilikka listenziyalovchi organlarning rioya etishlarini nazorat qilish;

listenziyalashning ayrim turlarini amalga oshirish.

6-modda. Listenziyalovchi organlarning vakolatlari

Listenziyalovchi organlarning vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

faoliyatning ayrim turlarini qonunchilikka muvofiq listenziyalash;

qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini listenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

listenziya talablari va shartlariga listenziatlar rioya etishini nazorat qilish;

listenziyalarni qayta rasmiylashtirish;

listenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash;
listenziyalarning amal qilishini tugatish;
listenziyalarni bekor qilish;
listenziyalar reestrini yuritish.

Listenziyalovchi organlar shu organlar listenziyalaydigan faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tuzishga yoki ular faoliyatida muassislar (qatnashchilar) sifatida ishtirok etishga haqli emas, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

II. AMALGA OSHIRISH UCHUN LITSENZIYALAR TALAB QILINADIGAN FAOLIYAT TURLARI

7-modda. Faoliyatning listenziyalanadigan turlarini aniqlash

Faoliyatning listenziyalanadigan turlari jumlasiga amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi listenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlari kiradi.

Amalga oshirilishi uchun listenziya talab qilinadigan faoliyat turlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

8-modda. Faoliyatning listenziyalanadigan ayrim turlarini jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirishni taqiqlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) faoliyatning listenziyalanadigan ayrim turlarini amalga oshirishini taqiqlab qo'yishi mumkin, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

9-modda. Davlat unitar korxonalari va muassasalari tomonidan faoliyatning listenziyalanadigan turlarini amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tashkil etilgan davlat unitar korxonalari va muassasalari, basharti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarida faoliyatning listenziyalanadigan turlarini amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lsa, faoliyatning mazkur turlarini tegishli listenziyani olmasdan amalga oshirishga haqlidir. Mazkur qoida ko'rsatilgan korxonalar va muassasalarni listenziya talablari va shartlarini, shuningdek faoliyatning listenziyalanadigan turlarini amalga oshirish bilan bog'liq, qonunchilikka muvofiq qo'yiladigan boshqa talablarni bajarishdan ozod etmaydi.

III. LITSENZIYALAR

10-modda. Listenziyalarning turlari

Listenziyalar namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo'lishi mumkin. Namunaviy (oddiy) listenziyalar jumlasiga cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan listenziyalar kiradi, agar ushbu shaxslar tegishli faoliyat turini amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan yagona shartlar va talablarga javob bersalar.

Yakka tartibdagi listenziyalar jumlasiga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, listenziyalarga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan listenziyalar kiradi. Yakka tartibdagi listenziyalar amal qilish hududi, faoliyat obyekti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan boshqa asoslarga ko'ra miqdoriy cheklanadi.

Yakka tartibdagi listenziyalarni berish, qoida tariqasida, tanlov (tender) asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi listenziyalarni berish tartibi va shartlari, shu jumladan tanlovlarni (tenderlarni) o'tkazish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

11-modda. Listenziyaning amal qilishi

Listenziya har bir listenziyalanadigan faoliyat turi uchun alohida beriladi. Listenziya da'vogarining arizasiga muvofiq listenziya listenziyalanayotgan faoliyat turining bir qismiga (qismlariga) berilishi mumkin.

Amalga oshirilishi uchun listenziya olingan faoliyat turi faqat listenziyani olgan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Listenziyalarni yoki ularga doir huquqlarni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.

Amalga oshirilishi uchun listenziya berilgan faoliyat, agar listenziya talablari va shartlarida boshqacha qoida nazarda to'tilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi mumkin.

12-modda. Listenziyaning amal qilish muddati

Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish huquqi uchun listenziyalar ularning amal qilishi muddati cheklanmagan holda beriladi.

Faoliyatning listenziyalanadigan ayrim turlariga nisbatan qonunchilikda listenziyaning cheklangan amal qilish muddati belgilanishi mumkin, lyokin bu muddat besh yildan kam bo'lmasligi lozim.

Listenziyaning amal qilish muddati tugagach, u listenziyatning arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Listenziyaning amal qilish muddatini

uzaytirish to'g'risidagi ariza listenziyalovchi organga listenziyaning amal qilish muddati tugashidan kamida ikki oy oldin berilishi lozim. Listenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish listenziyani berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

IV. LITSENZIYALASHNI AMALGA OSHIRISH

13-modda. Listenziya talablari va shartlari

Faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirishda rioya etiladigan listenziya talablari va shartlari faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanib, ular quyidagi normalarni o'z ichiga olishi lozim:

listenziyatning qonunchilikka rioya etishi shartligi to'g'risidagi; faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirishga da'vogar shaxslarga qo'yiladigan malaka talablari, jumladan maxsus bilimlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi; faoliyatning listenziyalanadigan turini amalga oshirishning maxsus shartlariga qo'yiladigan talablar, jumladan foydalaniladigan moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi.

Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi nizomlarda listenziyalanayotgan faoliyat turi xususida qo'shimcha listenziya talablari va shartlari nazarda to'atilishi mumkin.

14-modda. Listenziya olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Listenziya olish uchun listenziya da'vogari tegishli listenziyalovchi organga quyidagilarni taqdim etadi:

listenziya berish to'g'risidagi ariza — unda: yuridik shaxs uchun — yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan eri (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisobvarag'i raqami; jismoniy shaxs uchun — familiyasi, ismi va otasining ismi, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari; yuridik yoki jismoniy shaxs amalga oshirishni mo'ljallagan faoliyatning listenziyalanayotgan turi (uning bir qismi), shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning mazkur turi. Listenziya berish to'g'risidagi arizada listenziya da'vogarining elektron manzili ko'rsatilishi mumkin;

listenziyalovchi organ listenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqishi uchun listenziya da'vogari qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yig'im to'laganligini tasdiqlovchi hujjat;

faoliyatning ayrim turiga listenziya olish uchun qo'yiladigan talablar va shartlarni listenziya da'vogari bajarishi mumkinligini tasdiqlovchi hamda qonunchilikda belgilab qo'yiladigan boshqa hujjatlar.

Listenziya da'vogaridan ushbu Qonunda hamda faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi o'zga qonunchilikda nazarda to'tilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Listenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar listenziya da'vogari tomonidan listenziyalovchi organga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqida xabardor qilingan holda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar listenziya da'vogarining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Listenziya berish to'g'risidagi arizada listenziya da'vogarining elektron manzili ko'rsatilganligi uning arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida axborot tizimi orqali elektron shaklda xabarnoma olishga bo'lgan roziligidir.

Listenziya olish uchun tegishli listenziyalovchi organga yuborilgan hujjatlar ro'yxat bo'yicha qabul qilinib, ro'yxatning nusxasi mazkur organ tomonidan hujjatlar qabul qilib olingan sana ko'rsatilgan holda arizachiga yuboriladi (topshiriladi).

Noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun listenziya da'vogari qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

14-modda. Faoliyatning ayrim turlarini «bir darcha» prinsipi bo'yicha listenziyalash

Listenziyalovchi organ faoliyatning ayrim turlarini listenziyalashi uchun boshqa tashkilotlar tomonidan beriladigan hujjatlarni olishi talab qilingan hollarda, faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash soddalashtirilgan tartibda «bir darcha» prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, bunda listenziyalovchi organ mazkur hujjatlarni mustaqil ravishda, tadbirkorlik subyektining ishtirokisiz oladi.

15-modda. Listenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im

Listenziyalovchi organ listenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yig'im undiriladi.

Listenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im miqdori har bir listenziyalanadigan faoliyat turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan listenziyalovchi organning mazkur arizani ko'rib chiqish bilan bog'liq harajatlari doirasida

belgilanadi. Bunda yig'imning eng ko'p miqdori qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oshib ketishi mumkin emas.

Listenziya da'vogarlarining arizalarini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im summalari listenziyalovchi organ hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Listenziya da'vogari bergan arizasidan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

16-modda. Listenziya berish to'g'risida qaror qabul qilish

Listenziya da'vogarining arizasini barcha zarur hujjatlar bilan birga olgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan oshmagan muddat ichida listenziyalovchi organ namunaviy (oddiy) listenziya berish haqida yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Namunaviy (oddiy) listenziya berish haqida yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishning eng kam muddatlari faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilab qo'yilishi mumkin.

Listenziyalovchi organ, zarur holda, o'z mablag'lari hisobidan tegishli xulosalarni tayyorlash uchun ekspertlarni shartnoma asosida jalb etishga haqli.

Listenziyalovchi organ listenziya da'vogarini qabul qilingan qaror to'g'risida mazkur organ tegishli qarorni qabul qilganidan keyin uch kun ichida xabardor qilishi shart.

Listenziya berish to'g'risida qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma listenziya da'vogariga yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda, bank hisobvarag'i rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Listenziya berishni rad etish haqidagi xabarnoma listenziya da'vogariga yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda, rad etishning sabablari va listenziya da'vogari ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takror taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Listenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Agar listenziyalovchi organ listenziya berish yoxud listenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati davomida listenziya berish haqida yoki listenziya berishni rad etish to'g'risida yoxud listenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish haqida yoki uning amal qilish muddatini uzaytirishni rad etish to'g'risida qaror

qabul qilmasa, ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng listenziya da'vogari arizada ko'rsatilgan faoliyat turini amalga oshirish huquqiga bu haqda listenziyalovchi organni yozma ravishda xabardor qilgan holda ega bo'ladi.

Ushbu moddaning ettinchi qismida nazarda tutilgan holda listenziyalovchi organ listenziya da'vogarining yozma xabari olinganidan keyin besh ish kuni ichida unga listenziya berishi yoki listenziyaning amal qilish muddatini uzaytirishi shart. Taqdim etilgan hujjatlarning ular qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan ro'yxati hamda listenziya da'vogari tomonidan listenziyalovchi organga yuborilgan yozma xabar listenziya olinguniga qadar listenziyaga tenglashtiriladi va shunday faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Bunda listenziya da'vogari listenziyasiz faoliyat bilan shug'ullanganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Listenziya da'vogari listenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish listenziya da'vogarining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatda listenziyalovchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Listenziya da'vogarlarining arizalarini takroran ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi.

Listenziya da'vogarining arizasini takroran ko'rib chiqishda listenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha listenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Listenziya da'vogarining listenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan arizasi yangidan berilgan deb hisoblanadi.

Listenziya da'vogari davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan taqdirda hamda u listenziya shartnomasini imzolaganidan keyin listenziya beriladi.

Agar listenziyat unga listenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy ichida listenziyalovchi organga listenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yoki listenziya shartnomasini imzolamagan bo'lsa, listenziyalovchi organ mazkur listenziyani bekor qilishga haqli.

17-modda. Listenziya berishni rad etish

Listenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

listenziya da'vogarining hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmay taqdim etishi;

listenziya da'vogari taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;
listenziya da'vogarining listenziya talablari va shartlariga, shuningdek tanlov (tender) shartlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan listenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan listenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Listenziya da'vogari listenziyalovchi organning listenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan, shuningdek listenziyalovchi organ mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

18-modda. Listenziyalarni rasmiylashtirish

Listenziyalar tegishli blanklarda rasmiylashtiriladi. Listenziyalarning blanklari qat'iy hisobot hujjatlari hisoblanadi, ular hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'lishi lozim. Listenziya blanklarining namunalari va ularni tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Listenziya yo'qolgan taqdirda, listenziyatning arizasiga binoan uning dublikati beriladi. Dublikat berishda ushbu Qonunning 15-moddasida nazarda tutilgan yig'im summasining yarmi undiriladi.

19-modda. Listenziya shartnomasi

Listenziya shartnomasi listenziyalovchi organ va listenziyatning o'zaro huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi hujjatdir.

Listenziya shartnomasi quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim: shartnomani imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi;

tarablarning rekvizitlari;

amalga oshirilishi uchun listenziya berilayotgan faoliyat turining nomi;

listenziyatga qo'yiladigan listenziya talablari va shartlari;

Oldingi tahrirga qarang.

cheklangan amal qilish muddatiga beriladigan listenziyalar uchun — listenziyaning amal qilish muddati;

listenziya shartnomasining talablari va shartlarini buzganlik uchun tarablarning javobgarligi;

listenziya shartnomasining talablari va shartlarini listenziyat qanday bajarayotganligining listenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi;

faoliyatning ayrim turini listenziyalash to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa ma'lumot.

Listenziya shartnomasi ikki nusxada — listenziat hamda listenziyalovchi organ uchun bittadan nusxada tuziladi.

20-modda. Listenziyani qayta rasmiylashtirish

Yuridik shaxs bo'lmish listenziat o'zgartirilgan, uning nomi yoki joylashgan eri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, listenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir oy muddatda listenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, listenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Jismoniy shaxs bo'lmish listenziat familiyasi, ismi va otasining ismi yoki turar joyi o'zgargan taqdirda, listenziat qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir oy muddatda listenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, listenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida faoliyatning ayni bir listenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun listenziyaga ega yuridik shaxslar bo'lmish listenziatlar qo'shib yuborilgan taqdirda, listenziyani ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Listenziyaning amal qilishi listenziyalanadigan faoliyat turining bir qismi (qismlari) uchun tugatilgan taqdirda, listenziya qayta rasmiylashtiriladi.

Hujjatlar listenziat tomonidan listenziyalovchi organga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqida xabardor qilingan holda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar listenziatning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Listenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar listenziat unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan listenziya asosida amalga oshiradi.

Listenziya qayta rasmiylashtirilganda listenziyalovchi organ listenziyalar reestriga tegishli o'zgartishlar kiritadi. Listenziyani qayta rasmiylashtirish listenziyalovchi organ listenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi, tegishli hujjatlar ilova qilingan holdagi arizani olgan kundan yoki listenziyaning amal qilishini listenziyalanadigan faoliyat turining bir qismi (qismlari) uchun tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran besh kun ichida amalga oshiriladi.

Listenziya qayta rasmiylashtirilganda listenziya da'vogarining listenziya berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish uchun to'lanadigan

summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi listenziyalovchi organ hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Listenziyalanadigan faoliyatni ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlaridagi talablarni buzgan holda amalga oshirish faoliyat bilan listenziyasiz shug'ullanganlik uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Listenziyani qayta rasmiylashtirish tartibi faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadi.

21-modda. Listenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish

Listenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda listenziyalovchi organlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga egadirlar:

listenziatlar listenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishilgan holda qonunchilikda belgilangan tartibda tekshiruvlar o'tkazish;

listenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilayotganda yuzaga keladigan masalalar bo'yicha listenziatdan zarur ma'lumotlarni talab qilish va olish;

tekshiruv natijalari asosida listenziat yo'l qo'ygan listenziya talablari va shartlarining aniq qoidabuzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

listenziat zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish.

Listenziyalovchi organlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar listenziat tomonidan listenziya talablari va shartlari buzilishlariga yo'l qo'yilganligini aniqlaganlari taqdirda o'z vakolatlari doirasida listenziyani bergan listenziyalovchi organga aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabar qiladilar.

22-modda. Listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish

Listenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin: listenziat listenziya shartnomasida nazarda tutilgan listenziya talablari va shartlarini buzganligi aniqlanganda;

listenziyalovchi organning aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini listenziat zimmasiga yuklovchi qarori listenziat tomonidan bajarilmaganda.

Listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish listenziyalovchi organ yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Listenziyaning amal qilishi listenziyalovchi organ tomonidan o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud tomonidan esa o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turilishi mumkin.

Listenziyalovchi organning listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori listenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi. Listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi sud qarori listenziatga va listenziyalovchi organga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Listenziyalovchi organ yoki sud listenziat listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilashi shart. Bunda listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun sud qarorida belgilangan muddat olti oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Listenziat listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan listenziyalovchi organ yoki sud ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran listenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida uch kun muddat ichida qaror qabul qilishi shart.

Listenziyalovchi organning listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishni asossiz deb topgan taqdirda, listenziyalovchi organ listenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Listenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va tiklash to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida, shuningdek listenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

23-modda. Listenziyaning amal qilishini tugatish

Listenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

listenziat listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik shaxs tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil

etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi, shuningdek yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarda faoliyatning ayni bir listenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun listenziya mavjud bo'lgan taqdirda qo'shib yuborilishi mustasno;

yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda;

yakka tartibdagi tadbirkorning muomalaga layoqatliligi belgilangan tartibda cheklanganda yoki u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

listenziat listenziya shartnomasida nazarda tutilgan listenziya talablarini va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;

listenziat listenziyaning amal qilishini to'xtatib turishiga olib kelgan holatlarni listenziyalovchi organ yoki sud belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

listenziyalovchi organning listenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga xilofligi aniqlanganda;

listenziyaning amal qilish muddati tugaganda.

Listenziyaning amal qilishini tugatish listenziyalovchi organ qaroriga binoan amalga oshiriladi, ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Listenziyaning amal qilishini tugatish ushbu moddaning birinchi qismi oltinchi—sakkizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda sud tartibida amalga oshiriladi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

Listenziyalovchi organning listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori listenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi. Listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi sud qarori listenziatga va listenziyalovchi organga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi. Listenziat listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida listenziya listenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek listenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran listenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Listenziyalovchi organning listenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Sud

listenziyaning amal qilishini tugatishni asossiz deb topgan taqdirda, listenziyalovchi organ listenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

24-modda. Listenziyani bekor qilish

Listenziya quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

ushbu Qonun 16-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan holda;

listenziat listenziyani bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

listenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Listenziyani bekor qilish ushbu moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda sud qaroriga, boshqa hollarda esa, listenziyalovchi organning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Listenziyalovchi organning listenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori listenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi. Listenziyani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori listenziatga va listenziyalovchi organga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi. Listenziat listenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida listenziya listenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Listenziyani bekor qilish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek listenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

Listenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, listenziya u berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi.

Listenziyalovchi organning listenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud listenziyaning bekor qilinishini asossiz deb topgan taqdirda, listenziyalovchi organ listenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi».

25-modda. Listenziyalarning reestrlari

Listenziyalovchi organlar o'zlari listenziyalashni amalga oshirayotgan faoliyatning har bir turi uchun alohida listenziyalar reestrlarini yuritadilar.

Listenziyalar reestrining har birida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

listenziatlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar;

listenziyalar berilgan sana va listenziyalarning tartib raqamlari;

cheklangan amal qilish muddatiga beriladigan listenziyalar uchun —
listenziyalarning amal qilish muddatlari;
listenziyalarni qayta rasmiylashtirish, ularning amal qilishini to'xtatib
turish va qayta tiklash asoslari hamda sanalari;
listenziyalarning amal qilishini tugatish asoslari va sanalari;
listenziyalarni bekor qilish asoslari va sanalari;
faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi nizomlarda
belgilangan boshqa ma'lumotlar.

Listenziyalarning reestrlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar
listenziyalovchi organning veb-saytiga joylashtiriladi va tanishib chiqish
uchun ochiq bo'ladi.

26-modda. Listenziya berganlik uchun davlat boji

Listenziya berganlik va listenziyaning amal qilish muddatini
uzaytirganlik uchun davlat boji undiriladi.

Listenziya berganlik va listenziyaning amal qilish muddatini
uzaytirganlik uchun davlat boji miqdorlari va uni to'lash tartibi qonunda
belgilanadi.

Faoliyatning listenziyalanadigan turining bir qismi uchun listenziya
berganlik va listenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun
davlat boji stavkalarining kamaytirilgan miqdorlari belgilanishi mumkin.

27-modda. Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risidagi qonunchilikni
buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

XI BOB. AHOLINI SIL KASALLIGIDAN MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDA

1-modda. Ushbu Qonunning asosiy vazifalari

Ushbu Qonun sil kasalligining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, sanitariya-gigienaga oid, epidemiyaga qarshi va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishning, shuningdek sil kasalligiga chalingan bemorlarni aniqlash, davolash, dispanser ko'rigidan o'tkazish va reabilitatsiya qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

BCG — Kalmett-Geren bastillasi: sil kasalligi mikrobining vakstina sifatida qo'llaniladigan kuchsizlantirilgan shtammi (ko'rinishi);

vakstinatsiya — sil kasalligining oldini olish maqsadida chaqaloqlarda faol immunitet hosil qilish usuli;

revakstinatsiya — kasal yuqtirmaslik bobidagi yo'qolgan xususiyatni tiklash yoki sil kasalligiga nisbatan yanada kuchliroq darajada immunitet hosil qilish uchun odam yoki hayvon organizmiga takroriy ravishda vakstina kiritish;

sil kasalligi — sil mikobakteriyalari qo'zg'atadigan yuqumli kasallik;

sil kasalligining yuqumli shakllari — sil kasalligining sil mikobakteriyalarini chiqarib turadigan faol shakllari;

sil kasalligiga ko'ra noqulay bo'lgan chorvachilik obyekti — hayvonlarning sil kasalligiga chalinish holati mavjud bo'lgan obyekt;

sil mikobakteriyalari (mikroorganizmlar) — sil kasalligini qo'zg'atuvchilar;

tuberkulin yordamida tashxis qo'yish — kasallikni aniqlash uchun odam va hayvonlarni tuberkulin yordamida tekshirish usuli.

3-modda. Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

4-modda. Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

sil kasalligi tarqalishining oldini olishga doir profilaktika choratadbirlarini amalga oshirishning izchilligi va doimiyligi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, mamlakatimizda doimiy yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga sil kasalligiga qarshi bepul yordam ko'rsatish.

5-modda. Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishni ta'minlash

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish profilaktika tadbirlari, tibbiy ko'riklar o'tkazish va aholini sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarida, shuningdek davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqa muassasalarida sil kasalligidan davolash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda majburiy tarzda BCG bilan chaqaloqlarni vakstinastiya va bolalami revakstinastiya qilish hamda tuberkulin yordamida tashxis qo'yish amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud atrofdagilarga sil kasalligini yuqtirish xavfi mavjud bo'lgan shaxslarning bajarishi ijozat etilmaydigan ishlar ro'yxatini qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlaydi. Ro'yxatda ko'rsatilgan ishlarni bajarishi ijozat etilgan shaxslarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish ularni albatta bakterioskopik tekshiruvdan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan davriylikda rentgen-flyuorografiya tekshiruvidan o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Sil kasalligining yuqumli shakllariga chalingan bemorlarning yotoqxonalariga ko'chib kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sil kasalligiga chalingan bemorlarning yashash, ish, o'qish joylarida (epidemiya o'choqlarida) epidemiyaga qarshi va sog'lomlashtirish tadbirlari qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

6-modda. Sil kasalligiga chalingan shaxslarni hisobga olish

Tibbiyot muassasalari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasining, Davlat bojxona qo'mitasining tibbiy xizmatlari tibbiy ko'rik natijasida sil kasalligi borligi aniqlangan shaxslar haqida ularning turar joylaridagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarini xabardor qilishlari shart.

Sil kasalligiga chalingan shaxslar turar joylaridagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasida hisobga olinadi.

7-modda. Tergov hibsonalarida va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarni sil kasalligidan muhofaza qilish

Tergov hibsonalarida va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar sil kasalligining oldini olish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi shart.

Tergov hibsonalarida va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar sil kasalligiga chalingan hollarda ularga zarur tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Tergov hibsonalarida va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, sil kasalligining yuqumli shakllariga chalingan shaxslar ajratib qo'yiladi va davolash uchun ixtisoslashtirilgan sil kasalligiga qarshi kurash muassasalariga qonunchilikda belgilangan tartibda yotqiziladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tibbiy xizmati xodimlari tergov hibsonalarida yoki jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning turar joylaridagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarini quyidagilardan xabardor qilishlari shart:

mazkur shaxslar sil kasalligiga chalinganligi ilk bor aniqlangan har bir holat haqida;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinayotgan, sil kasalligiga chalingan bemorlar haqida;

mazkur shaxslarning sil kasalligidan vafot etganligi holatlari haqida.

Jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyati ozod qilinish to'g'risidagi ma'lumotnomalarda jazoni o'tab bo'lgan shaxslarda sil kasalligi bor-yo'qligi haqida belgi qo'yishi shart.

Ichki ishlar organlari:

jazoni ijro etish muassasasidan kelgan, sil kasalligiga chalingan bemor shaxsning pasportini yoki boshqa hujjatini rasmiylashtirish paytida sil kasalligiga qarshi kurash muassasasini u xizmat ko'rsatayotgan hududga sil kasalligiga chalingan bemor kelganligi haqida xabardor qiladi va uning yashash manzilini ko'rsatadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan kelgan, sil kasalligiga chalingan bemorlar sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarida hisobga olinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

8-modda. Aholini sil kasalligidan muhofaza qilishga doir veterinariya-sanitariya tadbirlari

Veterinariya xizmatlari aholini sil kasalligidan muhofaza qilish maqsadida hayvonlarni O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi belgilagan tartib va muddatlarda majburiy tarzda tuberkulin yordamida tashxis qo'yishdan o'tkazadi.

Sil kasalligiga chalingan va sog'lom hayvonlarni birga saqlash, shuningdek sil kasalligiga ko'ra noqulay bo'lgan chorvachilik obyektlaridagi hayvonlar va chorvachilik mahsulotlarini erkin realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Sil kasalligiga ko'ra noqulay bo'lgan chorvachilik obyektlaridagi hayvonlar belgilangan tartibda faqat go'sht kombinatlarida va kushxonalarda so'yiladi.

Sil kasalligidan o'lgan hayvonlarni, shuningdek ularning zararlangan a'zolari, to'qimalari va tanalarini o'tilizatsiya qilish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya, veterinariya xizmatlari muassasalari hamda sil kasalligiga qarshi kurash muassasalari odamlar va hayvonlarning sil kasalligiga chalinish hollari to'g'risida o'zaro xabar berib turilishini ta'minlaydilar.

9-modda. Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatish

Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatish sil kasalligining oldini olishga, unga barvaqt tashxis qo'yish, uni vaqtida va malakali davolashga qaratilgan maxsus profilaktika, sanitariya-epidemiologiya va veterinariya tadbirlari o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam fuqarolar ixtiyoriy ravishda murojaat qilganda, ularning o'z roziligiga ko'ra yoxud qonuniy vakillarining roziligi bilan ko'rsatiladi.

Davlat organlari aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatish uchun: sil kasalligiga qarshi ambulatoriya, stasionar va sanatoriy yordami ko'rsatuvchi muassasalarni tashkil etadi;

sil kasalligiga chalingan bolalarni sil kasalligiga qarshi kurashuvchi stasionar va sanatoriy muassasalarida o'qitish uchun sharoitlar yaratadi;

sil kasalligiga chalingan shaxslarning mehnat terapiyasini tashkil etish hamda ularni yangi kasblarga o'rgatish uchun sil kasalligiga qarshi kurash muassasalarida davolash-mehnat ustaxonalarini barpo etadi;

sil kasalligiga chalingan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida boshqa chora-tadbirlarni ko'radi.

10-modda. Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish

Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sil kasalligiga qarshi kurash muassasalariga ega bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

11-modda. Sil kasalligiga chalingan shaxslarning huquqlari

Sil kasalligiga chalingan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

o'zlariga nisbatan muruvvatli va insoniy muomala qilinishi;

o'z huquqlari to'g'risida hamda chalingan kasalliklarining xususiyati va qo'llanilayotgan davolash usullari haqida ma'lumot olish;

sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatishning barcha turlarini, shu jumladan ambulatoriya va stasionar sharoitlarida maslahat-tashxis qo'yish, davolash va rehabilitasiya yordamini, sil kasalligi bilan bog'liq barcha ekspertiza turlarini, sanitariya-profilaktika yordamini olish;

ixtisoslashtirilgan sanatoriylarda davolanish;

ijtimoiy-maishiy yordam olish;

ishga joylashishda ko'mak olish;

o'qish va qayta ta'lim olish.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda davolanayotgan shaxslar mazkur moddada nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi, shu jumladan biror-bir cheklovlarsiz xatlar yozish va olishga, posilkalar, banderollar va pul jo'natmalari olishga, telefondan foydalanishga, eng zarur narsalarga ega bo'lish va ularni olishga, o'z kiyim-boshidan foydalanishga haqli.

Sil kasalligiga chalinish oqibatida mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotgan shaxslarning ish joyi, egallab turgan lavozimi belgilangan tartibda ularda saqlanib turadi hamda ularga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lanadi.

Yotoqxonalarda, shuningdek aniq maqsadli kommunal uy-joy fondining turar joylarida yashovchi shaxslarda sil kasalligining yuqumli shakllari aniqlangan taqdirda, ularga qonunchilikda belgilangan tartibda alohida uy-joy maydoni beriladi.

Sil kasalligiga chalingan shaxslarning bolalari ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, maktablar, internatlar va sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalariga navbatdan tashqari qabul qilinish huquqidan foydalanadilar.

Sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi yoki sanatoriysida davolanayotgan bolalarga umumiy o'rta ta'lim dasturi bo'yicha o'qish imkoniyati yaratiladi.

Sil kasalligiga chalingan va shu tufayli nogiron deb topilgan bolalarning ota-onalari (qonuniy vakillari) sil kasalligiga qarshi kurash muassasasida bolalari bilan birga bo'lish huquqiga egadirlar.

Sil kasalligiga chalingan bemorlar va ularni kuzatib boruvchi shaxslar sil kasalligiga qarshi kurash sanatoriysiga borib kelishda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan yiliga bir marta tyokin yurish huquqiga ega. Sil kasalligiga qarshi kurash muassasalariga maslahat olish va davolanish uchun chaqirilayotgan yoki yuborilayotgan, sil kasalligiga chalingan bemorlar mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan tyokin yurish (borib kelish) huquqiga ega.

12-modda. Sil kasalligiga chalingan shaxslarning majburiyatlari

Sil kasalligiga chalingan bemorlar:

jamoat joylarida, ish, o'qish joyida, jamoat transportidan foydalanishda, shuningdek yashash joylarida shu toifadagi bemorlar uchun belgilangan sanitariya normalari va qoidalariga rioya etishga;

tibbiyot xodimining davolanish rejimiga, kundalik turmush va ishdagi yurish-turishiga doir tavsiyalarini bajarishga;

tibbiyot xodimining chaqiruviga muvofiq sil kasalligiga qarshi kurash muassasasiga kelishga;

turar joyi o'zgargan taqdirda o'n kunlik muddat ichida yangi joydagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasida hisobga turishga majburdirlar.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan va shifokor belgilagan davolanishdan bo'yin tovlayotgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

12-modda. Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo'yin tovlayotgan shaxsni davolash

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, dispanser hisobida turgan hamda tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo'yin tovlayotgan shaxs sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga sudning hal qiluv qarori asosida g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizilishi kerak.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan

bo'yin tovlayotgan mazkur shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish zarurligi haqidagi xulosasi qabul qilingan kundan e'tiboran bir sutka ichida beriladi. Ariza sudga shaxs dispanser hisobida turgan yoki davolanayotgan yoxud uning yashash (turgan) joyidagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi tomonidan beriladi.

12-modda. Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda davolanishda bo'lishi muddatlari
Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda davolanishda bo'lishining davomiylik muddati olti oygacha etib belgilanadi.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda turgan shaxs o'zining mazkur muassasadan chiqarilishi yoki ushbu muassasada yotishi muddati uzaytirilishi masalasi hal etilishi uchun o'zidan sil mikobakteriyalari ajralib chiqishi nuqtai nazaridan har oyda kamida bir marta belgilangan tartibda tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining shaxs davolanishda bo'lgan muassasada yotishi muddatini uzaytirish zarurligi haqidagi xulosasi asosida sudga beriladi.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda davolanishda bo'lishi muddati ushbu muassasa tibbiy komissiyasining xulosasi asosida sud tomonidan olti oygacha uzaytirilishi mumkin.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda davolanishda bo'lgan shaxs mazkur muassasadan quyidagilar asosida chiqarilishi kerak:

o'zidan sil mikobakteriyalari ajralib chiqishi barqaror ravishda tugagan taqdirda sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi tibbiy komissiyasining xulosasi;

sudning sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga

g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish muddatini uzaytirishni rad etish to'g'risidagi hal qiluv qarori.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limida g'ayriixtiyoriy tartibda davolanishda bo'lgan shaxs mazkur muassasadan chiqarilganidan keyin yashash joyida dispanser kuzatuvda bo'lish va davolanishni davom ettirish uchun yuboriladi.

12-modda. Sudning sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi hal qiluv qarorini ijro etish

Sudning sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi hal qiluv qarorini ijro etish qonunchilikda belgilangan tartibda ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

13-modda. Sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatishda ishtirok etayotgan xodimlar uchun kafolatlar va imtiyozlar

Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatishda ishtirok etayotgan tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar mehnat sharoiti noqulay va o'ziga xos ishlarda band bo'lgan shaxslar jumlasiga kiritiladi va ularga qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlarga ular xizmat vazifalarini bajarish chog'ida sil kasalligi yuqsa, bu — kasbiy kasalliklar toifasiga kiritiladi.

14-modda. Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatishni moliyalashtirish

Aholiga sil kasalligiga qarshi yordam ko'rsatish bilan bog'liq harajatlarni moliyalashtirish byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari manbalar va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

15-modda. Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikning buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

**XII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
QON VA UNING TARKIBIY QISMLARI DONORLIGI
TO'G'RISIDA**

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

donor — o'z qoni va uning tarkibiy qismlaridan bir qismini tibbiyot ehtiyojlari uchun ixtiyoriy ravishda beruvchi jismoniy shaxs;

donor qoni banki — qon bilan ishlash xizmati tomonidan vujudga keltiriladigan va yangilab boriladigan, uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan donor qoni tarkibiy qismlarining zaxiralari;

donor qoni preparatlari — donor qoni tarkibiy qismlarini qayta ishlashda olingan davolash vositalari;

donor qoni tarkibiy qismlari — qonning qon plazmasi va hujayralari shaklidagi tarkibiy qismlari.

3-modda. Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchilik

Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

4-modda. Qon va uning tarkibiy qismlari donorligining asosiy prinsiplari

Qon va uning tarkibiy qismlari donorligining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning ixtiyoriyligi;

qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning inson uchun bezararligi;

donor qoni va uning tarkibiy qismlarini ishlatish xavfsizligi.

5-modda. Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning ixtiyoriyligi

Qon va uning tarkibiy qismlarini tibbiyot ehtiyojlari uchun topshirish donor tomonidan ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

Shaxsni qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishga biron-bir tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

6-modda. Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning inson uchun bezararliligini ta'minlash

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning inson uchun bezararliligi qon bilan ishlash xizmati tomonidan donor bo'lishga rozilik bildirgan shaxsni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, qon va uning tarkibiy qismlarini olishda tibbiyot xodimlarining sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etishi, shuningdek qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishning davriyligi va hajmiga rioya etilishi orqali ta'minlanadi.

7-modda. Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini ishlatish xavfsizligini ta'minlash

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini ishlatish xavfsizligini ta'minlash sog'liqni saqlash tizimi davolash-profilaktika muassasalarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari donor qoni va uning tarkibiy qismlari sifati hamda xavfsizligini kafolatlovchi belgilangan standartlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishlari shart.

8-modda. Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish shartlari

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish bepul va pulli asosda amalga oshirilishi mumkin.

Donor qonining tarkibiy qismlarini keyinchalik, zarurat bo'lganda, donorning o'ziga ishlatilishini ko'zlab topshirish (autodonorlik) qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9-modda. Tibbiy ko'rikdan o'tkazish

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish yoshi o'n sakkizga to'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tkazilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish oldidan shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda ularning salomatligi to'g'risida hujjat berish bepul amalga oshiriladi.

10-modda. Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va ishlatish

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash va saqlashni qon bilan ishlash xizmati amalga oshiradi.

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini ishlatish sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalarida amalga oshiriladi.

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash hamda ishlatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash va qayta ishlashni xususiy tartibda amalga oshirish taqiqlanadi.

11-modda. Donor qoni va uning tarkibiy qismlariga bo'lgan ehtiyojlar

Donor qoni va uning tarkibiy qismlariga, shuningdek donor qoni preparatlariga bo'lgan ehtiyojlar, donor qoni bankini vujudga keltirish va yangilab borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

12-modda. Qon bilan ishlash xizmati

Qon bilan ishlash xizmati davlat sog'liqni saqlash tizimining donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari majmuidan iborat.

Qon bilan ishlash xizmati faoliyatini muvofiqlashtirib borish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

13-modda. Qon bilan ishlash xizmati vakolatlari

Qon bilan ishlash xizmati qon va uning tarkibiy qismlari donorligini tashkil etishni quyidagi yo'llar bilan amalga oshiradi:

donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash;

aholini qon va uning tarkibiy qismlarini ixtiyoriy ravishda topshirishga jalb etish;

donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini ishlatish xavfsizligi sharoitlarini ta'minlash;

donor qoni va uning tarkibiy qismlari, shuningdek donor qoni preparatlarining tashilishini tashkil etish;

donor qoni bankini vujudga keltirish va yangilab borish.

Qon bilan ishlash xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida:

qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchilik ijro etilishini ta'minlaydilar;

o'z hududlarida qon va uning tarkibiy qismlari donorligini tashkil etadilar;

qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirishga mahalliy byudjetdan mablag'lar ajratadilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasida qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

15-modda. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi majburiyatlari

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ma'muriyati, harbiy qism komandirlari (boshliqlari):

shaxslarni donorlar safiga jalb qilishda qon bilan ishlash xizmatiga ko'maklashadilar;

tibbiy ko'rikdan o'tadigan kuni va qon topshiradigan kuni donorni uning murojaatiga binoan ish, xizmat yoki o'qish joyidan sog'liqni saqlash muassasalariga borishiga moneliksiz ruxsat beradilar, donorning shu kunlari ish yoki xizmat joyida bo'lmasligi odamlar hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'dirishiga, davlat mudofaasi, xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar bajarilmasligiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno; qon topshirish tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan binolarni berib turadilar;

donorga qonunchilikda belgilangan kafolatlarni beradilar hamda rag'batlantirish choralarini qo'llaydilar.

16-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirishdagi ishtiroki

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholini qon va uning tarkibiy qismlari bepul donorligiga jalb qilishda, donorga turli shakldagi rag'batlantirishlar belgilashda, ommaviy axborot vositalari orqali aholining keng xabardor qilinishini tashkil etishda hamda qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirishga doir boshqa tadbirlarda ishtirok etishlari mumkin.

Aholini qon va uning tarkibiy qismlari bepul donorligiga jalb etish maqsadida qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirish jamoat fondlari tashkil etilishi mumkin, bunday fondlarni tashkil etish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

17-modda. Donorning huquqlari

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish chog'ida donor qonunchilikda belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

sog'lig'i saqlanishi kafolatining tibbiyot xodimlari tomonidan ta'minlanishi;

sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'ni qoplanishi;
bepul ovqat bilan ta'minlanish.

Donor qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18-modda. Donor bo'lishga rozilik bildirgan shaxsning majburiyatlari

Donor bo'lishga rozilik bildirgan shaxs tibbiy ko'rikdan o'tish paytida o'zi bilgan ilgarigi va hozirgi kasalliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum qilishi shart.

19-modda. Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish tartibi

Qon topshirish davriyligi bir martalik qon olish besh yuz millilitrdan, shuningdek laboratoriya tekshiruvlari uchun qirq millilitrdan ortiq bo'lmagan normada yiliga besh marotabadan oshmasligi kerak.

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

20-modda. Donorga beriladigan kafolatlar va kompensastiyalar

Qon va uning tarkibiy qismlarini topshiradigan kuni, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tadigan kuni donor ana shu kunlar uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining o'quvchilari, oliy o'quv yurtlarining talabalari, ta'lim oluvchilarning boshqa toifalari qon va uning tarkibiy qismlarini topshiradigan kuni, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tadigan kuni mashg'ulotlardan, harbiy xizmatchilar esa naryadlarni bajarishdan, xizmatni o'tashning vaxta va boshqa shakllaridan ozod qilinadilar.

Donorga har safar qon va uning tarkibiy qismlarini topshirgan kunning bevosita ertasiga dam olish uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bir kun beriladi. Donorning xohishiga ko'ra mazkur dam olish kuni har yilgi mehnat ta'tiliga qo'shib berilishi mumkin.

21-modda. Donorni rag'batlantirish

Qon va uning tarkibiy qismlarini muntazam ravishda hamda bepul topshiruvchi donor «O'zbekiston Respublikasi faxriy donori» («Почетный донор Республики Узбекистан») ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi va bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida bir yo'la beriladigan pul mukofoti oladi.

«O'zbekiston Respublikasi faxriy donori» («Почетный донор Республики Узбекистан») ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Donor qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham rag'batlantirilishi mumkin.

22-modda. Qon bilan ishlash xizmati tibbiyot xodimlarini ijtimoiy himoyalash

Qon bilan ishlash xizmatining qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish, ularni to'plash, tayyorlash, qayta ishlash va saqlash jarayonida qon bilan aloqada bo'luvchi tibbiyot xodimlariga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar beriladi.

23-modda. Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini olib kirish va olib chiqish

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

24-modda. Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini tashish

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini tashish tegishli transport turlarida ayrim toifadagi maxsus yuklarni tashish bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini, shuningdek donor qoni preparatlarini tashish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

25-modda. Favqulodda vaziyatlarda qon va uning tarkibiy qismlari donorligini tashkil etish

O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy ofatlar, avariya va falokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar ro'y bergan hollarda va boshqa favqulodda vaziyatlarda qon va uning tarkibiy qismlari donorligini tashkil etish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

26-modda. Qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirish tadbirlarini moliyalashtirish

Qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirish tadbirlarini moliyalashtirish Davlat byudjeti mablag'lari va qonunchilikda man etilmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

27-modda. Nizolarni hal etish

Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

28-modda. Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risidagi qonunchilikni
buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.
O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV
Toshkent sh., 2002 yil 30 avgust, 402-II-son

XIII. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIBBIYOT XODIMLARI KUNINI BELGILASH TO‘G‘RISIDA

1-modda. Noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kuni etib belgilansin.

2-modda. Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV Toshkent sh., 2006 yil 12 sentyabr, O‘RQ-47-son

YOD YETISHMASLIGI KASALLIKLARI PROFILAKTIKASI TO‘G‘RISIDA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

yod yetishmasligi kasalliklari — organizmda yodning yetishmasligi oqibatida qalqonsimon bez kasalliklari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan kasalliklar;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi — yod yetishmasligi kasalliklarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi;

yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari — ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari;

yodlangan tuz — ishlab chiqarish jarayonida yod bilan boyitilgan osh tuzi.

2-bob. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi

4-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati yod yetishmasligi kasalliklari kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, quyidagilar orqali ro'yobga chiqariladi:

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish;

iste'mol bozorini yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

bolalarni va tug'ish yoshidagi ayollarni tarkibida yod bo'lgan preparatlar bilan profilaktik ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish;

yodlangan tuz, yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari va yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi hamda ularni davolash uchun foydalaniladigan dori vositalari va preparatlarni ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari ishlab chiqarish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir tadbirlar samaradorligining monitoringi;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida hisobga olishning axborot-tahlil va statistik tizimlarini takomillashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslarining mablag'larini yod yetishmasligi kasalliklari muammolariga, mazkur kasalliklarning profilaktikasi hamda davolash usullariga jalb etish;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

5-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvi

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi,

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvi: profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari o'tkazishni, yod yetishmasligi kasalliklariga tashxis qo'yish va ularni davolashni tashkil etishni;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi va ularni davolash uchun dori vositalari hamda preparatlarni, yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish hamda sertifikatlashtirishni; tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlashni davlat tomonidan normalashtirishni;

davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borishni;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ularning muomalasi ustidan davlat nazoratini o'z ichiga oladi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini:

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi organlarining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi masalalariga doir faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi; qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik talablarining bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarini ro'yobga chiqaradi;

tuzni va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash bo'yicha sanitariya-epidemiologiya talablarini belgilaydi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, ishlab chiqarilishi, saqlanishi, olib kirilishi hamda realizatsiya qilinishi monitoringini olib boradi;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etadi;

aholi o'rtasida yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boradi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

8-modda. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi:

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlashga taalluqli davlat standartlarini tasdiqlaydi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi hududiy dasturlarning ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

tegishli davlat organlarining aholini yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan o'z vakolatlari doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3-bob. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir chora-tadbirlar

10-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi turlari

Inson organizmining yodga bo'lgan zaruriy ehtiyojini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida yod yetishmasligi kasalliklarining ommaviy va yakka tartibdagi profilaktikasi amalga oshiriladi.

11-modda. Yod yetishmasligi kasalliklarining ommaviy profilaktikasi

Yod yetishmasligi kasalliklarining ommaviy profilaktikasi oziq-ovqatga yodlangan tuz ishlatish va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish orqali amalga oshiriladi.

12-modda. Yod yetishmasligi kasalliklarining yakka tartibdagi profilaktikasi

Yod yetishmasligi kasalliklarining yakka tartibdagi profilaktikasi profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari, tibbiy ko'riklar o'tkazish, tashxis qo'yish va davolash orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi yod yetishmasligi kasalliklarining yakka tartibdagi profilaktikasini ta'minlash maqsadida profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari, tibbiy ko'riklar o'tkazish, yod yetishmasligi kasalliklariga tashxis qo'yish va ularni davolash tartibini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.

13-modda. Aholini yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi masalalariga doir axborot bilan ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari aholiga yod yetishmasligi kasalliklarining kelib chiqishi va tarqalishi omillari, bunday kasalliklarning profilaktikasiga doir choralar to'g'risida ishonchli va o'z vaqtida axborot berilishini ta'minlaydi.

14-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir tadbirlarni moliyalashtirish

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasiga doir tadbirlarni moliyalashtirish byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lar va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

4-bob. Yodlangan tuzga va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar

15-modda. Tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va realizastiya qilinadigan osh tuzi albatta yodlanishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

16-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligiga doir talablar

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari davlat standartlari, qoidalari hamda normalari talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan,

tarkibida yod bo'lgan preparatlardan foydalaniladi. Tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlash, yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan davlat nazorati qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

17-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish davlat standartlari, qoidalari hamda normalari talablariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan yaroqlilik muddati o'tgan yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari o'tilizastiya qilinishi, sanoat yo'li bilan qayta ishlanishi yoki qayta yodlanishi kerak.

18-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

19-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, o'rash va tamg'alash

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari qadoqlangan, o'ralgan hamda tamg'alangan holda ishlab chiqarilishi kerak.

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, o'rash hamda tamg'alashga nisbatan qonunchilikda oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, o'rash va tamg'alash borasida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

20-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini realizastiya qilish

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini realizastiya qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar ularni tashish, saqlash hamda realizastiya qilishni qonunchilikda belgilangan qoidalar va normalarga rioya etgan holda amalga oshirishlari shart.

Muvofiqlik sertifikati bo'lmagan va yaroqlilik muddati o'tgan yodlangan tuz hamda yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini realizastiya qilish taqiqlanadi.

21-modda. Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini olib kirish shartlari

Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari O'zbekiston Respublikasi hududiga faqat o'ralgan tarzda hamda qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga rioya etilgan holda olib kirilishi mumkin.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

22-modda. Nizolarni hal etish

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

23-modda. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

24-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

25-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

XIV BOB. BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO'G'RISIDA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik

Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bola (bolalar) — o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga etgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

bolaning qonuniy vakillari — ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

vasiylik va homiylik — ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan, homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi;

yetim bola — otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola — nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar — yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan:

nogiron bolalar;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar;

yetim bolalar;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;

muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar;

kam ta'minlangan oilalardagi bolalar;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;

zo'rvonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

nogiron bola — jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola;

ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar — qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lyokin bolaning ota-onasi bo'lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar);

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola — har qanday sababga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola, bundan yetim bola mustasno.

4-modda. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.

5-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha vakolatlari

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z vazifalari doirasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni ijro etish;
bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash
bo'yicha davlat dasturlari hamda hududiy dasturlarni ishlab chiqish va
ro'yobga chiqarish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar
muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini ro'yobga
chiqarishga doir tadbirlarni belgilangan tartibda O'zbekiston
Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonunchilikda
taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

davlatga qarashli bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini
mustahkamlash va nodavlat bolalar muassasalarini rivojlantirishga
ko'maklashish chora-tadbirlarini ko'rish;

bola huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan O'zbekiston
Respublikasining xalqaro majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish
hamda xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining
manfaatlarini ifodalash;

axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal
etish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq
boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini
ta'minlash, davlat organlari va boshqa organlarning, tashkilotlarning
bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish
maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda bola huquqlari bo'yicha
vakolatli organ tashkil etilishi mumkin.

**6-modda. Bola huquqlarini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi
boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining
ishtiroki**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat
tashkilotlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy
manfaatlarini ro'yobga chiqarishda va himoya qilishda ko'maklashadi,
bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va
boshqa yordam ko'rsatadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat
tashkilotlari:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro'yobga chiqarishda ishtirok etishi;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin.

2-bob. Bola huquqlarining asosiy kafolatlari

7-modda. Bola huquqlarining qonuniy kafolatlari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi.

Davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi.

Bola huquqlari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

8-modda. Bolaning yashash huquqi kafolatlari

Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

9-modda. Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega.

10-modda. Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanih huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir to'atilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan,

qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Davlat:

bolaga nisbatan ekspluatasiya va zo'ravonlikning barcha shakllarining oldini olish, shuningdek ularning sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

ekspluatasiya va zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalarga zarur pedagogik, psixologik, tibbiy, yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha choralar ko'radi.

11-modda. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga etguncha qonunga muvofiq to'la muomalaga layoqatli deb e'tirof etilgan (emansipatsiya) bola o'z huquqlarini, shu jumladan himoyaga bo'lgan huquqini mustaqil amalga oshirishga hamda majburiyatlarini mustaqil bajarishga haqlidir.

Bola ota-ona va ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalani huquqiga ega.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli. Bunday murojaatlarni bola to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganidan, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan

shaxslar bu haqda bola haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishlari shart. Shunday ma'lumotlar olingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi bolaning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rishi shart.

11¹-modda. Jinoyat prostessining ishtirokchisi bo'lgan bola huquqlarini himoya qilish kafolatlari

Davlat sudga qadar ish yuritishning va sud muhokamasining barcha bosqichlarida bolalarning qonunchilikda belgilangan barcha prostessual huquqlariga rioya etilishi hamda bu huquqlar kafolatlarining ta'minlanishi bo'yicha choralar ko'radi.

Bolaga har qanday ruhiy yoki jismoniy ta'sir o'tkazish, uni ko'rsatmalar berishga yoki aybini tan olishga majburlash taqiqlanadi.

Sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi jarayonida bolalarga nisbatan ular qonuniy vakillarining ishtirokisiz amalga oshiriladigan prostessual harakatlarni bajarish taqiqlanadi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda voyaga etmagan shaxsga nisbatan prostessual harakatlar uning katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki ushbu shaxsning boshqa qonuniy vakili ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Voyaga etmagan shaxsning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudga qadar ish yuritishning va sud muhokamasining barcha bosqichlarida himoyachining ishtirok etishi shart. Bolaning va uning qonuniy vakillarining himoyachidan voz kechishi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Qonunchilikda jinoyat prostessining ishtirokchilari bo'lgan bolalar uchun boshqa kafolatlar ham nazarda to'tilishi mumkin.

12-modda. Bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Davlat bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi.

13-modda. Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota va onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Ekstremal vaziyatlarga (ushlab turish, hibsga olish, qamoqqa olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) tushib qolgan bola o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rishish huquqiga ega.

14-modda. Bolaning g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalanih huquqi kafolatlari

Har bir bola g'ayriqonuniy ko'chirilishdan va chet eldan qaytarilmaslikdan himoyalanih huquqiga ega.

Bolaning chet elga safarlari faqat ota va onaning yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Ushbu masala bo'yicha ota va ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi har qanday kelishmovchilik sud tomonidan hal qilinadi.

Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaning yo'qolganligi haqida tegishli organlarga darhol xabar berishlari shart.

Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar hamrohligida bo'lmagan bolalar ularning yoniga kafolatli qaytarilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini chet elda qonuniy vakillari hamrohligisiz turgan bolalarning — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi va ularning qaytarilishi bo'yicha choralar ko'radi. Ota-onasi bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki ular vafot etgan deb e'lon qilingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi ana shu bolalarni oilaga, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa yetim bolalar yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalarga joylashtirish choralarini ko'radi.

Qonuniy vakillari hamrohligisiz chet elda turgan bolalarni qaytarish masalalari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq davlat ijro etish maqsadlari, shakllari va usullaridan qat'i nazar, bolalarni g'ayriqonuniy ko'chirishning oldini olish, shuningdek ularni doimiy yashaydigan mamlakatiga qaytarish choralarini ko'radi.

15-modda. Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari

Oilada har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda etishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama jarayonida so'zlashga haqlidir. Bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat'i nazar, ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerak.

16-modda. Bolaning axborot olish huquqi kafolatlari

Har bir bola o'zining sog'lig'i, axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqiga ega.

Har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno.

Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanadi.

17-modda. Bolaning fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi kafolatlari

Bola fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Bolaning fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin.

18-modda. Bolaning xususiy mulkka bo'lgan huquqi kafolatlari

Bola qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk huquqiga ega bo'lishi mumkin.

Bolaning shaxsiy foydalanishida bo'lgan, bola tomonidan hadya, meros tariqasida olingan, shaxsiy mehnati evaziga yoki boshqa qonuniy usulda olingan buyumlar, mol-mulk.uning xususiy mulkidir.

19-modda. Bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari

Har bir bola turar joyli bo'lish huquqiga ega. Mazkur huquq qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Turar joy mulkdorining yoki turar joyni ijaraga oluvchining oila a'zolari bo'lgan bolalar ular qaerda bo'lishlaridan qat'i nazar, turar joy mulkdori yoki turar joyni ijaraga oluvchisi egallab turgan turar joyga nisbatan huquqqa ega bo'ladi.

Tarbiya, davolash muassasalari va boshqa muassasalarda, qarindoshlari, vasiylari yoki homiylari qaramog'ida bo'lgan yetim bolalar, otanasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Vasiylik yoki homiylik belgilangan bolaning mulkida yoki foydalanishida bo'lgan turar joyni o'zga shaxsga o'tkazish uchun vasiylik yoki homiylik organining roziligi talab qilinadi.

20-modda. Bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi.

Bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun — ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Davlat o'n sakkiz yoshga to'lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta'lim bilan qo'shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta'minlanishini kafolatlaydi.

21-modda. Bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqqa ega.

Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga muvofiq bolaning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun zarur turmush sharoitini ta'minlaydi.

Bolalar sog'lomlashtirish, sport, ijodiy tashkilotlari hamda dam olishni va bo'sh vaqtni uyushtiruvchi boshqa tashkilotlar qonunchilikka muvofiq davlat organlari tomonidan ta'sis etiladi va qo'llab-quvvatlanadi.

22-modda. Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari

Har bir bola sog'lig'ini saqlash huquqiga ega.

Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonunchilikka muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil qilish;

bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasi;

bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;

talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;

bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;

kasbga yaroqlilikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;

sanitariya-gigiena ta'limi berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va rag'batlantirish;

sog'lig'ining holati to'g'risida bola uchun qulay bo'lgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

O'n to'rt yoshdan katta yoshdagi bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar o'tkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chiyokishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarni ko'radi.

23-modda. Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari

Har bir bola bilim olish huquqiga ega.

Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim olishini kafolatlaydi.

3-bob. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari

24-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oila muhitiga bo'lgan huquqi kafolatlari

Davlat bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni bartaraf qilish, bola oilasidan ajratilgan hollarda esa uni oilasiga tezroq qaytarish bo'yicha zarur choralarni ko'radi.

Davlat nogiron bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi hamda ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola to'g'risida g'amxo'rlik qilishda imtiyozli huquq bu vazifani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi.

Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi choradir.

Oilada tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ularga zarur g'amxo'rlikni hamda qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan muqobil shaklda joylashtirish huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari quyidagilardir:

vasiylik va homiylikni belgilash;

bolani farzandlikka olish;

oilaga tarbiyaga olish (patronat);

ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, ijtimoiy himoya muassasalariga joylashtirish.

Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning boshqa shakllari ham nazarda to'tilishi mumkin.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

25-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashish huquqi kafolatlari

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egadir.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ular oilalarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik shartlari asosida dasturlar ishlab chiqish tashabbuskori bo'ladi hamda zarur resurslar ajratadi.

Ta'lim, tibbiyot va madaniy-ma'rifiy muassasalar nogiron bolalar hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning erkin harakatlanishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni reabilitasiya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni tashkil etadi hamda bunga ko'maklashadi.

Nogironlik belgilangan paytdan boshlab bola tegishli davlat organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturidan foydalanish huquqiga ega.

26-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, to'liq davlat ta'minotida turgan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini bitirgan yoki jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan bolalar, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifadagi bolalar o'zlari ilgari yashagan turar joy maydoniga ega bo'lish yoki qonunchilikka muvofiq turar joy olish huquqiga ega.

27-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Ijtimoiy yordam uni olish huquqiga ega bo'lgan har bir bolaga tayinlanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish miqdori, shartlari va tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Davlat organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qat'i nazar, moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan homiylik dasturlarini qonunchilikka muvofiq rag'batlantiradi.

27-modda. To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarining kafolatlari

Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga, o'rta maxsus, ta'lim muassasalariga tarbiyaga berilgan kundan e'tiboran to'liq davlat ta'minotida bo'ladi.

To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'lim berish, ularni uy-joy, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy ta'minot buyumlari bilan ta'minlash, ular ta'lim muassasalarini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy ta'minot buyumlari sotib olish uchun nafaqa to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28-modda. Nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Nogiron bolalar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega bo'lib, bu profilaktika, davolash-tashxis qo'yish, reabilitasiya, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordamini, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli shartlarda ta'minlanishni va boshqa yordam turlarini o'z ichiga oladi.

Nogiron bolalar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish va o'z uylarida parvarish qilinish huquqiga ega.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibi, ularga beriladigan imtiyozlar ro'yxati qonunchilik bilan belgilanadi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, homiylik va boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan, shuningdek ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning mablag'lari hisobidan ijtimoiy muhofaza tizimi muassasalarida saqlanishlari mumkin.

29-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlari

Davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan ta'lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag'lar ajratadi hamda boshqa choralar ko'radi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalarning ota-onalari o'z xohish-istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonunchilik bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Nizolarni hal etish

Bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

31-modda. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

32-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh., 2008 yil 7 yanvar, O'RQ-139-son

XV BOB. SUD EKSPERTIZASI TO'G'RISIDA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilik

Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat sud eksperti — davlat sud-ekspertiza muassasasining o'z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o'tkazuvchi sud eksperti;

ish — sud ekspertizasi tayinlangan fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish;

sud eksperti — xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs;

sud ekspertining xulosasi (xulosa) — sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat;

sud ekspertizasi — fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan prostessual harakat;

sud-ekspertlik faoliyati — sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyat.

4-modda. Sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari

Qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tekshirishlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

5-modda. Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda qonuniylikka rioya etilishi

Sud-ekspertlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

6-modda. Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi

Sud-ekspertlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlarida nazarda tutilgan inson huquq va erkinliklariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Shaxsning erkinligini vaqtincha cheklashni yoki uning shaxsiy daxlsizligi buzilishini talab etuvchi sud-ekspert tekshirishlari (bundan buyon matnda tekshirishlar deb yuritiladi) faqat qonunda belgilangan asoslar va tartibda o'tkaziladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxon, muassasa, tashkilot (bundan buyon matnda boshqa tashkilot deb yuritiladi) tomonidan sud ekspertizasi o'tkazilishi munosabati bilan qabul qilingan qarorlar, sud ekspertining harakatlari (harakatsizligi) o'z huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib keldi deb hisoblagan shaxs mazkur qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

7-modda. Sud ekspertining mustaqilligi

Sud eksperti sud ekspertizasini o'tkazishda sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan), taraflardan va ishning natijasidan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslardan mustaqildir.

Sud eksperti o'zining fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlariga (bundan buyon matnda maxsus bilimlar deb yuritiladi) muvofiq o'tkazilgan tekshirishlar natijalariga asoslanib xulosa beradi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs), shuningdek boshqa davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan taraflardan birortasining yoki ishning natijasidan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarning foydasini ko'zlab xulosa olish maqsadida sud ekspertiga ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

8-modda. Tekshirishlarning xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi

Sud eksperti tekshirishlarni xolisona, qat'iy ilmiy va amaliy asosda, tegishli ixtisoslik doirasida, har tomonlama va to'liq hajmda o'tkazadi.

Sud ekspertining xulosasi (xulosa) qilingan fikrlarning asosliligi va ishonchliligini umum e'tirof etilgan ilmiy va amaliy ma'lumotlar

bazasiga muvofiq tekshirish imkoniyatini beradigan qoidalariga asoslanishi lozim.

9-modda. Tekshirish obyektlari

Ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin. Tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi.

Tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlar tekshirish uchun namunalardir.

Sud ekspertizasini o'tkazishda tekshirish obyektlari (tirik odamdan tashqari) tekshirishni o'tkazish uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada shikastlanishi yoki ishlatilishi mumkin. Bunda tekshirish obyektining qisman shikastlanishi yoki ishlatilishiga sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) yozma ruxsati olinishi zarur, tayinlangan sud ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlari obyektning shikastlanishini (buzilishini) yoki ishlatilishini taqozo etuvchi hollar bundan mustasno.

Tekshirish obyektlarining sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) yozma ruxsati bilan yoxud tayinlangan sud ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda shikastlanganligi yoki ishlatilganligi davlat sud-ekspertiza muassasasi, boshqa tashkilot yoki sud eksperti tomonidan mazkur obyektlarning mulkdoriga zararning o'rni qoplab berilishiga sabab bo'lmaydi.

Tekshirish obyektlari, agar ularning o'lchamlari va xossalari imkon bersa, o'ralgan va muhrlangan holda sud ekspertiga topshirilishi kerak.

Tekshirish obyektini sud ekspertining ish joyiga yetkazib berishning iloji bo'lmaganda, sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) unga mazkur obyektни moneliksiz kirib ko'rishni va uni tekshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Sud ekspertizasi tugallanganidan keyin tekshirish obyektlari, agar ular to'la ishlatilgan bo'lmasa, sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) qaytariladi.

10-modda. Sud eksperti

Sud eksperti sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Boshqa tashkilot xodimi sud ekspertizasini uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida o'tkazadi.

Ishda sud eksperti sifatida ishtirok etish uchun jalb etilgan boshqa jismoniy shaxs biron-bir davlat sud-ekspertiza muassasasi shtatida turmaydi va sud ekspertizasini uni tayinlagan organning (shaxsning) topshirig'ini bajarish tartibida o'tkazadi.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar sud eksperti sifatida jalb etilishi mumkin emas. Shaxsning sud eksperti sifatida ishtirok etishini istisno etadigan boshqa holatlar prostessual qonunda nazarda to'tiladi.

Sud eksperti ish holatlarini tekshirishda faqat o'ziga topshirilgan sud ekspertisasi predmetiga taalluqli va xulosa berish uchun ahamiyatga molik masalalar bo'yicha ishtirok etadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov organlari, sud va sud muhokamasidagi taraflar sud ekspertiga faqat unga topshirilgan sud ekspertisasi va u tomonidan berilgan xulosa munosabati bilan murojaat etishga haqli.

Sud eksperti faqat o'zi tomonidan berilgan xulosa va shaxsan o'tkazgan tekshirishlari yuzasidan so'roq qilinishi mumkin.

Sud ekspertini u xulosa berguniga qadar so'roq qilish taqiqlanadi.

11-modda. Sud ekspertiga qo'yiladigan malakaga oid talablar

Davlat sud eksperti lavozimini oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestastiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi egallashi mumkin.

Sud eksperti sifatida jalb etiladigan boshqa tashkilot xodimi va boshqa jismoniy shaxs oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lishi lozim.

12-modda. Davlat sud-ekspertiza muassasasi

Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan muassasa davlat sud-ekspertiza muassasasidir. Sud-ekspertlik faoliyati tegishli davlat organlarining ekspertiza bo'linmalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Sud ekspertizasini o'tkazish mazkur ekspertiza bo'linmalariga topshirilgan hollarda, ular davlat sud-

ekspertiza muassasalari kabi vazifalarni amalga oshiradi, huquqlarga ega bo'ladi, majburiyatlarni bajaradi va javobgar bo'ladi.

Ayni bir xil ixtisoslikdagi davlat sud-ekspertiza muassasalarida sud ekspertizasini tashkil etish, o'tkazish, davlat sud ekspertlarini kasbiy tayyorlash va ixtisoslashtirish sud-ekspertlik amaliyotiga yagona ilmiy-uslubiy yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasida sud ekspertizalari, bu muassasa qaysi davlat organi ixtiyorida bo'lsa, o'sha davlat organi tomonidan aniqlanadigan, u uchun belgilangan xizmat ko'rsatish mintaqalariga muvofiq o'tkaziladi.

Sud ekspertizasini tayinlagan va davlat sud-ekspertiza muassasasining xizmat ko'rsatish mintaqasidan tashqarida joylashgan organlar (shaxslar) uchun sud ekspertisasi, istisno tariqasida, ushbu muassasa tomonidan qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi mumkin.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari qonunchilikka muvofiq tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

2-bob. Davlat sud-ekspertiza muassasasi, boshqa tashkilot rahbarining hamda sud ekspertining huquq va majburiyatlari

13-modda. Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbarining sud-ekspertlik faoliyati sohasidagi huquqlari

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari quyidagi huquqlarga ega:

agar mazkur tashkilotda tekshirishlarni o'tkazish uchun tegishli mutaxassislar yoki zarur moddiy-texnik baza yoxud maxsus sharoitlar bo'lmasa, sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimni ijro etmasdan hamda sud ekspertizasini o'tkazish uchun taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarini uch kunlik muddatda qaytarish;

sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga mazkur tashkilotda ishlamaydigan shaxslarni, shu jumladan boshqa davlatlardan mutaxassislarni, agar sud ekspertizasini o'tkazish uchun ularning maxsus bilimlari zarur bo'lsa, kiritish to'g'risida iltimos qilish;

qo'yilgan masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan tekshirishlarni o'tkazishni o'z kuchlari va vositalari bilan ta'minlayotgan tashkilotlarga sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimning ko'chirma nusxasini yuborish;

sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) mazkur tashkilotning tekshirish obyektlari tekshirilganidan so'ng ularni tashish, bundan

pochta harajatlari mustasno; tekshirish obyektlari sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tomonidan olinmagan taqdirda, ularni qonunchilikda belgilangan muddat mobaynida ushbu tashkilotda saqlash; katta xavf tug'diradigan obyektlarning mazkur tashkilotga kelib tushishi natijasidagi zararli oqibatlarni (portlash, yong'in va shu kabilarni), agar sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) ushbu obyektlar bilan muomalada bo'lishning unga ma'lum bo'lgan maxsus qoidalari to'g'risida rahbarga xabar bermagan bo'lsa yoki ular lozim darajada o'ralmagan bo'lsa, bartaraf etish bilan bog'liq harajatlarning o'rnini qoplashni talab qilish.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14-modda. Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbarining sud-ekspertlik faoliyati sohasidagi majburiyatlari

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari:

sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim olinganidan so'ng sud ekspertizasini o'tkazishni mazkur tashkilotning qo'yilgan savollarga javob berish uchun talab qilinadigan ko'lamda maxsus bilimlarga ega bo'lgan xodimlari jumlasiga kiradigan sud ekspertiga yoki sud ekspertlari komissiyasiga topshirishi;

sud ekspertiga yoki sud ekspertlari komissiyasining har bir a'zosiga sud ekspertining huquq va majburiyatlarini tushuntirishi (davlat sud-ekspertiza muassasalarining xodimlariga bunday tushuntirish ishga qabul qilish chog'ida beriladi);

bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida sud ekspertini ogohlantirishi, undan tegishli tilxat olishi va mazkur tilxatni sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) xulosa bilan birga yuborishi; o'tkazilayotgan tekshirishlarning to'liqligi va sifati ustidan nazoratni, sud ekspertining mustaqilligi prinsipini buzmaganda, ta'minlashi; sud ekspertizasini o'tkazish muddatini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashi va unga rioya etilishini nazorat qilishi; sud ekspertiga tekshirishlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlashi;

tekshirish tugaganidan so'ng xulosani, tekshirish obyektlari va ish materiallarini sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuborishi shart.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari: sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tekshirish obyektlarini sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) qarori yoki ajrimisiz talab qilib olishga; sud ekspertizasini o'tkazish uchun mazkur tashkilotda ishlamaydigan shaxslarni mustaqil ravishda jalb etishga; sud ekspertiga muayyan sud ekspertisasi yuzasidan tekshirish jarayonini va fikrlar mazmunini oldindan belgilab qo'yadigan ko'rsatmalar berishga haqli emas.

15-modda. Sud ekspertining huquqlari

Sud eksperti quyidagi huquqlarga ega:

qonunchilikda belgilangan tartibda sud ekspertisasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish;

sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

tergov harakatlari o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo'lish va shu tergov harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga sud ekspertisasi predmetiga oid savollar berish;

sud muhokamasida sud ekspertisasi predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish va so'roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish;

ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

o'z xulosasida nafaqat o'zining oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki sud ekspertisasi predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham fikrlarini bayon etish;

uning xulosasi yoki ko'rsatuvlari prostess ishtirokchilari tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish;

agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

agar uning huquq va erkinliklarini ishni yuritayotgan organning qarorlari, shaxsning harakatlari (harakatsizligi) buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Sud eksperti qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16-modda. Sud ekspertining majburiyatlari

Sud eksperti:

sud eksperti sifatida o'zini o'zi rad etishi uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqda sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yoki davlat sud-ekspertiza muassasasining yoxud boshqa tashkilotning rahbariga darhol ma'lum qilishi;

o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona xulosa berishi;

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan surishtiruvda, dastlabki tergovda yoki sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun kelishi;

o'zi o'tkazgan sud ekspertisasi xususida ko'rsatuvlar berishi va o'zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo'shimcha savollarga javob berishi; sud ekspertizasini o'tkazishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarining saqlanishini ta'minlashi;

ish tergov qilinayotganda va sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Sud eksperti zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Sud eksperti:

sud ekspertizasini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, ishning natijasidan o'zining manfaatdor emasligini shubha ostiga qo'yadigan masalalar yuzasidan proress ishtirokchilari bilan shaxsiy aloqaga kirishishga;

sud ekspertizasini o'tkazish uchun mustaqil ravishda materiallar to'plashga;

sud ekspertisasi natijalarini sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) tashqari biron-bir shaxsga xabar qilishga haqli emas.

Davlat sud eksperti, shuningdek:

agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat sud-ekspertiza muassasasi rahbaridan tashqari bevosita boshqa biron-bir

organdan (shaxsdan) sud ekspertizasini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar qabul qilishga;

boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs sifatida sud ekspertizasini o'tkazishga haqli emas.

3-bob. Sud ekspertizasini o'tkazish

17-modda. Sud ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlari

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o'tkazish asoslaridir. Sud ekspertisasi tegishli qaror yoki ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran tayinlangan hisoblanadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tekshirishlarni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tekshirish obyektlari hamda ish materiallarini taqdim etadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tekshirish uchun namunalar oladi va ularni protessual qonunda belgilangan tartibda ishga qo'shib qo'yadi. Zarur hollarda, bunday namunalarni olish sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan sud eksperti yoki mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi.

Agar tekshirish uchun namunalar olish tekshirishlarning bir qismi hisoblansa va sud ekspertizasiga taqdim etilgan tekshirish obyektlaridan foydalanilgan holda sud eksperti tomonidan amalga oshirilsa, sud ekspertisasi tugallanganidan keyin mazkur namunalar uni tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi yoxud qonunchilikda belgilangan tartibda davlat sud-ekspertiza muassasasida, agar sud ekspertisasi ushbu muassasada o'tkazilgan bo'lsa, saqlanadi.

Sud ekspertisasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

18-modda. Qo'shimcha va qayta sud ekspertizalari

Qo'shimcha sud ekspertisasi xulosadagi bo'shliqlarning o'rmini to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi.

Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o'tkazishning protessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertisasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertisasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin.

Qayta sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertisasi xulosasiga qo'shilmaganligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

Qayta sud ekspertizasini o'tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o'tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lyokin u tekshirish o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

19-modda. Sud ekspertizasining sud ekspertlari komissiyasi tomonidan o'tkazilishi

Sud ekspertisasi bir xil (komissiyaviy sud ekspertisasi) yoki turli xil (kompleks sud ekspertisasi) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha sud eksperti tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Sud ekspertizasining sud ekspertlari komissiyasi tomonidan o'tkazilishi sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) yoki mazkur ekspertizaning o'tkazilishini tashkil etuvchi davlat sud-ekspertiza muassasasi yoxud boshqa tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

Sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi o'z oldiga qo'yilgan masalalarni hal etish zarurligidan kelib chiqib, o'tkaziladigan tekshirishlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi tarkibidagi har bir sud eksperti tekshirishlarni mustaqil va alohida olib boradi, shaxsan o'zi va komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan olingan natijalarni baholaydi hamda qo'yilgan savollar yuzasidan o'z maxsus bilimlari doirasida fikrlarini shakllantiradi.

Tekshirishlarning sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

20-modda. Komissiyaviy sud ekspertisasi

Komissiyaviy sud ekspertisasi o'tkazilayotganda sud ekspertlarining har biri tekshirishlarni to'liq hajmda o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi.

Sud ekspertlari umumiy fikrga kelganidan so'ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi.

Sud ekspertlari o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

21-modda. Kompleks sud ekspertizasi

Kompleks sud ekspertizasi ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha tekshirish o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda tayinlanadi.

Kompleks sud ekspertizasini o'tkazishda sud ekspertlarining har biri o'z vakolati doirasida tekshirishlar olib boradi. Kompleks sud ekspertizasining xulosasida sud ekspertlarining har biri qaysi tekshirishlarni va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o'zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko'rsatiladi. Sud ekspertlarining har biri xulosaning ushbu tekshirishlar bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

Umumiy fikmi (fikrlarni), olingan natijalarni baholashga va ushbu fikmi (fikrlarni) shakllantirishga vakolatli bo'lgan sud ekspertlari qiladi. Agar sud ekspertlari komissiyasi yakuniy fikrining yoki uning bir qismining asosi sifatida sud ekspertlaridan birining (alohida sud ekspertlarining) aniqlagan holatlari olingan bo'lsa, bu haqda xulosada ko'rsatilishi kerak. Sud ekspertlari o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi.

Agar kompleks sud ekspertizasini o'tkazish davlat sud-ekspertiza muassasasiga topshirilgan bo'lsa, unda ushbu ekspertizani tashkil qilish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi.

22-modda. Sud ekspertizasi o'tkazilayotganda prostess ishtirokchilarining hozir bo'lishi

Sud ekspertizasi o'tkazilayotganda prostessual qonunda prostessning qaysi ishtirokchilariga sud ekspertizasini o'tkazishda hozir bo'lish huquqi berilgan bo'lsa, o'sha ishtirokchilar hozir bo'lishi mumkin.

Sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan prostess ishtirokchilari tekshirishlar jarayoniga aralashishga haqli emas, lyokin sud ekspertidan u tomonidan qo'llanilgan tekshirish usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilishi, sud ekspertiga tushuntirishlar berishi mumkin.

Sud eksperti tomonidan xulosa tuzilayotganda, shuningdek, agar sud ekspertizasi sud ekspertlari komissiyasi tomonidan o'tkazilayotgan bo'lsa, sud ekspertlarining maslahatlashuvi va fikrlarni shakllantirish

bosqichida proress ishtirokchilarining hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan proress ishtirokchisi sud ekspertiga xalaqit bersa, u tekshirishni to'xtatishga va mazkur proress ishtirokchisining sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lishiga doir ruxsatini bekor qilish haqida sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) iltimos qilishga haqli.

23-modda. Sud ekspertining xulosasi (xulosa)

Sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha sud eksperti yoxud sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir sud eksperti imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Xulosada:

sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy;

sud ekspertizasini o'tkazish asosi;

sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;

sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar;

bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun sud eksperti jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;

sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar;

sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;

sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar;

qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;

tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim.

Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlash tiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonunchilikda belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi.

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlarining, materiallarning yoki sud ekspertining maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma'lum bo'lib qolsa, xulosa ayrim qo'yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Tekshirish tugaganidan so'ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

24-modda. Xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat

Agar sud eksperti qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboradi.

4-bob. Sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish, tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborot bilan ta'minlash. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish.

25-modda. Sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish

Davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyati O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari fuqarolik ishlari va iqtisodiy ishlar bo'yicha sud ekspertizalarini o'tkazganlik uchun to'lov undirishga haqlidir. Bunda sud da'vo taqdim etgan hamda da'voni quvvatlayotgan davlat organlari davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan o'tkazilgan sud ekspertizalari uchun to'lovdan ozod etiladi. To'lov miqdori va mazkur mablag'larni sarflash tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Boshqa tashkilot xodimlari va boshqa jismoniy shaxslar tomonidan sud ekspertizalari o'tkazilganligi uchun to'lov sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

26-modda. Davlat sud-ekspertiza muassasalarining faoliyatini tashkiliy va ilmiy-uslubiy ta'minlash

Davlat sud-ekspertiza muassasalarining faoliyatini tashkiliy ta'minlash, ular qaysi davlat organlari tasarrufida bo'lsa, o'sha davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud ekspertizalarini o'tkazishni ilmiy-uslubiy ta'minlash tegishli davlat sud-ekspertiza muassasalariga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishni va unga ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

27-modda. Davlat sud-ekspertiza muassasalarining sud-ekspertlik faoliyatini axborot bilan ta'minlash

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar davlat sud-ekspertiza muassasasi rahbarining yozma so'roviga ko'ra sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishi shart. Bunda davlat sud-ekspertiza muassasalari davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa simi tashkil etuvchi olingan ma'lumotlarning oshkor qilinmasligini ta'minlaydi.

27¹-modda. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish

Sud ekspertlari har ikki yilda malaka oshirish kurslarida muayyan sud-ekspertlik faoliyati bo'yicha malakasini, shuningdek huquqiy bilimlarini oshirib borishi shart.

Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Malaka va huquqiy bilimlarini oshirishni o'tayotgan sud ekspertlariga o'qishning butun davri mobaynida asosiy ish joyi bo'yicha egallab turgan lavozimi va o'rtacha oylik ish haqi saqlab qolinadi.

28-modda. Davlat sud-ekspertiza muassasalarini qo'riqlash

Davlat sud-ekspertiza muassasalarini qo'riqlash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi va O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

29-modda. Xalqaro hamkorlik

Davlat sud-ekspertiza muassasalari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq sud-ekspertlik

faoliyati sohasida chet davlatlarning tegishli organlari va muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

30-modda. Davlat sud ekspertlari mehnatiga haq to'lash va ularning ijtimoiy muhofazasi

Davlat sud ekspertlarining ish haqi mansab maoshi, ustamalar va qonunchilikda belgilangan boshqa qo'shimcha haqlardan iborat bo'ladi.

Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'lig'i qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan majburiy sug'urta qilinadi.

31-modda. Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

32-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxonada, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

XVI BOB. AHOLI O'RTASIDA MIKRONUTRIENT YETISHMASLIGI PROFILAKTIKASI TO'G'RISIDA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

mikronutrientlar — inson organizmining normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, o'rnini boshqa narsa bosa olmaydigan oziq-ovqat moddalari (vitaminlar va mineral moddalar);

mikronutrient yetishmasligi — inson organizmining oziq-ovqat bilan tushadigan mikronutrientlar yetarli emasligi sababli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan holati;

boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti — ishlab chiqarilishi jarayonida mikronutrientlar bilan boyitilgan (fortifikastiya qilingan) oziq-ovqat mahsuloti;

mikronutrientlar samentastiyasi — aholining muayyan guruhlari o'rtasida mikronutrientlarning dori vositalari tarzida profilaktik dozalarda qo'llanilishi;

aholining muayyan guruhlari — mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan aholi guruhlari.

2-bob. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi

4-modda. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholini boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning sifati hamda xavfsizligi ustidan davlat nazoratini ta'minlash;

boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarilishini rivojlantirish;

oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash;

mikronutrientlar samentastiyasi;

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasiga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash;

mikronutrient yetishmasligini aniqlovchi zamonaviy texnologiyalarni va uning profilaktikasi usullarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

5-modda. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat boshqaruvi

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat boshqaruvi:

davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirib borishni;

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning sifati hamda xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni;

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ishlab chiqishni, ishlarni tashkil etishni va ularni bajarishni ta'minlashni;

profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil etishni o'z ichiga oladi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni hamda unga rahbarlikni amalga oshiradi;

mikronutrientlar bilan boyitilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasida davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi;

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

mikronutrientlar bilan boyitilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini aniqlaydi;

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni tashkil etadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi;

aholining mikronutrientlar samentastiyasi o'tkazilishi lozim bo'lgan muayyan guruhlarini aniqlaydi;

oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mikronutrientlarning normalari va tavsiya etiladigan darajalarini ishlab chiqadi;

mikronutrientlar samentastiyasini tashkil etadi;

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi bo'yicha sanitariya-gigiena va tushuntirish ishlarini olib boradi;

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasiga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishini monitoring qiladi va baholaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi vakolatlari
O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi:

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni ishlab chiqarishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablariga yuridik shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni majburiy sertifikatlashtirish bo'yicha ishni tashkil etadi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi hududiy dasturlarning amalga oshirilishini tashkil etadi;

aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi maqsadida tegishli davlat boshqaruvi organlari hududiy bo'linmalarining hamda boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarning sifati hamda xavfsizligini va ularni saqlash sharoitlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi chora-tadbirlari

10-modda. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasining turlari

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasining quyidagi turlari amalga oshiriladi:

boyitilgan oziq-ovqat mahsulotiga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va uni iste'mol qilishni ta'minlash;
mikronutrientlar samentastiyasi;
sanitariya-gigiena va tushuntirish ishlari.

11-modda. Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni ishlab chiqarish

Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni ishlab chiqarish yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

12-modda. Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni sertifikatlashtirish

Boyitilgan oziq-ovqat mahsuloti va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalar qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim.

13-modda. Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni o'rash, tamg'alash, tashish, saqlash, realizastiya qilish va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotini va oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun mo'ljallangan vitamin-mineral aralashmalarni o'rash, tamg'alash, tashish, saqlash, realizastiya qilish va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

14-modda. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi reklama

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasiga qaratilgan notijorat yo'sindagi reklama ijtimoiy reklama axborotidir. Ijtimoiy reklama axborotini tyokinga tayyorlovchilar va tarqatuvchilar qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalanadi.

Boyitilgan oziq-ovqat mahsulotining reklamasi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

15-modda. Nizolarni hal etish

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

16-modda. Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

17-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

XVII BOB. ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINING TARQATILISHI HAMDA ISTE'MOL QILINISHINI CHEKLASH TO'G'RISIDA

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun fuqarolarning sog'lig'ini, avvalo, yigirma yoshga to'lmagan shaxslarning sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zararli ta'siridan, shu bilan bog'liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga, shuningdek jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda qaror toptirishning tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgandir.

2-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlari

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

alkogol mahsuloti — konyak spirti yoki tozalangan etil spirtidan, vino materiallari va (yoki) tarkibida spirt bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan, hajmidagi etil spirtining ulushi bir yarim foizdan ortiq bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi — alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq fuqarolar sog'lig'iga, avvalo, yoshlar sog'lig'iga, ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishiga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlariga tahdidlarning hamda boshqa tahdidlarning oldini olishga va ularni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar majmui;

alkogolga qaramlik — alkogol mahsulotiga patologik ruju qo'yish, alkogoldan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlari bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (surunkali alkogolizm);

tamaki mahsuloti — tamakidan yoki uning o'rnini bosuvchi narsadan tayyorlangan har qanday mahsulot;

tamakiga qaramlik — tamaki mahsulotiga patologik ruju qo'yish, nikotindan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) oqibatlari bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (nikotinga qaramlik);

tibbiy ogohlantirish — alkogol mahsuloti idishining yorlig'ida hamda tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) joylashtiriladigan, alkogol yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi axborot.

4-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolar sog'lig'ini saqlash, alkogol, tamaki mahsulotlarining zararli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;
- fuqarolarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga, aholi, avvalo, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, ularning sog'lig'iga alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq tahdidlarning oldini olish hamda bunday tahdidlarni kamaytirishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish;
- alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi sohasidagi davlat nazoratini ta'minlash, shuningdek bunday mahsulotlarning tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklashga, ularning salbiy ta'siri profilaktikasiga, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish;
- alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning samarali tizimini yaratish;

- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi, shuningdek alkogol va tamakiga qaramlik diagnostikasi hamda uni davolash sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda hamda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishini cheklash va ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining keng ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish.

5-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat kafolatlari

Davlat O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan alkogol va tamaki mahsulotlarining inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini baholash qoidalarini hamda tartib-taomillari belgilanishini va ularga rioya etilishini kafolatlaydi.

Davlat tarkibida inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalarning miqdori O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan yo'l qo'yiladigan eng ko'p me'yorlardan ortiq bo'lgan alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishini tartibga soladi, shuningdek bunday mahsulotlarning import qilinishini taqiqlab qo'yadi.

Davlat alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy oqibatlari to'g'risidagi axborotdan foydalanilishini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'minlaydi.

6-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, ta'lim muassasalari va boshqa muassasalar alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi, jamoatchilik ongida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy, tashkiliy-huquqiy hamda boshqa chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi.

2-bob. Davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi vakolatlari
7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alkogol va tamakimahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi, shu sohaga doir davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ro'yobga chiqaradi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni kamaytirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
- alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizastiya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi va bunday nazoratni tashkil etadi;
- alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishga doir faoliyatni listenziyalash tartibini belgilaydi;
- joylarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, alkogol va tamaki mahsulotlarining fuqarolar, ayniqsa, yigirma yoshga to'lmagan shaxslar orasida iste'mol qilinishini kamaytirishga, ularda yuksak ongni shakllantirish va jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan ma'rifiy, tarbiyaviy, tibbiy-sanitariya ishlarining ta'sirchanligini oshirishga doir chora-tadbirlarni va boshqa ijtimoiy, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi profilaktikaning samarali tizimi yaratilishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining alkogol va tamaki

mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

- alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi yagona davlat siyosatini, avvalo, sog'lom

turmush tarzi targ'ibotini nazarda tutgan holda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi bilimlarni aholi, avvalo, yoshlar o'rtasida yoyishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- alkogol va tamaki mahsulotlarining xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli bo'lgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni tashkil etishda hamda ularning bajarilishini ta'minlashda ishtirok etadi;

- fuqarolar sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq profilaktika ishlarini tashkil etish hamda amalga oshirish masalalari borasida nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

- alkogol va tamakiga qaramlikning diagnostikasi hamda uni davolashga doir normativ hujjatlarni ishlab chiqadi, ularga sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- alkogol idishining yorlig'ida va tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) joylashtiriladigan tibbiy ogohlantirishlar, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari realizastiya qilinadigan joylardagi ogohlantiruvchi yozuvlar matnlarining mazmunini ko'rib chiqadi hamda belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

- alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini ta'minlaydi, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan surunkali kasallanish hamda o'lim holatlarining monitoringini amalga oshiradi;

- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zararli ta'siri profilaktikasiga doir tadbirlarning samaradorligi monitoringini amalga oshiradi;

- alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi xalqaro hamkorlik dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

- alkogol va tamakiga qaramlikning profilaktikasi hamda uni davolash bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi masalalari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, shuningdek oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- alkogol va tamakiga qaramlikning profilaktikasi, diagnostikasi hamda uni davolash sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishini tashkil etadi.
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi vakolatlari
Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'sirini kamaytirish sohasidagi davlat dasturlarining ro'yobga chiqarilishida ishtirok etadi hamda hududiy dasturlarning ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va ro'yobga chiqarilishini tashkil qiladi;
- aholi o'rtasida, avvalo, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi bilimlarni yoyishga qaratilgan profilaktika tadbirlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining tegishli hududda ijro etilishini ta'minlaydi;
- alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siridan fuqarolar sog'lig'ini himoya qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish masalalari yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni ta'minlaydi;
- alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini moliyaviy, moddiy-texnikaviy, tashkiliy jihatdan ta'minlash masalalarini hal etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida:

- alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'siri profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlarining, hududiy va boshqa dasturlarning bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- aholi, avvalo, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga hamda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi bilimlarni yoyishga qaratilgan profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlabchiqarish, realizastiya hamda reklama qilishga doir faoliyatni tartibga solish

11-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda realizastiya qilish

Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda realizastiya qilish yuridik shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

12-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining o'ralishiga, tamg'alanishiga doir talablar

Alkogol va tamaki mahsulotlarining o'ralishiga, tamg'alanishiga doir talablar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan texnik reglamentlarga muvofiq belgilanadi.

Alkogol mahsulotining idishida yorliq asosiy yuzasining kamida qirq foizini egallaydigan matnli yozuv va (yoki) rasm tarzidagi tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

Tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) tamaki mahsuloti qutisi (o'rovi) old tomoni asosiy yuzasining kamida qirq foizini va orqa tomoni asosiy yuzasining kamida qirq foizini egallaydigan matnli yozuv va (yoki) rasm tarzidagi tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

Tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) inson sog'lig'iga yetkaziladigan zararni kamaytirib ko'rsatuvchi, tamaki mahsulotining xususiyati haqida zararsiz mahsulot sifatida yoki tamaki mahsulotining boshqa namunalariga qaraganda zarari kamroq ekanligi to'g'risida yolg'on taassurot uyg'otadigan axborot joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

13-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini realizastiya qilishga doir cheklashlar

Alkogol va tamaki mahsulotlarini:

- yigirma yoshga to'lmagan shaxslarga;

- ta'lim, sport muassasalari va diniy muassasalardan besh yuz metr dan kam radiusda joylashgan savdo obyektlari tomonidan;

- ular texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmasa;
 - akstiz markalari bilan tamg'alanmagan holda (pivodan tashqari) yoki akstiz markalari qalbaki bo'lganda;
 - ularning ishlab chiqaruvchisini aniqlash imkonini beradigan tarzda aniq tamg'alanmagan bo'lsa;
 - donalab, qutisiz (o'rovsiz) — tamaki mahsulotiga nisbatan;
 - ularni ishlab chiqarish uchun listenziyaga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqaruvchisi tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa;
 - ularni yetkazib berish huquqiga ega bo'lmagan yoki yetkazib berishni qonun hujjatlarini buzgan holda amalga oshirgan mahsulot yetkazib beruvchidan olingan bo'lsa, realizastiya qilish mumkin emas.
- Alkogol va tamaki mahsulotlarini realizastiya qilish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa hollarda ham cheklanishi mumkin.

14-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini realizastiya qilishni amalga oshiruvchi shaxslarning javobgarligi

Alkogol va tamaki mahsulotlari savdosini amalga oshiruvchi shaxslar mazkur mahsulotlarni yigirma yoshga to'lmagan shaxslarga realizastiya qilganlik uchun javobgar bo'ladi.

15-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini realizastiya qilinadigan joylardagi ogohlantiruvchi yozuvlar

Alkogol va tamaki mahsulotlari realizastiya qilinadigan joylarda ularni yigirma yoshga to'lmagan shaxslarga realizastiya qilishga yo'l qo'yilmasligi haqidagi, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlarining inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi ogohlantiruvchi yozuv joylashtirilgan bo'lishi kerak.

16-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizastiya qilinishi ustidan davlat nazorati

Alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hamda realizastiya qilinishi ustidan davlat nazorati vakolatli organlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

17-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlaridagi inson hayoti hamda sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p me'yori

Alkogol va tamaki mahsulotlaridagi inson hayoti hamda sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p me'yorini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydi.

Alkogol va tamaki mahsulotlaridagi inson hayoti hamda sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p me'yorlariga rioya etilishi ustidan nazorat qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Fuqarolar sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarining salbiy ta'siridan saqlash bo'yicha chora-tadbirlar

18-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni reklama va targ'ib qilishga yo'l qo'ymaslik

Alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni targ'ib etish, ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilishni rag'batlantiruvchi, shaxsda ularni iste'mol qilishning zararsizligi haqidagi tasavvurni shakllantiruvchi g'oyalar, qarashlar hamda badiiy obrazlarni oshkora yoki yashirin shaklda tarqatishga qaratilgan xatti-harakatlar taqiqlanadi.

19-modda. Jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik

Ish joylarida, ko'chalar, stadionlar, xiyobonlar, istirohat bog'larida, jamoat transportining barcha turlarida va boshqa jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilishga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur qoida alkogol mahsulotini quyib realizatsiya qilish ruxsat etilgan savdo va umumiy ovqatlanish obyektlariga, shuningdek to'ylar, yubileylar va boshqa tantanalar hamda marosimlar o'tkaziladigan joylarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ish joylarida, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylarda, shu jumladan avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalarida va boshqa jamoat joylarida, tamaki mahsulotini iste'mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar va (yoki) xonalar bundan mustasno, shuningdek jamoat transportining barcha turlarida tamaki mahsulotini iste'mol qilishga yo'l qo'yilmaydi.

20-modda. Alkogol va tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish

Alkogolga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish, shuningdek ularni rehabilitatsiya qilish yuzasidan yordam ko'rsatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tamakiga qaram bo'lib qolgan shaxslarga ularning xohishiga ko'ra, sog'liqni saqlash muassasalarida tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

21-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklashga doir tadbirlarni moliyalashtirish
Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning aholi sog'lig'iga zararli ta'sirining profilaktikasi, oldini olish, bunday ta'sirni kamaytirishga doir tadbirlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

22-modda. Nizolarni hal etish

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

23-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

24-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
- davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

25-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV
Toshkent shahri, 2011 yil 5 oktyabr № O'RQ-302

XVIII BOB. ODAMNING IMMUNITET TANQISLIGI VIRUSI KELTIRIB CHIQRADIGAN KASALLIK (OIV INFEKTSIYASI) TARQALISHIGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDA

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infektsiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infektsiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik

Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infektsiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infektsiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV) — odamning surunkali yuqumli immunitet tanqisligi kasalligini qo'zg'atuvchi;

OIV infektsiyasi — odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan surunkali yuqumli immunitet tanqisligi kasalligi;

OIVni yuqtirib olganlar — odamning immunitet tanqisligi virusini yuqtirib olgan shaxslar;

orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) — odamning immunitet tanqisligi virusi odamning immun tizimini shikastlashi natijasida kasallik belgilari kelib chiqadigan OIV infektsiyasining so'nggi bosqichi.

2-bob. OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi

4-modda. OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha yagona tizimning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

OIV infektsiyasi profilaktikasi, OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish, OIVni yuqtirib olganlarni bepul maxsus davolash va ijtimoiy muhofaza qilish;

OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish va uni davolash vositalari bilan ta'minlash, shuningdek tashxis qo'yish, davolash va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan tibbiy preparatlarning, biologik suyuqliklarning xavfsiz bo'lishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

OIV infektsiyasi tarqalishi ustidan epidemiologik nazoratni amalga oshirish;

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida aholini muntazam ravishda xabardor qilib borish;

OIV mavjudligi yoxud mavjud emasligini aniqlash maqsadida aholini bepul, xavfsiz va maxfiy tibbiy tekshiruvdan o'tkazish uchun sharoitlar yaratish;

OIVni yuqtirib olganlarning umrini uzaytirish va turmushi sifatini oshirishga, ularning o'limini kamaytirishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

5-modda. OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasida davlat boshqaruvi

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasida davlat boshqaruvini quyidagilar amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi mumkin.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarining bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

Respublika epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasining faoliyatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularning o'zaro aloqalarini ta'minlaydi;

OIV infekstiyasi tarqalishi ustidan epidemiologik nazoratni amalga oshiradi;

OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibini belgilaydi; davolash-profilaktika muassasalari faoliyatiga OIV infekstiyasi profilaktikasiga doir zamonaviy chora-tadbirlar, OIVni yuqtirib olganlarga tashxis qo'yish, ularni davolash hamda parvarishlash usullari joriy etilishini ta'minlaydi;

OIV infekstiyasi bo'yicha epidemik vaziyatni hamda OIV infekstiyasiga tashxis qo'yish va uni davolash borasida qo'llanilayotgan usullar samaradorligini baholashga doir tadqiqotlarni tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining OITSGa qarshi kurashish markazi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarining va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining OITSGa qarshi kurashish markazlari, shuningdek tumanlararo OIV infekstiyasiga tashxis qo'yish laboratoriyalari zamonaviy davolash-tashxis qo'yish asbob-uskunalari bilan jihozlanishini ta'minlaydi;

OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi tibbiyot xodimlarini va boshqa xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlashni hamda ularning malakasi oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

jazoni ijro etish muassasalaridagi OIV infektsiyasini yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun sharoitlarni ta'minlaydi;

ichki ishlar organlari va muassasalari OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi mutaxassislar bilan to'ldirilishini, shuningdek ularning malakasi oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining OITSga qarshi kurashish markazini, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarining va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining OITSga qarshi kurashish markazlarini, shuningdek tumanlararo OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish laboratoriyalarini zamonaviy davolash-tashxis qo'yish asbob-uskunalarini bilan jihozlash hamda ularni ta'mirlash-rekonstruktsiya qilish ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

aholi o'rtasida OIV infektsiyasi profilaktikasi masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. Respublika epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasi

Respublika epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasi (bundan buyon matnda Respublika komissiyasi deb yuritiladi) davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Respublika komissiyasi:

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

OIV infektsiyasi tarqalishiga sabab bo'ladigan g'ayriijtimoiy holatlarga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqadi, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, shu maqsadda aholi o'rtasida OIV infektsiyasi profilaktikasi masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirlar monitoringini hamda ularni doimiy ravishda har tomonlama baholashni amalga oshiradi, zarur bo'lgan hollarda OIV infektsiyasi bo'yicha epidemik vaziyat murakkablashuvining oldini olish yuzasidan qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika OITSga qarshi kurashish markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining OITSga qarshi kurashish markazi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarining va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining OITSga qarshi kurashish markazlari, shuningdek tumanlararo OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish laboratoriyalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi, ularni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga ko'maklashadi;

OIV infektsiyasi profilaktikasi, OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish va uni davolashning inson sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lgan usullarini amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalarni o'rganadi va ishlab chiqadi; xalqaro va chet el tashkilotlari bilan OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha o'zaro aloqani, O'zbekiston manfaatlariga mos keladigan hamkorlik o'rnatilishini ta'minlaydi.

Respublika komissiyasining faoliyatini tashkil etish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika OITSga qarshi kurashish markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining OITSga qarshi kurashish markazi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarining va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining OITSga qarshi kurashish markazlari faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika OITSga qarshi kurashish markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Sog'liqni saqlash vazirligining OITSga qarshi kurashish markazi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarining va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining OITSga qarshi kurashish markazlari (bundan buyon matnda OITSga qarshi kurashish markazlari deb yuritiladi) OIV infektsiyasi profilaktikasi, OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish va uni davolash bo'yicha aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni, shuningdek tibbiyot muassasalarini uslubiy jihatdan ta'minlash hamda ular faoliyatiga OIV infektsiyasi profilaktikasi, OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish va uni davolashning zamonaviy usullarini joriy etishni amalga oshiradi.

OITSga qarshi kurashish markazlari:

OIV infektsiyasi va u bilan bog'liq kasalliklar tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha profilaktika, epidemiyaga qarshi, tashxis qo'yish, davolash tadbirlarini amalga oshiradi;

OIV yuqishining jadalligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularning faolligini baholash bo'yicha maxsus epidemiologik tadqiqotlar o'tkazadi;

OIV infektsiyasi profilaktikasi, OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish va uni davolashning inson sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lgan usullarini o'rganadi hamda amaliyotga joriy etadi;

OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

OIVni yuqtirib olganlar o'z sog'lig'i va mehnat qobiliyatini saqlab qolishi uchun zarur bo'lgan tashxis qo'yishni amalga oshiradi hamda ularga tibbiy yordam ko'rsatadi;

OIV infektsiyasiga va u bilan bog'liq kasalliklarga tashxis qo'yish hamda ularni davolashni amalga oshiruvchi muassasalarga uslubiy yordam ko'rsatadi;

profilaktika, tashxis qo'yish va davolash tadbirlari uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalanilishini ta'minlaydi;

O'zbekistonda OIV infektsiyasi profilaktikasi, OIV infektsiyasiga tashxis qo'yish va uni davolash uchun qo'llaniladigan usullarni tahlil qilishni amalga oshiradi, shuningdek ularning samaradorligini baholaydi;

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tibbiyot xodimlarini va boshqa xodimlarni tayyorlashda, qayta tayyorlashda hamda ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi.

OITSGa qarshi kurashish markazlari faoliyatini tashkil etish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

12-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va nodavlat notijorat tashkilotlarning OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar:

OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga doir tadbirlarni o'tkazishda, OIVni yuqtirib olganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish hamda himoya qilishda;

OIVni yuqtirib olganlarga yoki ularning qonuniy vakillariga o'z vakolatlari doirasida huquqiy, uslubiy yordam, axborot yordami va boshqa yordam ko'rsatishda;

aholi o'rtasida OIV infektsiyasi profilaktikasi masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda tashkil etish hamda o'tkazishda ishtirok etishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga doir boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

3-bob. OIV infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga doir chora-tadbirlar. OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish

13-modda. OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish tekshiruvdan o'tayotgan shaxsning sog'lig'i holatini o'rganish va baholashdir, bunda OIV mavjudligi yoxud mavjud emasligi aniqlanadi.

OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan normalar va qoidalarga muvofiq barcha davolash-profilaktika muassasalarida ixtiyoriy, majburiy yoki g'ayriixtiyoriy tartibda amalga oshirilishi mumkin.

OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazishda tekshiruvdan o'tayotgan shaxs bilan dastlabki va keyingi maslahatlashuv amalga oshiriladi.

Voyaga etmaganlarni va muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarni OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish ularning qonuniy vakillari roziligi bilan amalga oshiriladi.

Davlat sog'liqni saqlash tizimining laboratoriyalari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarning OIV mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi natijasi tekshiruvdan o'tayotgan shaxsga uning iltimosiga ko'ra, voyaga etmaganlarga va muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga esa, ularning qonuniy

vakillariga dastlabki maslahatlashuvni amalga oshirgan davolash-profilaktika muassasasida beriladi.

Tekshiruvdan o'tayotgan shaxsda OIV aniqlangan taqdirda, u bilan keyingi maslahatlashuv o'tkaziladi hamda u dispanser hisobiga qo'yiladi, mazkur shaxs o'zga shaxslarga OIV infekstiyasini yuqtirganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida yozma ravishda ogohlantiriladi.

Voyaga etmaganlarda va muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarda OIV aniqlangan taqdirda, tibbiy muassasalar xodimlari bu haqda ularning qonuniy vakillarini hamda voyaga etmaganlar yoxud muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar turgan muassasa rahbarini xabardor qiladi.

Tibbiy tekshiruvdan o'tkazish natijalariga ko'ra o'zida OIV aniqlangan shaxslar qon, biologik suyuqliklar donori bo'lishi mumkin emas.

Tekshiruvdan o'tayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra OIV mavjud emasligi to'g'risida sertifikat berilishi mumkin. OIV mavjud emasligi to'g'risida sertifikat berish qonunchilikda belgilangan tartibda, faqat OITSGa qarshi kurashish markazlarida haq evaziga amalga oshiriladi.

14-modda. Ixtiyoriy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

Ixtiyoriy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish tekshiruvdan o'tayotgan shaxsning xohishiga ko'ra, maxfiylikka rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Tekshiruvdan o'tayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra ixtiyoriy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish anonim bo'lishi mumkin.

15-modda. Majburiy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

Quyidagilar majburiy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi kerak:

- qon, biologik suyuqliklar donorlari;
- ellik yoshgacha bo'lgan nikohlanuvchi shaxslar;
- homilador ayollar;
- in'ekstiya orqali giyohvandlik vositalarini iste'mol etishda gumon qilinayotgan shaxslar;
- OIVni yuqtirib olgan onalardan tug'ilgan bolalar;
- o'z faoliyatida qon, biologik suyuqliklar, odam organlari va to'qimalari bilan ishlovchi tibbiyot xodimlari;
- jinsiy sherigida OIV aniqlangan shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan
O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

bilan kelishuvga ko'ra ro'yxati belgilanadigan ayrim kasblarda ishlovchi xodimlar ishga kirayotganda, dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tayotganda majburiy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

16-modda. g'ayriixtiyoriy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish

Tekshiruvdan o'tayotgan shaxsni g'ayriixtiyoriy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda uning roziligisiz yoki qonuniy vaqilining roziligisiz tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qaroriga yoki sud ajrimiga ko'ra amalga oshiriladi.

17-modda. OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish .

OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish ular OITSGa qarshi kurashish markazlarida va davolash-profilaktika muassasalarida yashash joyi bo'yicha dispanser hisobiga qo'yilganidan keyin amalga oshiriladi.

OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish OIV infekstiyasini maxsus davolashni, shuningdek OIV infekstiyasi bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishining oldini olishni, ularga tashxis qo'yish hamda ularni davolashni o'z ichiga oladi.

OIVni yuqtirib olganlarni bepul maxsus davolash kasallik bosqichiga qarab, davolash komissiyasining xulosasiga ko'ra OITSGa qarshi kurashish markazlarida, davolash-profilaktika muassasalarining OIVni yuqtirib olganlarga mo'ljallangan bo'linmalarida tayinlanadi.

OIVni yuqtirib olganlarga OIV infekstiyasi bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishining oldini olish, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun tibbiy yordam ko'rsatish OITSGa qarshi kurashish markazlari tomonidan boshqa davolash-profilaktika muassasalari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

OIVni yuqtirib olgan shaxsda OIV infekstiyasi bilan bog'liq bo'lmagan kasalliklar aniqlangan taqdirda, tegishli ixtisoslashgan davolash-profilaktika muassasasida ambulatoriya yoki stasionar sharoitlarda tibbiy yordam ko'rsatiladi.

18-modda. O'z xizmat vazifalarini bajarayotganda OIV infekstiyasi yuqishi xavfi ostida bo'lgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish

Tibbiyot xodimlarining o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda ularga OIV infekstiyasi yuqishi kasb kasalliklari toifasiga kiradi.

OIVni yuqtirib olganlarga tashxis qo'yish va ularni davolash bo'yicha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatuvchi, shuningdek profilaktika

tadbirlarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlovchi tibbiyot xodimlariga qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

4-bob. OIVni yuqtirib olganlarning huquq va majburiyatlari, ularni ijtimoiy muhofaza qilish

19-modda. OIVni yuqtirib olganlarning huquq va majburiyatlari

OIVni yuqtirib olganlar:

OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish natijalarini va OIV tarqalishining oldini olishga doir tavsiyalar olish;

o'z huquqlari to'g'risida, o'zidagi mavjud kasalliklarning xususiyati va tibbiy yordam ko'rsatishda qo'llaniladigan usullar haqida axborot olish;

o'ziga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'linishi;

psixologik yordam olish huquqiga ega.

OIVni yuqtirib olganlar:

tibbiyot xodimlari tomonidan tavsiya etilgan OIV infekstiyasini tarqatmaslikka doir chora-tadbirlarni bajarishi;

sog'lom odamlar bilan muloqotda ehtiyot choralariga rioya etishi;

jinsiy sherigini, shuningdek teri va shilliq qatlamlarning yaxlitligini buzuvchi muolajalarda sanchiladigan va kesadigan asboblardan foydalanadigan tibbiyot xodimlarini va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarini o'z kasalligi to'g'risida xabardor etishi shart.

OIVni yuqtirib olganlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

20-modda. OIVni yuqtirib olganlarni ijtimoiy muhofaza qilish

OIVni yuqtirib olganlar bepul maxsus davolanadi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan OIVni yuqtirib olganlar, kasallik bosqichidan qat'i nazar, qonunchilikda belgilangan har oylik ijtimoiy nafaqa va nogiron bolalar uchun imtiyozlar olish huquqiga ega.

OIVni yuqtirib olgan bolalarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishdan vaqtincha ozod qilingan va vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini olgan holda qonunchilikda belgilangan tartibda bolalar bilan birga davolash-profilaktika muassasasida stasionar sharoitlarda bo'lish huquqiga ega.

Qonunchilikda OIVni yuqtirib olganlarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilishning boshqa chora-tadbirlari ham belgilanishi mumkin.

21-modda. OIVni yuqtirib olganlarning huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik

OIVni yuqtirib olganlarda OIV infekstiyasi mavjudligini asos qilib, ular bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga, ularni ishga qabul qilishni rad etishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxatda nazarda tutilgan ayrim kasbiy faoliyat turlari mustasno, ta'lim muassasalariga, bundan ta'lim muassasalarining qonunchilikda belgilangan ayrim turlari mustasno, va tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalarga qabul qilishni rad etishga, shuningdek ularning boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini cheklashga, xuddi shuningdek ular oila a'zolarining turar joy huquqlarini, boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

22-modda. OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni moliyalashtirish

OIV infekstiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

23-modda. OIV infekstiyasi yuqqan shaxsning sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash

OIV infekstiyasi yuqqan shaxsning sog'lig'iga tibbiyot xodimlari va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari o'z kasbiy majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararning o'rnini qoplash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Zararning o'rnini qoplash aybdor shaxslarni qonunga muvofiq javobgarlikdan ozod qilmaydi.

24-modda. Nizolarni hal etish

Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

25-modda. Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infekstiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

26-modda. Ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida»gi 816-I-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 9, 213-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi 817-I-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 9, 214-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 24 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi O'RQ-248-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010 yil, № 5, 179-modda) 3-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

27-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

28-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

XIX BOB. OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING SIFATI VA XAVFSIZLIGI TO'G'RISIDA

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Ushbu Qonunning talablari atir-upa, pardozi-andoz mollari va tamaki mahsulotlariga ham taalluqlidir.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari — bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;

sanitariya-epidemiologik xulosa — oziq-ovqat mahsulotining va uni tayyorlash hamda undan foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalarning sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiena normativlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar — oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash yo'li bilan yoki sun'iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste'mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga mo'ljallangan tabiiy yoxud tabiiyga aynan o'xshaydigan biologik faol moddalarning konsentratlari;

oziq-ovqatlar — oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holda iste'mol qilinadigan mahsulotlar;

oziq-ovqat mahsuloti — oziq-ovqat xom ashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;

oziq-ovqat mahsuloti muomalasi — oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizastiya qilish bilan bog'liq faoliyat;

oziq-ovqat mahsulotini realizastiya qilish — oziq-ovqat mahsulotini ma'lum shartlar bilan sotish, yetkazib berish va topshirishning boshqa shakllari;

oziq-ovqat mahsulotining sifati — oziq-ovqat mahsulotining iste'mol xossalarini belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini ta'minlaydigan mezonlar majmui;

oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi — oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi;

oziq-ovqat xom ashyosi — oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o'simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek minerallar obyektlari, suv;

oziq-ovqatlarni hamda oziq-ovqat xom ashyosini taqqoslash — oziq-ovqatlar hamda oziq-ovqat xom ashyosi aniq turdagi va nomdagi mahsulotga doir normativ va (yoki) texnikaviy hujjatda belgilab qo'yilgan muhim mezonlarga mos kelishini aniqlash;

oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) — bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chog'ida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo'lib turadi, bu muddat tamom bo'lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lib qolishi mumkin;

oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish — oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab o'zgartirish yoki ularni almashtirib qo'yish;

oziq-ovqat qo'shimchalari — oziq-ovqatlarga belgilangan xossalarni baxsh etish va (yoki) ularni saqlab qolish maqsadida ataylab qo'shiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar;

toksikologiya-gigiena ekspertizasi — oziq-ovqat mahsuloti ustida amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo'lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo'ljallangan bo'ladi;

qadoqlash materiallari, yordamchi materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar — oziq-ovqat mahsulotini muomala jarayonida tashqi ta'sirlardan himoyalash maqsadida ishlatiladigan vositalar.

energetik ichimliklar — tarkibida 150 mg/l.dan ortiq miqdorda kofein va (yoki) inson organizmiga tonusni o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun yetarli miqdordagi boshqa komponentlar mavjud bo'lgan ichimliklar.

3-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilik

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchiligi bilan ham huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ushbu Qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

4-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda qonunchilik bilan belgilanadigan boshqa organlar (bundan keyin matnda davlat nazorati organlari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat tomonidan normalash;

oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo'ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

oziq-ovqat mahsulotini sertifikatlash;

davlat nazorati va tekshiruvi;

oziq-ovqat mahsulotining sifatini va xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini rejalashtirish.

5-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat tomonidan normalash

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat tomonidan normalash oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga, uni ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizastiya qilish shart-sharoitlariga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladigan sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini, fitosanitariya normalarini, qoidalarini va gigiena normativlarini, davlat standartlarini, texnikaviy shartlarni (bundan keyin matnda normalar va qoidalar deb yuritiladi) belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

6-modda. Oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo'ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Oziq-ovqat mahsuloti hamda uni tayyorlashga mo'ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalari oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar talablariga mosligi baholanganidan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin ishlab chiqarilishi, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi, realizatsiya qilinishi va ishlatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va uning hududiga olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga ruxsat berilgan oziq-ovqat mahsulotini va uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanitariya-epidemiologik xulosa berilayotganda davlat sanitariya nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

oziq-ovqat mahsulotining har xil turlarini bir xil nomda davlat ro'yxatidan o'tkazish;

ayni bir turdagi oziq-ovqat mahsulotini bir xil yoki har xil nomlar bilan qayta-qayta ro'yxatdan o'tkazish;

tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan oziq-ovqatlarni, ovqatga qo'shiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari, embop qo'shimchalar va biologik faol qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish.

7-modda. Oziq-ovqat mahsulotini, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo'ljallangan texnologiyalar, uskunalari, buyumlar va vositalarni sertifikatlash

Oziq-ovqat mahsuloti, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo'ljallangan texnologiyalar, uskunalari, buyumlar va vositalar ularning normalar va qoidalarga mosligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlanishi lozim.

Majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar ro'yxati hamda sertifikatlashdan o'tkazish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

8-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini nazorat qilish va tekshirish

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi ushbu Qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan davlat nazorati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida nazorat qilinadi va tekshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, harid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizastiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan normalar va qoidalarga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini ta'minlaydilar. Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish tartibi oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalarga, normativ hamda texnologiya hujjatlari talablariga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bajaradigan ishlar va xizmatlarning xususiyatlarini va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanadi hamda tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishiladi.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalarining talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda ishlarni amalga oshirishni va xizmatlar ko'rsatishni aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlashga doir normalar va qoidalar bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

9-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini rejalashtirish

Oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarishni, oziq-ovqat mollari bilan savdo qilishni, umumiy ovqatlanish tizimini rivojlantirishning respublika va mintaqaviy maqsadli dasturlarini ishlab chiqish chog'ida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash tadbirlari nazarda to'tilmog'i kerak.

10-modda. Yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish

Yuridik va jismoniy shaxslar yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish yoki uni takomillashtirish chog'ida, shuningdek ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish chog'ida oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini, yaroqlilik muddatini, sifat ko'rsatkichlarini va nazorat qilish usullarini asoslab berishlari shart.

Oziq-ovqat mahsulotining sifat ko'rsatkichlari, uning xavfsizligiga qo'yiladigan talablar majburiy bo'lib, ushbu mahsulotning normativ hujjatlariga kiritiladi.

Sifati va xavfsizligi muayyan vaqt o'tganidan keyin o'zgarishi hamda odamlarning hayoti va salomatligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotiga yaroqlilik muddati belgilanadi.

Yangi oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishga, yangi texnologiya jarayonlarini, uskunalarni joriy etishga ular toksikologiya-gigiena ekspertizasidan, hayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosi esa davlat veterinariya xizmati tomonidan o'tkaziladigan veterinariya va veterinariya-sanitariya ekspertizasidan keyin va (yoki) mahsulot belgilangan qoidalar va normalarga mosligi haqida davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlarning sanitariya-epidemiologik xulosasi, davlat veterinariya xizmatining veterinariya xulosasi olinganidan hamda oziq-ovqat mahsuloti davlat reestriga kiritilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

11-modda. Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotini yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalar talablariga muvofiq ishlab chiqaradilar.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan oziq-ovqat xom ashyosidan, oziq-ovqat qo'shimchalardan, qadoqlash va yordamchi materiallardan va ulardan ishlangan buyumlardan, uskunalardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan oziq-ovqat qo'shimchalari, embop qo'shimchalar va biologik faol qo'shimchalarni ishlatish taqiqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotining sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga mos bo'lishi ushbu Qonun 7-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan mahsulotlarning sifati esa sertifikat bilan ham tasdiqlanishi kerak.

Hayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosini etishtirish chog'ida veterinariya dori vositalarini va ozuqabop qo'shimchalarni qo'llashga ular belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

O'simliklardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosini etishtirish chog'ida zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlarni qo'llanishiga ular toksikologiya-gigiena ekspertizasidan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

12-modda. Oziq-ovqatlarni qadoqlash, o'rash va tamg'alash

Oziq-ovqatlar ishlab chiqaruvchi yuridik va jismoniy shaxslar ularni qadoqlangan, o'ralgan (barcha muomala bosqichlarida sifati va oziqlik

qimmati saqlanib qolishini ta'minlaydigan) va qonunchilikka muvofiq tamg'alangan holda chiqarishlari shart.

Qadoqlangan va o'ralgan oziq-ovqatlar, ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar, oziq-ovqat qo'shimchalari yorliqlarga (suqma varaqalarga) ega bo'lishi, ularda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

oziq-ovqatning nomi;

oziq-ovqatni nimaga mo'ljallanganligi (bolalarga maxsus mo'ljallangan mahsulotlar va parhez taomlar uchun);

tayyorlovchining nomi;

tovar belgisi (belgiga ega tashkilotlar uchun);

oziq-ovqat tarkibiga kirgan narsalar, shu jumladan oziq-ovqat qo'shimchalarining nomi;

ozislik qimmati, navi;

saqlash shart-sharoitlari;

tayyorlangan sanasi, yaroqlilik muddati;

tayyorlash usuli (masalliqar hamda maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);

og'irligi;

foydalanish usuli (biologik faol qo'shimchalar: oziq-ovqat qo'shimchalari, maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);

muvofiqlik belgisi (mahsulotini muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini beradigan listenziyasi bor korxonalar uchun);

normativ yoki texnikaviy hujjatlarning nomerlari.

13-modda. Oziq-ovqatlarni saqlash va tashish

Oziq-ovqatlarni saqlaydigan va tashiydigan yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalarga rioya etishlari, oziq-ovqat sifati saqlanishini va xavfsizligini ta'minlashlari shart.

14-modda. Oziq-ovqat mahsulotini realizastiya qilish

Majburiy sertifikatlanadigan oziq-ovqat mahsuloti yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini tasdiqlaydigan moslik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi bo'lgan taqdirda realizastiya qilinadi.

Oziq-ovqat mahsulotini chakana sotish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsuloti bilan savdo qilishga mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shu maqsadlar uchun ajratilgan joylarda yo'l qo'yiladi.

Quyidagi hollarda oziq-ovqat mahsulotini realizastiya qilishga yo'l qo'yilmaydi:

mahsulot sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga muvofiq bo'lmasa, majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar uchun esa moslik sertifikatini bo'lmasa;

saqlash va realizastiya qilish uchun tegishli sharoit bo'lmasa;

yaroqlilik muddati tugagan bo'lsa;

mahsulot qalbakilashtirilgan bo'lsa;

mahsulotlarni taqqoslash mumkin bo'lmasa.

Energetik ichimliklarning o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga realizastiya qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasi hududiga oziq-ovqat mahsulotini olib kirish

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti ushbu Qonunda ko'rsatilgan normalar va qoidalarining talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Chetdan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotini yetkazib beruvchi uni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ishlab chiqaruvchining va eksport qiluvchi mamlakat maxsus vakil qilgan organning ushbu mahsulot xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarini, tegishli ekspertiza o'tkazish zarur bo'lganida esa oziq-ovqat mahsulotining namunalarini taqdim etadi.

Chetdan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti, texnologiyalar va uskunalar qonunchilikka muvofiq majburiy sertifikatlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizligining normalar va qoidalariga mosligi davlat nazorati organlari tomonidan bojxona organlari bilan birgalikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

16-modda. Oziq-ovqat mahsulotini olib qo'yish

Odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti tegishli davlat nazorati organlarining qaroriga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda olib qo'yilishi kerak.

17-modda. Qoidalar va normalarga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotidan foydalanish hamda uni yo'q qilib tashlash

Yaroqlilik muddati o'tgan, sifatsizligi belgi berib turgan, taqqoslash va ishlab chiqaruvchisini aniqlash mumkin bo'lmagan, shuningdek sanitariya-gigiena ekspertizasi, laboratoriya tekshiruvlari va (yoki) veterinariya, veterinariya-sanitariya ekspertizasi va sertifikatlashtirish sinovlari natijalariga ko'ra davlat sanitariya nazorati va (yoki) davlat

veterinariya xizmati organlari tomonidan ovqatga ishlatish uchun yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarilish va realizatsiya qilinishdan olib tashlanadi, u belgilangan maqsadda ishlatilmasligi hamda qayta ishlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi kerak. Oziq-ovqat mahsulotini qayta ishlash yoki yo'q qilib tashlash usullari va shartlari uchun egasi tomonidan tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishib olinadi.

Oziq-ovqat mahsulotidan foydalanish (uni qayta ishlash) yoki yo'q qilib tashlash uning egasi tomonidan yoki mahsulot egasi shu ishlarni bajarishni shartnoma bo'yicha topshiradigan tashkilotlar tomonidan komissiya ishtirokida amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga davlat hokimiyati mahalliy organlarining, davlat nazorati organlarining, soliq organlarining va jamoatchilikning vakillari kiradi.

Oziq-ovqat mahsuloti hayvonlarga em sifatida ishlatilgunicha yoki yo'q qilib tashlagunicha alohida joyda (rezervuarda), alohida hisobda, miqdorini, ishlatish (qayta ishlash) yoki yo'q qilib tashlash usullari va shartlari aniq ko'rsatilgan holda saqlanishi kerak. Bunday mahsulotning but saqlanishi uchun uning egasi javobgar bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotini ekspertiza qilish, yo'q qilib tashlash usullari va shartlarini belgilash, qayta ishlash, saqlash, tashish va yo'q qilib tashlash bilan bog'liq harajatlarni uning egasi to'laydi.

Oziq-ovqat mahsulotining egasi davlat sanitariya nazorati va (yoki) davlat veterinariya xizmati organlariga ushbu mahsulotdan foydalanilganligi yoki u yo'q qilib tashlanganligi to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etadi.

18-modda. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

XX BOB. FUQAROLARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI SAQLASH TO'G'RISIDA

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchilik

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Fuqarolarning reproduktiv salomatligi

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog'lomligi holati bo'lib, bu holat uning bola tug'ilishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizimi, ushbu tizimning funkstiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash:

fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risida ishonchli va to'liq axborot olishni;

homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug'ilishini ta'minlaydigan, homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni; reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni; jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;

ehtimoldagi asoratlarning va reproduktiv tizim funkstiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko'maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun'iy to'xtatishni;

kontrastepstiya usullari va ulardan foydalanish to'g'risida axborot olishni nazarda tutadi.

4-modda. Ushbu Qonunning asosiy prinstiplari

Ushbu Qonunning asosiy prinstiplari quyidagilardan iborat:

reproduktiv muammolarni hal qilishda insonparvarlik;

reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida erkaklar va ayollarning tengligi;

fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, shaxsiy va oilaviy sirning saqlanishi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi tibbiy xizmatlardan foydalanishni va ularning sifatini ta'minlash;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha xizmatlarning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini ta'minlash.

5-modda. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalga oshirish;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;

fuqarolarda sog'lom farzandlar tug'ilishiga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash;

erkaklar va ayollarning o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishida ularning imkoniyatlari tengligini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini yaxshilash uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish;

reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida fuqarolarning tibbiy bilimlarini va tibbiy madaniyatini yuksaltirish;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

fuqarolar o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishi uchun ularga tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam ko'rsatish.

6-modda. Fuqarolarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirishdagi davlat kafolatlari

Davlat fuqarolarga:

reproduktiv salomatlikning saqlanishini va ularning reproduktiv huquqlari amalga oshirilishini;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlashga doir xizmatlardan foydalanilishi va bu xizmatlarning izchilligi ta'minlanishini;

sog'lom oilani shakllantirish to'g'risidagi qarorning kamsitishlarsiz, tahdidlarsiz va zo'rvonliksiz qabul qilinishini;

ularning shaxsiy hayotiga aralashmaslikni, shaxsiy va oilaviy sirining saqlanishini;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining bepulligini;

fuqarolarning mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan reproduktiv huquqi amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlashga doir xizmatlar reproduktiv salomatlikni saqlash sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarning hajmini belgilaydi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarning hajmini belgilash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va kiritadi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash va himoya qilish tizimini rivojlantirishga hamda reproduktiv salomatlikni saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga doir chora-tadbirlarni belgilaydi; reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida fuqarolarning tibbiy bilimlarini va tibbiy madaniyatini yuksaltirish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib boradi;

yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibini, kafolatlangan xizmatlar, ularni qo'llashga doir ko'rsatmalar, moneliklar va cheklovlarning ro'yxatini tasdiqlaydi;

yordamchi reproduktiv texnologiyalar usullarini qo'llovchi tibbiyot tashkilotlarining faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi;

homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi va shartlarini, homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish uchun tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini belgilaydi;

jarrohlik kontrastepstiyasini amalga oshirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishini ta'minlaydi;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi hududiy dasturlarning ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tegishli davlat boshqaruvi organlari hududiy bo'linmalarining fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tegishli hududdagi tibbiyot muassasalarida ko'rsatilayotgan, shu jumladan fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati ustidan nazoratni ta'minlaydi.

10-modda. Fuqarolarning reproduktiv huquqlari

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

xavfsiz va samarali reproduktiv texnologiyalardan foydalangan holda o'z farzandlarining tug'ilishi xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish;

o'zining reproduktiv salomatligi to'g'risida ishonchli va to'liq axborot olish;

tug'ilishni tartibga solishning xavfsiz usullaridan va kontrastepstiyadan foydalanish;

tibbiy-profilaktika xizmatlaridan foydalanish va sog'liqqa xavf soluvchi vositalardan, shu jumladan ilmiy tajribalar qo'llanilishidan himoyalash;

o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirish chog'ida tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam va axborot olish;

yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish.

Yuridik va jismoniy shaxslar fuqarolarning o'z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishi bilan bog'liq axborotni sir saqlashi shart.

11-modda. Ayollarning reproduktiv salomatligini saqlash

Ayollarning reproduktiv salomatligini saqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'zining reproduktiv salomatligi, bepushtlikni davolash uslublari va kontrastepstiya to'g'risida ishonchli hamda to'liq axborot olish;

reproduktiv salomatlikni saqlash sohasidagi xizmatlardan foydalanishni ta'minlash;

reproduktiv salomatlik masalalari yuzasidan maxfiylikka rioya etilgan holda tibbiy maslahatlar va xizmatlar olish.

Ayol bepushtlikdan davolanish, reproduktiv salomatligini homilador bo'lguniga qadar, homiladorlik davrida, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrda davolashning zamonaviy uslublari bilan foydalangan holda saqlash hamda davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanish huquqiga ega.

Homiladorlik davridagi tibbiy aralashuv er va xotinning yozma roziligi bilan, er bo'lmagan taqdirda ayolning o'z roziligi yoki ota-onasining roziligi yoxud u voyaga etmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tibbiy aralashuvni rad etish fakti ehtimoldagi oqibatlar ko'rsatilgan holda tibbiy hujjatlarda qayd etiladi va homilador ayol tomonidan, buning imkoni bo'lmagan taqdirda uning eri yoki qarindoshlari tomonidan yozma tarzda, tibbiy aralashuvni rad etish haqida yozma javob olishning imkoni bo'lmagan taqdirda esa, shifokorlar konsiliumining xulosasi bilan tasdiqlanadi.

Ayol homiladorlikka, uni sun'iy ravishda to'xtatishga va kontrastepstiyaga majbur qilinishi mumkin emas.

12-modda. Erkaklarning reproduktiv salomatligini saqlash

Erkaklarning reproduktiv salomatligini saqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'zining reproduktiv salomatligi, bepushtlikni davolash uslublari va kontrastepstiya to'g'risida ishonchli hamda to'liq axborot olish;

reproduktiv salomatlikni saqlash sohasidagi xizmatlardan foydalanishni ta'minlash;

yangi tibbiy, shu jumladan yordamchi reproduktiv texnologiyalardan, shuningdek kam invazivli (kam jarohatlaydigan) aralashuvlardan foydalangan holda bepushtlikni davolash;

reproduktiv salomatlik masalalari yuzasidan maxfiylikka rioya etilgan holda tibbiy maslahatlar va xizmatlar olish.

13-modda. Voyaga etmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash

Voyaga etmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash:

tibbiy-profilaktika tadbirlarini, shu jumladan reproduktiv a'zolar patologiyasini, shuningdek irsiy kasalliklarni aniqlashga qaratilgan tibbiy-profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni;

jinsiy tarbiya va ularni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha tadbirlar o'tkazishni;

ularni reproduktiv salomatlik masalalari bo'yicha o'qitish va axborot berishni o'z ichiga oladi.

Reproduktiv salomatlik muammolari bo'yicha tibbiy aralashuv voyaga etmagan shaxsni, shuningdek uning qonuniy vaqilini xabardor etgan holda ularning ixtiyoriy roziligi bilan amalga oshiriladi. Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog'lig'ini saqlash uchun tibbiy aralashuv tavsiya etilgan taqdirda hamda qonuniy vakildan va voyaga etmagan shaxsdan rozilik olishning imkoni bo'lmaganda, tibbiy aralashuv shifokorlar konsiliumining xulosasi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

Voyaga etmagan shaxslarni reproduktiv salomatlikni saqlash masalalari bo'yicha tarbiyalash, o'qitish hamda ularga axborot berish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash tegishincha oilada, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida amalga oshiriladi.

Reproduktiv salomatlik, shu jumladan jinsiy tarbiya masalalari bo'yicha o'qitish ta'limni va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari bilan birgalikda voyaga etmagan shaxslarning yoshi, psixologik va jismoniy o'ziga xosliklari hisobga olingan holda, ularning oilalari bilan yaqin hamkorlikda ishlab chiqilgan, maxsus tasdiqlangan dasturlarga ko'ra amalga oshiriladi. O'qitishga tegishli tibbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar jalb etiladi.

Voyaga etmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi xizmatlar davlat tomonidan kafolatlangan va bepul asosda amalga oshiriladi.

Voyaga etmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida axborot berish anonim va maxfiy tarzda amalga oshiriladi.

14-modda. Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risidagi axborot

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risidagi axborot:

reproduktiv salomatlikning holati haqidagi;

reproduktiv salomatlikni saqlash bo'yicha xizmatlar olish shartlari va usullari to'g'risidagi;

zamonaviy kontrastepstiya usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqidagi;

yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo'llashdagi har qanday psixologik va fiziologik oqibatlar, ehtimoldagi asoratlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to'g'risidagi axborot ishonchli va to'liq bo'lishi kerak.

15-modda. Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish

Yordamchi reproduktiv texnologiyalar urug'lantirishning ayrim yoki barcha bosqichlari ayolning organizmidan tashqarida amalga oshiriladigan homiladorlikka erishishga qaratilgan tibbiy texnologiyalar, davolash usullari va muolajalaridan iboratdir.

Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

16-modda. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha profilaktika chora-tadbirlari

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha profilaktika chora-tadbirlari quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

fuqarolarning reproduktiv salomatligi buzilishi xavfini, shu jumladan atrof-muhit va ishlab chiqarish omillarini aniqlash;

reproduktiv salomatlik sohasidagi buzilishlarni aniqlash va davolash maqsadida fuqarolarning majburiy profilaktika tibbiy ko'riklarini (dastlabki va davriy) o'tkazish;

reproduktiv yoshdagi fuqarolarni va homilador ayollarni reproduktiv salomatlikning buzilishi xavfi hamda uning reabilitastiyasi haqida xabardor qilish;

fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo'yicha ta'lim dasturlarini va ilmiy dasturlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish;

fuqarolarni sog'lom turmush tarzini yuritishga va profilaktika tadbirlarida ishtirok etishga rag'batlantirish tizimini yaratish, birinchi navbatda, fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash va mustahkamlashga ko'maklashuvchi hayot tarzini va uslubini ommalashtirish orqali yaratish;

ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning, reproduktiv tizim a'zolari kasalliklarining rivojlanishiga doir xavf guruhlarini ajratgan holda aholini, shu jumladan bolalar va o'smirlarni dispanserizastiyadan o'tkazish hamda yakka tartibdagi profilaktika dasturlarini ishlab chiqish; fuqarolarga tibbiy-genetik yordamni takomillashtirish, homiladagi nuqsonlarga erta tashxis qo'yish uchun yangi perinatal texnologiyalarni joriy etish.

17-modda. Kontrastepstiyadan foydalanish

Fuqarolar kontrastepstiya usullarini tanlash, ulardan foydalanish, shuningdek ularni rad etish huquqiga ega.

Fuqarolarga sog'lig'ining holati, yoshi va individual xususiyatlari hisobga olingan hamda ehtimoldagi har qanday nomaqbul oqibatlar haqida ogohlantirgan holda kontrastepstiya usullarini yakka tartibda tanlash bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Fuqarolar kontrastepstiyaning jarrohlik usulidan ixtiyoriy ravishda foydalanish huquqiga ega.

Kontrastepstiyaning jarrohlik usuli faqat oldindan albatta xabardor etilgan holda hamda voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqaroning yoki er-xotinning yoxud fuqaro muomalaga layoqatsiz bo'lsa vasiylarning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

18-modda. Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish

Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish:

homiladorlikning o'n ikki haftagacha bo'lgan muddatida ayolning xohishiga ko'ra;

homiladorning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lganida homiladorlik muddatidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Tibbiyot muassasalari tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish to'g'risida yoki homiladorlikni to'xtatishni rad etish haqida qaror qabul qilgan ayolni uning sog'lig'i uchun har qanday ehtimol tutilgan salbiy oqibatlar haqida xabardor etishi shart.

19-modda. Yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo'llashda shifokorlik sirini va axborotning maxfiyligini saqlash

Yordamchi reproduktiv texnologiyalar qo'llanilishi to'g'risidagi, shuningdek yordamchi reproduktiv texnologiyalar dasturlari

ishtirokchilarining shaxsi haqidagi ma'lumotlar shifokorlik sirini tashkil etadi va ular to'g'risidagi axborot maxfiy bo'lishi kerak.

Shifokorlik sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar o'qish chog'ida, kasbiy, xizmat vazifalarini va boshqa vazifalarni bajarish chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan shaxslar tomonidan ushbu ma'lumotlarni fuqaroning yoki uning qonuniy vaqilining roziligisiz oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan hollar mustasno.

Shifokorlik sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni fuqaroning yoki uning qonuniy vaqilining roziligisiz taqdim etishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

o'zining holatiga ko'ra o'z xohish-irodasini bildirishga qodir bo'lmagan fuqaroni tekshiruvdan o'tkazish va davolash maqsadida;

yuqumli kasalliklar tarqalishi xavfi bo'lganda;

tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilishi munosabati bilan surishtiruv, tergov va prokuratura organlarining, shuningdek sudning so'rovlariga binoan.

20-modda. Nizolarni hal etish

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

21-modda. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

22-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

23-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

24-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

XXI BOB. ONA SUTI BILAN OZIQLANTIRISHNI QO‘LLAB- QUVVATLASH HAMDA GO‘DAKLAR VA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIGA DOIR TALABLAR TO‘G‘RISIDA

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir belgilangan talablarga rioya etilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risidagi qonunchilik

Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

go‘dak — bir yoshgacha bo‘lgan bola;

go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlari — go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar organizmining fiziologik xususiyatlariga hamda ehtiyojlariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari;

kichik yoshdagi bolalar — bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar;
ona sutining o‘rnini bosuvchi mahsulotlar — go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun ona suti o‘rnini bosadigan oziq-ovqat mahsulotlari;

sun‘iy oziqlantirish — go‘daklar va kichik yoshdagi bolalarni ona sutining o‘rnini bosuvchi mahsulotlar bilan oziqlantirish;

qo‘shimcha ovqat mahsulotlari — bola yoshining fiziologik xususiyatlari hisobga olingan holda ishlab chiqarilgan, tavsiya etilgan muddatlarda ona sutiga, ona sutining o‘rnini bosuvchi mahsulotlarga

qo'shimcha sifatida go'daklar va kichik yoshdagi bolalar rasioniga kiritiladigan oziq-ovqat mahsulotlari.

2-bob. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

4-modda. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: homilador ayollar, emizikli onalar, go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning ona suti bilan oziqlantirishga bo'lgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish;

go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat nazorati.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning hamda normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini (qabul qilinishini) va amalga oshirilishini o'z vakolatlari doirasida ta'minlaydi;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi asosiy yo'nalishlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda

go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalariga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqishda davlat boshqaruvi organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi;

go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash hamda realizatsiya qilishga doir sanitariya qoidalari, normalarini va gigiena normativlarini belgilaydi;

go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga oid hamda miqdoriy xususiyatlariga, ularni ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilishga doir talablarni belgilashda ishtirok etadi;

ona suti bilan oziqlantirishning, shuningdek onalar, go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oqilona ovqatlanishining foydasi hamda afzalligi to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib boradi;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilishga hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi monitoringini olib boradi va uni baholaydi.

7-modda. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat nazorati

Ushbu Qonun talablariga rioya etilishi, shuningdek go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya holati, sifati

hamda xavfsizligi ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, uning hududiy bo'linmalari va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

3-bob. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilishga doir chora-tadbirlar hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar

8-modda. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash:

ona suti bilan oziqlantirish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

emizikli onalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek ular uchun qulay mehnat va o'qish sharoitlarini yaratish;

ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risidagi qonunchilikni, shu jumladan emizikli onalarga va kichik yoshdagi bolalarga kafolatlangan bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ona suti bilan oziqlantirishni targ'ib qilish sog'liqni saqlash organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan aholi o'rtasida muntazam ravishda axborot-tushuntirish tadbirlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining, reproduktiv yoshdagi ayollarga, homilador ayollarga, emizikli onalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalarning tibbiyot xodimlari ushbu ayollar va onalarga hamda ularning oila a'zolariga:

go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning yoshi hamda fiziologik ehtiyojlariga muvofiq ularni ovqatlantirish qoidalariga rioya etishga doir;

homilador ayollarning, emizikli onalarning to'g'ri ovqatlanishiga va ularni ona suti bilan oziqlantirishga tayyorlashga doir;

ona suti bilan oziqlantirishning foydasi, afzalligi hamda uning ona va bola sog'lig'iga ta'siri to'g'risida;

go'dakni olti oygacha ovqatlantirishda boshqa taomdan yoki ichimlikdan, shu jumladan suvdan foydalanmasdan faqat ona suti bilan

oziqlantirish, shuningdek ona suti bilan oziqlantirishni ikki va undan katta yoshgacha davom ettirish zarurligi haqida;
olti oylikdan boshlab bolalar uchun qo'shimcha oziq-ovqatning va qo'shimcha ovqat mahsulotlarining muhimligi to'g'risida;
go'daklarning ovqatlanish rasioniga ona sutiga qo'shimcha ovqat mahsulotlarini barvaqt va kechiktirib kiritishning, ona suti bilan oziqlantirish davomiyligini qisqartirishning oqibatlarini haqida;
nooqilona ovqatlantirishning, ayniqsa sun'iy oziqlantirishning bolalar sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risida axborot beradi.

Yozma, audio yoki vizual shaklda taqdim etilgan hamda aholi o'rtasida, ayniqsa homilador ayollar, go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning onalari o'rtasida tarqatish uchun mo'ljallangan, go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning ovqatlanishiga doir axborot materiallari hamda ma'rifiy materiallar davlat tilida va zarurat bo'lgan taqdirda boshqa tillarda yozilgan, shuningdek lo'nda, to'liq hamda ishonchli axborotni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

9-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni ona suti bilan oziqlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni ona suti bilan oziqlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida davlat muassasalari hamda tashkilotlarida, shuningdek avtovokzallar, aeroportlar va temir yo'l vokzallarida, madaniy-ko'ngilochar muassasalarda maxsus ajratilgan joylar tashkil etilishi kerak.

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni ona suti bilan oziqlantirish uchun maxsus ajratilgan joylar boshqa tashkilotlarda ham tashkil etilishi mumkin.

10-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining reklamasi

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining reklamasi quyidagi talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun ona sutining o'rmini bosuvchi mahsulotlarni reklama qilishga yo'l qo'yilmaydi;

ona sutining o'rmini bosuvchi mahsulotlar to'g'risidagi har qanday axborot ona sutining, shuningdek go'dakni olti oygacha oziqlantirishda boshqa taomdan yoki ichimlikdan, shu jumladan suvdan foydalanmasdan faqat ona suti bilan oziqlantirishning foydasi va afzalligi to'g'risidagi ko'rsatmani o'z ichiga olgan bo'lishi kerak;

bola hayotining birinchi yili mobaynida uning rasioniga kiritilgan qo'shimcha ovqat mahsulotlari reklamasida bunday mahsulotlar

qo'llanilishining yoshga doir cheklovlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda mutaxassislarning maslahati zarurligi haqidagi ogohlantirish bo'lishi kerak.

11-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning, yetkazib beruvchilarning, reklamani tayyorlovchilar va tarqatuvchilarning faoliyatini cheklash

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar, shuningdek reklamani tayyorlovchilar va tarqatuvchilar faoliyatiga oid cheklovlar quyidagilarga taalluqli taqiqlardan iboratdir:

go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning ovqatlanishiga doir ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishmagan holda amalga oshirishga;

tibbiyot xodimlariga go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning ovqatlanishi uchun ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlar bilan bog'liq bo'lgan reklama tusidagi materiallar taqdim etishga, bundan ilmiy axborot mustasno;

ona suti o'rnini bosuvchi mahsulotlarning nomidan foydalangan holda tovarlarni (tibbiyot xalatlarni, futbolkalarni, bosh kiyimlarini, kanstelyariya ashyolarini va boshqalarni) tyokin asosda tarqatishga;

ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlar to'g'risidagi reklama mahsulotini onalar va ularning oila a'zolari o'rtasida tarqatishga;

homilador ayollarga, go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning onalariga hamda ularning oila a'zolariga ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlarni qo'llashga yoki idishchalardan oziqlantirishga ko'maklashishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni, shuningdek buyumlar yoki ashyolar tarzidagi biror-bir sovg'ani berishga (bundan ona suti bilan oziqlantirishga tibbiy jihatdan mutlaq moneliklar mavjud bo'lgan hollar mustasno);

tibbiyot muassasalariga (ona suti bilan oziqlantirishga mutlaq qarshi tibbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lgan taqdirda ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlarni beruvchi bolalar uylari va davolash-profilaktika muassasalaridan tashqari) ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlarni, bundan bolalarni maxsus davolash bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari mustasno, berishga.

12-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqariladigan hamda olib kiriladigan, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari sertifikatlashtirilishi hamda sifat va xavfsizlik talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

13-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining o'roviga (idishiga) hamda ularni tamg'alashga doir talablar

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan o'rov materiallarining barcha turlari (idishlar) qo'llanilishiga ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklarni va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi davlat nazorati organlari tomonidan ruxsat berilgan bo'lishi kerak. O'rov (idish) go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, saqlash hamda yaroqlilik (but saqlanishi) muddati ichida realizatsiya qilish chog'ida ularning har qanday tarzda ifloslanishi va buzilishi imkoniyatini istisno etishi, but saqlanishini ta'minlashi kerak.

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining tamg'asida (yorlig'ida) quyidagilar bo'lishi kerak:

ishlab chiqaruvchining, o'rovchi-joylovchining, eksport qiluvchining, import qiluvchining nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va mamlakat nomi;

mahsulotning nomi;

mahsulot nomida uning go'daklar va kichik yoshdagi bolalar ovqatlanishi uchun mo'ljallanganligi, asosiy ingredientga (tarkibiy qismga) muvofiqligining ifodasi hamda quyuq-suyuqlik darajasi to'g'risidagi axborot;

sof og'irligi yoki hajmi to'g'risidagi axborot;

mahsulotning tarkibi;

tayyorlash usuli;

ishlab chiqaruvchining tovar belgisi (mavjud bo'lgan taqdirda);

oziqlik qimmati, vitaminlar va mineral moddalarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

iste'mol idishi ochilguniga qadar va ochilganidan keyingi saqlash shartlari;

yaroqlilik muddati yoki saqlashning turli harorat sharoitlari hisobga olingan holda, mahsulotdan qaysi sanagacha foydalanish kerak bo'lsa, o'sha sana;

sertifikatlashtirish to'g'risidagi axborot;

mahsulot qaysi normativ hujjatga muvofiq tayyorlangan bo'lsa va identifikatsiya qilinishi mumkin bo'lsa, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi o'sha normativ hujjatga ishora;

mahsulot ishlab chiqarilgan va o'rab-joylangan sana;

belgilangan maqsadi va qo'llanilish shartlari;

tovarning shtrix-kodi (mavjud bo'lgan taqdirda);

mahsulotni shifokorning tavsiyasi bo'yicha qo'llash to'g'risidagi axborot;

ona suti bilan oziqlantirishning foydasi va afzalligi, shuningdek sun'iy oziqlantirish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin shifokorning dastlabki maslahatini olish zarurligi haqidagi ogohlantiruvchi yozuvlar.

Bunda yozuvning shakli oson o'qiladigan bo'lishi kerak;

bolalar aralashmasini tayyorlashga doir yo'riqnomada oziqlantirish jadvali to'g'risidagi ko'rsatma.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan hamda O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining tamg'asi (yorlig'i) quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak:

lo'nda, to'liq va ishonchli axborotga ega bo'lishi;

davlat tilidagi va zarur bo'lgan taqdirda boshqa tillardagi yozuvlarni o'z ichiga olishi. Agar matn iste'molchi tushunmaydigan tilda bayon etilgan bo'lsa, yorliqning asl nusxasi almashtirilmagan holda, davlat tilidagi qo'shimcha yorliqdan foydalaniladi;

go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun avval tayyorlangan, bolani oldingi oziqlantirishdan qolgan oziq-ovqat mahsulotlaridan takroran foydalanishga hamda ularni saqlashga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi;

bolaning mahsulotni iste'mol qilishiga ruxsat etiladigan yoshini ko'rsatishi.

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlarining tamg'asida (yorlig'ida) alohida parhez ehtiyojlari, funkstional holatlar va (yoki), agar mavjud bo'lsa, mazkur mahsulotlarni iste'mol qilish tavsiya etiladigan kasalliklar ham ko'rsatilishi zarur.

Ona sutining o'rmini bosuvchi mahsulotlarning tamg'alarida (yorliqlarida) va oziq-ovqat formulalarining tavsiflarida:

mazkur mahsulotlarning ona suti bilan teng qimmatliligi va (yoki) undan ko'ra foydaliligi hamda afzalligi to'g'risidagi tasavvurni yuzaga

keltiruvchi iboralardan foydalanish yoxud bu mahsulotlarni ona suti bilan tenglashtirish;

mazmuni ona suti bilan oziqlantirishni rad etishga undashi mumkin bo'lgan matndan foydalanish;

go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning fotosuratlarini, shu jumladan so'rg'ichli idishchalarning suratlarini, agar ushbu tasvirlar mahsulotdan foydalanish yoki uni tayyorlash usullarini bevosita ifodalama, joylashtirish taqiqlanadi.

14-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash hamda realizastiya qilish

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash hamda realizastiya qilish sanitariya normalariga, qoidalariga hamda gigiena normativlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Mazkur mahsulotlarni tegishli saqlash sharoitlariga ega bo'lmagan hamda sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari talablariga muvofiq bo'lmagan joylarda realizastiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

15-modda. Idishchalarni va so'rg'ichlarni tamg'alashga doir talablar

Oziqlantirish uchun mo'ljallangan idishchalarning va so'rg'ichlarning tamg'asida (yorlig'ida) quyidagilar bo'lishi kerak:

ishlab chiqaruvchining, o'rovchi-joylovchining, eksport qiluvchining, import qiluvchining nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va mamlakat nomi;

tovarning nomi;

ishlab chiqaruvchining tovar belgisi (mavjud bo'lgan taqdirda);

mahsulotning tarkibi;

saqlash shartlari;

yaroqlilik muddati;

sertifikatlashtirish to'g'risidagi axborot;

ishlab chiqarilgan va o'rab-joylangan sana;

belgilangan maqsadi va qo'llanilish shartlari;

mahsulot texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qaysi normativ hujjatga muvofiq ishlab chiqarilgan bo'lsa va identifikastiya qilinishi mumkin bo'lsa, idishchalar va so'rg'ichlar uchun o'sha normativ hujjatga ishora;

idishcha, so'rg'ich qaysi xom ashyodan ishlab chiqarilgan bo'lsa, o'sha xom ashyo to'g'risidagi axborot;

yuvish va sterilizatsiya qilishga taalluqli bo'lgan, so'zlar orqali ifodalangan hamda jadval shaklidagi yo'riqnoma.

Idishchalar va so'rg'ichlarning tamg'asi (yorlig'i) quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak:

lo'nda, to'liq va ishonchli axborotga ega bo'lishi;

davlat tilidagi va zarur bo'lgan taqdirda boshqa tillardagi yozuvlarni o'z ichiga olishi. Agar matn iste'molchi tushunmaydigan tilda bayon etilgan bo'lsa, yorliqning asl nusxasi almashtirilmagan holda, davlat tilidagi qo'shimcha yorliqdan foydalaniladi. Bunda yozuv shakli oson o'qiladigan bo'lishi kerak.

16-modda. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, sanitariya qoidalari hamda normalariga muvofiq bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va yo'q qilish

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, qayta ishlangan mahsulotdan olingan xom ashyoni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, sanitariya qoidalari hamda normalariga muvofiq bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, yo'q qilish yoki ulardan oziq-ovqat ehtiyojlaridan boshqa ehtiyojlar uchun foydalanish usullari va shartlari ularning egalari tomonidan nazorat qiluvchi davlat organlari bilan kelishiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

17-modda. Nizolarni hal etish

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

18-modda. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

19-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga

yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

20-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

21-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

XXII BOB. NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQLARI TO'G'RISIDA

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

nogironlik belgisiga ko'ra kamsitish — maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy sohada yoki boshqa sohada o'zgalar bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquq va erkinliklarini e'tirof etishni yoki ro'yobga chiqarishni inkor qilishdan iborat bo'lgan, nogironlik sababli har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash;

nogironligi bo'lgan bolalar (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish — hayot faoliyatiga doir cheklovlarni engib o'tish, ularning o'rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga shart-sharoitlarni ta'minlaydigan hamda ularga jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga

qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari — nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlari;

protez-ortopediya moslamalari — yo'q bo'lgan qo'l-oyoqlarning yoki tana boshqa qismlarining o'rnini bosish uchun mo'ljallangan, organizmning buzilgan yoki yo'qolgan funkstiyalarini kompensastiya qiluvchi moslamalar;

surdotarjima — biror-bir tildan daktil alifbosi yordamida va (yoki) imo-ishora tilida tarjima qilish usuli;

surdotexnika vositalari — eshitishdagi nuqsonlarni tuzatish va kompensastiya qilish uchun texnik vositalar, shu jumladan aloqani va axborot uzatishni kuchaytiruvchi vositalar;

tibbiy-ijtimoiy ekspertiza — tekshiruvdan o'tkazilayotgan shaxsning klinik-funkstional, ijtimoiy, kasbiy-mehnat va psixologik ma'lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog'lig'i yo'qolganligi darajasini hamda organizmining funkstiyalari turg'un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va zarur mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida tavsiyalar berish;

tiflotexnika vositalari — nogironligi bo'lgan shaxslarning ko'rishidagi nuqsoni natijasida yo'qolgan imkoniyatlarini tiklash va kompensastiya qilishga qaratilgan vositalar;

shaxs hayot faoliyatining cheklanganligi — shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'liq yoxud qisman yo'qotganligi.

4-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinstiplari

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinstiplari quyidagilardan iborat:

nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;
nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;
insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;

nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;
obyektlar va xizmatlarning qulayligi;
nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish.

5-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish prinsipi

Nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanadi.

6-modda. Nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik prinsipi

Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal ko'rish, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlashga hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishga qaratilgan maxsus choralar boshqa fuqarolarga nisbatan kamsituvchi choralar hisoblanmaydi.

7-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi prinsipi

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ular uchun obyektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardan, sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, ishga joylashishdan, shuningdek axborotdan va aloqa vositalaridan foydalanish kafolatlarini yaratishga hamda ulardan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi.

8-modda. Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi

Nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalar bilan teng ravishda insonning barcha huquq va erkinliklaridan to'liq hajmda foydalanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarining ustunligi ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvor hisoblanadi.

9-modda. Ob'ektlar va xizmatlarning qulayligi prinsipi

Ob'ektlar va xizmatlarning qulayligi nogironligi bo'lgan shaxslarning binolardan, inshootlardan, transportdan, axborotdan va aloqa vositalaridan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan, shuningdek boshqa obyektlardan va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlardan o'zga fuqarolar bilan teng ravishda foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish yo'li bilan ta'minlanadi.

Shaharlarni, boshqa aholi punktlarini rejalashtirishga va qurishga, turar joy va rekreatsiya zonalarini shakllantirishga, yangi qurilish uchun mo'ljallangan loyiha echimlarini ishlab chiqishga, binolarni, inshootlarni va ularning majmualarini rekonstruktsiya qilishga, shuningdek umumiy foydalanishdagi transport vositalarini, axborotni hamda aloqa vositalarini ishlab chiqishga va ishlab chiqarishga mazkur obyektlarni nogironligi bo'lgan shaxslarning ulardan moneliksiz foydalanishi uchun moslashtirmasdan yo'l qo'yilmaydi.

10-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish prinsipi

Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishini har tomonlama rag'batlantirish hamda cheklovlarning har qanday shakllariga yo'l qo'yimaslik orqali amalga oshiriladi.

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotiga jalb etishni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

2-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasini tartibga solish

11-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

nogironligi bo'lgan shaxslarning kamsitilishiga yo'l qo'yimaslik yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko'rish;

nogironligi bo'lgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta'minlash;
nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish;
nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo'yicha jamiyatda ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;
davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim (maktabgacha, maktabdan tashqari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim) olish imkoniyatini ta'minlash;
davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ijrosini ta'minlaydi;
davlat boshqaruvi organlarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga doir faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha xizmatlarning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini belgilaydi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Davlat boshqaruvi organlarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlari

Davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi;
nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish, ijtimoiy himoya qilish va ularning huquqlarini ta'minlashga doir davlat dasturlarini shakllantiradi hamda amalga oshiradi;
nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ijrosini ta'minlaydi;
nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy, kasbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishini hamda mutaxassislar tayyorlanishini moliyalashtiradi va tashkil etadi;
o'zgalarning parvarishiga va yordamiga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha stasionar muassasalar tarmog'ini rivojlantirishga doir choralar ko'radi;
rehabilitatsiya, ilmiy-ishlab chiqarish markazlarining, nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish stasionar muassasalarining, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining hamda sanatoriy-kurort muassasalarining tarmog'ini yaratadi, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tashkilotlarni tashkil etadi;
davlat sog'liqni saqlash tizimining ambulatoriya va stasionar davolash-profilaktika muassasalarida tiklash terapiyasi bo'limlarining tarmog'ini yaratadi.

Davlat boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ijrosini ta'minlaydi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish, ijtimoiy himoya qilish va ularning huquqlarini ta'minlashga doir hududiy dasturlarni shakllantiradi, tasdiqlaydi hamda amalga oshiradi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

15-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ushbu Qonunning qoidalari bajarilishini ta'minlashga qaratilgan kelishilgan sa'y-harakatlarni ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash tarkibiga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish o'z vakolatiga kiradigan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar vakillari, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari vakillari kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlaridan biri Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash raisidir.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengashning majlislari zaruratga qarab, lyokin yarim yilda kamida bir marta rais tomonidan chaqiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash to'g'risidagi nizom va uning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

16-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va nodavlat notijorat tashkilotlarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashda ishtirok etishi

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari:

nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida davlatdan va belgilangan tartibda xalqaro tashkilotlardan huquqiy, uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal etishda, shuningdek tegishli tadbirlarni moliyalashtirishda ishtirok etishi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning boshqa fuqarolar bilan teng ravishda binolardan, inshootlardan, transportdan, axborotdan va aloqa vositalaridan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda tizimlaridan, shuningdek boshqa obyektlardan va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishda ishtirok etishi mumkin;

nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga doir boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

17-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari

Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini shakllantirishda:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash yuzasidan takliflar kiritish;

nogironligi bo'lgan shaxslarga tegishli ijtimoiy xizmat turlarini taqdim etish samaradorligini baholashda ishtirok etish;

nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar kiritish;

Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash ishida va majlislarida ishtirok etish;

vakolatli davlat organlari bilan birgalikda sport, ma'rifiy va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish yo'li bilan ishtirok etishga haqlidir.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlariga daxldor qarorlarni tayyorlash hamda qabul qilishda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari va ularning vakolatli vakillari bilan hamkorlik qiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalariga moddiy-texnik hamda moliyaviy yordam ko'rsatishi mumkin.

3-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida to'la huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

18-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligini ta'minlash va kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik

Nogironlik belgisi bo'yicha har qanday kamsitish taqiqlanadi.

Teng imkoniyatlarni ta'minlash va nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardan, sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, ishga joylashishdan, shuningdek axborotdan va aloqa vositalaridan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat kamsitilishning barcha shakllaridan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy jihatdan teng ravishda va samarali himoya qilinishini kafolatlaydi.

Davlat insonning asosiy huquqlari va erkinliklaridan foydalanish imkoniyatini berishda nogironligi bo'lgan shaxslarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi.

19-modda. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi

Nogironligi bo'lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tajovuzlardan himoya qilinish, o'z shaxsiy hayoti, oilasi, uy-joyi yoki xat-xabarlari daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilinishi huquqiga ega.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxsning shaxsi, sog'lig'i holati to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash choralarini ko'radi.

20-modda. Oilaga va oila muhitiga bo'lgan huquq

Davlat nogironligi bo'lgan bolalarning oilaga va oila muhitiga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtiriladigan nogironligi bo'lgan bolalar sonini qisqartirish, ularning oilaviy sharoitlarda va nogironligi bo'lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllari doirasida qarindoshlarini jalb etish hisobidan muqobil parvarish qilinishini ta'minlash choralarini ko'radi.

Davlat nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarga moddiy, maslahatga oid va boshqacha tarzda yordam beradi hamda ularni qo'llab-quvvatlaydi.

21-modda. Fuqarolik va erkin harakatlanish huquqi

Nogironligi bo'lgan shaxslar boshqa fuqarolar bilan teng ravishda fuqarolikni olish va o'zgartirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab erkin harakatlanish, O'zbekiston Respublikasiga kirish va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish huquqiga ega, bundan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qonunchilikda belgilangan cheklovlar mustasno.

Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari nogironligi bo'lgan shaxslarni ularning yoshi, jinsi va nogironlik shaklini, shuningdek shaxsiy ehtiyojlarini inobatga oluvchi qo'llab-quvvatlash hamda xizmatlar ko'rsatish dasturlarining mavjudligi va qulayligi to'g'risida xabardor qiladi.

22-modda. Uy-joyga bo'lgan huquq

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga uy-joy qurilishi bo'yicha davlat dasturlaridan va maxsus dasturlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga va o'z tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilalarga uy-joyni qulay narxlar bo'yicha olish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Uy-joyga yoki uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarni hisobga olish mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari tomonidan uy-joy olishga yoki uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish ro'yxatlarini shakllantirish chog'ida nogironligi bo'lgan shaxslar va o'z tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilalar alohida ro'yxatga kiritiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uy-joy qurilishi bo'yicha davlat dasturlari va maxsus dasturlar doirasida imtiyozli shartlar asosida uy-joy va imtiyozli ipoteka krediti olish huquqiga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga va o'z tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilalarga yakka tartibda uy-joy qurish, yordamchi xo'jalikni, dala hovli xo'jaligini va bog'dorchilikni yuritish uchun imtiyozli shartlar asosida er uchastkalari olish huquqi beriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga uy-joyni taqsimlashda imkoniyatga qarab, obyektlar va xizmatlarning qulayligi prinsipiga rioya etilgan holda, ish joyiga, tibbiyot va rehabilitasiya muassasalariga yaqin bo'lgan uy-joy beriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat uy-joy fondining ko'p kvartirali uylaridagi turar joylar ularning xohishiga ko'ra pastki qavatlardan berilishi mumkin. Yuqori qavatlardagi kvartiralarga ega bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslar bo'sh turar joylar mavjud bo'lgan taqdirda ularni pastki qavatlarda joylashgan turar joylarga almashtirishga haqli.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga yoki o'z tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilalarga beriladigan turar joylar obyektlar va xizmatlarning qulayligi prinsipiga muvofiq bo'lishi kerak.

Nogironligi bo'lgan shaxslar egallab turgan turar joylar nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin harakatlanishi va foydalanishi uchun maxsus vositalar hamda moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Mazkur turar joylarni jihozlash mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar imtiyozli shartlar asosida ijtimoiy uy-joy olish huquqiga ega.

23-modda. Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlariga rioya etgan holda loyihalashtirish, qurish va rekonstruktsiya qilish

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning, shu jumladan o'rindiqli aravachalardan hamda etaklovchi itlardan foydalanuvchi shaxslarning barcha ijtimoiy infratuzilma obyektlariga (turar joylarga, jamoat va ishlab chiqarish binolariga, imoratlar va inshootlarga, sog'liqni saqlash va sport obyektlariga, madaniy-tomosha muassasalariga hamda boshqa muassasalarga) moneliksiz kirishi uchun shart-sharoitlar yaratishi shart.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, jamoat binolari hamda inshootlarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruktsiya qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlari inobatga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Jamoat binolari hamda inshootlarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruktsiya qilish chog'ida nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanishi uchun avtotransport saqlash joylarini maqbul miqdorda hamda o'lchamda barpo etish bo'yicha choralar nazarda to'tilishi kerak.

Uy-joylar va ijtimoiy infratuzilma obyektlarida liftlarni sotib olish hamda o'rnatish chog'ida, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tegishli tashkilotlar liftlarning nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha toifalari uchun qulay bo'lishini va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Ijtimoiy-maishiy va madaniy maqsadlarga mo'ljallangan qurilish obyektlarini hamda rekonstruktsiya qilinayotgan obyektlarni foydalanishga qabul qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari vakillari davlat qabul komissiyasi tarkibiga kiritilgan holda amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish qurilish loyihalarining majburiy qismidir. Binolarni, inshootlarni va ularning majmualarini qurish hamda rekonstruktsiya qilishga doir normalar va qoidalar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

24-modda. Transport vositalarining va yo'l infratuzilmasining qulayligi

Transport vositalarining va yo'l infratuzilmasining qulayligi aholiga transport xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlar (tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar) tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari ishtirokida:

nogironligi bo'lgan shaxslarga qulaylik yaratish uchun jamoat transportining maxsus vositalar bilan jihozlanishini, shu jumladan alohida joylar jihozlanishini, eshitish qobiliyati zaif bo'lganlar uchun axborot tablolari o'rnatilishini hamda bekatlarning ovozli tarzda e'lon qilinishini;

shahar va qishloq jamoat transporti vositalarining yo'nalishlari hamda ko'rsatkichlari keskin farqlanuvchi rangdagi yirik harflar bilan tasvirlanishini;

yo'lovchi poezdlarining vagonlari maxsus o'rinlar bilan va perronlar, shuningdek temir yo'l vokzallari maxsus mexanik panduslar bilan jihozlanishini;

to'xtash maydonchalarini shaharsozlik normalari va qoidalarini hisobga olgan holda jihozlash, shu jumladan ularga panduslar va tutqichlar o'rnatish, transport vositasining kirish eshiklari oldidagi maydonchalarda taktil qoplamalarini qo'llash, shuningdek elektron axborot tablolarini o'rnatish;

piyodalar o'tish joylari va chorrohalarini, ko'chalar hamda umumiy foydalanishdagi yo'llarni nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlariga muvofiq moslashtirish;

chorrahalarda tovushli va vizual signalizatsiya tizimlarini o'rnatish;

aeroportlarda va aerovokzallarda, yirik temir yo'l stanstiyalarida, shuningdek metroda nogironligi bo'lgan shaxslarni transport vositalarigacha kuzatib borish;

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus kutish joylarini jihozlash yo'li bilan ta'minlanadi.

Mahalliy transport vositalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlari inobatga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

25-modda. Mehmonxona xonalarining qulayligi

Mehmonxonalarining mulkdorlari umumiy xonalar fondining kamida bitta xonasini o'rindiqli aravachadan foydalanadigan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay tarzda jihozlashi, shuningdek eshitish va ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarning tegishli ehtiyojlariga muvofiq e'lonlar uchun displeylar hamda ovozli qurilmalar o'rnatilishini ta'minlashi shart.

26-modda. Axborotdan foydalanish

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot olish huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni keng omma uchun mo'ljallangan, qulay formatlardagi va nogironlikning turli shakllari hisobga olingan texnologiyalardan foydalangan holda axborot bilan ta'minlaydi.

Davlat odamlar o'rtasidagi muloqot vositalari sifatida imo-ishora tilidan, muloqotning boshqa muqobil shakllaridan foydalanilishiga ko'maklashadi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga televizion dasturlar, filmlar, teatr tadbirlari va boshqa madaniy tadbirlarning ular uchun qulay formatlarda bo'lishini ta'minlaydi. Davlat telekanallarida yangiliklar ko'rsatuvlarining surdotarjima yoki subtitrlar bilan namoyish etilishi ta'minlanadi.

Davlat kommunikastiyaning muqobil shakllaridan (Brayl harflaridan va ovozli shakllardan) foydalangan holda badiiy adabiyotlar, maktab darsliklari, boshqa didaktik materiallar va o'qitish vositalari nashr etilishini ta'minlaydi.

Davlat organlari va tashkilotlar o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirilgan axborot bilan qulay tarzda tanishish hamda xizmatlardan foydalanish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga qo'shimcha imkoniyatlarni yaratishi shart.

Davlat organlari va tashkilotlar axborot-kommunikastiya uskunalarining hamda axborot ta'minotining davlat haridlariga davlat buyurtmasini amalga oshirishda nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha toifalari uchun qulaylik mezonlariga rioya etilishini hisobga olishi kerak.

Davlat organlari va tashkilotlar, zarur bo'lgan taqdirda, mazkur davlat organining yoki tashkilotning vakili va eshitishida nuqsonlari mavjud

nogironligi bo'lgan shaxs o'rtasidagi muloqotni ta'minlash uchun imo-
ishora tili tarjimonini shartnoma bo'yicha yollaydi.

27-modda. Madaniy hayotda ishtirok etishga, dam olishga va sport bilan shug'ullanishga bo'lgan huquq

Davlat organlari va tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning moddiy madaniy meros obyektlaridan, turistik hamda sport obyektlaridan va inshootlaridan, shuningdek dam olish obyektlaridan foydalanishini ta'minlaydi.

Teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, axborot-kutubxona muassasalari va axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanishi uchun qulay bo'lishi kerak.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning moddiy madaniy meros obyektlaridan, turistik va sport obyektlari hamda inshootlaridan, shuningdek tashkilotning dam olish obyektlaridan foydalanishini ta'minlash maqsadida, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari ishtirokida:

nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining madaniy, sport hamda turistik tadbirlarda ishtirok etishiga ko'maklashadi;

nodavlat notijorat tashkilotlari bilan sheriklikda madaniy, sport va ko'ngilochar tadbirlar o'tkazilishini tashkil etadi;

nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanish, sport musobaqalarini o'tkazish va ularda ishtirok etish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratadi;

faoliyati nogironligi bo'lgan shaxslarni sport bilan shug'ullanishga va jamiyatning madaniy hayotiga jalb etishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotlariga ko'maklashadi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha darajalardagi sport tadbirlarida ishtirok etishini targ'ib qilish va rag'batlantirishda ishtirok etadi.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning sport inshootlari obyektlaridan, dam olish obyektlaridan, shuningdek turistik obyektlardan foydalanishini, shu jumladan bepul asosda foydalanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat mulki bo'lgan sport obyektlari va inshootlarining sport zallari hamda xonalarini nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanish uchun bepul asosda taqdim etiladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Davlat sportning paralimpiya turlari bo'yicha murabbiylar, hakamlar hamda boshqa mutaxassislarni o'qitish va tayyorlashni ta'minlaydi.

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni sport bilan shug'ullanishga jalb etishga doir dasturlarni nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bilan birgalikda har yili ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratadi.

28-modda. Murojaat qilish huquqi

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat organlariga, tashkilotlarga va ularning mansabdor shaxslariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari murojaatlarni ko'rib chiqayotganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlari talablariga rioya etishi, ushbu murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi uchun choralar ko'rishi, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishini hamda ularning qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rishi shart.

Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari nogironligi bo'lgan shaxslarning murojaatlar (arizalar, shikoyatlar, takliflar) bilan kirishi uchun quyidagilar vositasida zarur shart-sharoitlar yaratishi shart:

shaxslararo muloqot vositasi sifatida imo-ishora tilini e'tirof etish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek uni rivojlantirish hamda jamiyat va davlat hayot faoliyatining turli sohalarida qo'llash choralarini ko'rish; nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda surdotarjima xizmatlarini ko'rsatish;

nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan o'z murojaatini imzolash uchun faksimil imzodan foydalanish.

Eshitishi va nutqi bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga: tergov harakatlarini amalga oshirishda yoki jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha sud prostesslarida ishtirok etish chog'ida; hujjatlarni yoki bitimlarni notarial tartibda rasmiylashtirishda; avtomobilni boshqarish ko'nikmalariga yoki kompyuter savodxonligiga o'qish chog'ida;

davlat xizmatlari ko'rsatish chog'ida surdotarjimon xizmatlari ko'rsatiladi.

Eshitishi va nutqi bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga surdotarjimon xizmatlari qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham ko'rsatilishi mumkin.

Davlat har yili surdotarjimonlar, surdopedagoglar, defektologlar va logopedlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

29-modda. Nogironligi bo'lgan shaxsning faksimil imzosi

Nogironligi bo'lgan shaxsning faksimil imzosi — sog'lig'ining holatiga ko'ra (ko'rishning buzilishi, qo'l-oyoqlar yo'qligi, harakatlarni muvofiqlashtirishning buzilishi, falajlik) o'z qo'li bilan imzo qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmagan nogironligi bo'lgan shaxsning o'z qo'li bilan qo'ygan imzosi o'rnini bosadigan, maxsus tayyorlangan shtamp (klishe).

Nogironligi bo'lgan shaxsning faksimil imzosi nogironligi bo'lgan shaxs tomonidan faqat, agar u o'zining jismoniy nuqsonlari sababli zarur hujjatlarni imzolash chog'ida o'z qo'li bilan imzo qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmasa, qo'llanilishi mumkin.

Faksimil imzo nogironligi bo'lgan shaxs uchun tayyorlanadi va uning tomonidan butun hayoti davomida foydalaniladi. Faksimil imzo yo'qolgan taqdirda uning dublikati tayyorlanadi.

Hech kim faksimil imzodan foydalanishi munosabati bilan o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda cheklanishi mumkin emas.

30-modda. Jamiyatning ongida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va qadr-qimmatiga hurmatni shakllantirish hamda mustahkamlash

Davlat organlari jamiyatning ongida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va qadr-qimmatiga hurmatni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida:

nogironligi bo'lgan shaxslarning faol ijtimoiy roli ijobiy qabul qilinishiga ommaviy axborot vositalari va matbuot vositasida ko'maklashishni;

nogironligi bo'lgan shaxslarning salohiyatini hamda jamiyat va davlat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini targ'ib qilishni;

nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy integrastiyasiga imkon beruvchi timsolini ijobiy va bag'rikenglik asosida gavdalantirish yo'nalishidagi ommaviy axborot vositalarini rag'batlantirishni;

nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qotib qolgan qarashlarga va xurofotlarni yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish;

ta'limning barcha bosqichlarida, shu jumladan bolalarda go'daklik yoshidan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashni;

nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini va qobiliyatini hamda ularning ish joyidagi va mehnat bozorida jamoa yutuqlariga qo'shayotgan hissasi e'tirof etilishiga ko'maklashishni;

nogironligi bo'lgan shaxslarga va ularning huquqlariga bag'ishlangan tarbiyaviy-tanishtiruv dasturlarini ishlab chiqish hamda joriy etishni ta'minlaydi.

Davlat har yili quyidagi davlat buyurtmalarini joylashtiradi:

jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qotib qolgan qarashlarni va xurofotlarni bartaraf etishga, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning ijobiy timsolini shakllantirishga qaratilgan badiiy, hujjatli filmlar, spektakllar tayyorlanishiga doir;

nogironligi bo'lgan shaxslarning salohiyatini hamda jamiyat va davlat hayotiga qo'shadigan hissasini targ'ib qilishga, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning ijobiy timsolini yaratishga qaratilgan ijtimoiy reklama axborotini hamda maqolalarni tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida yoritishga doir.

Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ijobiy tasavvurga qaratilgan ijtimoiy reklama telekanallarda, matbuotda va boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

Huquq va gumanitar yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bo'yicha kurslar o'tkaziladi va o'quv fanlari o'rgatiladi.

4-bob. Fuqaroni nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etish, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish

31-modda. Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza

Fuqaroni nogironligi bo'lgan shaxs deb topish — tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan, o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarni nogironligi bo'lgan shaxs deb topish esa — pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxs tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga davlat tibbiyot muassasasi tomonidan yuboriladi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tibbiyot tashkilotlari nogironligi belgilari aniq ko'rinib turgan shaxslarni klinik-funktsional ma'lumotlarni olishga doir qo'shimcha tekshiruvlarni o'tkazmasdan turib, tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborishga haqli.

Agar shaxs sog'lig'ining holatiga ko'ra tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga borish imkoniga ega bo'lmasa va bu tibbiyot muassasasining xulosasi bilan tasdiqlansa, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza uyda yoki shaxs davolanishda bo'lgan stasionarda o'tkazilishi mumkin. Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining majlislarida mahalliy mehnat organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, kasaba uyushmalarining, sug'urta tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning vakillari, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari vakillari ishtirok etishi mumkin.

Tekshiruvdan o'tkazish tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kalendar kundan kechiktirmay tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. Tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tish uchun yuborilgan shaxs tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan tekshiruvdan o'tkazish kuni to'g'risida tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida xabardor qilinadi. Nogironlik aniqlangan taqdirda, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan hujjatlar qabul qilingan sanadan boshlab fuqaro nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etiladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza natijalari bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan fuqaroga — nogironlik guruhi, uning belgilanish sababi va muddatlari, o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga esa qayta tekshiruvdan o'tish muddati bilan — «Nogironligi bo'lgan bolalar» toifasi belgilanadi.

Qayta tekshiruvdan o'tkazish muddati ko'rsatilmaydigan nogironlik inson a'zolari funkstiyalarining hamda organizmi tizimlarining barqaror, asliga qaytarib bo'lmas tarzdagi morfologik o'zgarishlari va buzilishlari mavjud bo'lgan, amalga oshirilgan reabilitastiya tadbirlarining samarasizligi oqibatida kasallikning kechishi va sog'liqning tiklanishini, ijtimoiy moslashuvni yaxshilash mumkin bo'lmagan taqdirda, belgilangan tartibda tasdiqlangan kasalliklar va anatomik nuqsonlar ro'yxatiga muvofiq belgilanadi.

Ko'rsatilgan muddatlardan oldin qayta tekshiruvdan o'tkazish sog'liqning holati va hayot faoliyatining cheklanganlik darajasi o'zgarganda yoki tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari asoslanmagan qaror qabul qilganligi faktlari aniqlanganda yoxud yuqori turuvchi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan nazorat vazifasi bajarilganda amalga oshiriladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari zarur uskunalar bilan jihozlangan davlat tibbiyot muassasalariga bepul tekshiruvlar o'tkazish uchun biriktirib qo'yiladi.

Davlat boshqaruvi organlari va boshqa davlat tashkilotlari nogironlikning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar hamda shart-sharoitlarni o'rganish maqsadida nogironlikka olib keluvchi kasalliklar yuzaga kelishining ishlab chiqarish, ijtimoiy, ekologik va boshqa sabablarini tahlil qilishni o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari nogironligi bo'lgan shaxslarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish, nogironlikni hisobga olish va nogironlik tuzilmasini tahlil qilish maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslarning (bolalarning) shaxsiy yig'majildlarini yuritadi.

Nogironlikni belgilash mezonlari va mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

32-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitasiya va abilitasiya qilish

Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitasiya qilishning maqsadi ularga to'laqonli hayot tarzini yuritish hamda o'z huquqlari va potentsial imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradigan ijtimoiy maqomini, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga va kasbiy faoliyatning har xil turlariga oid qobiliyatini tiklashdan iboratdir.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat muassasalarida tibbiy, ijtimoiy, kasbiy hamda jismoniy reabilitasiya va abilitasiya qilinishini kafolatlaydi.

Tibbiy reabilitasiya qilish nogironligi bo'lgan shaxslar a'zolarining hamda organizmi tizimlarining buzilgan va (yoki) yo'qolgan funkstiyalarini saqlab qolishga, qisman yoki to'liq tiklashga qaratilgan tibbiy xizmatlar majmuidir.

Ijtimoiy reabilitasiya qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot faoliyati cheklanganligini engib o'tishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ijtimoiy maqomini, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish, mustaqil yashash imkoniyatlarini tiklashga, shuningdek ularni jamiyatda oilaviy hayotning odatiy sharoitlariga qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Kasbiy reabilitasiya qilish nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirishga, kasbga o'qitishga va ishga joylashtirishga, shuningdek ularning boy berilgan kasbiy bilimlari, mahorati va ko'nikmalarini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Nogironligi bo'lgan shaxslar organizmining buzilgan yoki vaqtincha yo'qolgan funkstiyalarini hamda ularning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga

bo'lgan qobiliyatini jismoniy tarbiya va sport vositalari hamda usullaridan foydalangan holda tiklash (tuzatish va kompensastiya qilish) jismoniy rehabilitastiya qilishdir.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitastiya va abilitastiya qilish nogironligi bo'lgan shaxsni rehabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq tashkil etiladi.

Abilitastiya qilish jamiyat hayotiga moslashtirish uchun organizmning yo'q bo'lgan (tug'ma) va (yoki) rivojlanmagan funkstiyalarini shakllantirishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik jihatdan tuzatish va boshqa tuzatish chora-tadbirlari majmuidir.

Abilitastiya qilish bo'yicha xizmatlar xavf guruhidagi bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatdan tuzatish xizmatlarini, shuningdek boshqa tuzatish xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Xavf guruhidagi bolalar jumlasiga erta aralashuv hamda zarur tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik jihatdan tuzatishga yoki boshqa tuzatishga oid ko'mak ko'rsatilmaganda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida yuqori darajadagi ortda qolish ehtimoli mavjud uch yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi.

Abilitastiya qilish bo'yicha xizmatlar, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tibbiy-ijtimoiy tashkilotlar, shuningdek tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga doir ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni (bolalarni) abilitastiya qilish ularning ehtiyojlariga imkon qadar moslashtirilgan hajmda, malakali xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

33-modda. Nogironligi bo'lgan shaxsni rehabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturi

Nogironligi bo'lgan shaxsni rehabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza asosida ishlab chiqilgan, nogironligi bo'lgan shaxs uchun maqbul rehabilitastiya choralari majmui bo'lib, ushbu choralar organizmning buzilgan yoki yo'qolgan funkstiyalarini, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxs mehnat faoliyatining ayrim turlarini bajarish qobiliyatini tiklashga, kompensastiya qilishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, kasbiy va jismoniy rehabilitastiya choralarini amalga oshirishning ayrim turlari, shakllari, hajmlari, muddatlari hamda tartibini o'z ichiga oladi.

Nogironligi bo'lgan shaxs uchun tibbiy-ijtimoiy ekspertiza o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida nogironligi bo'lgan shaxsni rehabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturi ishlab chiqiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturi davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilishi shart.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturi tibbiy, ijtimoiy, ta'limga oid va kasbiy sohalardagi mutaxassislar tomonidan o'tkaziladigan ko'p sohalar bo'yicha baholash asosida ishlab chiqiladi.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek boshqa tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturlarida nazarda to'tiladigan chora-tadbirlarning so'zsiz, o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturini tuzishda tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi shifokorlari nogironligi bo'lgan shaxsni ushbu Qonunda berilayotgan huquqlari to'g'risida xabardor qilishi shart.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturini bajarish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturida ko'rsatilgan tadbirlarni o'tkazish chog'ida nogironligi bo'lgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

reabilitasiyani o'tkazishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan o'ziga nisbatan teng, hurmat bilan munosabatda bo'linishi;
o'z huquqlari va imkoniyatlari, shuningdek reabilitasiyadan o'tish xususiyati, sifati, shart-sharoitlari haqida to'liq hamda ishonchli axborot olish;

nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari vakillarini reabilitasiya o'tkazishning har qanday bosqichida jalb etish.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturi nogironligi bo'lgan shaxs uchun tavsiya xususiyatiga ega. Ushbu shaxs reabilitasiya chora-tadbirlarining u yoki bu turidan, shakli va hajmidan, shuningdek dasturni amalga oshirishdan butunlay voz kechishga haqli. Nogironligi bo'lgan shaxs o'zining reabilitasiya qilishning muayyan texnik vositasi yoki boshqa vositasi yoxud turi, shu jumladan avtomobillar, o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya

moslamalari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, signalizatorlar, subtitrli yoki surdotarjimali videomateriallar va boshqa shu kabi vositalar bilan ta'minlanishi to'g'risidagi masalani mustaqil ravishda hal qilishga haqlidir.

Reabilitastiya qilishning texnik vositalari va xizmatlari nogironligi bo'lgan shaxslarga, qoida tariqasida, natura shaklida taqdim etiladi.

Agar nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturida nazarda tutilgan reabilitastiya qilishning texnik vositasini yoxud xizmatni unga taqdim etishning imkoni bo'lmasa yoki nogironligi bo'lgan shaxs o'z hisobidan tegishli vositani olgan yoxud xizmat uchun haq to'lagan bo'lsa, unga nogironligi bo'lgan shaxsga taqdim etilishi kerak bo'lgan reabilitastiya qilishning texnik vositasining yoki xizmatning qiymati miqdorida kompensastiya to'lanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxs nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturidan butunlay voz kechgan yoki dasturning ayrim qismlari amalga oshirilishidan voz kechgan taqdirda davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek boshqa tashkilotlar, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, dasturning bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitastiya qilishning yakka tartibdagi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

34-modda. Protez-ortopediya moslamalari va reabilitastiya qilishning texnik vositalari

Davlat zamonaviy protez-ortopediya moslamalarini va reabilitastiya qilishning texnik vositalarini yaratish hamda ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida reabilitastiya qilish industriyasini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Protez-ortopediya moslamalarining va reabilitastiya qilish texnik vositalarining davlat reestri (ro'yxati), bunday vositalar bilan ta'minlash tartibi, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitastiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash uchun tibbiy ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar ro'yxati belgilangan tartibda aniqlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitastiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash bo'yicha harajatlarga doir majburiyatlarni moliyalashtirish, shu jumladan ularni tayyorlash va ta'mirlash O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning protez-ortopediya moslamalari va ularni reabilitatsiya qilishning texnik vositalari uchun ushbu moddada nazarda tutilgan harajatlarni moliyalashtirishga doir qo'shimcha mablag'lar qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan ham olinishi mumkin.

Hisobot davri yakunlari bo'yicha qaysi tadbirkorlik subyektining tushumi umumiy hajmining kamida o'ttiz foizi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun protez-ortopediya moslamalarini va anjomlarini ishlab chiqarishdan, shuningdek ularga ortopedik protezlash xizmatlari ko'rsatishdan, protez-ortopediya moslamalarini va anjomlarini ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatishdan kelib tushgan bo'lsa, o'sha tadbirkorlik subyektini quyidagi huquqlarga ega:

o'zi kiritgan takliflar tanlov savdolari boshqa ishtirokchilarining takliflari bilan teng bo'lgan taqdirda haridor tomonidan investitsiya majburiyatlarini va ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish sharti bilan davlat mulki obyektlarini «nol» harid qiymati bo'yicha realizatsiya qilish yuzasidan o'tkazilgan tanlov savdolari natijalariga ko'ra kontrakt tuzishga doir ustunlik;

davlat mulki obyekti uchun mazkur obyektning ijara haqi stavkasi eng kam miqdorining ellik foizi miqdorida ijara haqi to'lash.

5-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish

35-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'liqni saqlash xizmatlaridan, sifatli va nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi tibbiy yordamdan boshqa fuqarolar bilan teng ravishda foydalanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur choralar ko'radi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga, fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning davlat kafolatlari dasturi doirasida amalga oshiriladigan malakali tibbiy yordam ko'rsatilishi bo'yicha choralar ko'radi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy parvarish qilish barcha darajalardagi mavjud tibbiy xizmatlar doirasida, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Zo'rayib boruvchi shakldagi yoki yakuniy bosqichdagi bedavo kasalliklarga chalingan shaxslar bemorlarning jismoniy, ruhiy, hissiy va ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishni nazarda tutuvchi palliativ tibbiy parvarishlash xizmatlari ko'rsatilishi huquqiga ega bo'ladi.

36-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatiladi:

pul to'lovlari (pensiylar, nafaqalar, bir yo'la beriladigan to'lovlar);
reabilitasiya qilishning texnik vositalari, surdotexnika, tiflotexnika vositalari yoki boshqa vositalar, shu jumladan o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya moslamalari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytiruvchi apparatlar va signalizatorlar, subtitrli yoki surdotarjimali videomateriallar, shuningdek avtomobillar bilan ta'minlash;
tibbiy, ijtimoiy, kasbiy, jismoniy reabilitasiya qilish bo'yicha xizmatlar va maishiy xizmatlar;
transport xizmatlari;
dori vositalari bilan ta'minlash.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi organlari, boshqa davlat organlari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining xulosalari asosida ko'rsatiladi.

Nogironligi bo'lgan, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotgan va o'zgalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga ularning uyida hamda vakolatli davlat organlarining ixtisoslashtirilgan stasionar muassasalarida qonunchilikda belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatiladi. Bu muassasalarda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan bir qatorda hayot faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar ta'minlanadi, tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi, shuningdek mehnat faoliyati va dam olish tashkil etiladi.

Ish beruvchining aybi bilan mehnatda mayib bo'lgan yoki kasb kasalligiga chalingan nogironligi bo'lgan shaxslar tibbiy ko'rsatmalarga binoan ish beruvchining (tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar) mablag'lari hisobidan reabilitasiya qilishning texnik va maxsus transport vositalari bilan ta'minlanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironligi bo'lgan shaxslarga mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan qo'shimcha ijtimoiy kafolatlar belgilash huquqiga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxslar sanatoriy-kurortda bepul sog'lomlashtirish, shuningdek dori vositalari, nogironligi bo'lgan shaxslarni parvarish qilish uchun mo'ljallangan tibbiy buyumlar va nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish huquqiga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning sanatoriy-kurortda sog'lomlashtirilishini ta'minlash tartibi hamda dori vositalarining, nogironligi bo'lgan shaxslarni parvarish qilish uchun mo'ljallangan tibbiy buyumlarning va nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

37-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish sog'liqni saqlash organlari, bandlik va mehnat munosabatlari organlari, xayriya tashkilotlari va boshqa tashkilotlar tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari ishtirokida amalga oshiriladi hamda quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish masalalari yuzasidan maslahat berish;

tegishli organlar va tashkilotlarga yuborish;

sog'lig'ining holatiga ko'ra o'ziga nisbatan homiylik belgilanishiga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'maklashish va homiylarning o'z majburiyatlarini bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

protez-ortopediya moslamalarini va reabilitastiya qilishning texnik vositalarini olishda ko'maklashish;

o'zgalarning parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarni dori vositalari bilan bepul yoki imtiyozli ta'minlash;

o'zgalarning parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarning asosiy oziq-ovqat mahsulotlari hamda gigiena vositalari bilan bepul ta'minlanishiga, shu jumladan ovqat tayyorlashiga va uy-joyni yig'ishtirishiga, gigienani amalga oshirishiga ko'maklashish.

Agar xodim ish beruvchining aybi bilan nogiron va o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lib qolgan bo'lsa, nogironligi bo'lgan shaxs mehnat qobiliyatini yo'qotgan vaqtda uni parvarish qiluvchi shaxsni ish beruvchi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining yoki pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining xulosasiga binoan o'z hisobidan ta'minlashi hamda jabrlangan xodimga yetkazilgan moddiy zararning o'rmini qoplashi va ma'naviy ziyonni kompensastiya qilishi shart.

6-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, ushbu shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

38-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi

Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajalardagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish va o'z qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'limini rivojlantirishni, ularning ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o'tishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi.

Ta'lim tashkilotlari davlat organlari bilan birgalikda nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha, maktabdan tashqari va umumiy o'rta ta'lim olishini, shuningdek o'rta maxsus, professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limi olishini ta'minlaydi.

Agar nogironligi bo'lgan bolalarni ta'lim muassasalarida o'qitishning vaqtincha imkoni bo'lmasa, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalari nogironligi bo'lgan bolalarning sohaga oid shifokorlar tavsiyalari asosida hamda ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan uyda o'qitilishini ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni uyda o'qitish O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat nogironligi bo'lgan bolalarning bepul umumiy o'rta, maktabdan tashqari, o'rta maxsus va professional ta'lim olishini kafolatlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni to'lovdan ozod qilgan holda yoki imtiyozli shartlar asosida maxsus o'quv qo'llanmalari va adabiyotlar, shuningdek surdotarjimonlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari nogironligi bo'lgan shaxslarni (bolalarni) o'qitganlik uchun to'lov bo'yicha imtiyozlar belgilashga haqli.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim berish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish turli shakllarda, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda, eksternat shaklida, shuningdek masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, umumiy tipdagi ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, uyda, maxsus guruhlarda, sinflarda va yakka tartibdagi o'quv rejalari bo'yicha o'qitish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish, mehnatga ishtiyoq uyg'otish.

ularni ilm-fanga, texnikaga, san'atga va sportga jalb etish maqsadida ta'lim muassasalari nogironligi bo'lgan bolalarning maktabdan tashqari ta'limdan foydalanishini, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan holda, davlat organlari bilan birgalikda ta'minlashi shart.

Imo-ishora tili O'zbekiston Respublikasi tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning shaxslararo muomala vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo'lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og'zaki muomala ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek o'qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta'lim masalalarida o'qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo'lgan o'qituvchilarni ta'lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ta'lim tizimini takomillashtirish choralari ko'radi.

39-modda. Nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'limi

Nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'limi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan zarur rehabilitatsiya va abilitatsiya qilish choralari amalga oshiriladi hamda ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Sog'lig'ining holati maktabgacha ta'lim muassasalarida bo'lishni vaqtincha istisno etadigan nogironligi bo'lgan bolalar uchun ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etiladi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or uslubiyotlarni o'z ichiga oladigan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini amalga oshirish ta'minlanadi.

40-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limi

Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limi, professional ta'limi ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida, zaruriyat bo'lganda esa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta'limi bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlarida, «Barkamol avlod» bolalar maktabida, bolalar-o'smirlar sport maktablarida, bolalar

musiqa va san'at maktablarida, studiyalarda, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalarida amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy ta'limi oliy ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy ta'limdan keyingi ta'limi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olinishi mumkin.

Stasionar davolash-profilaktika yoki reabilitasiya muassasalarida davolash kursini o'tayotgan nogironligi bo'lgan bolalar uchun mazkur muassasalarda o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Professional ta'lim olish uchun maxsus shart-sharoitlarga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turli tipdagi va xildagi ixtisoslashtirilgan professional ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Ularda o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha kvota asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish kirish imtihonlari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ajratilgan qo'shimcha kvotalar bo'yicha o'qishga qabul qilinmagan abituriyentlar to'plagan ballari bilan ta'limning ushbu yo'nalishi bo'yicha tanlovda umumiy asoslarda ishtirok etadi.

41-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida, shu jumladan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari korxonalarida nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitasiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq ta'minlanadi.

Davlat kasbga tayyorlash (shu jumladan kasbga tashxis qo'yish va yo'naltirish, shakllantirish va reabilitasiya qilish), tarbiyalash, o'qitish va takomillashtirish davrida didaktik hamda yo'riqnomaviy material, shu jumladan ko'zi ojizlar uchun materiallar (Brayl alifbosi), ko'rish qobiliyati zaif bo'lganlar uchun ovozli variantdagi harflar, ovozli adabiyot, shu jumladan guruhlarda o'qitish uchun yordamchi ovoz

tizimlari, eshitish qobiliyati zaif bo'lganlar uchun mimika va imo-ishora tiliga tarjima bilan ta'minlanishini kafolatlaydi.

Sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan engil avtomobillarni boshqarish uchun yaroqli deb e'tirof etilgan nogironligi bo'lgan shaxslarni haydovchilikka tayyorlash maxsus o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Kar va kar-soqov shaxslarni haydovchilikka tayyorlash umumiy o'quv dasturi asosida surdotarjima bilan amalga oshiriladi.

7-bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilishi va bandligi

42-modda. Mehnat qilishga bo'lgan huquqning amalga oshirilishini ta'minlash

Nogironligi bo'lgan shaxs odatdagi mehnat sharoitlariga ega tashkilotlarda, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatidan foydalanuvchi ixtisoslashtirilgan korxonalarda, stexlarda va uchastkalarda ishlashga, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan yakka tartibdagi mehnat faoliyatini yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishga haqli.

Mehnat munosabatlarining barcha shakllariga nisbatan, shu jumladan ishga qabul qilish shartlariga, ishga yollashga, mehnat faoliyatini amalga oshirishga, ishni saqlab qolishga, xizmatda (ishda) lavozim bo'yicha ko'tarilishga, shuningdek xavfsiz mehnat sharoitlari ta'minlanishiga nisbatan nogironlik belgisiga ko'ra kamsitish taqiqlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxsning mehnat to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi va ta'tillarda bo'lishi davrida ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, bundan tashkilot to'liq tugatilgan hollar mustasno.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni tungi vaqtda ishga, shuningdek ishdan tashqari vaqtdagi ishlarga va dam olish kunlari ishga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

I va II guruh nogironligi bo'lgan ishlovchi shaxslarga nisbatan mehnatga haq to'lash miqdori kamaytirilmagan holda qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi belgilanadi va mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi.

43-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash, shuningdek mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida;

nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbiy reabilitatsiya qilishni amalga oshiradi, ularni mehnatda kuzatib boradi, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning mos keladigan ishga kirishini, saqlab qolinishini va xizmatda (ishda) lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlaydi; tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tashkilotlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilaydi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun mos keladigan kasblar bo'yicha ish o'rinlarini zaxira qilinishini ta'minlaydi;

tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tashkilotlarni nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishga rag'batlantiradi, shuningdek ixtisoslashtirilgan ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlaydi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi;

ixtisoslashtirilgan korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni yangi kasblarga o'qitish o'quv dasturlari tashkil etilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat sektoriga ishga joylashtirilishini va bandligi rag'batlantirilishi hamda rivojlantirilishini ta'minlaydi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatidan, shu jumladan ularning kasanachiligidan foydalanuvchi tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish mahalliy mehnat organlari tomonidan ta'minlanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xodimlarining soni yigirma nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarda xodimlar umumiy sonining kamida uch foizi miqdorida nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam soni belgilanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatidan foydalanish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini hamda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan korxonalar va ish o'rinlari tashkil etiladi. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar shart-sharoitlari o'z imkoniyatlariga muvofiq bo'lgan ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun ustuvor huquqqa ega bo'ladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

44-modda. Nizolarni hal etish

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

45-modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

46-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi 422-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, № 2, 78-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida»gi 423-XII-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, № 2, 79-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 621-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, № 5-6, 102-modda) 2-bandi;

4) O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 12 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 220-II-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 yil, № 5, 89-modda) I bo'limi;

5) O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 27 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 671-II-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 yil, № 9, 171-modda) I bo'limi;

6) O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi 714-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005 yil, № 1, 18-modda) I bo'limining 7-bandi;

7) O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 23 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar

kiritish to'g'risida»gi O'RQ-2-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005 yil, № 5, 152-modda) 1-moddasi;

8) O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-162-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008 yil, № 7, 353-modda);

9) O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 9 sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-254-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010 yil, № 9, 334-modda) 1-moddasi;

10) O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-352-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, № 4, 98-modda) 1-moddasi;

11) O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 7 oktyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'RQ-355-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, № 10, 263-modda) 1-moddasi;

12) O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 26 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-416-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016 yil, № 12, 383-modda) 2-moddasi;

13) O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 13 iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'RQ-436-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017 yil, № 6, 300-modda) 2-moddasi;

14) O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvarda qabul qilingan «Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek

fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-456-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018 yil, № 1, 1-modda) 1-moddasi.

47-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

48-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

49-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI (HUJJATLARI)	11
1.1. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolar salomatligini muxofaza qilishga oid qonunlari:.....	11
1.2.«Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi qonun.....	12
1.3.Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida.....	14
1.4.Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida.....	15
1.5.Dori vositalari va farmastevtika faoliyati to‘g‘risida.....	17
1.6. Psixiatriya yordami to‘g‘risida.....	19
1.7.Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to‘g‘risida.....	22
1.8.Aholini sil kasalligidan muxofaza qilish to‘g‘risida.....	24
1.9.Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida.....	27
1.10.O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida.....	28
1.11.Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun.....	28
1.12.Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida.....	31
1.13.Sud ekspertizasi tugrisidagi qonun.....	34
1.14.Aholi o‘rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi tugrisidagi qonun.....	35
1.15.Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste‘mol qilinishini cheklash to‘g‘risidagi qonun.....	38
1.16.Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infektsiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun.....	41
1.17. Oziq ovqat mahsulotlarini sifati va xavsizligi tug‘risidagi qonun.....	42
1.18.Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risidagi qonun.....	45
1.19.Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun.....	47
1.20. Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risidagi qonun.....	49
II BOB. SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI ISLOX QILISHGA QARATILGA PREZIDENT FARMON VA QARORLARI	51
2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabr-dagi PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmonida.....	57

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish	62
2.2.1. Sog'liqni saqlash sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish	64
2.2.2. Sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish	65
2.2.3. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish	66
2.2.4. Tibbiy yordam sifati va qulayligini oshirish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish.....	67
2.2.5. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.	69
2.2.6. Xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish	70
2.2.7. Farmastevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish.....	71
2.2.8. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, tibbiyot ilm-fanini rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirish	72
2.2.9. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va "elektron sog'liqni saqlash"ni keng joriy etish	74
2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.10.2020 yildagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4847-sonli.....	76
2.4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan majburiyatlarning ayrim turlari.....	76
2.5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI BILAN HAM AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASI	78
2.6. AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK	79
2.7. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI BILAN HAM AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASI	81
2.8. III bob. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar.....	82
2.9. O'zbekiston Respublikasining Mexnat kodeksi bilan ham aholi sog'lig'ini saqlash sohasi.....	91
III BOB. XODIMGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN ISH BERUVCHINING MODDIY JAVOBGARLIGI.....	95
IV BOB. Ilova: QONUNLAR FUQAROLAR SOG'LIG'INI SAQLASH TO'G'RISIDAGI QONUN.	98
V BOB. DAVLAT SANITARIYA NAZORATI TO'G'RISIDA	118

VI BOB. «NARKOLOGIK KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI VA ULARNI DAVOLASH TO'G'RISIDA»GI 27.10.2020 YILDAGI O'RQ-644-SON QONUN E'LON QILINDI.....	134
VII BOB. GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR TO'G'RISIDA.....	159
VIII BOB. DORI VOSITALARI VA FARMASTEVTIKA FAOLIYATI TO'G'RISIDA(YANGI TAHRIRI).....	174
IX BOB. PSIXIATRIYA YORDAMI TO'G'RISIDA.....	191
X BOB. FAOLIYATNING AYRIM TURLARINI LITSENZIYALASH TO'G'RISIDA.....	215
XI BOB. AHOLINI SIL KASALLIGIDAN MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDA.....	230
XII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI.....	237
QON VA UNING TARKIBIY QISMLARI DONORLIGI TO'G'RISIDA ..	237
XIII. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIBBIYOT XODIMLARI KUNINI BELGILASH TO'G'RISIDA	245
XIV BOB. BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO'G'RISIDA...	251
XV BOB. SUD EKSPERTIZASI TO'G'RISIDA.....	266
XVI BOB. AHOLI O'RTASIDA MIKRONUTRIENT YETISHMASLIGI PROFILAKTIKASI TO'G'RISIDA.....	281
XVII BOB. ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINING TARQATILISHI HAMDA ISTE'MOL QILINISHINI CHEKLASH TO'G'RISIDA.....	287
XVIII BOB. ODAMNING IMMUNITET TANQISLIGI VIRUSI KELTIRIB CHIQRADIGAN KASALLIK (OIV INFEKTSIYASI) TARQALISHIGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDA.....	297
XIX BOB. OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING SIFATI VA XAVFSIZLIGI TO'G'RISIDA.....	309
XX BOB. FUQAROLARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI SAQLASH TO'G'RISIDA.....	318
XXI BOB. ONA SUTI BILAN OZIQLANTIRISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH HAMDA GO'DAKLAR VA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIGA DOIR TALABLAR TO'G'RISIDA.....	327

KAMILOVA DILFUZA NUSRATULLAEVNA

Тиббиёт фанлари номзоди, доцент, юрисконсулт

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING ME'YORIY -
HUQUQIY ASOSLARI**

Muharrir N.Pulatova

Tex. muharrir M.Talipova

Sahifalovchi N.Raimova

Bosishga ruxsat etildi 15.06.2022.

Qog'oz bichimi 60x84¹/₁₆. TIMES garniturası

Shartli bosma tabog'i 24,0. Nashr tabog'i 23,2

Adadi 100. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti

Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

ISBN 978-9943-8873-9-8

